

MARKAZIY OSIYO

TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI**

**MARKAZIY OSIYO TARIXSHUNOSLIGI VA
MANBASHUNOSLIGINING DOLZARB
MASALALARI**

mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi



M A T E R I A L L A R I

Toshkent – 2026

UO‘K: 930.1(575)(063)+930.2(575)(063)

KBK 63.1(54) 431+63.2(54) 431

M 31

Tashkiliy qo‘mita

Y.Ahmadaliyev, R.Akbarov

Mas’ul muharrir

O.Mahmudov

Nashrga tayyorlovchi

S.Xakimova

Tahrir hay’ati

R.Akbarov, S.Xakimova, M.Rasulov, M.Shamsiyeva, S.Yuldashev,
M.Mahmudova, R.Qodirova, O.Nizomiddinov, O.Raxmanova

Mazkur to‘plam Farg‘ona davlat universiteti rektorining 2026-yil 9-apreldagi 272-son buyrug‘iga asosan 2026-yil 15-mayda Farg‘ona davlat universitetida taniqli tarixshunos va manbashunos olim Rahmatjon Arslonzodaning xotirasiga bag‘ishlab tashkil etilgan “Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi doirasida chop etilgan.

To‘plamda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishning nazariy-metodologik muammolari, tarixshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlar, yozma va arxiv manbalarining ilmiy tahlili hamda tarixiy tadqiqotlarda manbashunoslikning o‘rni bilan bog‘liq masalalarga bag‘ishlangan maqolalar jamlangan. To‘plam tarixchi olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda tarix faniga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda masalalarning xolisona yoritilishi, keltirilgan dalillar hamda ilmiy muomalaga kiritilgan manbalarning ishonchliligi uchun mas’uliyat mualliflar zimmasidadir. Maqolalarda ilgari surilgan fikr-mulohazalar konferensiya tahrir hay’atining nuqtayi nafari bilan mos kelmasligi mumkin.

To‘plam Farg‘ona davlat universiteti kengashining 2026-yil 4-iyundagi 10-son yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

M31 “Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. / Ilmiy nashr. – Toshkent: “Ilm ziyosi” nashriyoti, 2026. – 202 b.

ISBN 978-9910-630-83-5

© Farg‘ona davlat universiteti

© Jahon tarixi kafedrası

SO‘Z BOSHI

Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligining dolzarb masalalarini o‘rganish milliy tarixni birlamchi manbalar asosida xolis va chuqur tadqiq etish, tarixiy xotira hamda ilmiy tafakkurni yangilash, yosh tadqiqotchilarda manba bilan ishlash madaniyatini shakllantirish jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon ilm-fani nuqtayi nazaridan esa mazkur yo‘nalish Markaziy Osiyoni faqat mintaqaviy tarix doirasida emas, balki qadimgi va o‘rta asrlarda Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ilmiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni bog‘lab turgan muhim tarixiy makon sifatida qayta talqin etish imkonini beradi. Shu bois ushbu mavzuni tadqiq etish O‘zbekiston tarixshunosligini xalqaro ilmiy darajaga yaqinlashtirish, mahalliy manbashunoslik maktabining nazariy-metodologik asoslarini mustahkamlash va Markaziy Osiyo tarixining jahon tarixidagi o‘rnini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi jihatlarni inobatga olib, Farg‘ona davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası tashabbusi bilan tashkil etilgan “Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasida mintqa tarixini o‘rganishda yuzaga kelayotgan yangi ilmiy ehtiyojlar, manbashunoslik izlanishlari va tarixshunoslik yondashuvlarini muhokama qilish maqsad qilingan.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish bo‘yicha muayyan yutuqlarga erishilayotgan bo‘lsa-da, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham oz emas. Xususan, tadqiqotlarning ayrim davrlar doirasida jamlanib qolishi, tarixshunoslik tahlilida tayyor davriy va hududiy qoliplardan keng foydalanilishi, birlamchi manbalar bilan ishlash ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmagani, akademik tadqiqotlar natijalarining tarix ta‘limiga kechikib kirib borayotgani bugungi ilmiy muhitda jiddiy muammoga aylanib bormoqda.

Shu jihatdan mazkur konferensiya tarixchilar, manbashunoslar, sharqshunoslar, yosh izlanuvchilar va oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun fikr almashish, mavjud ilmiy yondashuvlarni taqqoslash va sohada to‘plangan muammolarning yechimlari yuzasidan takliflar ishlab chiqish maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Anjuman doirasida Markaziy Osiyo tarixining qadimgi, o‘rta asrlar va yangi davrlariga oid manbalar, tarixiy jarayonlarning ilmiy talqini, manbashunoslik maktablari, tarixiy bilimlarning shakllanishi, qo‘lyozma meros va tarjima masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Yangi avlod tarixchilarini tayyorlash, ularni Markaziy Osiyoning nisbatan kam o‘rganilgan qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, manbashunosligi hamda tarixshunosligi doirasidagi dolzarb mavzularga yo‘naltirish maqsadida konferensiya materiallariga yetakchi tarixchi olimlar bilan bir qatorda yosh tadqiqotchilar va

talabalarning ilk ilmiy izlanishlari ham kiritildi. To'g'ri, ularning ayrimlarida mavzuga oid tahlil darajasi hali shakllanish bosqichida bo'lishi mumkin. Biroq bo'lajak tarixchilarda ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otish, ularni manba bilan ishlashga undash va dastlabki tadqiqotchilik tajribasini qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan ularni ham chop etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Konferensiyaga kelib tushgan maqolalar tahlili yuqorida qayd etilgan muammolar bilan bir qatorda, yosh tadqiqotchilar orasida sun'iy intellekt vositalaridan ko'r-ko'rona foydalanish holatlari kuchayib borayotganini ham ko'rsatmoqda. Ayrim ishlarda mavzuga oid ma'lumotlar jamlangan bo'lsa-da, ularda muallifning mustaqil tahlili, ilmiy pozitsiyasi va xulosaviy yondashuvi yetarli darajada sezilmaydi. Natijada tadqiqot matni tashqi jihatdan ilmiy ko'rinsa-da, uning ichki mantiqi, muammoning qo'yish usuli va yakuniy xulosalarida tadqiqotchining shaxsiy ilmiy munosabati zaiflashib qolmoqda.

Aslida, sun'iy intellekt tadqiqotchi uchun foydali yordamchi vosita bo'lishi mumkin. U ma'lumotlarni tartibga solish, matnni texnik jihatdan tahrirlash, ayrim yo'nalishlar bo'yicha dastlabki tasavvur hosil qilishda qo'l keladi. Biroq ilmiy muammoni qo'yish, manbani tanqidiy tahlil qilish, dalillarni baholash va natijaviy xulosalarni ishlab chiqish tadqiqotchining o'z tafakkuri, ilmiy mas'uliyati va kasbiy salohiyati asosida amalga oshirilishi lozim. Aks holda, sun'iy intellekt ilmiy izlanishga xizmat qiluvchi vosita emas, balki tadqiqotchining mustaqil fikrini cheklab qo'yuvchi tayyor qolipga aylanib qoladi.

Mazkur to'plam Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda manbaviy asosni kuchaytirish, tarixshunoslik tahlilini mazmunan chuqurlashtirish, yosh tadqiqotchilarni tayyor qoliplardan ko'ra mustaqil ilmiy izlanishga yo'naltirish hamda akademik tarix fani bilan tarix ta'limi o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga xizmat qiladi, deb ishonamiz.

Mas'ul muharrir

Otabek Mahmudov

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I SHO‘BA



**MARKAZIY OSIYO
MANBASHUNOSLIGI
MASALALARI**



QADIMGI YUNON MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO: GEOGRAFIK TASAVVURLAR, ETNIK TALQINLAR VA MANBASHUNOSLIK MUAMMOLARI

*Hasanova Sarvara To'xliboy qizi
Farg'ona davlat universiteti
tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqola Qadimgi Yunon manbalarida Markaziy Osiyo hududining aks etishini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil etadi. Unda Gerodot, Strabon, Arrian, Ptolemey, Ktesiy kabi antik mualliflar asarlarida uchraydigan Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm hamda sak etnik guruhlar haqidagi ma'lumotlar tizimli ravishda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida mazkur manbalarga xos bo'lgan asosiy muammolar – etnik nomlarning turlicha talqin qilinishi, geografik tasavvurlarning noaniqligi, ma'lumotlarning ikkilamchi manbalarga tayanishi, mualliflarning bevosita kuzatuv imkoniyatiga ega bo'lmaganligi hamda yunon etnosentrizmi ta'sirida yuzaga kelgan buzilishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Gerodot, Strabon, Arrian, Ptolemey, Ktesiy, Baqtriya, So'g'd, Xorazm, massagetlar, saklar, ellinsentrizm, antik manbalar, etnonim.

Аннотация: В данной статье с источниковедческой точки зрения анализируется отражение территории Центральной Азии в древнегреческих источниках. В ней системно рассматриваются сведения о Бактрии, Согдиане, Хорезме и сакских этнических группах, встречающиеся в трудах античных авторов – Геродота, Страбона, Арриана, Птолемея и Ктесия. В ходе исследования анализируются основные проблемы, характерные для данных источников: различная интерпретация этнонимов, неточность географических представлений, опора на вторичные источники, отсутствие у авторов возможности непосредственного наблюдения, а также искажения, возникшие под влиянием греческого этноцентризма.

Ключевые слова: Геродот, Страбон, Арриан, Птолемей, Ктесий, Бактрия, Согд, Хорезм, массагеты, саки, эллиноцентризм, античные источники,

Abstract: This article analyzes the representation of Central Asia in Ancient Greek sources from a source-study perspective. It systematically examines information about Bactria, Sogdiana, Khorezm, and the Saka tribes found in the works of ancient authors such as Herodotus, Strabo, Arrian, Ptolemy, and Ctesias. The study explores major problems inherent in these sources, including varying interpretations of ethnic names, geographical inaccuracies, reliance on secondary sources, the authors' limited direct observation, and distortions caused by Greek ethnocentrism.

Keywords: Herodotus, Strabon, Arrian, Ptolemy, Ctesias, Bactria, Sogdiana, Khorezm, Massagetae, Saka, Hellenocentrism, ancient sources, ethnonym.

Markaziy Osiyo – Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm, Parfiya hamda sak-massagetlar yashagan hududlarni o‘z ichiga olgan ulkan tarixiy mintaqa antik davr mualliflari tomonidan asrlar davomida o‘rganilgan, tasvirlangan, ba‘zan esa noto‘g‘ri talqin qilingan. Ayniqsa, miloddan avvalgi V asrdan I asrgacha bo‘lgan davrda yaratilgan yunon manbalari, ya‘ni Gerodot, Strabon, Ktesiy, Arrian, Ksenofont va Ptolemey asarlari Markaziy Osiyo tarixiga oid hozirgacha etib kelgan eng qadimiy yozma manbalar hisoblanadi [8: 132]. Ushbu manbalar muhim tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega. Chunki ular bugungi kunda yo‘qolib ketgan xalqlar, qadimiy shaharlar, savdo yo‘llari va hududlar haqida qiziqarli, shu bilab birga, bahsli ma‘lumotlar beradi. Shuning uchun bu asarlar murakkab manbashunoslik muammolarini ham o‘z ichiga oladi. Mazkur muammolarni chuqur anglash va tahlil qilish esa bu manbalarga nisbatan ilmiy, tanqidiy, tahliliy yondashuvni talab etadi. Chunki qadimgi davrlarda geografik bilimlar hali to‘liq shakllanmagan, dunyo haqidagi tasavvurlar esa cheklangan edi. Natijada, o‘sha davr mualliflarining hududlar joylashuvi, tabiiy chegaralar va umumiy geografik tuzilish haqidagi qarashlarida turli noaniqliklar, chalkashliklar hamda muammolar uchrab turadi. Jumladan, geografik tasavvurlarning noaniqligi va xatolar.

Antik davr yunon mualliflarining Markaziy Osiyo haqidagi geografik ma‘lumotlari bevosita kuzatuvga emas, balki savdogarlar, sayohatchilar va harbiy yurishlardan kelgan ikkilamchi xabarlariga asoslangan. Shu sababli qadimgi yunon manbalarida daryolar, dengizlar va tog‘ tizimlarining joylashuvi hamda tavsifida jiddiy noaniqlik va xatolar uchraydi. Bu holat, ayniqsa, Gerodot, Strabon va Ptolemey kabi antik mualliflar asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Gerodot “Tarix” asarining I kitobida Araks (yoki Oks – Amudaryo) juda katta va qudratli daryo sifatida tasvirlanadi [2]. Muallifning qayd etishicha, daryoning 40 ta irmog‘i mavjud bo‘lib, ulardan biri tashqi dengizga, ya‘ni Kaspiyga quyiladi, shu bilan birga, u daryoni keng va ko‘p tarmoqli suv manbai sifatida tasvirlaydi. Biroq Gerodotning tasvirlarida Araks va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o‘rtasidagi farq aniq ajratib ko‘rsatilmaydi, ayrim hollarda esa ular Araks bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [7: 132-135]. Bu esa daryolarning geografik joylashuvi va oqim yo‘nalishlari noto‘g‘ri tasvirlanishiga sabab bo‘lgan. Xususan, Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilishi haqidagi tasavvur tarixiy-geografik haqiqatga mos kelmaydi, chunki u aslida Orol dengiziga quyiladi. Shu jihatdan Gerodotning mazkur ma‘lumotlari gidrografik nuqtayi nazardan jiddiy xato hisoblanadi. Bu holat muallifning Sharqiy hududlar, ayniqsa, Markaziy Osiyoning suv tizimi haqida aniq va mukammal tasavvurga ega bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Gerodot Markaziy Osiyo

va Sharqiy hududlar haqidagi ma'lumotlarni bevosita kuzatish asosida emas, balki fors saroyi vakillari, sayyohlar hamda yunon savdogarlari orqali olganligi sababli, uning "Tarix" asaridagi ayrim geografik tavsiflar o'zaro zid, noaniq va nomuvofiq tarzda bayon qilingan.

Keyinchalik Strabon ushbu geografik tasvirlarni davom ettirib, ularni yanada tartibli va tizimli shaklda izohlashga uringan bo'lsa-da, u ham asosan avvalgi mualliflar, xususan, Eratosfen va Patroklning ma'lumotlariga tayangan holda xulosa chiqargan. Uning "Geografiya" asarining XI kitobi 5-bo'limida Araks tog'lardan kelib Kaspiy dengiziga quyilishi va uning atrofida turli xalqlar yashashi haqida ma'lumot beriladi. Biroq Gerodotdan farqli ravishda Yaksartni bu geografik qarashiga kiritmaydi va uni Kaspiy havzasi bilan bog'lamaydi. Shunga qaramay, u ham Kaspiy dengizi haqidagi umumiy geografik tasavvurlarni takrorlaydi [5: 35].

Shu jumladan, geografik koordinatalardagi xatolar ham aynan antik mualliflarning geografik tasavvurlaridagi noaniqlik va etarli darajada ilmiy ma'lumotlarga tayanilmagan qarashlari natijasida yuzaga kelib, bu esa keyingi davr geograflarining, jumladan Klavdiy Ptolemeyning ham hisob-kitoblarida o'z aksini topgan. Muallifning "Geografiya" asari o'z davri uchun ilg'or koordinatalar tizimiga asoslangan bo'lsa-da, manbada Markaziy Osiyo shaharlari ko'p hollarda haqiqiy joylashuvidan 100–400 km farq bilan ko'rsatiladi [9:48]. Manbada Marokanda (Samarqand) va Balx kabi shaharlar koordinata jadvallarida qayd etilgan bo'lsa-da, uzunlik va kenglikni aniqlashdagi texnik cheklovlar hamda manba ma'lumotlarining noaniqligi sababli ko'plab joylashuvlar real geografik holatga mos kelmagan.

Markaziy Osiyo haqida ma'lumot bergan antik davr mualliflaridan yana biri Knidalik Ktesiy bo'lib, u o'zining "Persika" ("Fors tarixi") asarida Baqtriyani "shimoliy tog'lar ortidagi o'lka" sifatida tavsiflaydi. Biroq Ktesiyning tasvirlarida aniq geografik ma'lumotlardan ko'ra afsonaviy va rivoyatga xos unsurlar ko'proq uchraydi. Buning asosiy sababi shundaki, u miloddan avvalgi IV asr boshlarida Ahamoniylar saroyida tabib sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, hududlarni bevosita kuzatmagan va ma'lumotlar asosan saroy muhitida og'zaki tarzda yig'ilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, antik mualliflarning geografik tavsiflari asosan eshitilgan hikoyalar va ikkilamchi manbalarga tayangan holda shakllangan. Bu holat esa qadimgi manbalarda uchraydigan yana bir muhim muammo – etnik nomlarning noaniqligi va yunon etnosentrizm* qarashlari bilan chambarchas bog'liq edi. Xususan, yunon mualliflari Markaziy Osiyo xalqlarini tasvirlashda "sak", "skif", "massaget", "dahe"* kabi atamalarni ko'pincha bir-birining o'rnida qo'llaganlar.

***Izoh: Etnosentrizm** – bu boshqa xalqlar va madaniyatlarni o'z xalqining madaniyati, qadriyatlari va qarashlari asosida baholash, ya'ni "o'z madaniyatini markazga qo'yib" boshqa jamiyatlarni unga nisbatan pastroq, g'ayrioddiy yoki kamroq rivojlangan deb ko'rish tendensiyasidir. <https://www.britannica.com/topic/ethnocentrism>

***Izoh: Dahe** (yoki antik manbalarda "Dahae") – miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalaridan milodiy asrlargacha Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida, ya'ni hozirgi Turkmaniston va G'arbiy Qozog'iston hududlarida yashagan

Natijada turli qabila va xalqlarning haqiqiy etnik mansubligini aniqlash murakkablashib, qadimgi manbalarda chalkash va umumlashtirilgan tasavvurlar yuzaga kelgan. Bu holat, ayniqsa, Gerodotning “Tarix” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki muallif IV kitobining 1–44-boblarida “skiflar” atamasini Qora dengiz bo‘ylaridan Yevrosiyo dashtlarining sharqiy hududlarigacha cho‘zilgan keng ko‘chmanchi qabilalar dunyosiga nisbatan umumiy nom sifatida qo‘llaydi va shu orqali turli etnik guruhlarini yagona “skiflar” nomi ostida umumlashtirib tasvirlaydi [1: 79]. Bu esa antik mualliflar tasavvurida etnik chegaralar aniq ajratilmaganligini ko‘rsatadi. U massagetlarni ham skiflar bilan chambarchas bog‘laydi va “Tarix” asarining I kitobi 201-bobida “ko‘pchilik ularni skif xalqi deb biladi”, deb yozadi, biroq ayni paytda ularni alohida va mustaqil xalq sifatida ham tasvirlaydi. Bu holat Gerodotning turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilmasdan, ularni yagona tizimga solmagan holda asariga kiritganligini ko‘rsatadi va natijada “skif” atamasi aniq etnik nomdan ko‘ra, ko‘proq ko‘chmanchi va otliq cho‘l xalqlariga nisbatan qo‘llangan umumiy madaniy-geografik tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u mazkur asarining I kitobi 215-bobida massagetlarning quyoshga sig‘inishi va quyoshga ot qurbon qilishi haqida yozar ekan, buni “eng tez hayvonni eng tez xudoga bag‘ishlash” bilan izohlaydi, bu esa qisman real urf-odatlariga asoslangan bo‘lishi mumkin, chunki ko‘chmanchi xalqlar orasida ot qurbon qilish an‘anasi arxeologik topilmalar bilan tasdiqlangan. Massagetlar haqidagi yana bir tasvirda ularning dushmani o‘ldirgach, uni so‘yib boshqa go‘shtlar bilan birga iste‘mol qilishi, kasallik yoki qarilikdan vafot etganlarni esa erga ko‘mishi haqida yoziladi. Biroq bu tasvirning tarixiy asosga ega bo‘lish ehtimoli juda past bo‘lib, arxeologik ma‘lumotlar, xususan, Ko‘zaliqirdan topilgan topilmalar murakkab dafn marosimlari va qayta dafn etish an‘analarini ko‘rsatadi, lekin ritual kannibalizm^{*3} mavjudligini tasdiqlamaydi [6:142-145]. Bu esa Gerodot ma‘lumotlarining ko‘proq eshitilgan rivoyatlar va yunon etnografik adabiyotida keng tarqalgan “varvar xalqlar g‘ayritabiiy urf-odatlariga ega” degan stereotip⁴ga asoslanganligini ko‘rsatadi. Xuddi shu stereotip boshqa tasvirlarda ham davom etib, u massagetlarning yashash hududini Araks daryosining sharqiy qismi va Kaspiy dengizining shimoli-sharqiy hududlari bilan bog‘lab, ularning chorvachilik, ko‘chmanchilik va baliq ovlash bilan shug‘ullanishini qayd etadi. Bu ma‘lumotlar

qadimiy skif-massaget qabilalari ittifoqidir. Даҳалар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 3. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 221.

***Izoh: Kannibalizm** — bir insonning yoki hayvonning o‘z turiga mansub boshqa individning tana qismlarini (odatda go‘shtini) iste‘mol qilishi hodisasi bo‘lib, u tarixiy, antropologik va ayrim hollarda ritual yoki ekstremal sharoitlar bilan bog‘liq kontekstlarda uchrashi mumkin. <https://www.oxfordreference.com>

***Izoh: Stereotip** (*qad.yun.* “qattiq” va “muhr”, “iz” so‘zlaridan) – insonning biror narsa haqida oldindan shakllangan aqliy bahosi bo‘lib, u stereotipik xulq-atvorda namoyon bo‘lishi mumkin. Stereotip salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin, shu bois uni faqat salbiy ma’noga ega bo‘lgan xurofotlardan farqlash lozim. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Стереотип>

qisman arxeologik dalillar bilan mos tushsa-da, “quyoshni yagona xudo sifatida ulug‘lash”, “qarilikka etganlarni qurbon qilish” yoki “dushman jasadini eyish” kabi tasvirlar ko‘proq yunon etnografiyasida shakllangan noodatiy va yovvoyi obrazlarni ifodalaydi. Umuman olganda, yunon mualliflari ko‘chmanchi xalqlarni ko‘pincha “yovvoyi”, “madaniyatsiz” yoki “g‘ayri oddiy” tarzda tasvirlashga moyil bo‘lganlar. Mana shunday yondashuv natijasida Markaziy Osiyo hududlarda kechgan tarixiy jarayonlar noto‘g‘ri talqin qilingan. Shu sababli bunday ma‘lumotlarni tarixiy haqiqat sifatida emas, balki tanqidiy yondashuv asosida baholash zarur bo‘ladi.

Shu kontekstdan kelib chiqib, Strabon “Geografiya” asarining XI kitobida dahe, massaget va saklar haqida ma‘lumot berar ekan, u ham bu etnonim*larni aniq va izchil etnik tasnif tizimi asosida emas, balki keng geografik va etnografik umumlashmalar doirasida qo‘llagan. Asarda bu guruhlar ba’zi o‘rinlarda “skiflar”ning tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinsa, boshqa joylarda esa alohida etnik birliklar sifatida farqlanadi. Xususan, muallif o‘z asarida skiflar va massagatlarni bir xil turmush tarziga ega bo‘lgan ko‘chmanchi chorvador xalqlar sifatida tavsiflaydi. Uning tasvirida dahelar ham skiflar tarkibiga kiritilib, ba’zan Kaspiy dengizining sharqida yashovchi massaget va saklar ham shu umumiy doirasida ko‘rsatiladi, biroq boshqa joylarda dahelar massagatlardan alohida guruh sifatida tilga olinadi. Bu esa Strabonning etnik tasnifni qat’iy chegaralangan tizim asosida emas, balki o‘zaro kesishuvchi va umumlashtiruvchi tushunchalar orqali ifodalaganligini ko‘rsatadi.

Keyingi muhim muammo bu – mafkuraviy va siyosiy maqsadlar hisoblanadi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlarini tasvirlovchi mualliflar Markaziy Osiyo xalqlarini ko‘pincha “isyonkor” yoki “to‘siq”, Aleksandrni esa qutqaruvchi sifatida tasvirlaydi. Bu mafkuraviy yondashuv mahalliy xalqlarning o‘z dunyoqarashlarini butunlay o‘chirib tashlagan. Shu jumladan, Arrian “Anabasis” asarining IV kitobida Spitamen qo‘zg‘olonini tasvirlar ekan, uni “isyon” deb ataydi, biroq bu atama voqeaning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi, chunki aslida bu harakat makedonskiylik Aleksandr boshchiligidagi bosqinchi qo‘shinga qarshi mahalliy aholining ozodlik kurashi edi. Arrian Spitamenning harbiy strategiyasi va taktikasini aniq va, hatto, ma‘lum darajada hayrat bilan tasvirlaydi, lekin uning siyosiy maqsadlari, xalq orasidagi mavqei va keng ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi haqida deyarli to‘xtalmaydi. U Spitamenning o‘limi haqida ma‘lumot berar ekan, Arrian uni “o‘z xotini yoki yaqinlari tomonidan o‘ldirilgan” deb yozadi, biroq bu rivoyatning aniq manbasi va ishonchliligi noaniq bo‘lib qoladi. Bu voqea boshqa mualliflarda, xususan Kvint Kursiy Ruf tomonidan boshqacha talqin qilinadi. U

***Izoh: Etnonim** (yunoncha *ethnos* – xalq, qabila va *onyma* – nom) – muayyan xalq, millat, elat, qabila, urug‘ yoki har qanday etnik jamoaning nomini bildiruvchi termin hisoblanadi. Этноним // Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. V. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 52.

Spitamening xotini uni xiyonatkor deb topib o'ldirganligi va uning boshini Aleksandrga yuborganligi haqida yozadi. Ushbu ikki manba o'rtasidagi tafovut shuni ko'rsatadiki, Arrian ham, Kvint Kursiy Ruf ham voqealarga bevosita guvoh bo'lmagan, balki ikkilamchi manbalar va turli rivoyatlarga tayangan holda ularni o'zlarining adabiy hamda siyosiy maqsadlariga mos ravishda qayta ishlagan. Natijada Spitamen obrazining yakuniy talqini tarixiy haqiqatdan ko'ra ko'proq mualliflarning qarashlari va uslubiy yondashuvlari ta'sirida shakllangan.

Xuddi shunga o'xshash yondashuv sitsiliyalik Diodorning "Tarixiy kutubxona" asari XVII kitobida ham kuzatiladi. Muallif Aleksandrning Baqtriya va So'g'diyona hududlariga yurishini tasvirlar ekan, voqealarni asosan yunon-makedon nuqtayi nazaridan yoritadi va mahalliy siyosiy hamda ijtimoiy vaziyatni ikkinchi darajaga qo'yadi. Asarda Aleksandrning mahalliy zodagonlar bilan olib borgan muzokaralari ko'pincha uning saxovati, murosaga moyilligi va donoligi sifatida talqin qilinadi. Xususan, Roksana bilan nikoh masalasida ham Diodor bu voqeani Aleksandrning diplomatik siyosatining bir ko'rinishi sifatida tasvirlaydi, go'yoki bu ittifoq madaniy yaqinlashuv va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda, bu nikoh aslida So'g'd va Baqtriya zodagonlarini o'z tarafiga og'dirish, mahalliy qarshilikni yumshatish va Aleksandr hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy vosita bo'lgan [3:46]. Diodor esa bu real siyosiy maqsadlarni ochiq ko'rsatmaydi. Shuningdek, asarda mahalliy aholining bosqinga munosabati, ularning iqtisodiy holati, ijtimoiy tuzilishi va qarshilik sabablari haqida deyarli ma'lumot berilmaydi, natijada voqealar faqat biryoqlama aks etadi.

Navbatdagi muhim bir muammo bu tarjima va fonetik buzilishlardir. Yunon mualliflari mahalliy tillarni bilmaganligi sababli joy nomlari va etnik atamalar ko'pincha yunon fonetikasiga moslashtirilgan holda yozilgan. Asl mahalliy toponimlarni tiklash faqat yozma manbalarga tayanib qolmasdan, lingvistik tahlil va arxeologik dalillarni birgalikda o'rganishni talab qiladi, chunki qadimgi mualliflar ko'pincha mahalliy nomlarni o'z tillarining fonetik va yozuv tizimiga moslashtirib berganlar. Masalan, Arrian "Anabasis" asarida So'g'diyona poytaxtini Marakanda deb qayd etadi, bu shakl aslida yunoncha talaffuz va yozuv qoidalariga moslashtirilgan varianti hisoblanadi. Yunonlar bu nomni o'z fonetik tizimiga moslashtirganlari sababli "Samar" qismi "Mara" shakliga, "qand/kand" qismi esa "kanda"ga aylangan va natijada "Marakanda" shakli yuzaga kelgan [4:24-28]. Xuddi shunga o'xshash holat Baqtriya markazi nomida ham kuzatiladi – mahalliy an'anada Baqtra yoki Balx deb atalgan shahar yunon mualliflari, jumladan, Arrian va Strabon asarlarida "Baktra" shaklida berilgan bo'lib, bu ham yunon tilining fonetik moslashtirish jarayoni natijasidir. Ptolemey esa "Geografiya" asarining VI kitobida Markaziy Osiyo hududidagi shaharlarni koordinatalar bilan birga qayd

etadi, masalan Marg‘iyona hududidagi (hozirgi Marv atrofidagi) shaharni, “Nautaka” esa ehtimol hozirgi Navoiy atrofidagi manzilni anglatadi. Ptolemeyda uchraydigan bunday nomlar ko‘pincha fonetik o‘zgarishlar va geografik aniqlikdagi cheklovlar sababli asl mahalliy nomlardan ancha farq qiladi, shu bois bir shaharning turli mualliflar asarlaridagi shakllarini aniqlash va ularni hozirgi joylashuv bilan bog‘lash uchun murakkab onomastik tahlil talab etiladi.

Yuqoridagi antik davr yunon manbalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo haqidagi bilimlar qadimgi mualliflarda ko‘pincha bevosita kuzatuv emas, balki ikkilamchi axborot, og‘zaki rivoyatlar va siyosiy-mafkuraviy qarashlar asosida shakllangan. Natijada bu hududga oid tarixiy-geografik tasvirlar bir tomondan juda qimmatli ma‘lumotlar bersa, ikkinchi tomondan jiddiy ilmiy cheklovlar va buzilishlarni ham o‘z ichiga oladi.

Qadimgi yunon manbalarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish shuni yaqqol ko‘rsatadiki, Gerodot, Strabon, Arrian, Ptolemey va Ktesiy kabi antik mualliflarning Markaziy Osiyo haqidagi ma‘lumotlari bir qator jiddiy ilmiy cheklovlarni o‘z ichiga oladi. Bu cheklovlar tasodifiy emas, balki o‘sha davr bilish imkoniyatlari, siyosiy vaziyat va madaniy qarashlarning bevosita natijasidir.

Birinchidan, geografik tasavvurlar sohasida antik mualliflar bevosita kuzatuvdan ko‘ra ikkilamchi manbalarga – savdogarlar, harbiy zobitlar va saroy muhitidan etib kelgan og‘zaki xabarlariga tayanib ish ko‘rganlar. Natijada Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik suv havzalari noto‘g‘ri tasvirlanib, shaharlarning koordinatalari esa haqiqiy joylashuvidan yuzlab kilometr farq bilan ko‘rsatilgan.

Ikkinchidan, etnik nomlar borasida “sak”, “skif”, “massaget” va “dahe” kabi atamalar aniq etnik chegaralarni aks ettirmagan holda bir-birining o‘rnida ishlatilgan. Bu esa Markaziy Osiyo xalqlarining haqiqiy etnik va madaniy xususiyatlarini aniqlashni murakkablashtiradi.

Uchinchidan, mafkuraviy yondashuv masalasida yunon-makedon mualliflar voqealarni ko‘pincha o‘z siyosiy maqsadlariga mos tarzda talqin qilgan – Aleksandr qutqaruvchi, mahalliy xalqlar esa “isyonkor” yoki “g‘ayri-madaniy” sifatida ko‘rsatilgan. Bu yondashuv tarixiy haqiqatning bir qator qirralarini to‘sisib qo‘ygan.

To‘rtinchidan, fonetik buzilishlar natijasida “Samarqand” “Marakanda”ga, “Balx” esa “Baqtra”ga aylanib, mahalliy nomlar yunon tilining ovoz tizimiga moslashtirilgan holda yozilgan. Buning natijasida asl mahalliy toponimlarga qaytish uchun oddiy matn tahlili emas, balki lingvistik, arxeologik va qiyosiy tarixiy tadqiqotlar majmuasi talab etiladi. Shu bilan birga, ushbu manbalarning tarixiy qiymatini inkor etib bo‘lmaydi. Ularda bugungi kunda mavjud bo‘lmagan xalqlar, qadimiy yo‘llar va hududlar haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Biroq ulardan to‘g‘ri foydalanish uchun tanqidiy manbashunoslik yondashuvi, ya’ni muallifning

maqsadi, axborot manbai, madaniy muhiti va siyosiy sharoitini inobatga olgan holda tahlil qilish zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, antik yunon manbalari Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim, lekin yagona tayanch bo'la olmaydi. Ularni arxeologik dalillar, numizmatika, epigrafika va mahalliy yozma manbalar, zamonaviy tarixiy tadqiqotlarga tayanib, kompleks tarzda o'rganish orqali ushbu hududning qadimgi tarixi haqida to'liq va haqqoniy tasavvur hosil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Геродот. История в девяти книгах. / Перевод Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – 79 с.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 3. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. V. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008.
4. Дониёров А.Х. Марказий Осиё халқлари тарихшунослиги. – Тошкент: Ношир, 2006. – Б. 46.
5. G'ulomov Y.G'. Samarqandning kelib chiqishi haqida // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent. 1968. №12. – B. 24-28.
6. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1964. – B. 35.
7. Итина М.А. У истоков хорезмской цивилизации. – Москва: Восточная литература, 1991. – С. 142-145.
8. Пьянков И.В. Средняя Азия в античной географической традиции: Источниковедческий анализ. – Москва: Восточная литература, 1997. – С. 132-135.
9. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004. – 132 b.
10. Хайдаров Т.Ф. О некоторых вопросах картографирования Центральной Азии у Птолемея // Общественные науки в Узбекистане (ОНУ). – Ташкент. 2002. №4. – С. 48.
11. <https://www.britannica.com/topic/ethnocentrism>
12. <https://www.livius.org/articles/place/araxes/>
13. <https://www.oxfordreference.com>
14. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Стереотип>

O'ZBEKISTONDA XITOIY IYEROGILIFLARI VA ULARNING O'ZARO ALOQALARDA AKS ETISHI

Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich
O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti
"Markaziy Osiyo tarixi" bo'limi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida topilgan xitoy iyerogliflari va ularning tahlili berilgan. Topilgan xitoy iyerogliflari tushirilgan qo'lyozma va kitoblarda, tanga va kumush yombularda, xatlar va choy qog'ozlarida, chinni idishlarda, harbiy qurollarda va matolarda mavjud. Xitoy iyerogliflari Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi o'zaro aloqalar tarixini yozishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, ikki hudud o'rtasidagi savdo aloqalarida muhim tovarlardan bo'lgan choy, kumush yombu, chinni idishlar, qog'oz kabi xitoy mollarining ishlab chiqarilishi, savdodagi o'rni kabi masalalar ochib beriladi. Xitoy iyerogliflarni o'qish bilan birga, mazmuni va ahamiyati tahlil qilindi. Ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Xitoy, iyerogliflar, Markaziy Osiyo, yombu, tovar, chinni, qog'oz, ilmiy xulosa, tahlil, tavsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются китайские иероглифы, найденные в Узбекистане, и их анализ. Китайские иероглифы были обнаружены в рукописях и книгах, монетах и серебряных слитках, письмах и чайной бумаге, фарфоровых посудах, военном оружии и тканях. Китайские иероглифы являются важным источником для написания истории взаимодействия Центральной Азии и Китая. В частности, будут раскрыты такие вопросы, как производство китайских товаров, таких как чай, столовое серебро, фарфор и бумага, которые являются важными товарами в торговых отношениях между двумя регионами, и их место в торговле. Наряду с чтением китайских иероглифов анализировались их смысл и значение. Были даны научные выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: Китай, иероглифы, Центральная Азия, слиток, товар, фарфор, бумага, научное заключение, анализ, рекомендация.

Abstract: This article presents Chinese hieroglyphs found in Uzbekistan and their analysis. Chinese hieroglyphs have been found in manuscripts and books, coins and silver ingots, letters and tea papers, porcelain vessels, military weapons and textiles. Chinese hieroglyphs are an important source for writing the history of interactions between Central Asia and China. In particular, issues such as the production of Chinese goods such as tea, silverware, porcelain, and paper, which are important goods in the trade relations between the two regions, and their place in

trade will be revealed. Along with the reading of Chinese hieroglyphs, the meaning and significance were analyzed. Scientific conclusions and practical recommendations were given.

Key words: China, hieroglyphs, Central Asia, ingots, commodity, porcelain, paper, scientific conclusion, analysis, recommendation.

Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi o'zaro aloqalar uzoq davrlarga borib taqaladi. Ushbu aloqalarni tadqiq qilishda diplomatik yozishmalar, shartnomalar, qo'lyozma asarlar, safarnomalar muhim ahamiyatga ega xisoblanadi. Bu manbalar fors, o'zbek, rus, ingliz, manjur va xitoy tillarida mavjuddir. Ular orasida xitoy ierogliflari asosida yozilgan manbalar tadqiq qilinmoqda. To'g'ri hozirgi Xitoy xududida bu manbalar chuqur o'rganilgan, biroq, O'zbekistonda mavjud bo'lgan xitoy ierogliflari hali chuqur taxlil qilinmagan xisoblanadi. Shu maqsadda, O'zbekistonda topilgan xitoy ierogliflari izlash, to'plash, o'qish, mazmun-mohiyatini aniqlash, ikki xudud tarixiga oid ahamiyatini tahlil qilish va ilmiy xulosalar va tavsiyalar berish lozim.

O'zbekistondagi xitoy ierogliflari hali keng qamrovli tarzida chuqur o'rganilmagan. Biroq, O'zbekistondagi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan xitoy tilidagi asarlar A. Xodjaev [8,9,11], N. Karimova [3], H. Azimovlar [2] tomonidan o'rganilgan. Kutubxonada saqlanayotgan "Ershi si shi" ("24 tarix") nomli rasmiy tarixlar majmuasidagi Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixiga oid masalalar o'rganilgan. Biroq, institut qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan fors va turkiy tillarda yozilgan qo'lyozmalardagi xitoy ierogliflari tadqiq qilinmagan.

O'zbekiston xududida xitoy ierogliflarini izlash ancha vaqtni talab qildi. Chunki, bu ierogliflarni o'qiydigan mutaxassislariga etib bormasligi birinchi sabab bo'lsa, ikkinchi sabab xitoy ierogliflari tushirilgan materiallarni soni kamli xisoblanadi. 2012 va 2022-yillar oralig'ida O'zbekiston xududidagi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonasi, "Buxoro" davlat muzey-qo'riqxonasi, Xivadagi Ichan-qal'a muzey-qo'riqxonasi, Toshkentdagi O'zbekiston tarixi muzeyi, Namangan viloyati To'raqo'rg'ondagi Aysi tarixiga oid osori-atiqalar muzeyidagi kitob, turli buyumlardagi xitoy ierogliflari aniqlandi. Ushbu xitoy ierogliflari tushirilgan buyum, narsa va topilmalarni quyidagi guruhlariga ajratib olindi:

1. Xitoy tilidagi manba va kitoblar
2. Xitoy yombusi va tangalaridagi ierogliflar
3. Xitoy ieroglifi aks etgan xatlar va choy qog'ozlari
4. Chinni idishlardagi xitoycha bitiklar
5. Xitoy harbiy qurollaridagi ierogliflar

6. Matolarda xitoycha bitiklar.

Xitoy tilidagi manba va kitoblar O'zbekiston Respublikasi kutubxonalarida, asosan Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasi, "Nodir asarlar" fondi, O'zR FA Sharqshunoslik instituti kutubxonasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kutubxonasi va O'zbekistondagi Konfutsiya instituti kutubxonalari mavjud bo'lib, ularning umumiy soni taxminan 5 mingdan ziyod.

Hozirgi davrimizgacha saqlanib kelgan Markaziy Osiyoning, shuningdek O'zbekistonning uzoq o'tmishiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xitoy manbalari talaygina, lekin ular qadimgi zamon xitoy tili va yozuvida bayon etilgan. Ularni oliy ma'lumotli xitoylarning o'zlari ham maxsus tayyorgarliksiz o'qiy olmaydi. Qolaversa, bu manbalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun nihoyatda ko'p lug'atlar, qadimiy xitoy tili va yozuviga, ierogliflarning 1.5-2 ming yil ilgari o'qilishlari va o'sha zamondagi ma'nolarini tushuntirib beradigan ilmiy adabiyotlarga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Albatta, xitoy manbalaridan o'rin olgan ma'lumotlar Markaziy Osiyoning qadimgi tarixidagi barcha masalalarni yoritib bera oladi, deb bo'lmaydi. Ammo bu ma'lumotlar qadimgi va ilk o'rta asr davrlariga tariximizda mavjud muammoli yoki noma'lum qolgan masalalarga muayyan darajada aniqlik kiritishi shubhasizdir. Xitoy manbalariga murojaat qilmasdan turib, Markaziy Osiyoning, jumladan O'zbekistonning qadimgi va ilk o'rta asrlar davriga oid tarixini mukammallashtirish qiyin. Bu haqda bizdan oldin o'tgan ustozlar o'z asarlarida va turli ilmiy anjumanlarda ta'kidlab o'tishgan. Boz ustiga, ushbu ma'lumotlarning rus va evropa tillaridagi tarjimalari etarli emas. Shuning uchun Mustaqillik davrida O'zbekiston FA Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan "Ershisi shi" ("24 tarix") deb nomlangan sulolalar tarixi majmuidan joy olgan sulolalar tarixidagi Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish ishlari boshlangan.

Buyuk ipak yo'li orqali ko'plab xitoy mollari Turkistonga olib kelingan va o'z navbatida bu o'lkadagi tovarlar hozirgi Xitoy hududlariga olib kelingan. Tabiiyki, Turkistonga olib kelingan xitoy mollarining ayrimlariga xitoy ierogliflari tasviri tushirilgan. Bu ierogliflar birinchi navbatda, savdodagi asosiy muomala vositasi bo'lgan valyuta – Xitoyda zarb qilingan tanga va kumush yombular hisoblanadi. 1872-1875-yillarda qurilgan Xudoyorxon o'rdasida joylashgan Qo'qon shahar o'lkashunoslik muzeyida saqlanayotgan kumush yombuda ham xitoy ieroglifi tushirilgan. . "Yombu" atamasi xitoy tilidagi 銀錠 "yuanbao" ieroglifini bildirib, uyg'urlar uni "yombu" deb aytishadi [5: 41-42-s]. Yombuga 道驗 – ya'ni Dao Yan - Dao qonunlari asosida soliqlarni yig'ish va shu ma'noni aks etgan kumush va jez buyumlarida muhr bo'lib, Ching imperiyasi hukumati tarafidan monopollashtirilgan. Chjou davrida joriy qilingan. Shu iyeroglif asosida o'sha

hudud aholisidan soliq yig'ib olingan. Yombularning hajmi va shakliy jihatdan har xil hisoblanadi. Yombuning eng kattasi ot taqasiga o'xshaganligi uchun mahalliy xalq uni Ot tuyog'i deb nom berishgan. Shuningdek, yombularning hajmi va og'irligiga qarab "qo'y tuyog'i", "echki tuyog'i", "chuchvara quloq" kabi turlari mavjud. Ching imperiyasida muomalada bo'lgan ot tuyog'i deb nom olgan yombu ellik lyanga to'g'ri kelgan. Bir lyan kumush puli ellik mis tangaga to'g'ri kelgan. Qo'y tuyog'i deb atalgan yombu esa yigirma lyan deb baholangan. Echki tuyog'i deb nom olgan yombu o'n lyan deb hisoblangan. Lyan mahalliy aholi tilida "sar" deb atalgan. Yombular taqa yoki qayiqqa o'xshatib quyilgan bo'lib, markaziy qismiga xitoy ieroglifidagi Ching imperiyasi davlat belgilari tamg'asi chekilgan [1: 19-s]. Yombuning og'irligi 1, 87 kg, uzunligi 11 sm, eniga 5,5 sm, bo'yiga 6 sm bo'lgan. Yombuning tarkibiy qismi 96, 87, foiz kumush, 2, 9 foiz mis, 0, 23 foiz oltin xisoblanadi.

Xitoyning milliy valyutasi hisoblangan yombudan O'rta Osiyo xonliklarida kumush tangalar zarb qilingan. Yombular esa bu tangalarning xom ashyosi sifatida ishlatilgan. Ushbu yombular xonliklar zarbxonasiga maxsus sotib olingan. Ular asosan Ching imperiyasi bilan savdo ishlarini amalga oshiruvchi savdogarlar tomonidan sotib olinib davlat xazinasiga topshirilgan. Bu yombuni zarbxonada mirza qabul qilib, ro'yxatga olgan. Xonliklar zarbxonalarda ellik-oltmish nafar ishchi ishlagan. Ishchilar yombuni urib turli shaklga solib, keyin tayoqcha ko'rinishiga tushirgan. Kumush tayoqchani urub, kesib tanga xolatiga keltirib toroziga solganlar. Oshiqchasini olib etmaganini qo'shib tanga holatiga keltirib muhr urganlar. Bitta yombudan 640 dan 700 kumush tangagacha, hatto 1000 tangagacha zarb qilganlar [1: 187-s]. Bir botmon mis va qo'rg'oshin rudasidan o'ttiz olti ming chaqa tanga zarb qilingan. Zarb etilgan tangalar xonga ko'rsatilgan. Xar yuz misqol tilladan bir tilla tanga, kumush yombudan esa ikki tilla tanga, bir botmon mis yoki qo'rg'oshindan o'n uch tilla tanga foyda ajratib ko'rsatilgan [1: 25-s]. Barcha xonliklardagi zarbxonalarda mohir va o'z ishining ustalari xizmat qilishgan. Bu ishchilar byuir kunda bir tanga maosh olganlar. Shuningdek, Qo'qon xonlari Ching imperiyasi bilan savdo aloqalarini olib borishda siyosiy masalalar ortidan ham kumush yombularni qo'lgan kiritilgan [4: 196-s]. Buxoro yoki Qo'qon xonligi bozorlarida bu kumush yombular 432 misqol standart qilib belgilangan. Kumush yombuning narhi sifatlisi 314 tilla deb baholangan bo'lsa, sifatsizi 20 tilla bo'lgan.

Xitoy tangalari O'zbekiston hududida ko'plab topilgan. Ulardan biri Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani xududida topilgan tanga bo'lib, hozirda bu tanga Axsi tarixiga oid osori-atiqalar muzeyida saqlanmoqda. Tanganing o'ng tomonidagi 2 iyeroglif: Kashi / Kashi 喀什 – Qashqar. Chap tomonidagi 2 iyeroglif: san / san 参 - 3 va jin / jin 金 – oltin, deb yozilgan. Tanganing tepa qismidagi 1

ieroglif: guang / guang 光- yorug'lik ma'nosini beradi. Past qismidagi 1 iyeroglif: yuan / yuan 圓 yumoloq, ya'ni doira degan ma'nosni bildiradi. Tanganing o'rtasidagi teshilgan joyidagi iyeroglifni o'qish qiyin. Biroq, u shyuy 緒 iyeroglifini bildiriyapti. Chunki Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomiga o'xshayapti. U 1875–1908-yillarda Xitoyni boshqargan.

Buxoro viloyat kutubxonasi. “Sharq” bo‘limida № 254 raqam ostida saqlangan. Keyinchalik bu maktub Buxoro davlat muzeyiga olib kelingan maktub Yorkenddan Buxoroga yuborilgan. Undagi iyerogliflar quyidagicha o‘qiladi: “Rossiyaga itoat etgan asli vatani Buxoro bo‘lgan Mulla Hosimi (Qosim) valadi Mulla Nosir hamda singlisi Masturabibi va Oyshabibi uch kishi Yorkendda kelishib qaror qilindi. Mulla Qosimga tegishli bo‘lgan oilaviy meros boyliklarini uch odamga taqsimlash Mulla Izak boyliklarni boshqaradi. Guansu boshqaruvi davrining 31-yili 3 oyi”. Guansu boshqaruvi davrining 31-yili 3 oyi Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomi bilan hukmronlik qilgan manchjur imperatori o‘tgan. Taxtda 1875 -1908-yillarda o‘tirgan. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Yu-long choyi qog‘ozida ham ikkita ieroglif qizil rang bilan tushirilgan.

Xivadagi Ichangal’a muzey-qo‘riqxonasi va boshqa muzeylardagi xitoy chinini idishlarning ostki qismida “同治宣制” ierogliflari tushirilgan. Unda Tungji (同治 1856-1875) Xitoydagi manjurlarning 10 imperatori. “Tungji buyrug‘i bilan ishlab chiqarilgan” deb yozilgan.

“Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonasiga qarashli Xudoyorxon o‘rdasida xitoyda ishlab chiqarilgan to‘p saqlanadi. Uning yuza qismida beshta xitoy iyeroglifi tushirilgan: “長勝神砲”. Uning ma’nosi “Uzoq davom etgan xudolar urushi ovozi”. To‘p Gaungshyuy / Guangxu 光緒 nomi bilan 1875–1908-yillarda hukmronlik qilgan manjur imperatori tomonidan yasatilgan.

O‘zbekistonda topilgan xitoy ierogliflarini chuqur taxlil qilish va undagi ma'lumotlarni Markaziy Osiyo tarixiga oid masalalarni tadqiq qilishda foydalanish lozim. Shuningdek, bu ma'lumotlarni Xitoydagi tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilish lozim. Shuningdek, quyidagi tavsiya va takliflarni ilgari surish mumkin:

- O‘zbekiston – Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik aloqalariga oid xitoy iyyerogliflarini topib, fotonusxasi olinib, namunalari jamlash;
- O‘zbekistondagi xitoy iyerogliflarini fotoalbomi yaratiladi, ular o‘zbek, xitoy, rus, ingliz tiliga tarjima qilinib, mazmuni, davri, hajmi, o‘zaro munosabatlarga o‘rni, ahamiyati kabi masalalar tadqiq qilish;
- “O‘zbekistonda xitoy iyerogliflari va ularning o‘zaro aloqalarda aks etishi” nomli kitob yoziladi va nashr etish;

- O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida “O‘zbekistonda xitoycha bitiklar va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarida aks etishi” nomli badiiy va foto ko‘rgazma tashkil qilish;

- Respublikadagi xitoy ierogliflarining fotosi, matni, tarjiması va ahamiyati aks etgan veb-sayti yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Адинарова А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством (1865–1875): Дисс. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1946. – 175 л.
2. Азимов Х. Қадимги Хитой ва Марказий Осиё муносабатлари (хитой манбалари асосида). – Тошкент: “Fan ziyosi” нашриёти, 2024. – 204 б
3. Каримова Н.Э. Китайские письменные источники по истории взаимоотношений государств Центральной Азии и маньчжурской империи. – Ташкент: ТАШГИВ, 2016. – 235с.
4. Обзор Кокандского ханства в нынешнем его состоянии // Записки Императорского Русского Географического общества. – СПб., 1849. Кн. III. – С. 176-216.
5. Тухтияев И. Нумизматические материалы как источник по истории Восточного Туркестана (XVIII – начала XIX вв.): Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1989. – 165 л.
6. Ханзи гуйинг шоуцэ (Хитой иероглифларининг қадимий талаффузи қўлланмаси). Пекин, 1986. – 210б.
7. Ханюй гувэнзи зишинг бяо (Хитой иероглифларининг қадимги ёзилиш шакллари). Сичуан, 1981. – 366б.
8. Ходжаев А. История формирования западных Китая (история и современность). Тошкент, 2023. – 230с.
9. Ходжаев А. Древнейшая китайская иероглифическая транскрипция этнонима тюрк // Shygys Kazakhstan. № 1, 2008. – С. 7-26.
10. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – СПб.: Б. и., 1876. – С. 187.
11. Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 2007. – 456 б.

O'RTA ASR ARAB MANBALARIDA ZIYOLI AYOLLAR FENOMENI (ZUBAYDA BINTU JAFAR MISOLIDA)

*Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi
Farg'ona davlat universiteti
Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abbosiylar xalifaligi tarixida o'chmas iz qoldirgan malika Zubayda binti Jafar siymosi gender yondashuv va tarixshunoslik tahlili prizmasida tadqiq etiladi. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda malikaning ayollarga xos jozibadorligi va nafosati, hukmdorlarga xos mardligi hamda strategik aql-zakovati o'zaro uyg'unlikda tahlil qilingan. Maqolada malika tomonidan amalga oshirilgan "Darb Zubayda" kabi megasanoat loyihalari uning ijtimoiy mas'uliyati va siyosiy irodasi mahsuli sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Zubayda binti Jafar, Abbosiylar xalifaligi, gender etakchiligi, Darb Zubayda, Horun ar-Rashid, ijtimoiy filantropiya, islom sivilizatsiyasi, ayol strategiyasi.

Аннотация. В данной статье через призму гендерного подхода и историографического анализа исследуется личность принцессы Зубайды бинт Джафар, оставившей неизгладимый след в истории Аббасидского халифата. Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе сочетания женского изящества, мужественной решительности и стратегического интеллекта принцессы. В статье рассматриваются масштабные инфраструктурные проекты, такие как "Дарб Зубайда", как результат её социальной ответственности и политической воли.

Ключевые слова: Зубайда бинт Джафар, Аббасидский халифат, гендерное лидерство, Дарб Зубайда, Харун ар-Рашид, социальная филантропия, исламская цивилизация, женская стратегия.

Abstract: This article explores the historical figure of Princess Zubayda bint Jafar, who left an indelible mark on the history of the Abbasid Caliphate, through the lens of gender studies and historiographical analysis. The uniqueness of this research lies in the integrated analysis of the princess's feminine grace, decisive courage characteristic of great rulers, and high-level strategic intelligence. The article evaluates her large-scale infrastructure projects, such as "Darb Zubayda", as the outcome of her profound social responsibility and political will.

Keywords: Zubayda bint Jafar, Abbasid Caliphate, gender leadership, Darb Zubayda, Harun al-Rashid, social philanthropy, Islamic civilization, female strategy.

Zamonaviy sotsiologiya va tarixshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri – jamiyatning ijtimoiy-siyosiy transformatsiyasida gender omilining tutgan

o‘rmini tadqiq etishdir. Bugungi kunda ayollarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki global kun tartibining markazida turgan bo‘lsa-da, Sharq islom sivilizatsiyasi tarixi, xususan, Abbosiylar xalifaligining “Oltin davri” (VIII–IX asrlar) bu borada o‘ziga xos va boy tarixiy pretsedentga ega.

Xalifa Horun ar-Rashid (786–809) boshqaruvi davlat boshqaruvi va madaniy yuksalishning cho‘qqisi sifatida e’tirof etiladi. Biroq, mazkur yuksaklikni faqatgina xalifaning shaxsiy jasorati bilan izohlash ilmiy nuqtai nazardan etarli emas. Bu davrda malika Zubayda bint Jafar siymosi namoyon bo‘ladiki, u o‘zining intellektual salohiyati, iqtisodiy mustaqilligi va strategik tashabbuslari bilan “ayol kishining jamiyatdagi roli” haqidagi stereotiplarni o‘sha davrdayoq parchalab tashlagan.

Zubayda xonim va Horun ar-Rashidning o‘zaro munosabatlari nafaqat oilaviy rishta, balki davlatning ijtimoiy infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan strategik sheriklik sifatida namoyon bo‘ladi. Malika tomonidan amalga oshirilgan “Darb Zubayda” kabi trans-imperiya loyihalari bugungi kun tili bilan aytganda “ijtimoiy tadbirkorlik” va “gender etakchiligi”ning ilk namunalaridir. Mazkur maqolaning maqsadi, Zubayda bint Jafar faoliyatini zamonaviy gender yondashuvlari asosida tahlil qilish va uning Horun ar-Rashid xalifaligi barqarorligini ta’minlashdagi strategik o‘rmini manbalar asosida yoritishdan iborat.

Asl ismi Ummat al-Aziz bo‘lib, “Zubayda” nisbasi unga bobosi xalifa al-Mansur bergan (bu ism “kichik sariyog‘ bo‘lagi” yoki “oppoqqina” degan ma’nolarni anglatadi) chunki u bolaligida juda yoqimtoy va to‘lachadan kelgan qiz bo‘lgan [8: 75]. U Abbosiylar sulolasidan bo‘lib, xalifa al-Mansurning nabirasi va Jafarning qizi bo‘lgan. U Horun ar-Rashidning nafaqat rafiqasi, balki eng nufuzli siyosiy maslahatchilaridan biri sifatida tasvirlanadi. Zubayda Horun ar-Rashid bilan bir vaqtda, ya’ni 760-yillar atrofida tug‘ilgan va bundan tashqari, Horun ar-Rashid bilan amakivachcha ham bo‘lgan. Kitobda keltirilgan qiziqarli faktga ko‘ra, Horun ar-Rashid va Zubayda nafaqat er-xotin, balki emikdosh ham bo‘lishgan. Horunning onasi Xayzuran Zubaydaning akasi Fadlni emizgan bo‘lsa, Zubaydaning onasi (Zubayd bint Munir) Horunni emizgan [8: 75]. Zubayda o‘z davrining eng o‘qimishli ayollaridan biri bo‘lib, she’riyat, adabiyot va din ilmlarini yaxshi bilgan.

Mas’udiy uni shunchaki xalifaning rafiqasi sifatida emas, balki Bag‘dod saroyining madaniy inqilobchisi va estetik etakchisi sifatida ta’riflaydi. Mas’udiyning ta’kidlashicha, Zubayda xonim islom olamida hashamat va yuqori didning yangi standartlarini yaratgan.

Zubayda bintu Jafar poyabzallarini qimmatbaho toshlar va javohirlar bilan bezattirgan birinchi ayol bo‘lgan. Bu o‘sha davrda saroy ayollari orasida katta madaniy o‘zgarish yasagan. Zubayda xonim o‘zining shaxsiy buyumlarini (idish-tovoqlar, shamdonlar, egar-jabduqlar) faqat oltin va kumushdan, o‘ta nozik did bilan yasattirgan. Mas’udiy buni uning “jadorati” (yuksak didi va jozibasi) belgisi deb

biladi. Mas'udiy Zubayda xonimning saroyi xuddi bir "akademiyadek" bo'lganini yozadi.

Uning saroyida yuzlab aqlli va bilimli xizmatchi ayollar bo'lib, ularning har biri ma'lum bir san'at yoki ilm bilan shug'ullangan. Bag'dod xaritasida "Zubaydiya" deb nomlanuvchi maxsus hudud ko'rsatilgan, bu uning shahar qurilishidagi ulkan hissasidan dalolat beradi [8: 20]. Xususan, Mas'udiy malikaning saroyida 100 nafar hofizi Qur'on ayollar bo'lganini va ular saroyda doimiy ravishda tilovat qilib turishganini alohida qayd etadi. Bu tilovat ovozlari saroydan asalarilarning g'uvullashiga o'xshash yoqimli sado chiqarib turgan.

Mas'udiy Zubayda xonimni Horun ar-Rashidning eng qiyin damlarida unga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, xalifalikning ichki ishlarida "vazir darajasidagi" aqlga ega shaxs deb ataydi. U xalifa bilan shaxmat o'ynab turib, davlatning muhim masalalarini muhokama qilgan [2]. Xalifa vafotidan so'ng, o'g'li Amin va o'gay o'g'li Ma'mun o'rtasidagi urushda u juda og'ir vaziyatda qolsa-da, Ma'munga mardlarcha munosabatda bo'lgan. Mas'udiy uning bu harakatini "buyuk oilaviy va siyosiy mardlik" deb baholaydi. Zubayda Horun ar-Rashidning o'g'li al-Aminning onasi sifatida xalifalik merosi masalasida markaziy o'rin tutgan. U aslzoda abbosiy ayol sifatida, o'g'li Aminning (uning onasi ham abbosiy bo'lgani uchun) kanizakdan tug'ilgan Ma'munga nisbatan ko'proq xalifalik huquqiga ega ekanligini himoya qilgan.

M. Filshtinskiyning "История арабов и Халифата (750–1517 гг.)" kitobida "Horun ar-Rashidning vorislik haqidagi qarori (Makkada imzolangan hujjatlar) va Zubaydaning o'z o'g'li al-Aminning xalifa bo'lishi uchun ko'rsatgan harakatlari batafsil yoritilgan" deya yozib ketadi [7: 78-80]. U nafaqat o'z o'g'li Aminning haququqlarini himoya qildi, balki Ma'mun g'alabasidan so'ng sulola yaxlitligini saqlab qolish uchun kechirimlilik va diplomatik donolik ko'rsatdi [3: 178].

Ibn al-Asirning "Al-Kamil fi't-Tarikh" ("Mukammal tarix") asarning 6-jildida Horun ar-Rashid vafotidan keyin o'g'illari al-Amin va al-Ma'mun o'rtasidagi taxt kurashlari bayon etiladi [9: 184]. Zubayda bu jarayonda o'z o'g'li al-Aminni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, keyinchalik fitnalarni to'xtatish va xonadon tinchligini saqlashda oqilona yo'l tutgani qayd etiladi.

Mas'udiy Zubayda xonimning Makka ahli va ziyoratchilar uchun sarflagan mablag'larini "hisobsiz" deb ta'riflaydi [2]. "Zubayda binti Jafar Makkaga suv keltirish uchun juda katta mablag' sarfladi. U Hunayn vodiysidan Makka va Arafotga qadar o'nlab kilometr masofaga suv quvurlari va ariqlar qazdirgan [9: 182]. Bu ish nafaqat o'sha davr, balki tarix uchun ham mislsiz saxovat namunasi bo'lgan". Uning yozishicha, malika bu ishlarni shon-sharaf uchun emas, balki samimiy e'tiqod va insonparvarlik (bugungi tilda gender etakchiligi va ijtimoiy mas'uliyat) yuzasidan amalga oshirgan. Ushbu loyihaning zamonaviy hisob-kitoblardagi qiymati bir necha

milliard dollarga teng bo'lib, o'sha paytda muhandislar buni amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblashgan [4: 88].

Zubayda bint Jafar faqat xalifa g'aznasiga tayanib qolmagan. U o'rta asrlardagi iqtisodiy mustaqil ayol siymosi sifatida o'zining shaxsiy mulklari, bog'lari va savdo tarmoqlarini boshqargan [3: 115]. Uning iqtisodiy erkinligi unga davlat ahamiyatiga molik yirik loyihalarni, masalan, 1400 kilometrlik ziyorat yo'lini obodonlashtirishni mustaqil moliyalashtirish imkonini bergan.

Ziyoratchilar uchun qurilgan 54 ta bekat va er osti suv kanallari (qanotlar) nafaqat diniy, balki xalifalikning shimoliy va janubiy hududlarini bog'lovchi iqtisodiy ko'priklar vazifasini o'tagan [6: 202]. Bu loyiha o'sha davr muhandislik fanining cho'qqisi bo'lib, Zubayda xonimning uzoqni ko'ra biluvchi menejerlik qobiliyatidan dalolat beradi. Ushbu loyihaning zamonaviy hisob-kitoblardagi qiymati bir necha milliard dollarga teng bo'lib, o'sha paytda muhandislar buni amalga oshirib bo'lmaydi deb hisoblashgan [4: 88].

Zubayda xonim Horun ar-Rashidning shunchaki ayoli emas, balki g'azna ustidan nazorat o'rnatgan olgan yagona malika edi. Bundan tashqari, Uning shaxsiy boyligi shunchalik ulkan ediki, uning tasarrufida 1000 dan ortiq xizmatkor va o'zining shaxsiy harbiy bo'linmasi bo'lgan [5: 210].

Zubayda Xonim davlat siyosatida ham kuchli ta'sirga ega. U Barmakiylar xonadoni bilan bo'lgan munosabatlarda xalifaga strategik maslahatlar bergan va xalifalik taxti vorisligi masalasida Muhammad al-Aminning huquqlarini himoya qilgan [3: 156].

Zubayda bintu Jafarning logistik ahamiyati ham juda yuqori e'tiborga loyiq. Zubayda xonim Kufa (Iroq) dan Makkagacha cho'zilgan 1400 kilometrlik yo'l o'sha davrning shoh ko'chasi edi. Yo'l davomida 54 ta yirik bekat barpo etilgan bo'lib, ularning har birida karvonsaroy, masjid, hammom va eng muhimi – suv saqlash omborlari (birka) bo'lgan. Cho'lda adashib qolmaslik uchun yo'l bo'yida tunda olov yoqib qo'yiladigan maxsus minoralar qurdirgan [1: 412]. Bu o'rta asrlardagi ilk tunggi yoritish tizimi edi. Bundan tashqari u o'z davrining tadbirkor ayoli hamdir. Uning Iroq va Misrda o'ziga qarashli yirik er mulklari, bog'lari va tijorat korxonalari bo'lgan. U o'zining shaxsiy ma'murlari (vazir kabi boshqaruvchilari)ga ega edi, bu esa uning mustaqil iqtisodiy subyekt bo'lganini isbotlaydi.

Ibn al-Asir 216-hijriy yil (milodiy 831-yil) voqealari bayonida Zubaydaning vafotini quyidagicha keltirgan: “Ushbu yilda (h. 216) Horun ar-Rashidning xotini va al-Aminning onasi Zubayda binti Jafar Bag'dodda vafot etdi. U o'zining oliyjanoblighi, ibodati va mislsiz saxovati bilan tanilgan edi [9: 421].

Umuman olganda, u o'z davrining eng saxovatli va oqila ayoli sifatida tarixda o'chmas iz qoldirdi deb faxrlanadigan ayol siymosi bo'lib qoldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Zubayda bint Jafar siymosi nafaqat Abbosiylar xalifaligi davri,

balki butun islom sivilizatsiyasi tarixida ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mavqeyini belgilovchi fundamental mezon bo'lib xizmat qiladi. Uning faoliyati islom tarixshunosligida uzoq vaqt davomida shakllanib kelgan "ayollar ijtimoiy hayotdan chetlatilgan" degan biryoqlama va stereotipik qarashlarni ilmiy asosda rad etadi.

Zubayda bint Jafarning davlat boshqaruvidagi bilvosita ishtiroki va uning ijtimoiy loyihalari bugungi kunning gender siyosati va ayollar etakchiligi konsepsiyalari bilan bevosita hamohangdir. Uning misolida ayollarning intellektual salohiyati va moliyaviy resurslarga ega bo'lishi – jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda imperiyaning umumiy infratuzilmaviy taraqqiyoti uchun qanchalik muhim ekanligi namoyon bo'ladi.

Malika tomonidan amalga oshirilgan eng yirik loyiha – "Ayni Zubayda" suv inshooti va Makka sari eltuvchi yo'llardagi karvonsaroylar majmuasi shunchaki xayriya ishi emas, balki strategik ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy investitsiyadir. Bu obidalar savdo yo'llarining xavfsizligi va qulayligini ta'minlash orqali mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirgan. Shuningdek, Abbosiylar sulolasining xalq orasidagi nufuzini va legitimligini mustahkamlagan ayol edi. Madaniy nuqtayi nazardanolib qaraganimizda islom arxitekturasida ayol homiyligining yuksak namunasi bo'lib, kelajak avlod malikalari uchun maktab vazifasini o'tagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Zubayda bint Jafar merosi "ayol kuchi" va uning davlat strategiyasidagi o'rnini shunchaki nazariy tushuncha emas, balki aniq moddiy va ma'naviy natijalarga ega bo'lgan tarixiy reallik ekanligini isbotlaydi. Uning hayot yo'li zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning boshqaruv va ijtimoiy mas'uliyatdagi ulushini oshirish zaruratini ilmiy va tarixiy jihatdan asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. At-Tabariy, Abu Jafar Muhammad. Tarixi ar-rusul val-muluk. 8-jild. – Qohira: Dorul Maorif, 1967. – 650 b.
2. Al-Mas'udiy, Abu-l-Hasan. Muruj az-zahab va ma'odin al-javhar. – Bayrut: Al-Maktaba al-Asriya, 2005. – 480 b.
3. Ibn Xallikon, Shamsuddin. Vafoyot al-a'yon. 2-jild. – Bayrut: Dor as-Sodir, 1972. – 540 b.
4. Abbott, Nabia. Two Queens of Baghdad: Mother and Wife of Harun al-Rashid. – Chicago: University of Chicago Press, 1946. – 277 p.
5. Kennedy, Hugh. The Court of the Caliphs. – London: Weidenfeld and Nicolson, 2004. – 320 p.
6. Rashid S.A. Darb Zubayda: The Pilgrim Road from Kufa to Mecca. – Riyadh: Riyadh University Libraries, 1980. – 385 p.

7. Фильштинский И. М. История арабов и Халифата (750–1517 гг.). – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Аст: Восток-Запад, 2006. – 352 с.
8. Кеннеди Х. Двор халифов / Хью Кеннеди; пер. с англ. Н. Тартаковской. – М.: Аст: Аст Москва: Хранитель, 2007. – 412 с.
9. İbnü'l-Esîr. İslâm Tarihi: El-Kâmil Fi't-Tarih Tercümesi / İbnü'l-Esîr; çev. A. Köşe; red. M. Tulum. – İstanbul: Bahar Yayınları, 1987. – Cilt 6. – 520 s.

REGIONAL ADMINISTRATION IN “DÎWÂN LUGHĀT AL-TURK”

Kuldashev Sarvar Mahmudovich
Lecturer at Tashkent University of Social Innovations
PhD in Historical Sciences,

Annotatsiya: Maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lugatit turk” asari asosida Qoraxoniylar davlati mintaqaviy boshqaruv tizimi va ma‘muriy iyerarxiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda bek, tarxon, tudun kabi unvonlarning huquqiy maqomi, ularning iqtisodiy jarayonlar (dehqonchilik va chorvachilik) bilan bog‘liqligi hamda turkiy davlatchilik terminlarining evolyutsiyasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Qoshg‘ariy, Qoraxoniylar, mintaqaviy boshqaruv, ma‘muriy unvonlar, turkiy davlatchilik, iyerarxiya.

Аннотация: В статье на основе труда Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк» анализируется система регионального управления и административная иерархия Караханидов. Исследуются правовой статус титулов (бек, тархан, тудун), их связь с экономикой региона (земледелие и скотоводство), а также эволюция тюркской административной терминологии.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, Караханиды, региональное управление, административные титулы, тюркская государственность, иерархия.

Abstract: Based on Mahmud al-Kashgari's “Dīwān Lughāt al-Turk,” this article analyzes the regional administration and hierarchy of the Karakhanid dynasty. The study examines the legal status of titles such as bek, tarkhan, and tudun, their functional links to the regional economy (agriculture and livestock), and the institutional evolution of Turkic administrative terminology.

Keywords: Mahmud al-Kashgari, Karakhanids, regional administration, administrative titles, Turkic statehood, hierarchy.

The administrative system of the Karakhanid dynasty was established through a synthesis of ancient Turkic statehood traditions and Islamic administrative methods. In the study of this system, Mahmud al-Kashgari’s “Dīwān Lughāt al-

Turk” serves as the most significant primary source, providing comprehensive terminological data on both central and regional governance. While the central administration has been widely discussed in existing scholarship, the mechanisms of regional governance at the provincial, tribal, and village levels – along with their socio-economic foundations – require further specialized research.

The primary objective of this article is to analyze the regional administrative hierarchy of the Karakhanid dynasty as documented in “*Dīwān Lughāt al-Turk*”. Through a linguo-historical approach, this study examines the legal status and functional responsibilities of numerous titles and ranks, including bek, tarkhon, elboshi, tudun, and kul erkin, while highlighting their integral connection to the regional economy, specifically in the sectors of agriculture and livestock management.

The word Bek, articulated in various forms across different dialects, denotes meanings such as title, land, major landowner, master, prince, or guardian. According to the data provided in “*Dīwān Lughāt al-Turk*”, beks governed provinces or smaller territories during the Qarakhanid era [1: 33]. The phrase ‘two beks made peace with each other’ appears in several instances within the work [1: 33]. This confirms that a bek was not a single supreme ruler but rather the governor of a specific administrative territory. The bek resolved the grievances and issues of every citizen who approached him [1: 33]. It was mandatory for beks to issue just decisions and remain steadfast in their commitments. The work discusses the sanctity of a bek’s promise. Furthermore, the bek bestowed titles and gifts upon those he deemed worthy [1: 45]. The authority to punish criminals was also vested in the beks [1: 214]. The text mentions occasional conflicts between beks and notes that they maintained their own armed forces [1: 93]. They conducted the administration of their respective regions and convened councils (kengash) to resolve major issues [1: 152]. Additionally, mobilizing citizens for public works was part of their responsibility [1: 181]. Individuals whose mothers were of bek lineage but whose fathers were commoners were referred to with the term Inal [1: 63].

According to Orkhon inscriptions, in ancient Turkic dynasties, beks served as the Khagan’s assistants, acting as “sentinels” who guarded provinces and monitored provincial affairs [2: 836]. The term bek was first utilized during the Hun Empire [3: 23]. In ancient Turkic dynasties, it was a title held by chiefs who governed tribes. Beks were responsible for maintaining internal tribal solidarity, regulating law and justice, and defending tribal interests with arms if necessary; they were elected to this position based on their bravery, honesty, military prowess, and financial standing [4: 202]. Beks were also expected to be learned individuals. Yusuf Khass Hajib’s “*Qutadgu Bilig*” provides detailed descriptions of the ideal characteristics and duties of a bek [5: 335-340]. Even after the Turks embraced Islam, this title

retained its original administrative significance. In the Qarakhanid dynasty, senior officials held this title. In “Qutadgu Bilig”, the title bey generally signified “ruler”. Among the Seljuks, the title was used as bey (e.g., Chaghri and Tugrul Beys). The status of the bek title rose further under the Golden Horde and the Ottomans, as evidenced by the position of the ulus begi in the Golden Horde. Moreover, the title was also applied to women; the use of the form begum for ladies in the Turkic courts of India confirms this [6: 346-358]. An analysis of the contexts where the bek title is used demonstrates that they performed duties such as regional administration, military command, and the establishment of legal order.

The term Tarkhon, used in the work with the meaning of “bek”, is an Arghu word that signified the rank of bek in the pre-Islamic period [1: 175]. While some historians equate this term with the title tarkan [7: 325; 8: 226], other scholars emphasize that it shares the same meaning as the term alpagut found in “Dīwān Lughāt al-Turk” [9: 105-129].

This ancient Turkic title represented various administrative and military meanings across different Turkic dynasties and eras. Specifically, during the period of the Turkic Khaganate, it denoted a “military leader” [10: 161, 310]; among the Uyghurs, it signified a “deput” or “vizier” [11: 225-226]; and in the 10th century among the Oghuz, it referred to a “military commander”. Furthermore, according to the Hudud al-Alam, it represented a “ruler” among the Khazars [12: 312], and based on the records of Ibn Khordadbeh, the ruler of Samarkand held the title of tarxon [13].

Mahmud al-Kashgari writes: “El (Horse) is a specific noun. For the horse is the wing of the Turk. A horse breeder is called ‘elbosh’, which signifies the head of a province”. Horses held a paramount significance in the lives of the Turks. Their nomadic lifestyle and the conquest of vast territories were inextricably linked to the peerless role of horses. The abundance of descriptions regarding horses in “Dīwān Lughāt al-Turk” serves as a testament to this fact. An individual possessing a large number of horses was held in high esteem.

Consequently, when appointing governors to various regions, Qarakhanid rulers selected individuals based on the size of their herds. Such individuals were also held responsible for the ruler's horses within that specific territory. “Dīwān Lughāt al-Turk” defines this administrative role with the term elboshi [14: Vol. I, p. 82].

The term Tarkhan is associated with the ancient Turkic title Tangriken. Regarding this, “Dīwān Lughāt al-Turk” provides the following definition: Tarkhan is an address from the Khakaniyya class used for those who became kings of provinces. It is not used for individuals who are not at the helm of a khaganate or kingship. The meaning of this word is “O, the one who is obeyed” [1: 177].

Chinese sources report the existence of this title in the Tabghach (Tuoba) kingdoms [15: 556; 7: 325]. In ancient Turkic inscriptions, the word appears in forms such as Bogu tarkhan, Ogul tarkhan, and Oba tarkhan [16: 75-77; 17: 55]. Among the Bulgar Turks, an individual with the title Ulug Tarkhan governed the state [18: 99]. This title was later adopted by other Turkic dynasties, where it was often used for women belonging to the ruling lineage [19: 66; 20: 53; 21: 226].

The Qarakhanid dynasty encompassed various tribes, each with leaders named according to their tribal origins. Consequently, “*Dīwān Lughāt al-Turk*” provides several titles for tribal chiefs and village elders. While some tribal elders were titled by the sovereign, others were designated by the tribe itself. During this period, it is evident that tribal elders were both appointed by the ruler and elected by the community members. For instance, when a ruler appointed a leader for a specific tribe, he would gift him a horse. Following this, the tribal elder and chief would assume the title *atlig* [1: 107].

Agriculture held great significance during the period in which the author lived. The Turkestan region, in particular, has practiced irrigated farming since ancient times. Consequently, the responsibility for water supply and its distribution was of paramount importance. In “*Dīwān Lughāt al-Turk*”, the official in charge of this task is identified as the *tudun*, who simultaneously served as the village elder. The systematic distribution of water in villages was considered a guarantee for a bountiful harvest. For this reason, a respected village elder, whose authority was absolute, was appointed to this position [14: Vol. I, p. 386].

Historically, *tuduns* performed a variety of functions. Originally, during the era of the Turkic Khaganate, this was a hereditary title granted to administrators who did not belong to the ruling family; their primary duty was to oversee taxes and customs duties within the state. Similarly, in the Western Turkic Khaganate, in addition to the deputies appointed to the western provinces, individuals assigned to maintain administrative control and oversee taxes and levies also held the title *tudun* [22: Vol. 2, p. 216].

Indeed, the representative appointed to the Shosh province by the Western Turkic Khagan, Tong Yabghu, held the title *tudun* and was responsible for the administrative and fiscal oversight of the region [23: 457]. By the Qarakhanid era, *tuduns* exclusively monitored the specific villages and territories assigned to them. It appears that due to the critical importance of providing the village with water, the task of water distribution was entrusted to *tuduns* [14: Vol. III, p. 180]. Following the transition where Turkic titles were replaced by Arabic and Persian terms under the influence of Islam, the title *tudun* was superseded by terms such as *mirob* or *mirobbosh*.

Mahmud writes that village and Turkmen elders were granted the title of *kokyuk* [14: Vol. III, p. 146]. This term also appears in the “*Qutadgu Bilig*” with the meaning of an elder and a high-ranking official in the state administration [5: 424].

The term *chuban*, interpreted in “*Dīwān Lughāt al-Turk*” as “assistant to the village elder” [1: Vol. I, p. 382], was utilized as a title among the Danubian Bulgars and Hungarians [24: 131], and as a clan name among the Pechenegs [25: 33-43]. This Turkic term also entered Slavic languages signifying a “district chief” or “provincial leader” [26: 178]. It is known that *chuban*, which conveyed the meanings of “guardian, protector, or guide” in Turkic dialects, was employed as an official title during the period of the Turkic Khaganate [27: 34].

According to “*Dīwān Lughāt al-Turk*”, the term *chufgha* was used among the Qipchaqs and Oghuz to denote a leader or guide; furthermore, the relay horse exchanged by a messenger on the road was also referred to by this same term [1: 400].

Mahmud applied the term *kol erkin* to the leader of the Qarluqs. He defined the word *erkin* as a “collection of water”, noting that the term *erkin* is applied to any gathered or accumulated entity. The practice of calling Qarluq elders *kol erkin* is derived from this; it signifies an individual whose intellect is as vast and profound as a brimming lake [14: Vol. I, p. 132].

Some researchers consider this title to be a rank within the Turkic state hierarchy that follows the Khan but precedes the *bek* [28]. The Uyghurs also utilized this title [29: 336]. According to information provided by Ibn Fadlan, among the Oghuz, the holder of this title maintained the status of a tutor to the heir to the throne [19: 64; 12: 312]. Chinese sources also record the existence of the title “*Sse-kin I-kin*” among the Turks [30: 31-56]. By the Qarakhanid era, this term was used in reference to learned and highly intellectual individuals.

The analysis of the regional administration system in “*Dīwān Lughāt al-Turk*” demonstrates that the Karakhanid dynasty possessed a sophisticated hierarchical structure shaped by ancient Turkic statehood traditions and the economic requirements of the region. At the provincial level, titles such as *bek*, *elboshi*, *tarkhon*, and *tarkan* exercised supreme administrative and military authority, while specialized positions like *tudun*, *kokyuk*, *chuban*, and *kol erkin* ensured effective governance within villages and tribes.

The study concludes that the institution of the “*bek*” functioned not merely as a social class, but as the foundation of administrative leadership endowed with judicial powers, military command, and regional autonomy. Furthermore, the existence of roles such as the *tudun*, responsible for water distribution in irrigated agricultural settings, and the *elboshi*, who oversaw livestock management, highlights the integral connection between the administrative system and the

economic life of the population. Although these Turkic titles were later superseded by Arabic and Persian equivalents under Islamic influence, their functional responsibilities remained fundamentally unchanged. This confirms the institutional continuity of governance culture in Central Asia and underscores the status of Mahmud al-Kashgari's work as an indispensable primary source for the study of this historical system.

References:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 488 б.
2. Hüseyin Namık Orkun. Eski Türk Yazıtları. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 1987. – S. 836.
3. Altheim, F. Geschichte der Hunnen. Vol. I. – Berlin: De Gruyter, 1959. – S. 23.
4. Kafesoğlu, İ. Türk Millî Kültürü. – Ankara: Türk Kültürünü Araştırma Enstitüsü, 1977. – S. 202.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 335-340, 424-betlar.
6. Konukçu, E. Hindistan'da Kurulan Türk Devletleri (1206-1414) // Tarihte Türk Devletleri I. – Ankara, 1987. – S. 346-358.
7. Eberhard, W. Bir kaç eski Türk ünvanı hakkında // Belleten. – 1945. – Sayı 35. – S. 325.
8. Brockelmann, C. Hofsprache in Alturkestan // Verzameling van Opstellen, Festschrift fur Prof. Schnjnen. – 1929. – S. 226.
9. Frye, R.N. Tarxun-Türxün and Central Asian History // Harvard Journal of Asiatic Studies. – 1951. – Vol. 14. – Pp. 105-129.
10. Ғайбулла Бобоёров. Ғарбий турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Янги нашр, 2018. – 161, 310-betlar.
11. Caferoğlu, A. Eski Türkçe Uygur Sözlüğü. – İstanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları, 1968. – S. 225-226.
12. Hudud al-'Alam. The Regions of the World: A Persian Geography / Translated by V. Minorsky. – London: Luzac & Co, 1937. – P. 312.
13. İbn Hurdazbih. Yollar ve Ülkeler Kitabı / Çeviren: Murat Agarı. – İstanbul: Kitabevi, 2008.
14. Маҳмуд Кошғарий. Девону lug'otit turk. I-III tomlar / Таржимон С. Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1960-1963.
15. Liu Mau-Tsai. Die Chinesischen Nachrichten zur geschichte der Ost türken (Tu-küe). II. – Wiesbaden: Harrassowitz, 1958. – S. 556.
16. Giraud, R. L'Empire des Turcs célestes. – Paris: Adrien-Maisonneuve, 1960. – S. 75, 77.
17. Hirth, F. Nachworte zur Inschrift des Tonjukuk // ATİM. II. Folge. – 1899. – S. 55.

18. Menges, K.H. Altaic Elements in the proto-Bulgarian inscriptions // Byzantion. – 1951. – Vol. XXI. – P. 99.
19. İbn Fadlan. Seyahâtname / Çeviren: R. Şemmen. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1954. – S. 64, 66.
20. Sümer, F. Oğuzlar (Türkmenler). – Ankara: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1972. – S. 53.
21. Gülbeden Begüm. Hümayunnâme / Çeviren: Yelgar Abdürrab. – Ankara, 1987. – S. 226.
22. Peter Golden. Khazar Studies: An Historio-Philological Inquiry into the Origins of the Khazars. Vol. 2. – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1980. – P. 216.
23. Gerard Clauson. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford: Clarendon Press, 1972. – P. 457.
24. Gy. Moravcsik. Byzantinoturcica. II. Die byzantinischen Quellen der Geschichte der Türkvolker. – Berlin: Akademie-Verlag, 1958. – P. 131.
25. Kurat, A.N. Peçenek Tarihi. – İstanbul: Devlet Basımevi, 1937. – S. 33-43.
26. Menges, K.H. Schwierige slavisch-orientalische Lehnbeziehungen // Ural-Altaische Jahrbücher. – 1956. – Bd. XXXI. – S. 178.
27. Chavannes, É. Documents sur les Tou-kiue (Turcs) occidentaux. – Saint-Petersbourg: Académie Impériale des Sciences, 1903. – S. 34.
28. Gerard Clauson. The Earliest Turkish Loan Words in Mongolian // Central Asiatic Journal (CAJ). – 1959. – Vol. IV, No. 3.
29. Räsönyi, L. Sur quelques catégories des noms de personnes en Turc // Acta linguistica. – Budapest, 1953. – Vol. III, No. 3-4. – P. 336.
30. Bombaci, A. On the ancient Turkic title Eltabar // Proceedings of the IXth Meeting of the PIAC. – Naples, 1970. – Pp. 31-56.

XAMZA XORIJIY HARAKATI TARIXIGA OID MANBALAR VA TADQIQOTLAR TAHLILI

Azimova Iroda Xomidjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrası taynch doktoranti

Annotation: This article analyzes the primary sources and modern scholarly studies concerning the Kharijite movement led by Hamza ibn Adharak (Atrak) in Sistan and Khurasan during the early Abbasid period. Special attention is paid to the information preserved in Arabic and Persian historical chronicles, including *Tarikh-i Sistan*, al-Tabari, Ibn al-Athir, and other medieval authors. The article examines the political, social, economic, and religious factors that contributed to the emergence and development of Hamza's movement, as well as its impact on the political situation in the eastern provinces of the Abbasid Caliphate. Furthermore, the views of modern scholars on the nature of the rebellion, its ideological foundations, and its place in the history of the Kharijite movement are critically analyzed. The study demonstrates that Hamza's uprising was not merely a religious

protest but also reflected the socio-economic grievances of local populations against the policies of the Abbasid administration. The research contributes to a better understanding of the political and social history of Sistan and Khurasan in the late eighth and early ninth centuries.

Keywords: Hamza ibn Adharak, Kharijites, Sistan, Khurasan, Abbasid Caliphate, Islamic historiography, Tarikh-i Sistan, rebellion, social movements, medieval Islamic history.

Аннотация: В данной статье анализируются источники и научные исследования, посвященные хариджитскому движению Хамзы ибн Азарака (Атрака) в Систане и Хорасане в период раннего Аббасидского халифата. Особое внимание уделяется сведениям, содержащимся в арабских и персидских исторических хрониках, включая «Тарих-и Систан», труды ат-Табари, Ибн ал-Асира и других средневековых авторов. Рассматриваются политические, социально-экономические и религиозные предпосылки возникновения и развития движения Хамзы, а также его влияние на политическую ситуацию в восточных провинциях Аббасидского государства. Кроме того, проводится анализ взглядов современных исследователей на характер восстания, его идейные основы и место в истории хариджитского движения. Исследование показывает, что движение Хамзы представляло собой не только религиозную оппозицию, но и выражение социального недовольства местного населения политикой аббасидской администрации. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию политической и социальной истории Систана и Хорасана конца VIII – начала IX вв.

Ключевые слова: Хамза ибн Азарак, хариджиты, Систан, Хорасан, Аббасидский халифат, исламская историография, «Тарих-и Систан», восстание, социальные движения, средневековая история ислама.

Hamza ibn Atrak al-Xorijiy Abu Xuzayma Abdulloh VIII asr oxiri IX asr boshlarida Abbosiylar davrida Seiston va Xuroson hududlarida faoliyat yuritgan xorijiylar qo'zg'oloni rahbari hisoblanadi. U Bost shahrining sharqida, janubiy Afg'onistonda joylashgan hududdagi dehqonlar tabaqasiga mansub oiladan chiqqan bo'lib, mazkur mintaqada xorijiylarning markaziy hokimiyatga qarshi harakatlari uzoq tarixiy an'anaga ega edi.

Hamzaning qo'zg'oloni hijriy 179-yilda (milodiy 795–796-yillar) yoki ehtimol undan keyingi ikki yil ichida Seistonning qishloq hududlarida boshlangan. Bu harakat nafaqat Abbosiylar xalifaligining rasmiy vakillariga, balki xorijiylarning raqib guruhlariga qarshi ham qaratilgan edi. Hamza o'zini “Amir al-mo'minin” (“Mo'minlar amiri”) deb e'lon qildi va hijriy 182-yilda (milodiy 798-yil) Xuroson voliysi Ali ibn Iso ibn Mahon boshchiligidagi xalifalik qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi.

Biroq u sunniylik tayanchi va xalifalik hokimiyatining muhim markazlari hisoblangan Zarang, Hirot va Nishopur kabi yirik shaharlarni egallashga muvaffaq bo'la olmadi. Shunga qaramasdan, Hamza tarafdorlari Bayhaq shahrini talon-toroj qildilar hamda qishloq hududlarida vahima va beqarorlikni yuzaga keltirdilar. Ular ataylab soliq yig'uvchilarni o'ldirib, sharqiy viloyatlardan Bag'dodga yuboriladigan moliyaviy tushumlarning uzluksiz oqimini izdan chiqardilar.

Shu tariqa, Hamza boshchiligidagi harakat nafaqat diniy, balki yaqqol ijtimoiy mazmunga ham ega edi. Mazkur qo'zg'olon Abbosiylar ma'murlari tomonidan amalga oshirilayotgan ekspluatatsiya va zulmdan norozi bo'lgan mahalliy aholi kayfiyatining ifodasi bo'lib xizmat qildi. Aynan xorijiylarning ushbu faoliyati xalifa Horun ar-Rashidni hijriy 193-yilda (milodiy 808-yil) Hamzaga qarshi shaxsan yurish qilishga qaror qabul qilishga majbur etdi. Manbalarda Horun ar-Rashid bilan Hamza al-Xorijiy o'rtasida almashilgan maktublar matni saqlanib qolgan bo'lib, ular orasida xalifaning Hamzaga yuborgan ultimatum maktubi hamda Hamzaning unga bergan qat'iy va mensimasdan yozilgan javobi mavjud.

Biroq Horun ar-Rashid keyingi yili qo'zg'olonchilarga qarshi sezilarli muvaffaqiyatga erishmasdan vafot etdi. Hamzaning faoliyati esa yana qariyb yigirma yil davom etdi. U hijriy 213-yil jumod as-soniy oyida (milodiy 828-yil avgust–sentyabr oylarida) vafot etdi. Shunday qilib, Hamza ibn Ozarak qariyb o'ttiz yil davomida Sharq xorijiylarining eng nufuzli va yetakchi arbobi bo'lib qoldi.

Xamza haqidagi ma'lumotlar Tabariy, Ibn al-Asir, Abdulqahhor Bag'dodiy, Ibn Funduq, Gardiziy va Tarixi Seiston asarlarida keltirilgan [1].

O'rta Osiyoning V–VIII asrlar tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” asaridir. Asar umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bo'lsa-da, keltirilgan faktik materiallarning boyligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda olamning yaratilishidan 912–913-yillagacha bo'lgan vaqt oralig'ida Arabiston, Kichik Osiyo, Arab xalifaligi, O'rta Osiyoda sodir bo'lgan voqealar to'g'risida muhim ma'lumotlar mavjud.

“Tarixi ar-rusul va-l-muluk” asari XIX asrda eski o'zbek va uyg'ur tillariga tarjima qilingan [2]. 1989-yilda asarning qisqartirilgan tarjimasini V.I.Belyayev va O.G.Bolshakovlar tomonidan rus tilida nashr etildi [3].

Asarning bizgacha yetib kelgan to'liq nusxasining ingliz tiliga qilingan tarjimasini Nyu-York shahrida 40 jildda nashr etilgan [4]. Ushbu nashr asarning eng mukammal tarjimasidir. Asarda Xurosondagi eng yirik xorijiylar isyonlaridan biri Hamza Xorijiy harakati haqida ma'lumotlar keltirilgan. “Shu yili 179-hijriyda (27-mart 795 – 15-mart 796) Hamza ibn Atrak as-Sijistoniy Xurosonda xorijiylar qo'zg'oloniga boshchilik qildi [5]. Shu yili 185-hijriyda (20-yanvar 801 – 5-yanvar 802) Abdulrahmon al-Abnavi Marj al-Qal'a joyida isyonchi (xorijiy) Aban ibn Qatobani o'ldirdi. Shu yili xorijiy 185-hijriyda [al-Shariy] Hamza Xurosonga

qarashli Bodg'is viloyatida fitna chiqardi. So'ngra Iso ibn Ali ibn Iso Hamzaning o'n ming tarafdorlariga hujum qilib ularni qirib tashladi va hatto Qobul, Zabuliston va al-Qandahorgacha yetib bordi. Abu al-'Uzofir bu voqealar haqida shunday degan: "Iso go'yoki Iskandar Zulqarnayn bo'lib qoldi; u ikki Sharq va ikki G'arbga yetdi. U na Qobulni, na Zabulistonni, va So'ngra atrofdagi hududlarni ham ikki al-Ruxxajgacha zabt etdi" [6].

Yirik arab tarixchisi Izaddin ibn al-Asir al-Jazariy (1160-1234) bir necha tarixiy asarlar yozib qoldirgan. Biz uchun uning "Al komil fi-t-tarix" ("Mukammal tarix") nomli 12 jildlik asari muhimdir. Asarning 1-6-jildlari kompilyatsiya bo'lib, muallif Tabariy, ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlaridan keng foydalangan. Asarning 7-12-jildlari mustaqil ahamiyatga ega bo'lib, 924-1231-yillar orasida Sharq mamlakatlari, jumladan Markaziy Osiyoda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi. Bu qism asosan qo'lyozma manbalar, Shuningdek, tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari bilan to'plangan faktik materiallar asosida yozilgan. Asarning alohida mamlakatlar va xalqlar tarixiga bag'ishlangan ayrim qismlari turli davrlarda rus, fransuz, daniya tillarida (Sankt Peterburg, Jazoir, Kopengagen, Istanbul, Moskva, Boku, Dushanbe va Toshkent [7]) nashr qilindi. Asar to'liq holatda faqat turk tiliga tarjima qilingan [8]. 1851-1876-yillar oralig'ida S.J.Tornberg tomonidan 14 jilddan iborat matni nashr etilgan [9]. "Al komil fi-t-tarix"ning O'rta Osiyoga tegishli qismlari P.G.Bulgakov va uning shogirdi Sh.Kamoliddinlar tomonidan rus tiliga o'girilib, Toshkentda 2006-yilda nashr etildi [10]. Ibn al-Asir qalamiga mansub ushbu asarning Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II zamonida o'zbek tiliga qilingan tarjimalari ham mavjud [11]. O'rta Osiyoning eftaliylar, turklar va arablar istilosidan boshlab to Somoniylar davlatining tugatilishigacha bo'lgan davrga oid ma'lumotlar qayd etilgan [12]. Asarda xorijiylar haqida quyidagi ma'lumotlarni o'qishimiz mumkin: "Bu yil Horun ar-Rashid Xuroson voliyasi bo'lgan Mansur ibn Yazidni ishdan oldi, o'rniga esa Ali ibn Iso ibn Mohonni tayinladi va Ali ibn Iso Xurosonda o'n yil voliylik qildi. Ali ibn Isoning voliylik davrida isyon ko'targan va ayni paytda xorijiy bo'lgan Hamza ibn Atruk Bushenjga keldi va unga Hirotda bo'lgan Amravayh ibn Yazid al-Azdiy olti ming kishilik bir kuch bilan qarshilik ko'rsatdi. Hamza Amravayhni jangda yengdi va uning bir guruh askarini o'ldirdi. Shu orada Amravayh ham izdihomda siqilib o'ldi. Shundan so'ng Ali ibn Iso o'g'li Husaynni o'n ming kishilik bir kuch bilan Hamza ustiga yubordi; lekin Husayn Hamza bilan jang qilmagani uchun Ali ibn Iso o'g'li Husaynni ishdan oldi va o'rniga boshqa o'g'li Isoni yubordi. Iso Hamza bilan jang qildi, lekin natijada Hamza uni yengdi. Ali ibn Iso o'g'li Isoni yana Hamza ustiga yubordi. Iso Boharzda jangga kirishgan paytda Hamza Nishopurda edi. Hamza bu jangda yengildi va ancha

tarafdori o'ldirildi. O'zi esa yonida qolgan qirq kishi bilan birga Kuhiston tarafga ketdi".

Muallifi noma'lum "Ta'rix-i Seiston" asari Markaziy Osiyodagi VIII-IX asrlarda faoliyat olib borgan xorijiylar tarixga oid manba hisoblanadi. Faqat "Ta'rix-i Seiston"ning mavjudligi tufayli professor Bosvortning ushbu mintaqaning arablar istilosidan to Safforiylar (651-864) yuksalishigacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan monografiyasi kabi kitob yozish mumkin bo'ldi.

"Ta'rix-i Seiston" asarida biz faqat boshqa manbalarda (Tabariy, Ibn al-Asir, Bag'dodiy) ham yaxshi ma'lum bo'lgan VIII – IX asrlar chegarasida Seistonda sodir bo'lgan dehqonlar va hunarmandlar qo'zg'oloni haqida emas, balki umuman xorijiylar harakati tarixi haqida ham batafsil ma'lumotlarni topamiz. Bu qo'zg'olon Xamza ibn Abdulloh boshchiligida, xorijiylik mafkurasi ostida yuzaga kelgan edi. Asar muallifi Xamza xorijiy, Abbosiylar zulmiga qarshi isyon ko'targan birinchi xalq qahramoni sifatida unga xayrixohlik bildiradi. Xalq Xamza xotirasini yodda saqlab, u haqida tarixiy shaxs va afsonaviy qahramonni birlashtirgan "Rumuz-i Xamza" ("Xamza sirlari") nomli qahramonlik dostoni yaratdi. "Ta'rix-i Seiston" asarining katta afzalligi shundaki, unda faqat shu manbada saqlanib qolgan Horun ar-Rashidning Xamzaga yozgan maktublari va Xamzaning Horun ar-Rashidga javob maktubi mavjud. Bu maktublarning tarixiy ahamiyati professor Skarchi va professor Bosvort tomonidan tadqiq etilgan.

Xamza xorijiy va uning 796–807-yillarda Seiston hamda Xurosonda xalifa noibi bo'lgan Ali ibn Isoning zulm va tartibsizliklarga qarshi olib borgan kurashiga bag'ishlangan boblar ham xorijiylar harakatini qo'llab-quvvatlash ruhi bilan yozilgan. Buni, shuningdek, Laysning o'g'illari bo'lmish Safforiylar sulolasi asoschilari Ya'qub va Amr ibn Laysni ko'klarga ko'tarilib maqtalishida ham ko'rish mumkin. 213/828-29 yilda Ahmad ibn [Abu] Xolid Sijiston voliyasi etib tayinlandi. U Sijistonga kelganda, Hamza al-Xorijiy boshchiligidagi xorijiylar harakati unga qarshi chiqib, shaharga kiritmadilar. Ahmad ular bilan shiddatli janglar olib bordi va g'alabaga erisha olmasdan Xurosonga qaytdi [13].

XI asrda yashab o'tgan yirik tarixchilardan biri Abulhay Gardiziy hisoblanadi. Gardiziy o'zining "Zayn ul-axbor" ("Xabarlar bezagi") nomli asari bilan shuhrat qozongan. Asarda islomiyatdan oldingi Eron podshohlaridan to 1041-yilgacha Xurosonda bo'lib o'tgan voqealar haqida so'z yuritiladi hamda O'rta Osiyoning turkiy aholisi haqida, Xuroson va Movarounnahrning arablar istilosidan to XI asrgacha bo'lgan siyosiy tarixi to'g'risida keng ma'lumotlar beriladi. Asarning tanqidiy matni Tehronda 1954-yili Said Nafisiy tomonidan nashr etilgan. "Zayn ul-axbor"ning A.K.Arendes tomonidan amalga oshirilgan rus tilidagi tarjimasi ham bor [14]. Asarda Xurosondagi xorijiylar harakatining yirik vakili hisoblangan Xamza haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan: "So'ngra ar-Rashid Xurosonni

Mahdiyning ona tomondan tog'asi bo'lgan Yazid ibn Mansurga topshirdi. Mansur o'z o'g'li Sa'idni noib qilib tayinladi. Sa'id hijriy 179-yilning zulqa'da oyida Xurosonga yetib keldi, Mansurning o'zi esa shu yilning zulhijja oyida keldi.

Mansur hukmronligi davrida xorijiy Hamza ibn Azarak qo'zg'olon ko'tardi. U Kuhistonga yo'l oldi va Kuhiston aholisi Hamzaga u talab qilgan barcha narsani berdi. Shundan so'ng u ketdi.

Keyin Horun Xurosonni Ali ibn Iso ibn Mohonga topshirdi. U esa o'z o'g'li Yahyoni oldindan yubordi. Yahyo ibn Ali hijriy 180-yil boshida Xurosonga yetib keldi va o'n yil davomida Xuroson hokimi bo'lib qoldi. Uning dabiri Hafs ibn Mansur Marvaziy edi. Hafs vafot etdi va undan oltmish o'g'il qoldi: yigirmatasi balog'atga yetgan, qirqtasi esa voyaga yetmagan edi. Hafs Xuroson xiroji haqida kitob yozgan edi.

Ali ibn Iso hukmronligi davrida xorijiy Hamza Pushanggacha bo'lgan hududlarda qo'zg'olon ko'tardi. Hirot boshqaruvi Amraviya ibn Yazid al-Azdiy qo'lida edi. Amraviya olti ming askar bilan Hamzaga qarshi yurish qildi. Hamza uni mag'lubiyatga uchratdi va uning qo'shinidan ko'plab kishilarni o'ldirdi. Kuchli jazirama tufayli ham ko'pchilik halok bo'ldi. Amraviya ham shu jaziramadan vafot etdi. Uni olib kelib dafn qildilar.

Hamza Astrobodga ketdi. Ali ibn Iso ibn Mohon o'z o'g'li Husaynni o'n ming kishilik qo'shin bilan yubordi. U Bodg'isga kelib Hamzaga maktub yozdi, unga zakot berdi va otasi shu sababli uni lavozimidan chetlatmaguncha Hamza bilan urushmadi.

Shundan keyin u boshqa bir o'g'li — Isoni yubordi. Iso Hamza bilan jang qildi, biroq Hamza Iso qo'shinini tor-mor etib, Balxga ketdi. Otasi Isoga yana bir qo'shin berdi va u yana Hamzaga qarshi urushga yo'l oldi. Bu safar u Hamza qo'shinidan ko'plab kishilarni qirib tashladi. Hamza qirq ming kishi bilan Kuhistonga chekindi.

Ali ibn Iso Ukk va Guvaynga bir necha sarhanglarini yuborib, o'sha joylardagi urushda qatnashmagan xorijiy larni hamda Hamzaga yordam bergan qishloq aholisini qatl etishni va qishloqlarni yoqib yuborishni buyurdi. Ular Zarangigacha yetib bordilar. Rivoyat qilinishicha, shu tariqa o'ttiz ming kishi o'ldirilgan.

Zarangjda Abdulloh ibn Abbos to'rt ming kishi bilan qoldirildi. Abdulloh to'rt ming ming dirhamni o'g'irladi. Hamza unga qarshi Sabzavorgacha bordi va u yerda jang bo'ldi. Sug'diylar va Naxshabliklar Hamza holdan toyguncha jang qildilar. Shundan so'ng ular hujumga o'tib, uning safdoshlarini qirib tashladilar. Hamzaning yuziga jarohat yetkazildi. Abdulloh ibn Abbos mol-mulkni qo'lga kiritib ketdi.

Hamza qishloqlarga hujum qilib, duch kelgan barcha kishilarni o'ldirardi. U bir maktabgacha yetib borib, ustoz bilan birga o'ttiz nafar bolani o'ldirdi.

Tohir bir qishloqda urushda qatnashmagan, uylarida o'tirgan xorijiylar borligini eshitgach... (matnda nuqson mavjud) ... uch yuz erkak va ayol o'ldirildi. Ularning mol-mulki tortib olindi va o'zlari asir qilindi. Daraxtlarning ikkita yo'g'on shoxi arqon bilan bir-biriga tortilar, xorijiyning ikki oyog'i shu shoxlarga bog'lanar, so'ng arqon bo'shatilardi va shoxlar o'z kuchi bilan odamni ikki bo'lakka yorib yuborardi [15].

Iso odamlari bilan Hamza odamlari o'rtasida ko'plab janglar bo'lib o'tdi. Isoning ahvoli yaxshilandi. Balx yaqinidagi As qishlog'ini Iso qurdirdi.

Ar-Rashid Xurosonni Harsama ibn A'yanga topshirdi va u hijriy 191-yilda Xurosonga keldi. Samarqandda Rofi' ibn al-Lays ibn Nasr ibn Sayyor qo'zg'olon ko'tardi. Harsama bir muddat u bilan mashg'ul bo'ldi. Harsama Rofi'ga omonlik va'da qilib maktub yozdi. Rofi' bunga e'tibor bermadi. Bu haqda Rashid eshitgach: "Omonlik haqidagi xabarni rad etgan kishi xor bo'ladi", dedi.

Harsama Tohir ibn al-Husaynni huzuriga chaqirib oldi va Xurosonda qo'shin qolmadi. Shunda Hamza yana chiqib, qotillik va talonchilikni boshladi. Hirot va Siston hokimlari uning huzuriga keldilar. Zarangda Abdurahmon Nishopuriy chiqdi. Yigirma ming g'oziy unga qo'shildi va Abdurahmon atrofida to'plandi.

Hijriy 194-yilda ular Hamzaga hujum qildilar. ("Hamza bilan olti ming kishi bor edi"). Hamza odamlarining katta qismi o'ldirildi va Hamzaning o'zi ham o'ldirildi. U Hirotga yo'l olgan edi, biroq g'oziyilar uning izidan quvib borib, oxir-oqibat uni hijriy 213-yil oylarida o'ldirdilar.

Uning o'rniga Abu Ishoq Qozi turdi. Harsama Samarqandda Rofi' ibn al-Laysni qamal qilib, ko'p janglar olib bordi, nihoyat Samarqandni egalladi va Rofi'ni o'ldirdi.

Movarounnahr hijriy 195-yilda Ma'oz ibn Yahyoga topshirildi, keyinchalik u lavozimidan olinib, hijriy 199-yil sha'bon oyida Injurga berildi.

Horun Rofi' va Harsama haqidagi xabarni eshitgach, tashvishga tushdi, Bag'doddan chiqib Samarqand tomon yo'l oldi. Tusga yetib kelganida hijriy 193-yilda vafot etdi" [16].

Sovet davrida Markaziy Osiyo tarixining VIII-IX asr boshlari to'g'risida jiddiy tadqiqot olib borgan tarixchi T.Kadirova bo'lib, uning "Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в." ("Xuroson va Movarounnahrda VIII–IX asr boshlarida dehqonlar qo'zg'olonlari tarixidan") nomli monografiyasi muhim ahamiyatga egadir [17]. Tadqiqotchi Xuroson va Movarounnahrda yuz bergan xalifalikka qarshi kurash tarixini tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shuning uchun olim asarida Tohiriylar sulolasining hokimiyatga kelishi va xorijiylik harakati mag'lubiyati haqida alohida qism ajratadi [18]. Muallif asarida asosan xalifalik tarkibiga bevosita qo'shib olingan ma'muriy birliklardagi xalq harakatlarini yoritadi.

Amerikalik tarixchi Elton L.Daniel tomonidan yozilgan “The political and social history of Khurasan under Abbasid rule, 747-820” nomli asarida Abbosiylar xalifaligi davrida Xurosondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar masalasini yoritadi [19].

K.E.Bosvortning “Sīstān under the Arabs, from the Islamic Conquest to the Rise of the Saffārids (30–250/651–864)” nomli fundamental tadqiqoti Sistoning arablar istilosidan to Safforiylar sulolasining shakllanishigacha bo‘lgan tarixini yoritishga bag‘ishlangan. Asarda VIII–IX asrlarda Siston va Xuroson hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlili markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Shu nuqtai nazardan muallif Hamza ibn Ozarak (Atrak) al-Xorijiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon tarixiga alohida e‘tibor qaratgan [20].

Bosvort Hamza harakatini an‘anaviy diniy qo‘zg‘olon sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida baholaydi. Olimning fikricha, Hamza boshchiligidagi xorijiy harakati faqat diniy muxolifatning ifodasi bo‘lmay, balki Abbosiylar ma‘muriyatining soliq siyosati, mahalliy aholi manfaatlarining cheklanishi hamda markaziy hokimiyat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy ekspluatatsiyaga qarshi norozilikning namoyon bo‘lish shakli edi. Shu sababli muallif qo‘zg‘olonning diniy jihatlari bilan bir qatorda uning ijtimoiy asoslarini ham tahlil qiladi.

Tadqiqotda Hamzaning kelib chiqishi masalasiga ham to‘xtalib o‘tiladi. Bosvort uni Bostning sharqidagi janubiy Afg‘oniston hududidan chiqqan dehqonlar tabaqasiga mansub shaxs sifatida tavsiflaydi. Muallif Siston va unga tutash hududlarda xorijiylik harakatining uzoq tarixiy an‘analarga ega bo‘lganligini ko‘rsatib, Hamza qo‘zg‘oloni aynan shu tarixiy muhitda shakllanganligini ta‘kidlaydi.

Bosvortning yondashuvida Hamzaning siyosiy faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Olimning qayd etishicha, Hamza o‘zini “Amir al-mo‘minin” deb e‘lon qilgan va 798-yilda Xuroson voliysi Ali ibn Iso ibn Mohon yuborgan qo‘shinlarni mag‘lub etishga muvaffaq bo‘lgan. Biroq u Zarangj, Hirot va Nishopur kabi yirik ma‘muriy markazlarni egallay olmagan. Shunga qaramay, uning tarafdorlari qishloq hududlarida uzoq vaqt davomida Abbosiylar hokimiyatiga jiddiy tahdid solib kelganlar.

Muallifning eng muhim xulosalaridan biri shundaki, Hamza harakati Sharqdagi xorijiy tarixida eng uzoq davom etgan va eng ta‘sirchan harakatlardan biri bo‘lgan. Bosvortning hisoblashicha, Hamza qariyb o‘ttiz yil davomida Sharq xorijiyalarining yetakchisi sifatida faoliyat yuritgan va uning harakati Siston hamda Xurosondagi siyosiy vaziyatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Hatto xalifa Horun ar-Rashidning shaxsan unga qarshi yurish uyushtirishga qaror qilgani ham qo‘zg‘olonning qanchalik jiddiy xavf tug‘dirganligini ko‘rsatadi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan Bosvorthning tadqiqoti Hamza ibn Ozarak faoliyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Olim arab va fors manbalari, xususan, "Tarix-i Seiston", Tabariy, Ibn al-Asir, Gardiziy va boshqa mualliflar ma'lumotlarini qiyosiy tahlil qilish orqali Hamza harakatining diniy, siyosiy va ijtimoiy mohiyatini kompleks ravishda yoritishga muvaffaq bo'lgan. Natijada Hamza al-Xorijiy shaxsiyati va uning qo'zg'oloni ilk Abbosiylar davrida Sharqiy Eron va Xurosondagi markaziy hokimiyatga qarshi eng yirik muxolif harakatlardan biri sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Xorijiy harakati VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Siston va Xuroson hududlarida yuz bergan eng yirik siyosiy-diniy harakatlardan biri hisoblanadi. Mazkur harakatning tarixini o'rganishda arab va fors tilidagi manbalar, xususan, "Tarix-i Seiston", Tabariy, Ibn al-Asir va boshqa mualliflarning asarlari muhim manbashunoslik ahamiyatiga ega. Ushbu manbalarda Hamzaning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, Abbosiylar hokimiyatiga qarshi kurashi hamda uning tarafdorlari faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Hamza boshchiligidagi harakatni faqat diniy muxolifat doirasida baholash yetarli emas. Zamonaviy tarixshunoslikda, xususan, K.E.Bosvort, V.Madelung, P.Krone va boshqa olimlarning tadqiqotlarida mazkur harakatning ijtimoiy-siyosiy mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, qo'zg'olonning yuzaga kelishida mahalliy aholining Abbosiylar ma'muriyati olib borgan soliq siyosati, iqtisodiy bosim va siyosiy cheklovlardan noroziligi muhim omil bo'lgan.

Manbalar va ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili Hamza Xorijiy harakati Sharqdagi xorijiy tarixining eng uzoq davom etgan va eng ta'sirchan bosqichlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Harakat qariyb o'ttiz yil davomida Siston va Xurosonning siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, Abbosiylar hokimiyatining sharqiy viloyatlardagi mavqeini zaiflashtirgan. Shu bilan birga, ushbu harakat o'rta asrlar musulmon Sharqidagi diniy-siyosiy muxolifat, mahalliy aholi manfaatlari va markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim tarixiy tajriba sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Hamza Xorijiy harakati tarixiga oid manbalar va tadqiqotlarning o'rganilishi ilk Abbosiylar davridagi Siston va Xurosonning siyosiy, ijtimoiy hamda diniy hayotini chuqurroq anglash imkonini beradi hamda mazkur davr tarixini tadqiq etishda muhim manbashunoslik va tarixshunoslik asos bo'lib xizmat qiladi.

Manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. The History of al-Tabari. / Translated by Carole Hillenbrand. – Vol. 26. – New York. State University of New York Press, 1989. – 300 p., The History of al-

Tabari. / Translated by John Alden Williams. – Vol. 27. – New York. State University of New York Press, 1985. – 250 p., Ibnu'l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. – Cilt 6. – Istanbul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1986. – 492 s., Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) // Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с., Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / перевод с персидского языка А.К.Арендеса. Введение, комментарии и указатели Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1991. – 176 с.

2. Собрание восточных рукописей академии Наук республики Узбекистан // История. Составители Д.Ю.Юсупова, Р.П.Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998. С.22., История Табари. – С. 5-18.

3. История ат-Табари. – С. 5-18.

4. The History of al-Tabari. / Translated by Carole Hillenbrand. – Vol. 1-40. – New York. State University of New York Press, 1985-1999.

5. The History of al-Tabari. Vol. 30. – P. 152.

6. The History of al-Tabari. Vol. 30. – P. 175-176.

7. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (пер. с арабского Б. Вахабовой) // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 93-94 (keyingi o'rinlarda – Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих // МИСЦА).

8. Ibnu'l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. – 12 Cilt. – Istanbul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1985-1991.

9. Ибн ал-Асир. Ibn el-Athiri Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. [I – L.B., 1867; II – L.B., 1868; III – L.B., 1869; IV – L.B., 1870; V – L.B., 1871; VI – L.B., 1871; VII – L.B., 1865; VIII – L.B., 1862; IX – L.B., 1863; X – L.B., 1864; XI – Ups., 1851; Suppl. 1871; XII – Ups., 1853; Suppl. 1871; XIII – L.B., 1874; XIV – L.B., 1876].

10. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-Таърих (Полный свод истории) // Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с.

11. Ибн ал-Асир. تاريخ کامل (эски ўзбек тилига Домулла Отажон Бакчали таржимаси). ЎзР ФА ШИ қўлёзма инв. № 824-825.

12. Ибн ал-Асир. Пер. П.Г.Булгакова. – С. 116.

13. Та'рих-и Систан. – С. 188.

14. Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / перевод с персидского языка А.К.Арендеса. Введение, комментарии и указатели Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1991. – 176 с.

15. Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. – С. 50.

16. Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. – С. 51.

17. Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. – 238 с.
18. Кадырова Т. Из истории крестьянских движений в Мавераннахре и Хорасане в VIII – начале IX в. – Ташкент: Фан, 1965. – С.148-149.
19. Elton L. Daniel. The political and social history of Khurasan under Abbasid rule, 747-820. Minneapolis: Bibliotheca Islamica, 1979. – 223 p.
20. Bosworth C.E. Sīstān under the Arabs, from the Islamic Conquest to the Rise of the Saffārids (30–250/651–864). – Rome: IsMEO, 1968. – 144 p.

AMIR TEMUR DAVRIDA TARBIYA MASALASI

*Gʻaniyev Javoxir Jaxongir oʻgʻli
Fargʻona davlat universiteti
tarix yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davrida taʼlim va tarbiya masalalariga qay tarzda eʼtibor berilganligi tahlil qilinadi. Unda Sohibqiron tomonidan amalga oshirilgan tarbiyaviy islohotlar yosh avlodni tarbiyali, bilimli, jasur va intizomli qilib tarbiyalashga qaratilgan qarashlar, kelajak avlod uchun qoldirgan maʼnaviy merosi hamda nima uchun oʻsha davrda ham tarbiya masalasi katta ahamiyat kasb etganligi tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, Sohibqiron, Temur tuzuklari, taʼlim va tarbiya, jasur, intizom, Amir Taragʻay, Amir Kulol, Kesh, Shahrisabz, Globallashuv, Mirzo Ulugʻbek, Shohrux mirzo, Saroy Mulkxonim, madrasa, 92 urugʻ, Sharofiddin Ali Yazdiy, Zafarnoma.

Аннотация: В данной статье анализируется, какое внимание уделялось вопросам образования и воспитания в эпоху Амира Темура. Рассматриваются воспитательные реформы, проведённые Сахибкираном, а также его взгляды, направленные на формирование у молодого поколения воспитанности, образованности, смелости и дисциплины. Также анализируется духовное наследие, оставленное им для будущих поколений, и объясняется, почему вопросы воспитания имели большое значение уже в тот исторический период.

Ключевые слова: Амир Темура, Сахибкирон, «Уложения Темура», образование и воспитание, храбрость, дисциплина, Амир Тарагай, Амир Кулол, Кеш, Шахрисабз, глобализация, Мирзо Улугбек, Шохрух мирзо, Сарай Мулькханум, медресе, 92 рода, Шарафиддин Али Язди, «Зафарнаме».

Abstract: This article analyzes the attention given to education and upbringing during the reign of Amir Temur. It examines the educational reforms implemented by the great ruler and his views aimed at raising the younger generation to be well-mannered, educated, brave, and disciplined. The article also analyzes the

spiritual heritage he left for future generations and explains why the issue of education and upbringing held great importance even in that historical period.

Keywords: Amir Temur, Sahibqiron, Temur's Codes, education and upbringing, bravery, discipline, Amir Taraghay, Amir Kulol, Kesh, Shahrisabz, globalization, Mirzo Ulugbek, Shahrukh Mirza, Saroy Mulk Khanum, madrasa, 92 tribes, Sharafiddin Ali Yazdi, Zafarnama.

Tarbiya har bir jamiyat va davrni ma'naviy poydevorini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Buyuk ma'rifatparvar va ijodkor Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytqanda: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Ushbu hikmatli va chuqur ma'noga ega fikr tarbiyaning jamiyat hayotidagi beqiyos o'rnini yaqqol namoyon etadi. Darhaqiqat, inson yaxshi tarbiyasi bilan hayotda nimagadur erisha oladi o'zidan keyingi avlodga ma'naviy meros qoldira oladi. Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!", deb aytilgan [12]. Ushbu so'zlarni keng tahlil qilsak, bugungi globallashuv jarayonlari sharoitida tarbiya masalasiga etarlicha e'tibor qaratilmasa, bu jamiyatda turli ma'naviy va axloqiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb va istiqbolli vazifalardan biri – erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'z huquq va burchlarini anglaydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, shaxsiy manfaatlarini xalq va davlat manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra oladigan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir [4: 90]. Tarbiya masalasi nafaqat bugungi kunda balki qadimda ham dolzarb masala va yosh avlod tarbiyasi davlatning asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblangan, yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlarda tarbiya masalasiga doimo alohida e'tibor qaratilganini ko'ramiz. Ayniqsa, XIV asrda Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahr hududida qudratli Temuriylar davlatiga asos solgan Amir Temur davrida tarbiya nafaqat shaxs kamoloti, balki davlat barqarorligining muhim omili sifatida qaralganligini biz tarixiy manbalarda ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Temur tuzuklari"ning bu borada o'rni beqiyos.

Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi va ijtimoiy-siyosiy faoliyati yoritilgan. Ushbu qismda uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi ixcham tarzda bayon etilgan. Shuningdek, Temur 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritganligi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish va turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi olib borgan harbiy yurishlari, hamda ulkan saltanatini

mustahkamlash jarayonida turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday siyosat yuritganligi ham ixcham tarzda tasvirlangan.

Ikkinchi qismda mashhur Jahongirning farzandlariga atalgan vasiyatlari, pand-nasihatlari va o'g'itlari jamlangan. Ushbu qismda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutum va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash mezonlari, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, shuningdek, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'llari va boshqa xususiy masalalar batafsil bayon etilgan [13].

O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezonlari Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlik emas, adolatda ekanini teran anglatdi [8: 77]. Shuning uchun ham Sohibqiron davlat ishlarida adolat va raiyat islom ahkomlarini dastur ul- ammal sifatida foydalangani – bularning hammasi etuk tarbiya, aql zakovat va yaxshi xulq, talim-tarbiya ko'rganligining yaqqol isboti desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyatiga e'tibor qaratsak, u zotning o'zi ham yuksak tarbiyaga ega, qat'iyatli, adolatparvar va ma'naviy barkamol shaxs bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Yoshligida Amir Temur yaxshi tarbiya topgan, zukko qobiliyatli bo'lgan. Otasi Amir Tarag'ay Temurning tarbiyasiga va ilmiy salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratadi, uni 7-yoshida xat-savod chiqarish uchun madrasaga beradi. Madrasada alifboni bilar, turk tilidan tashqari fors tilini ham mukammal egallagan edi, xususan Qur'onni yoddan bilardi [11: 13]. Amir Tarag'ay buyuk Sohibqiron yoshlik paytlaridanoq uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan. Tarag'ay bola ta'lim-tarbiyasini o'zining piri bo'lgan Amir Kulolga topshiradi va Amir Kulol u haqida duo fотиha o'qib bashorat qiladi. Masalan, Amir Tarag'ay piriga shunday deb yuzlangan: "O'glonimni sizga nazr-niyoz qildim, pirim. Uni o'g'illikka va muridlikka qabul qilsangiz". Pir bolani avval peshonasiga yotqizdi, keyin qo'liga oldi. Tarag'ay Bahodir piriga to'la ishonch, mehr va e'tiqod bilan tikildi va chuqur ta'zim qildi. – "Balli, bek, o'tinchingni qabul qildik. Bu kundan e'tiboran o'g'loningiz bizga ham o'g'il, ham murid bo'lg'ay, inshoalloh". – "Qulluq, taqdir. Boshimizni osmon qadar ko'tardingiz". Tarag'ay bahodir ikkala qo'lini ko'ksiga qo'yib, pirga chuqur ta'zim qildi. Amir Kulol bolaning yuziga tashlangan ipak yoprichni asta-sekin ko'tardi, go'dakning yuziga bir zum tikilib turdi, so'ng boshini ko'tarib, Tarag'ay bahodirga murojaat qildi: "O'g'loningning peshonasidan baxtu iqbol, sohibi davlatlik va jahongirlik nurlari porlab turibdur, bek. Inshoalloh, u kelgusida etti iqlimga podshoh bo'lg'ay!" Keyin bolaning yuzini yopib qo'ydi [3: 9,10].

Shu bois ham Amir Temur etti yoshdan to umri nihoyasi etmish yoshiga qadar ulug‘lar o‘giti, hikmati, maslahatidan, ulamolar bilan fikrlashuvidan biror kun ayricha ish qilmadi, unga amal qildi. O‘ziga garchi buyuk saltanat sohibi darajasiga etganida ham ularga shogird o‘rnida qarab hurmat-izzatlarini ortig‘i bilan o‘rniga qo‘ygan [5: 41].

Amir Temur saltanat ishlarida ayniqsa davlatning asosiy vazifalaridan biri shahzodalar tarbiyasiga ham jiddiy e‘tibor qaratgan. Xususan, Amir Temur avlodlarini onasi bo‘lmish kelinlarini tanlashda davlat siyosati bilan teng qilgan. Hammaga ma‘lumki, temuriy shahzodalarga enaga, ya‘ni otaliqlar tayinlangan. Otaliq shahzodalarni tarbiyachilari Amir Temur xonadoniga eng yaqin kishilaridan tayinlangan, ular atka, otabek deb ham atalgan. Otaliqlar hukmdor oldiga bemalol kirish huquqiga ega bo‘lishgan va shahzodalarni har tomonlama mukammal tarbiyalash vazifasini bajarishgan.

Bu xususida manbalarda Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida: “Shanvol o‘yning yigirmi oltisida, torih etti yuz to‘qson oltida Amirzoda Shohruh Mirzoga Hifzat Parvardigor bir saodatmand o‘g‘ul berdi. Mahdi a‘lo Saroy Mulk Xonim sohibqiron qoshiga kishi yuborib, sevinchi tiladi. Temurbek bu xabarni eshitib sevindi, ko‘p nima sevinchi berdi, na buyurdi: «Suhbat asbobini muhayyo qilsunlar!» Bircha tayyor bo‘lgach, bir suhbat tuttularkim, hargez hech ko‘z ko‘rmaydi erdi. Xazina eshigini ochturib, ko‘p yarmog‘ elga berdi. Va bu jihatgin barcha viloyatlarkim, unga taalluqli erdi, bir yillik majn na hirojini Gmgipiadi. Va buyurdi: munajjimlar tati’ mavludini ko‘rsunlar. Mavloni Abdulloh Lisonkim, nujum ilmida bemisli ruzgor, o‘zga donishmandlar bilan toli‘i mavludini ko‘rib dedilarkim, «Bu shahzodai oliytabor, atamda podsho va komkor bo‘lgusi vi xat bobida benaziri sham bo‘lgay. Va hukumat bobida Luqmoni vaqt bo‘lgay». Hazrat sohibqiron bu so‘zlarni eshitib shodmon bo‘lib, donishmandlarga ko‘p inoyatlar va shavqat qildi”, deb yozilgan [7: 171].

Shuningdek, “komkor shahzodalar va oliymiqdor beklar va ulug‘-kichik mulozimlar barcha xurram va shodmon aishu-ishrat bilan mashg‘ul edilar. Va viloyatlardan kelgan sodot va ulamo va mashoyixlarga lutf va in‘om bilan sarafroz bo‘ldilar. Duo bilan tillarini ochib, Hazrat Sohibqironga sano dedilar. Shahzodani Mahdi a‘lo Tuman og‘oki, Bilqisi zamon berdi, unga topshurdilarkim, undan xabardor bo‘lib, muhofizat qilay. U malikai olam xushvaqt bo‘lib, to‘ylar berib, shohzodaning muhofizati bilan mashg‘ul bo‘ldi. Amir Usmon Abbosni otabek qildilar va xotini Sotqin og‘oki, Sohibqironga urug‘ bo‘lur edi, enagaliq bilan muqarrar bo‘ldi. Ular ta‘g‘i bu davlat jihatidan to‘ylar torttirdilar. To‘ylar bir sori bo‘lgach, Sohibqiron seshanba kuni, Zulqa‘da oyining o‘n sakkizi (14.09.1394) Mingk‘oldan ko‘chib, bir ucta ustiga chiqib, davlat bilan tushdi” kabi ma‘lumotlar yuqoridagi fikrga dalil bo‘ladi [7: 172].

Amir Temur shahzodalarni tarbiyalashda aslo beparvolik, haddan oshiq muloyimlikka yo‘l qo‘ymagan. Xususan, “Temur tuzuklari”ning 2-qismida “O‘g‘illari, nabiralari qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo‘li bilan saltanatdagi intizomni saqlash haqida” nomli faslda quyidagicha so‘z yuritiladi: “Amr qilindiki, agar o‘g‘illarimdan qaysi biri saltanat martabasiga da‘vogarlik qilib bosh ko‘tara boshlasa, uni o‘ldirishga, bog‘lashga yoki mushasidan biron joyini kamaytirishga hech kim jur‘at qilmasin. Lekin u o‘z da‘vosidan voz kechgunga qadar asirlikda saqlansin, toki Xudoning mulkida urush chiqmasin. Agar nabiralar yoki qavm-qarindoshlardan biri menga qarshi ko‘tarilsa, uni darvishlik holatiga salsinki. Saltanatimni qo‘rg‘onlari bo‘lgan amirlar ishda niqofga tushsalar, ularni martabasidan tushirsinlar. Agar davlatga zarar etkazadigan ish qilsalar, boshqa amirlarning bo‘ysunishiga topshirsinlar. Agar sipohiylik ishlarida yalqovlik qilgan bo‘lsalar, ularga yozish-chizish bilan shug‘ullanuvchi kishilar orasidan ish berilsin. Agar shundan keyin ham xatoga yo‘l qo‘yib, dovyuraklik qilsalar, ikkinchi marta xizmatga olinmasinlar. Saltanat saroyining ishonchli va e‘tiborga sazovor kishilari – vazirlar haqida shunday buyruq berilgan: agar saltanat ishlarida xiyonat qilgan bo‘lsalar, saltanatni ag‘darmoqni niyat qilgan bo‘lsalar ham, ularni o‘ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor, ularni ayblovchi va xabar etkazuvchilarning kimligini tekshirib ko‘rsinlar. Qoralovchilarning da‘volarining rost-yo‘qligini va so‘zlarining haqqoniyligini mahak toshi yordamida sinab ko‘rsinlar. Chunki ko‘p hollarda hasaddorlar va g‘iybatchilar niyatlarini amalga oshirish uchun yolg‘on so‘zlarni haqiqatdek ko‘rsatadilar. Juda ko‘p pastkash, yovuz odamlar bor, ular davlat dushmanlarini yaxshilab, davlat fidoyilarini hiylagarlik va makkorlik bilan vayron qiladilar. Makr va sotqinlik bilan saltanat qo‘rg‘oniga zarar etkazishlari mumkin” [1: 147,148.].

Bo‘lajak hukmdor albatda xalqiga tarbiyada, odob-axloqda, adolatda, saxiylikda barcha insoniy ezgu hislatlarda namuna bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham Amir Temur farzand tarbiyasiga jiddiy e‘tibor qaratgan. Tarixda bizga ma‘lumki, Amir Temur ko‘p vaqtlarini mamlakat ravnaqi uchun ko‘plab jangu jadalarda kezadi, shahzodalarni tarbiyalash yuqorida aytganimizdek, otaliqqa topshiriladi.

Ma‘lumki, qadimdan davlat boshliqlari farzandli bo‘lishsa, enagaga berib emizdirganlar. Atkapar ana shu enaganing eri bo‘lib, shahzodaga ota maqomidadek bo‘lgan. Har qanday kishi enaga yoki atka bo‘lavermagan. Nasli toza, har tomonlama sog‘lom, ziyrak, aqlli, dono kishilar bu ishga loyiq ko‘rilgan. Ular shahzodalar tarbiyasi bilan maxsus shug‘ullanishgan. Otaliq bolaga turli sohalarda murabbiy-ustozlar yollagan va ularni har taraflama davlat ishlariga tayyorlab borgan.

Tarixdan bir misol: 1394-yil 14-avgustda Shohruh Mirzo o'g'il ko'radi. Unga Ibrohim Sulton deb ism qo'yadilar. Shahzodaga Tuman Og'o (Amir Temurning dono zavjasi) murabbiya etib tayinlanadi. "Va amir Usmon Abbosni otabek (otalik) qildilar va xotuni Sotqin og'okim, Sohibqironga urug' bo'lur erdi, enagalikka muqarrar bo'ldi". Shahzodalar yosh vaqtida saltanatga o'tirsa yoki yangi ish boshlasa, otabeklari ularga maslahatchilik qilgan. Shahzodalar o'n ikki yoshga to'lganida ularga viloyat berilgan. Obro'li amir yoki beklardan biri unga murabbiy, ya'ni otalik yoki otabek etib tayinlangan. U shahzoda o'n olti yoshga etguncha bola nomidan viloyatni boshqargan. Podshoh amr-farmonlarini mahalliy hukmdorlarga etkazuvchi mansabdor parvonachi deb atalgan. U Amir Temur saroyidagi nufuzli mansablardan sanalgan. Ko'kaltosh yoki ko'kaldosh – shahzoda enagasining o'g'li bo'lib, sut emishganlik jihatidan shahzodaga birodar hisoblangan. Yuqorida aytilganidek, go'dak shahzodalarni yangi farzand ko'rgan onalar emizib o'stirgan, enaganing zavji esa atka deb atalgan. Ana shu enaganing o'g'li ko'kaltosh deyilgan va ular bir onadan sut ichgan hisoblangan [9: 103].

Undan tashqari davlat ishlarida tarbiya masalalarida Amir Temurga bevosita yordam bergan Temurning suyuqli ayoli Saroy Mulk xonim hisoblanadi. Saroy Mulk xonim oqil dono, husnda tengi yo'q hisoblangan Temurning malikasi tarbiya borasida o'z ham o'sha davrning eng aql-zakovatli xonimlaridan hisoblangan. Amir Temurdek adolat bilan ish yuritgan, Temur yo'qligi paytlarida saltanat obodonchiligi uchun katta hissasini qo'shgan. Xususan naql qilishlaricha, Saroy Mulk xonim o'z jamg'armasidan savobli ish uchun Xudo yo'lida madrasa bino etish uchun Amir Temurdan ruxsat so'raydi. Hukmdor ruxsat bergach, otasi Qozonxon tomonidan sovg'a qilingan bir juft olmos baldog'ini sotuvga qo'yib, bu mablag'ni madrasa qurilishiga sarflaydi. Yuqorida ta'kidlagan so'zlarimiz ayni damda Saroy Mulkxonim ham yuksak tarbiya egasi ekanligini yaqqol isboti hisoblanadi. Bunday tarbiyali erkak va ayoldan albatda aqli zakovatli, tarbiya borasida otasidek bo'ladigan farzand dunyoga keladi. Demak, Temur va Temuriylar yosh avlodni tarbiyasiga befarq bo'lmagan, aksincha bu davlatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lgan desak, xato bo'lmaydi.

Bunga yana bir misol: Saroy Mulk Xonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasida ulkan va mahobatlilik jihatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining etuk mudarrislari tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berganlar. Saroy Mulk xonim madrasa tolibi ilmlarining ahvolidan tez-tez xabar olib, ularga homiylik qilib turgan. Rivoyatlarga ko'ra, Saroy Mulk xonim o'z odaticha, qosh qoraygach, o'zining yaqin kanizlari bilan kiyimlarini o'zgartirib, madrasa tomon yo'l oladi. Negaki, Saroy Mulk xonim madrasa tolibi ilmlarining ahvoli, ruhiyati, kim qanday tirikchilik

o'tkazayotgani va tunda qanday ish bilan mashg'ul ekanliklarini zimdan tekshirib turar edi [10: 8,9].

Bunday ma'lumotlardan ko'rinib turadiki, Amir Temur va uning rafiqasi Saroy Mulkxonim o'z farzandlariyu nabiralari va davlatini fuqarolariga ayniqsa yoshlariga juda katta e'tibor qaratganligini ko'rishimiz mumkin. Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko'rmaydi va malika tarbiyasiga farzandlari Shohrux mirzoni, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Mirzo Ulug'bek va boshqa mirzolari topshiradi, ularni bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiya qiladi [10: 7].

Yuqoridagi fikrlar va dalillardan shuni ko'rsatadiki, tarbiya ayni Amir Temur davrida ham taraqqiyotni hal qiluvchi omil hisoblangan. Amir Temur davrida tarbiya shaxsiy masala bo'lib qolmay, davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shahzodalar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan otaliq va enagalar go'yoki hozirgi zamon talabi bilan aytganda institutlar joriy etilishi, ularning ilmiy, axloqiy va siyosiy jihatdan etuk shaxs sifatida kamol topishiga qaratilgan samarali tizimli yondashuv bunga yaqqol dalildir. Amir Temurni o'z farzandlariga bergan pand-nasihatlar, adolat, xalqparvarlik kabi masalalari va mas'uliyat haqidagi qarashlari tarbiyaning amaliy namunasi hisoblangan.

Endi ikki og'iz so'z Amir Temur va temuriylar davri fan va madaniyati haqida. Yuqorida biz Sohibqironning nechog'lik iste'dod egasi bo'lgani haqida ta'kidladik. "Zar qadrini zargar biladi" degan hikmat bor. Bir qator ilmlarda (tarix, she'riyat, tibbiyot, matematika, astronomiya, me'morchilik) salohiyati katta bo'lgan shaxs, buning ustiga yana podshoh, ulkan saltanatning oliy hukmdori bo'lsa, tabiiy ravishda ilm va madaniyatga, olim va ijodkorga katta hurmat bilan qaraydi, bu yo'lda barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Bundan tashqari, har qanday jamiyat va davlat taraqqiyoti va kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo'lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan. Shuningdek, iste'dod egalari maxsus va doimiy e'tiborga muhtoj ekanini, loyiq bo'lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta'minlash zarurligini ham to'g'ri anglagan. U olimu fozillar o'z maslaklari va dunyoqarashlari yuzasidan jamiyat va davlat taraqqiyoti, zamonaviy ahvoli xususida boshqa ijtimoiy tabaqalarga nisbatan ko'proq bosh qotirishlari va bu orqali tegishli tajriba va bilimlarga ega bo'lib borishlarini e'tiborga olgan. Shu sabab ham dunyoning qaysi bir mamlakati va shahriga bormasin, olimu fozillarni bir erga yig'ib, ular bilan uzoq suhbatlashgan, ularning fikrini tinglagan, bahslashishni kanda qilmagan [2: 197, 198]. Fikrimizcha, Amir Temurning fan va madaniyat sohasida yuritgan siyosatini xuddi mana shu omillar orqali baholash darkor.

Har qanday jamiyat va davlat taraqqiyoti va kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo'lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan. Demak

tarbiya xoh o'tmish bo'lsin, xoh bugun yoki kelajakda bo'lsin, barcha davr uchun dolzarb va eng katta e'tiborni talab qiladigan masala bo'lib qoladi. Ushbu so'zlardan xulosa qiladigan bo'lsak, yoshlarning avvalo ma'naviy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Hozirgi globallashtgan jamiyatda yoshlarni bilimli, jamiyatning munib a'zosi qilib tarbiyalash ayniqsa dolzarb. Bu borada Amir Temurning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini zamon ruhiga moslagan holda amaliyotga singdirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur tuzuklari (o'zbek, ingliz, fransuz va rus tillarida). – Toshkent: Extremum-Press, 2016. – 544 b.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001.
3. Аҳмедов Б. Амир Темур ҳақида ҳикоялар. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 96 б.
4. Ҳасанбоев Ж., Туракулов Х., Алақаров И., Усмонов Н. Педагогика назарияси ва тарихи. – Тошкент: Ношир, 2001. – 456 б.
5. Rahimov J. Buyuk davlat arbobi va buyuk sarkarda. – Toshkent: Ziyo Nashr, 2023. – 458 b.
6. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
7. Шарофиддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997.
8. Pedagogika nazariyasi va tarixi [Matn]: o'quv qo'llanma /Sh. Mardonov, U. Zokirova. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 272 b.
9. Uljaeva Sh. M. Amir Temur: davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, diplomatiya. – Toshkent: Akademnashr, 2017.
10. Файзиев Т. Темурий маликалар. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1994.
11. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти – Хазиана, 1995.
12. <https://xs.uz/uz/post/> Zafar Abdirimov “Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati” Miliy tiklanish demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi.
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari

UBAYDULLAXON OILASI VA SHAYBONIYLAR SULOLASINING NIKOH DIPLOMATIYASI: TARIXIY-SIYOSIY TAHLIL

Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shayboniylar sulolasining eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri – Ubaydullaxon (1533–1540) oilaviy hayoti, uning shajarasi va nikoh diplomatiyasi masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Ubaydullaxonning xotinlari, farzandlari va ularning o‘sha davrdagi siyosiy jarayonlardagi roli birlamchi manbalar (Zayniddin Vosifiy, Muhammad Solih, “Habib us-siyar”, “Musaxxir al-bilod”) asosida yoritiladi. Ayniqsa, xonning Qozoq xonligi, Temuriylar va Mo‘g‘uliston xonlari bilan o‘rnatgan qarindoshlik aloqalari davlatning tashqi siyosatidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ubaydullaxon, Mahmud Sulton, “Shayboniynoma”, Qoshg‘ar, Hoja Ubaydulloh Ahror, G‘iyosiddin Xondamir.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ семейной жизни Убайдуллахана (1533–1540), одного из наиболее видных представителей династии Шайбанидов, его генеалогии и вопросов брачной дипломатии. Исследование охватывает жен, детей Убайдуллахана и их роль в политических процессах того времени на основе первоисточников (Зайнуддин Васифи, Мухаммад Салих, “Хабиб ус-сияр”, “Мусаххир аль-билод”). В частности, раскрываются родственные связи хана с Казахским ханством, Тимуридами и монгольскими ханами и их роль во внешней политике государства.

Ключевые слова: Убайдулла Хан, Махмуд Султон, “Шейбанинаме”, Кашгар, Хожа Убайдуллох Ахрор, Гиёсиддин Хондамир.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the family life, genealogy, and marital diplomacy of Ubaydullakhan (1533–1540), one of the most prominent representatives of the Shaybanid dynasty. The study examines Ubaydullakhan’s wives, children, and their roles in the political processes of that period, based on primary sources such as Zayniddin Vosifi, Muhammad Solih, “Habib us-siyar”, and “Musaxxir al-bilod”. In particular, it highlights the significance of the dynastic kinship ties established by the khan with the Kazakh Khanate, the Timurids, and the rulers of Moghulistan, and their role in the state’s foreign policy.

Keywords: Ubaydullakhan, Mahmud Sultan, “Shaybaninama”, Kashgar, Khoja Ubaydulloh Ahror, Ghiyath al-Din Khwandamir.

XVI asr Movarounnahr tarixida Shayboniylar sulolasi markazlashgan davlat barpo etish yo'lida muhim qadamlar tashladi. Bu jarayonda Ubaydullaxon (Abulxayr Ubaydulloh Bahodirxon) shaxsi alohida o'rin tutadi. U nafaqat mohir sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida ham tanilgan. Biroq, uning oilaviy hayoti va nikoh diplomatiyasi masalalari zamonaviy tarixshunoslikda etarlicha chuqur o'rganilmagan. Maqolaning maqsadi Ubaydullaxon oilasining Shayboniylar davlatidagi o'rnini aniqlash, nikoh diplomatiyasining tashqi siyosatdagi rolini tahlil qilish va sulola davomiyligini ta'minlagan vorislik masalalarini yoritishdan iborat. Metodologik asos sifatida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbashunoslik va genealogik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Ubaydullaxon 1486-yilda Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesida tug'ilgan [1: 130]. Uning otasi Mahmud Sulton (Shoh Budog' Sultonning o'g'li), amakisi esa sulola asoschisi Muhammad Shayboniixon bo'lgan. Ubaydullaxonning shajarasi to'g'ridan-to'g'ri Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon (Shiban)ga borib taqaladi.

Ubaydullaxonning onasi haqida manbalarda aniq ism keltirilmagan bo'lsa-da, uning Begi yoki Habit ismli shaxsning qizi bo'lganligi qayd etilgan [2: 220]. Otasi Mahmud Sulton 1504-yilda Qunduzda vafot etgach, Ubaydullaxon Buxoro hokimligini meros qilib oldi. Uning yoshligi va tarbiyasi Naqshbandiya ta'limoti bilan chambarchas bog'liq. Uning ismi Xoja Ubaydulloh Ahror sharafiga qo'yilgan bo'lib, bu uning kelajakdagi diniy-siyosiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida Ubaydullaxonning yoshlik yillari va uning harbiy san'atni o'rganishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [3: 185].

Shayboniylar davlatida nikoh nafaqat oilaviy rishta, balki muhim diplomatik qurol bo'lgan. Ubaydullaxonning beshta xotini bo'lganligi ma'lum bo'lib, ularning har biri ma'lum bir siyosiy maqsadlarga xizmat qilgan.

Ubaydullaxon 1504-yilda, taxminan 17–18 yoshlarida Toshkent hukmdori Suyunchxo'jaxonning qiziga uylangan. Bu nikoh Shayboniy sultonlar o'rtasidagi ichki ittifoqni mustahkamlashga qaratilgan edi. Muhammad Solih ushbu nikoh marosimi va uning sulola ichidagi ahamiyati haqida batafsil to'xtalib o'tgan [3:180–210].

1507-yilda Shayboniixon Hirotni egallagach, Temuriy Muzaffar Husayn mirzoning qizi Mehrangiz begimni Ubaydullaxonning nikohiga kirgizgan. Bu nikoh Temuriylar merosxo'rlari bilan sulh va madaniy aloqalarni o'rnatishda muhim qadam bo'lgan. G'iyosiddin Xondamirning "Habib us-siyar" asarida ushbu nikohning siyosiy sabablari va Hirot zodagonlarining munosabati yoritilgan [4: 60–95].

Ubaydullaxonning eng muhim nikohlaridan biri Qozoq xoni Qosimxonning qizi Qutluq sulton xonim bilan bo'lgan. Bu nikoh 1512-yilgi G'ijduvon jangidan keyin, Safaviylarga qarshi harbiy ittifoq tuzish maqsadida amalga oshirilgan. Jo'ybor shayxlarining vositachiligida tuzilgan ushbu ittifoq Movarounnahr xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynagan [1: 120–145]. Aynan shu nikohdan Ubaydullaxonning vorisi Abdulazizxon tug'ilgan.

Ubaydullaxon Muhammad Husayn dug'lat va Yunusxonning qizi Xo'bnigorxonimning nikohidan tug'ilgan qiziga uylangan. Bu nikoh Mo'g'uliston xonligi bilan aloqalarni tartibga solishga qaratilgan edi. Biroq, 1510-yildagi siyosiy o'zgarishlar natijasida ushbu nikoh uzilgan va malika Qoshg'arga ketgan [6: 85–110].

Ubaydullaxonning yana bir muhim nikohi "Mo'g'ul xonim" nomi bilan mashhur Oysha xonim binti Mahmudxon bilan bo'lgan. Oysha xonim avval amakisi Shayboniyxonning xotini bo'lgan. Shayboniyxon vafotidan so'ng, Ubaydullaxon unga uylangan. Ushbu nikohdan Muhammad Rahim sulton tug'ilgan. Oysha xonim Ubaydullaxon vafotidan so'ng Kistan Qora sultonga turmushga chiqqan [2: 210].

Ubaydullaxonning uchta o'g'li bo'lganligi manbalarda qayd etilgan:

1. Abdulaziz sulton (Abdulazizxon): Ubaydullaxonning katta o'g'li va vorisi. U 1514-yilda tug'ilgan (Zayniddin Vosifiy ma'lumoti bo'yicha) va onasi Qutluq sulton xonim bo'lgan. Abdulazizxon 1540–1550-yillarda Buxoro taxtini boshqargan. Uning hukmronligi davrida Buxoro madaniy va ilmiy markaz sifatida yanada yuksaldi [5: 115–140].

2. Muhammad Rahim sulton: Onasi Oysha xonim bo'lib, u ham sulola tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan. Muhammad Rahim sulton 1550-yilda Buxoro taxtiga o'tirish uchun yo'l olganida vafot etgan [2: 235].

3. Abdurahim sulton: 1527/8-yilda yoshligida tish og'rig'i tufayli vafot etganligi "Tarixi Kasira" asarida bayon qilingan. Uning vafoti haqida "Kand dandonu raft az dunyo" (tish tortdi-yu dunyodan ketdi) degan tarixiy ibora qolgan [2: 230].

Ubaydullaxonning qiz farzandlari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar uchramaydi, bu esa o'sha davr tarixshunosligining erkak markazli (patriarxal) xarakteridan dalolat beradi.

Ubaydullaxonning oilaviy hayoti va nikoh diplomatiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, u o'z davlatining mustaqilligini saqlab qolish va hududini kengaytirishda qarindoshlik aloqalaridan mahorat bilan foydalangan. Uning Qozoq xonligi, Temuriylar va Mo'g'uliston xonlari bilan o'rnatgan nikoh aloqalari Safaviylar Eroniga qarshi kurashda strategik ustunlik bergan. Ayniqsa, Qozoq xonligi bilan o'rnatilgan qarindoshlik aloqalari Shayboniylar davlatining shimoliy chegaralari xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Temuriylar bilan

oʻrnatilgan nikoh esa Buxoroning madaniy hayotiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, Hirot adabiy va ilmiy muhitining Buxoroga koʻchishiga zamin yaratgan.

Ubaydullaxon Shayboniylar sulolasining nafaqat siyosiy va harbiy arbobi, balki ilm-fan va madaniyat homiysi ham boʻlgan. Uning shajarasi Abulxayrxon va Shayboniylar kabi buyuk ajdodlarga borib taqaladi. Garchi uning oilaviy hayoti, xotinlari va farzandlari haqida batafsil maʼlumotlar cheklangan boʻlsa-da, uning oʻgʻli Abdulazizxonning Buxoro taxtiga oʻtirishi Shayboniylar sulolasining davomiyligini taʼminlagan. Ubaydullaxonning oilasi va uning davlat boshqaruvidagi oʻrni Shayboniylar davri tarixini oʻrganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 224 б.
2. Зайниддин Восифий. “Бадое ул-вақое”. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 432 б.
3. Gʻiyosiddin Xondamir. “Habib us-siyar”. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 512 b.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом (Шарафномаи шоҳий). – Тошкент: Шарқ, 1999. – 352 б.
5. Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон Исфажоний. Меҳмонномаи Бухоро. – Тошкент: Фан, 1971. – 184 б.
6. Исмоилова Ж. Шайбонийлар давлати тарихи. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
7. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 384 б.

“UBAYDULLANOMA” ASARIDA SURXON VOHASI TARIXINING YORITILISHI

*Odilov Muhammadqodir Olimjon oʻgʻli
Fargʻona davlat universiteti
tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ubaydullanoma” asari asosida Surxon vohasining soʻnggi oʻrta asrlar, xususan shayboniylar va ashtarxoniylar davridagi siyosiy tarixi tahlil qilinadi. Asarda Termiz va uning atrofidagi hududlarning Buxoro va Balx oʻrtasidagi nizolardagi strategik ahamiyati, harbiy yurishlar, mahalliy hokimiyat vakillari va qabila boshliqlarining roli yoritilgan.

Kalit soʻzlar: “Ubaydullanoma”, Surxon vohasi, Termiz, shayboniylar, ashtarxoniylar, Buxoro xonligi, Balx, Muhammad Rahimbiy, Mahmudbiy qatagʻon, strategik istehkom.

Abstract: This article analyzes the political history of the Surkhan oasis during the late Middle Ages, particularly in the periods of the Shaybanids and Ashtarkhanids, based on the work “Ubaydullanoma”. The study highlights the strategic importance of Termiz and its surrounding areas in the conflicts between Bukhara and Balkh, military campaigns, as well as the role of local authorities and tribal leaders.

Keywords: “Ubaydullanoma”, Surkhan oasis, Termiz, Shaybanids, Ashtarkhanids, Bukhara Khanate, Balkh, Muhammad Rahimbiy, Mahmudbiy Qataghon, strategic fortress.

Аннотация: В данной статье на основе произведения “Убайдулла-наме” анализируется политическая история Сурханского оазиса в позднем средневековье, особенно в периоды правления Шейбанидов и Аштарханидов. В исследовании освещается стратегическое значение Термеза и его окрестностей в конфликтах между Бухарой и Балхом, военные походы, а также роль местных правителей и вождей племён.

Ключевые слова: “Убайдулла-наме”, Сурханский оазис, Термез, Шейбаниды, Аштарханиды, Бухарское ханство, Балх, Мухаммад Рахимбий, Махмудбий Катаган, стратегическая крепость.

Surxon vohasi, xususan Termiz shahri, so‘nggi o‘rta asrlarda Buxoro va Balx o‘rtasidagi siyosiy va harbiy nizolarning asosiy nuqtalaridan biri bo‘lgan. Ushbu hududning strategik ahamiyati shayboniylar va ashtarxoniylar davrida yanada kuchaydi. “Ubaydullanoma” asari (Muhammad Amin-i Buxoriy) XVIII asr boshlaridagi voqealarni, jumladan, Ubaydullaxon hukmronligi davridagi Surxon vohasidagi harbiy harakatlar, mahalliy hokimiyat o‘zgarishlari va qabilalararo munosabatlarni batafsil yoritadi. Maqolada aynan shu asar asosida Surxon vohasi tarixining ilmiy tahlili, boshqa tarixiy manbalar bilan taqqoslanishi va hududning geosiyasiy o‘rni ochib beriladi.

Surxon vohasi tarixiga nazar solarkanmiz, so‘nggi o‘rta asrlar xususan shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro va Balx o‘rtasidagi tinimsiz nizolar natijasida, bu ikki shahar o‘rtasida joylashgan va muhim istehkom vazifasini o‘tagan Surxon vohasiga, xususan Termizga muhim strategik nuqta sifatida e’tibor qaratilganligi tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Shuni ta’kidlash lozimki, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Balx viloyati o‘zining qimmatbaho boyliklari va savdo chorrahasi bo‘lganligi uchun Buxoro hukmdorlari unga alohida e’tibor qaratganlari holda, bu hududga eng ishonchli kishilar, keyingi davrlarda esa xonning valiahdi Balx hokimi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, shayboniylar sulolasining yirik vakili bo‘lmish Abdullaxon II Termizni egallashga alohida e’tibor qaratgan. Manbalarda yozilishicha, u Termiz shahriga yurishga bir yil hozirlik

ko‘rib, tovochilar turli hududlarga yuborilib, tezlikni shamoldan qarz olib, shoshilinch ravishda barcha qo‘shinni bir joyga to‘plaganlar. Samarqand sultoni Juvonmard sulton o‘zini Abdullaxonga ancha yaqin tutib, o‘zining qarindoshlari Abulxayr sulton va Muzaffar sultonlarni Termiz yurishida ishtirok etish uchun shoh qo‘shiniga yordam kuch sifatida yuborgan [3: 229].

1572-yil may-iyun oylarida Termiz Abdullaxon izmiga kiritilib, shaharni boshqarish Mahmud sultonga topshirilgan [3: 234]. Balx hokimi etib o‘g‘li Abdulmo‘min tayinlangan davrda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi erlar bilan birga Termiz ham in‘om etilgan. Ashtarxoniylar davrida ham Hisor mulkligi tarkibida bo‘lgan Termiz va Chag‘aniyonga muhim strategik nuqta sifatida e‘tibor qaratganlar [4: 36]. Buxoro amirligi tarixini o‘rganishda mahalliy mualliflar tomonidan yoritilgan asarlar alohida ahamiyatga ega. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlari Surxon vohasining siyosiy tarixini o‘rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari muhim manbalardan biri. Xoja Samandar Termiziy 1630-yil oxirlarida Termizda tug‘ilgan. Buxoro madrasalarida tahsil olgan, Narpayda qozi va qozilik mahkamasida ishlagan. 1670-yillari Abdulazizxon saroyida voqyeana vis vazifasida ishlagan. 1679–1680-yillari Buxoro va Xorazm xoni Anushaxon qo‘shini bilan bo‘lgan jangda ko‘rsatgan jasorati uchun Abdulazizxon tomonidan qalmoq sovu ti va hind qalqoni bilan mukofotlanadi. Subhonqulixon davrida katta obro‘ga erishib, ikki marta Nasaf shahriga din raisi etib tayinlanadi.

Ashtarxoniylar davridagi siyosiy hayotni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Xoja Samandar XVIII asr boshida Buxoroda, Qarshida, jumladan, Termizda ham siyosiy notinchlik kuchaygani uchun Hitori Shodmonga ko‘chgani, u erda bek bilan munozara olib borganidan so‘ng Karvontushdiga kelganini yozib qoldirgan. Chorvachilik, dehqonchilik rivojlanganini ham qayd etadi [2: 8].

XVIII asrda Buxoro xonligi, jumladan Surxon vohasidagi siyosiy hayotni o‘rganishda Muhammad Yusuf ibn Xoja Baqo (Muhammad Yusuf Munshiy)ning “Tarixi Muqimxoniy” asari muhim ahamiyatga ega. Surxon vohasi tarixiga nazar solarkanmiz, so‘nggi o‘rta asrlar xususan shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Buxoro va Balx o‘rtasidagi tinimsiz nizolar natijasida, bu ikki shahar o‘rtasida joylashgan va muhim istehkom vazifasini o‘tagan Surxon vohasiga, xususan Termizga muhim strategik nuqta sifatida e‘tibor qaratilganligi tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Shuni ta’kidlash lozimki, shayboniylar va ashtarxoniylar davrida Balx viloyati o‘zining qimmatbaho boyliklari va savdo chorrahasi bo‘lganligi uchun Buxoro hukmdorlari unga alohida e‘tibor qaratganlari holda, bu hududga eng ishonchli kishilar, keyingi davrlarda esa xonning valiahdi Balx hokimi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, shayboniylar sulolasining yirik vakili bo‘lmish Abdullaxon II Termizni egallashga alohida e‘tibor qaratgan. Manbalarda

yo'zilishticha, u Termiz shahriga yurishga bir yil hozirlik ko'rib, to'vochilar turli hududlarga yuborilib, tezlikni shamoldan qarz olib, shoshilinch ravishda barcha qo'shinni bir joyga to'plaganlar. Samarqand sultoni Juvonmard sulton o'zini Abdullaxonga ancha yaqin tutib, o'zining qarindoshlari Abulxayr sulton va Muzaffar sultonlarni Termiz yurishida ishtirok etish uchun shoh qo'shiniga yordam kuch sifatida yuborgan.

Ashtarxoniylar davrida ham Hisor mulkligi tarkibida bo'lgan Termiz va Chag'aniyonga muhim strategik nuqta sifatida e'tibor qaratganlar [4: 36]. Boqimuhammad davrida Hisorni egallash uchun harbiy harakatlar olib borilgan, Termiz orqali o'tuvchi Balxga bo'lgan munosabat o'zgarmadi. Buxoro taxtiga o'tirgan xon albatta o'zining valiahdini Balx hokimi etib tayinlagan. Boqimuhammad davrida va Valimuhammad davrida Shohbek ko'kaldosh, Imomqulixon davrida Nodir Muhammadxon, Subhonqulixon davrida Iskandar Bahodirxon hokim etib tayinlangan. 1685-yilda Siddiq Muhammadxon o'limidan keyin Balxga hokim etib Subhonqulixonning nevarasi 14 yoshli Muhammad Muqim sulton, uning yoshligi sababli otaliq qilib Mahmudbiy tayinlandi. XVIII asr boshlariga kelib, ashtarxoniylar davlatida siyosiy vaziyat og'irlashdi, xuddi shu davrda Ubaydullaxon hukmronligi boshlandi. Unga davlat rahbarlarining yirik saroy amaldorlari va o'zbek qabila boshliqlariga tamomila tobeligi meros bo'lib o'tdi. U markaziy hokimiyatni kuchaytirishga intildi, ammo uddasidan chiqolmadi. Ubaydullaxonning davlat boshqaruvidagi sustkashligidan jiyani Muhammadmuqim ustalik bilan foydalandi va o'zini Balxning mustaqil hukmdori deb e'lon qildi. Muhammadmuqim yoshligi sababli amalda hokimiyatni uning otabegi Mahmudbiy qatag'on boshqardi. Shundan so'ng asosiy e'tibor Balx chegarasida turgan Termizga qaratildi. Buxoro xonligining strategik shaharlaridan biri sanalgan shahar qadimda Barbar deb nomlangan, juda mustahkam qal'aga ega bo'lib, bir tomondan Amudaryoning keng qirg'oqlari, ikkinchidan bo'ysunmaydigan va isyonkor qo'ng'iro'ot urug'ining turli qabilalari uni yanada mustahkam himoya qilardi [2: 70]. Ana shunday mustahkam qal'ani egallash orqali Muhammad Rahimbiy ikki maqsadni amalga oshirishni ko'zlagandi. Birinchidan, Balx yo'lidagi mustahkam qal'aga egalik qilish, ikkinchidan, bo'ysunmas va isyonkor qo'ng'iro'otlar hukmdori Sheralini hokimiyatdan chetlatish. Mazkur sabablar tufayli Termizga harbiy yurish ham Muhammad Rahimbiy ko'rsatmasi bilan amalga oshirilib, qo'ng'iro'otlardan bo'lgan shahar hokimi vazifasidan olindi, nayman urug'idan Ne'matulla biy mazkur vazifaga tayinlandi.

Termiz hokimligini qo'lga kiritgan Ne'matulla to'qsoba tajribasizligi va yoshligi sababli qaynotasi Shodmon yabg'uni yoniga chaqirib, unga Termiz qal'asini topshirib, o'zi aholisi ko'p Darf qal'asiga joylashdi. Shodmon yabg'u o'ziga xos kishi bo'lib, davlat manfaati uning uchun yot edi. U Balxga Mahmudbiy otaliqqa

ikki kishini yuborib, ular orqali butun vaziyatni tushuntirib Termiz qal'asini unga sovg'a sifatida tortiq etdi. Bunday sovg'adan quvongan Mahmudbiy butun qatag'onlar va Qabodiyon, Qo'rg'ontepadan do'rmonlardan jamlangan qo'shin yordamida Amudaryodan kechib o'tib Termizga kirib keldi. Termiz qal'asini mustahkam egallash uchun Mahmudbiy Balx hukumatidan harbiy yordam so'radi. Buxoro xonligi bilan dushman munosabatda bo'lgan Muhammadmuqim sulton Termizga Mahmudbiyga yordam tariqasida Balx harbiy qo'shinini jo'natdi. Mahmudbiy qatag'on bilan birga kelganlar Termiz va uning atrofidagi qishloqlarni talab vayron eta boshladi. Ubaydullaxon Ne'matulla to'qsobaning no'noqligi tufayli qo'ldan ketgan Movarounnaxr darvozasi sanalmish Termizni qaytarib olish uchun Muhammad Yor eshikboshi boshchiligidagi katta qo'shinni Termizga jo'natdi. Ammo yuborilgan qo'shin natijaga erisholmagach 1705-yil 27-martda Hait dodxoh, Boqi to'qsoba olchin, Xo'ja Ali miroxo'r qatag'on, Avaz eshikboshi va boshqa qo'shin Mahmudbiyni tor-mor qilish uchun Termizga jo'natildi. Ammo bu qo'shin mag'lubiyatga uchrab, Hayit dodxoh o'ldirildi [4: 73-82]. Buxoro qo'shinini mag'lubiyatga uchratgan Mahmudbiy qatag'on 1706-yili ashtarxoni Muhammadmuqimni o'ldirtirib, o'zini Balx xoni deb e'lon qildi. Termiz ham Balxga tobe viloyat sifatida Mahmudbiy hukmronligi ostida qoldi. Muhammad Yusuf Munshi asli balxlik bo'lib, Subxonqulixon va Muxammad Muqimxon saroyida munshiy bo'lib xizmat qilgan. Uning qalamiga mansub "Tarixi Muqimxoniy" asari Balxning mustaqil hukmdori Abul Muzaffar Said Muqim Bahodirxon faoliyatiga (1702–1707) bag'ishlangan, Balx viloyati va qo'shni viloyatlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarixiga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, Balx hukmdori Solihxo'janing hokimiyatdan chetlatilishi, o'sha davr siyosiy hayotida Termizning muhim strategik nuqta ekani ta'kidlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, "Ubaydullanoma" asari Surxon vohasi, xususan Termiz shahrining so'nggi o'rta asrlardagi geosiyosiy ahamiyatini yoritishda muhim tarixiy manbadir. Asarda hududning Buxoro va Balx o'rtasidagi nizolardagi o'rni, harbiy yurishlar va mahalliy hokimiyat vakillarining faoliyati batafsil ko'rsatilgan. Xoja Samandar Termiziy va Muhammad Yusuf Munshiy asarlari bilan qiyosiy tahlil orqali manbalararo ma'lumotlarning o'zaro bir-birini to'ldirishi va ba'zi jihatlarida turlicha talqin qilinishi aniqlangan. Asar mazkur davrda Surhon vohasining ahamiyatini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elmurodova N.J. "Ubaydullanoma" Ashtarxoniylar davri tarixshunosligining muhim manbalaridan biri. Bitiruv malakaviy ishi. – Buxoro, 2019. – 64 b.

2. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук / Форс-тожик тилидан эркин таржима, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Ж. Эсонов. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – 272 б.
3. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланом. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 413 б.
4. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с тадж. с примеч. А. А. Семенова. – Ташкент, 1957. – 326 с.

ABULG‘OZI BAHODIRXONNING ILMIY FAOLIYATI

*O‘ktamov Tohirjon G‘ayrat o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur davlat arbobi, tarixchi va adib Abulg‘ozi Bahodirxonning ilmiy faoliyati yoritiladi. Uni qoldigan ilmiy-adabiy merosi, xususan, “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarining mazmun-mohiyati, ularning o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘lar: Xiva xonligi, Abulg‘ozi Bahodirxon, Oqmasjid, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima”, “Manofe’ ul-inson”.

Аннотация: В данной статье освещается научная деятельность известного государственного деятеля, историка и писателя Абулгози Баходирхана. Приведено научное и литературное наследие, которое он оставил после себя, в частности, содержание произведений «Шаджараи тюрк» и «Шаджараи тарокима», история их изучения.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Абулгози Баходирхан, Акмечеть, «Шаджараи тюрк», «Шаджараи тарокима», «Манофе ул-инсон».

Abstract: This article covers the scientific activities of the famous statesman, historian and writer Abulgozi Bahodirkhan. The scientific and literary heritage he left behind, in particular, the content of the works “Shajarai turk” and “Shajarai tarokima”, the history of their study are given.

Keywords: Khiva Khanate, Abulgozi Bahodirkhan, Aqmasjid, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima”, “Manofe’ ul-inson”.

1512 – 1920-yillarda mavjud bo‘lgan Xiva xonligi O‘zbek davlatchiligida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida, Xiva xonligining siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida 1644 – 1663-yillarda xonlik taxtini boshqargan Abulg‘oziy Bahodirxonning o‘ziga xos o‘rni bor.

Abulg'ozixon xonlik taxtiga chiqqach (1644-yil), Xorazmda ilm-fanni taraqqiy ettirish va madaniyatni yaxshilash maqsadida ilm-fan, madaniyatga homiylik qiladi, o'z saroyiga binokorlar, tabiblar, shoirlar tarixnavislar, adib, xattot va boshqa kasb egalarini to'playdi [5:6]. Jumladan, 1657-yilda Buxoro va Karmanaga qilingan omadli yurishdan qaytgach, yurtga katta to'y beradi va xaloyiq oldida o'z o'g'lining xizmatlarini qadrlab, unga tug', lashkar, bayroq va nog'ora hamda Hazoraspni tuhfa etadi. Shuningdek, bu g'alaba sharafiga yangi Oqmasjid quradi. Oqmasjid qadimiy me'morchilik san'ati uslubida bunyod etiladi. Bu masjid Polvon Darvoza yonida joylashgan. Oqmasjid pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, uning yonida pishiq g'ishtdan qurilgan hammom xarobalari hozirgacha saqlanadi [5:21].

Anushaxon sharafiga qurilgan hammom ham Abulg'ozixon o'z o'g'liga qilgan marhamatlaridan bittasidir. Shuningdek, u umrining oxirida, vafotidan oldin taxtni Anushaxonga topshirdi (1663-yil). Bu ishni Abulg'ozixon boshqa Xorazmda hukmronlik qilgan hukmdorlardan birontasi qilmagan. Shundan keyin xon uzlatga chekinib, bir qator tarixiy asarlar yaratgan [7:173].

Abulg'ozixon Bahodirxon ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy faoliyati bilan bugungi yoshlarga yaxshi ma'lum bo'lmasa-da, u ulkan tarixiy shaxsdir. Sababi – O'rta Osiyoda davlat va madaniyat rivojlanishida yuz bergan qariyb ikki asrlik inqirozdan keyingi uyg'onish Abulg'ozixonning ijtimoiy-siyosiy va ijodiy faoliyati bilan boshlanadi. Ma'rifatparvar va bilimdon Amir Temur vujudga keltirgan sharoitda buyuk shoir Alisher Navoiy boshliq ulkan allomalar maydonga kelgani kabi Abulg'ozixonning keyingi davrdagi Xorazmda ham yuksak madaniyat va ilmu irfon tomon rivojlanish ko'zga tashlanadi [5:11]. Akademik olim Bo'riboy Ahmedovning so'zi bilan aytganda, u "...tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podsholar o'tmadi, lekin allaqachonlar ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida qoldi. Ilmning xosiyatidan shunday bo'ldi u. Darhaqiqat, Abulg'ozixon keng va chuqur ma'lumotli kishi edi" [3:217]. Abulg'ozixon hukmdor sifatida bekliklar o'rtasidagi o'zaro qirg'in urushlarga xotima beruvchi tadbirlar o'tkazish bilan birga, ijodkor sifatida "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" va "Manofe' ul-inson" ("Inson uchun foydali tadbirlar") kabi tarixiy-badiiy hamda tabibliikka oid nodir kitoblar yozdi.

Abulg'ozixonning birinchi tarixiy asari "Shajarai tarokima" deb nomlanib, asar o'g'uz qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Abulg'ozixon uni yozilishi haqida asarning o'zida batafsil ma'lumot beradi. 1644-yilda, ya'ni Abulg'ozixon hokimiyatni endigina egallagan davrda turkmanlar Mang'ishloq, Bolxon va Tajan daryosi atroflarida yashar edilar. Abulg'ozixon o'z hokimiyatini mustahkamlash va turkmanlarni o'ziga tobe qilish maqsadida ular ustiga ko'p martalab qo'shin tortadi. Muallifning yozishicha, "Bir

karat Xurosonda Durunga taalluq Beurma tegan suvning yaqosinda bizning birlan saf tortib urushtilar. Avoldin to oxirgacha biz sababli yigirma ming choqlik kishilati o'ldi. Aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor erdi" [2:12].

Abulg'oziy o'z bosqinchilik urushlari tufayli yigirma mingdan ortiq turkmanlarning halok bo'lishiga sabab bo'lgani uchun o'zini ular oldida qarzдор deb bilgan, hamda turkmanlar iltimosini bajonidil qabul qilgan. Muallif aytishiga qaraganda, "Shajarayi tarokima" turkman oqsoqollari va ulug' boshliqlarning taklifiga ko'ra, oddiy turk kishisi tushunadigan, hatto besh yashar turk o'g'loni ham anglaydigan tilda yozilgan. Asarda Odam ato avlodlari, Muhammad (s.a.v.) alayhissalom payg'ambarimizga qadar o'tgan payg'ambarlar eslanadi, Nuh payg'ambarning Xom, Som, Yofas hamda Yofasning o'g'li Turk haqida hikoya qiladi, turk, mo'g'ul xalqlari tarixi so'zlanadi, Qoraxon o'g'li O'g'uzxon faoliyati haqida to'xtaladi, butun o'g'uz eli va turkman xalqining qabilaviy tarkibi, urug'larining bir-biri bilan bog'langan nuqtalari, tarixiy-etnogenezi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Xiva xonligi bilan turkmanlarning siyosiy kurashlari ham eslab o'tilgan. "Shajarayi tarokima" asari Abulg'oziy Bahodirxon taxtga o'tirgandan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilganligi ta'kidlangan. Bu ma'lumotga qaraganda, 1660 – 1661-yillar orasida ijod qilingan. "Shajarayi tarokima" yozma obidasida turkman qavmi bilan Xiva xonligi orasidagi siyosiy kurashlar, turkmanlarni itoat qildirish uchun olib borilgan kurashlar bayon etilgan, o'zbek va turkman xalqlari o'rtasida inoqlik o'rnatilishi ta'kidlangan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958-yili A.N.Kononov (1906 – 1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan. Mazkur asardan dunyo xazinalarida bizga ma'lum ettita nusxasi saqlangan. Ulardan ikkitasi Rossiyada va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Abulg'ozixonning ikkinchi asari "Shajarayi turk" nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663 – 1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI – XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi. "Shajarayi turk" tarixning turli masalalariga (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va h.) oid e'tiborga molik ma'lumotlarga boy asardir.

Abulg'oziy Bahodirxon faqat tarixiy asarlar yozish bilan cheklanmadi. Tabobatga oid "Manofe ul-inson" (Inson uchun foydali tadbirlar) nomli asar ham ijod etdi. Asar taxminan 1657-yilda yozilgan. Muallif, Allohning o'ziga bergan qobiliyatlari qatorida tabobat va tabiblik sirlarini o'rganganligini yozmasada, u insonlarning kasalliklari va ularni davolash usullarini yaxshi bilganligi yaqqol sezilib turadi. Kitob to'rt qism va 21 bobdan iborat. O'zFA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 4107-raqami bilan saqlanadi. Asarida tibbiyotning 120 ga yaqin sohalarida kasallikni davolash va emlash usulini bayon

etgan. Avval turli oddiy dorilar, keyin murakkab dorilar, ularni tayyorlash va qo'llash yo'llari, undan keyingi qismlarda davolash usullari va davolashga doir mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, asarda muallif o'z salaflarining bu sohaga doir fikrlari haqida bahs yuritgan. Jumladan, revmatizm, teri va asab xastaliklari, umurtqa pog'onasi, qo'l va oyoq bo'g'imlarida tuz yig'ilishi xastaliklarini davolashda tabiiy quyosh nuri, mahalliy qum, tuz va suv konlaridan foydalangan. U yurt ozodaligi obodonchiligini, xalq sog'ligini saqlashni birinchi masala sifatida qaragan.

Abulg'ozixon o'z zamonasining davlat arbobi, atoqli tarixnavisi va olimi edi. Uning quyidagi so'zlarini keltirsak, uning qanday shaxs ekanligini yana ochiqroq tasavvur etamiz. "Bu faqirg'a Xudoyi taolo inoyat qilib ko'b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiygarlikning qonuni va yo'sinikim, nechuk otlanmoq va yurumak va yovg'a yosoq yasamoq, ko'p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq. Ikkinchi, masnaviyot va qasoyid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindan to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshoxdarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik. Bu vaqtda fahmlamaklikda va tarix bilmaklikda faqirdek kishi shoyad Iroqda va Hindustonda bo'lsa bo'lg'ay, yo'q aytsam yolg'on bo'lg'ay. Ammo sipohiyning yo'sinun bilmaklikda, bu choqda musulmon va kofirda biz ko'rib va eshitaturg'on erlarda va yurtlarda yo'q turar. Yer yuzi keng turur, eshitmagan erlarimizda bo'lsa ajab ermas" [1:167; 4:45].

Bu keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, Abulg'oziy she'riyatni yaxshi tushunish bilan bir qatorda, arab, fors va turkiy tillarni ham yaxshi bilgan. Tarix ilmidan yaxshi xabardor bo'lgan Abulg'oziy yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarlarni tasnif etgan. Abulg'oziyning hayoti va faoliyati haqida gapirar ekanmiz, bu masala yuzasidan, birinchi navbatda, uning mazkur asarlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Chunki o'zi tasnif etgan asarlarida tarjimai holiga oid anchagina ma'lumotlarni keltiradi. Ayniqsa, "Shajarayi turk" asarida o'z hayotiga va siyosiy faoliyatiga ancha batafsil to'xtab o'tadi. Abulg'oziy haqida biografik ma'lumotlar K.Yusupovning dissertatsiyasida ("Абдулгази и Хивинское ханство в первой половине XVII века") va A.Yu.Yakubovskiyning "Очерки по истории Туркменского народа и Туркменистана VIII – XIX вв." (– S. 216-233) nomli asarida ham keltirilgan [6:14-15].

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Abulg'ozixon hukmronlik davrida Xiva xonligi mustahkamlanib, ichki va tashqi siyosiy barqarorlikka erishishga harakat qilingan. Abulg'oziy Bahodirxon Buxoro va Eron kabi yirik davlatlar bilan siyosiy va harbiy to'qnashuvlarga kirishgan, ko'plab yurishlar uyushtirgan, g'alabalarga

erishgan. Shuningdek, Abulgʻoziy oʻz davrida ilm-fan va tarixga katta eʼtibor qaratgan. U tomonidan yozilgan “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlari nafaqat oʻz davrining, balki keyingi avlodlar uchun ham qimmatli manba boʻlib xizmat qilgan. Ushbu asarlar turkiy xalqlarning kelib chiqishi, shayboniylar sulolasi, Chingizxon avlodlari va Xiva xonligining siyosiy hayoti haqida muhim maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Bu asarlar hozirda ham davlatchiligimiz tarixi boʻyicha muhim manbalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gʻafforov Sh. S. va b. Oʻzbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. – Samarqand, 2011. – 190 b.
2. Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 192 б.
3. Абулғози Баҳодирхон. “Шажарайи тарокима”. – Самарқанд, 1995.
4. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 427 б.
5. Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва, 1948. – 435 с.
6. Худойназаров Ҳ. Абулғози Баҳодирхон тарихчи ва адиб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 54 б.
7. Худойназаров Х. “Шажарайи турк” ва унинг ўрганилиши. – Тошкент, 1994. – 127 б.

SHOIRA NODIRABEGIMNING SHARQSHUNOSLIK INSTITUTIDA SAQLANUVCHI FORS-TOJIK TILIDAGI DEVONI QOʻLYOZMASI TOʻGʻRISIDA

*Boʻriyev Islom
Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk oʻzbek shoirasi Nodirabegimning fors-tojik tilidagi devonining Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti manbalar xazinasida saqlanuvchi nodir qoʻlyozma nushasi toʻgʻrisida maʼlumot beriladi. Bunda qoʻlyozma manbashunoslik jihatidan tahlil qilinadi, shuningdek, shu muassasadagi boshqa nushalar bilan qiyosiy oʻrganiladi.

Kalit soʻzlar: Nodirabegim, Qoʻqon xonligi, adabiy muhit, oʻzbek adabiyoti, devon, bayoz, gʻazal, zullisonayn, qoʻlyozma, nusha, fors-tojik tili.

Аннотация: В данной статье представлена информация о редкой рукописной копии персидско-таджикского дивана великой узбекской поэтессы Нодирабегим, хранящейся в архиве Института востоковедения Академии наук Узбекистана. В данном случае рукопись анализируется с точки

зрения источника, а также сравнивается с другими экземплярами, хранящимися в том же учреждении.

Ключевые слова: Надирабегим, Кокандское ханство, литературная среда, узбекская литература, диван, баяз, газель, зуллисонайн, рукопись, копия, персидско-таджикский язык.

Abstract: This article provides information about a rare manuscript copy of the Persian-Tajik divan of the great Uzbek poetess Nodirabegim, kept in the Source treasury of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan. The manuscript is analyzed from the point of view of source studies, as well as a comparative study with other copies in this institution.

Keywords: Nadirabegim, Kokand Khanate, literary environment, Uzbek literature, divan, bayaz, ghazal, zullisanayn, manuscript, copy, Persian-Tajik language.

Buyuk o'zbek shoirasi Mohlaroyim Nodirabegim Rahmonqulibiy qizi (1792–1842) Qo'qon xonligi adabiy muhitining taniqli namoyandasi, ma'rifatparvar davlat arbobidir. U Qo'qon xoni Umarxonga (1810–1822) turmushga chiqib, xonlik malikasi bo'lgach, ilmli umr yo'ldoshi bilan birgalikda yurtida madaniy hayotni rivojlantirishga harakat qilgan, masjid, madrasalar qurdirdi, ilm ahliga homiylik ko'rsatgan. Shoirasi o'z o'g'li Muhammad Alixon (1822–1842) hukmronligi davrida ham bu ishlarni davom ettirgan, oqilona madaniy siyosat yuritgan. Xususan, o'sha davrda Qo'qon xonligi adabiy muhitidagi taniqli shoirlar: Jahon otin Uvaysiy, Mahzuna va Dilshodi Barnolar aynan Nodirabegimning homiyligi ostida ijod qilishgan [9: 32–54].

Nodirabegimning o'zi ham yaxshigina ilmli ayol bo'lgan, turkiy va fors-tojik tillarida ijod qilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, uning bu tillarda bitilgan she'rlardan iborat ikki devoni saqlanib qolgan. Bularning eng to'liq va qimmatli nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti manbalar xazinasida saqlanadi. Xususan, bu muassasada Nodiraning o'zbek tilidagi devonining ikki nusxasi mavjud [2: 194 var.; 3: 1a–154b]. Fors-tojik tilidagi devonning ham ikki nusxasi bor, biroq ularning ikkalasi ham nuqsonli [1: 132 var.; 4: 23 var.]. Shuningdek, mazkur muassasa manbalar xazinasida Nodiraning she'rlari kiritilgan to'rtta bayozning ham qo'lyozma nusxalari saqlanadi [5: 239 var.; 6: 244 var.; 7: 100 var.; 8: 147 var.]. Bularda ham o'zbek, ham fors-tojik tilidagi she'rlar uchraydi.

Keltirib o'tilgan nusxalar ichida eng nodiri va qimmatlisi institut manbalar xazinasida Asosiy fondida saqlanuvchi №7766 inventar raqamli qo'lyozmadir. Chunki bu asar Nodiraning fors-tojik tilidagi devonining nisbatan eng to'liq nus'hadadir. Qo'lyozmaning tashqi ko'rinishidan u ancha boy yoki zodagon kishi uchun ko'chirilgan deb aytish mumkin. Qo'lyozmaning muqovasi ustiga charm qoplangan

kartondan qilingan. Muqova mosh rangida. Old va orqa muqovalarning har biriga uchtdan rombsimon tamg'a qo'yilgan. Muqovalarning o'rtasidagi katta tamg'a islamiy naksh bilan bezatilgan. Uning tera va past tomoniga kichikroq tamg'alar bosilgan. Ularning har biri ichira عمل ملا سيد محمد حكيم (Amali mullo Sayyid Muhammad Hakim) so'zlari yozilgan. Demak, muqovasoz shu kishi bo'lgan. Old va orqa muqovaning ichki tomoni malla rangdagi abro' bilan bezatilgan. Qo'lyozma xira novvot rangidagi Qo'qon qog'oziga chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan.

Qo'lyozmadagi dastlabki ikki varaq bo'sh qoldirilgan. Keyingi varaqdan matn boshlanadi. 1a-varaqda turli kishilarning har xil qaydlari va duolar keltirilgan. Bular nasta'liq yozuvida, qora siyohda yozilgan. Qaydlarning mazmuni turlicha. 1b-varakda unvon bor. Unga tilla suvi yugurtirilgan va ichiga basmala yozilgan. Unvondan keyin devonga yozilgan debocha boshlanadi. Debocha umumiy 6 sahifani tashkil qiladi (1b-4a). Debocha yozilgan varaqlarning har biri 6 qator jadvalga olingan. Jadvallarning ikkitasiga tilla suvi yugurtirilgan. Debocha hamd va na't bilan boshlanadi. Devonni yozilish sababi keltirilib, muallif o'ziga Maknuna taxallusini olgani ham aytib o'tiladi. Debochada bir necha she'riy parchalar ham uchraydi. Bunda har bir misraning boshlanish va tugash yeriga qizil rangdagi to'rta ostin-ustin nuqtadan iborat maxsus belgi qo'yilgan [1: 1b-4a].

Devonning o'zi 5b-varaqdan boshlanadi. Bunda ham tilla suvi yugurtirilgan maxsus unvon qilinib, unda basmala yozilgan. 5b va 6a varaqlar 5 qator jadvalga olingan, ulardan ikkitasi tilla suvi yugurtirilgan. Keyingi varaqlarning hammasi 4 qator jadvalga olingan, ulardan bittasiga tilla suvi yugurtirilgan. Poygir deyarli barcha varaqda uchraydi, u sahifaning pastki chap burchagiga qo'yilgan [1: 5b-132b].

Devon butunlay g'azallardan iborat, ularning soni 333 tani tashkil etadi. Bu orqali esa mazkur qo'lyozma Nodirabegimning fors-tojik tilidagi devonining eng to'liq nushasi ekanligi anglashiladi. Chunki bu tildagi devonning institutda saqlanuvchi ikkinchi nushasi №2090 inventar raqamli qo'lyozmada 90 ta g'azal mavjud [4: 23 var.]. Nodirabegimning fors-tojik tilidagi she'rlari nisbatan ko'proq saqlanib qolgan №660 inventar raqamli qo'lyozmadagi bayozda esa 200 dan ortiq g'azal uchraydi [5: 46b-54b, 69b-83a, 84b-86a, 144b, 152a-155a].

Devondagi dastlabki ikki g'azal tasavvufiy yo'nalishda yozilgan. Ularda Maknuna Nodira Xudoga hamdu sanolar aytadi, inoyat tilib, o'ziga rahm qilishini so'rab iltijo qiladi [1:5b-6b]. Qolgan g'azallarning mazmuni esa turlicha. Ularning ba'zilarida ishq-muhabbat, mehr-vafo ulug'lansa, ba'zilarida tasaffuvvufiy g'oyalar ilgari suriladi. G'azallarning hajmi ham turlicha: 3 baytdan 18 baytgacha. Ma'lumki, Sharq adabiyotida g'azallar asosan toq sondagi baytlardan iborat bo'ladi. Biroq mazkur devonda juft sondagi, ya'ni 4, 6, 8, 10, 12, 14, 16 baytli gazallar ham ko'p

uchraydi [1: 8b–10a, 13a–13b, 19b–20b, 24a–25a, 29b, 31a–31b, 35a–35b, 110b–111a]. 18 baytli gʻazal bittagina. U devondagi birinchi gʻazaldir [1: 5b–6a].

Afsuski, qoʻlyozma toʻliq saqlanmagan, 132b varaqda u uzilib qolgan. Keyingi varaqlar koʻchib ketgan yoki atayin yirtib olingan boʻlishi mumkin. Koʻlyozma toʻliq emasligi uchun u koʻchirilgan yil va xattotning ism-sharifini aniqlab boʻlmaydi. Birok qoʻlyozmaning qogʻozi, xat turiga koʻra u XIX asrning ikkinchi yarmi yoki XX asrning boshlarida koʻchirilgan deyish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qoʻqon xonligi adabiy muhitining yorqin namoyandasi boʻlgan shoira Nodirabeginning fors-tojik tilidagi devoni oʻzbek adabiyotining nodir namunasi. Bu devon orqali oʻzbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar davridan beri rivojlanib kelayotgan zullisonaynlik, yaʼni ikki tilla ijod qilish anʼanasi asrlar osha Qoʻqon xonligida yangi bosqichga chiqqanini koʻrish mumkin. Shuningdek, Nodirabeginning bu asari xonlikdagi keyingi shoirlarning ham ijod qilishida, devon tuzish anʼanalarini davom ettirishida muhim oʻrin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. مكنونه – نادره. ديوان مكنونه. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Asosiy fond, №7766. – 132 varaq.
2. نادره. ديوان. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Hamid Sulaymonov fondi, №313. – 194 varaq.
3. نادره. ديوان. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Asosiy fond, №4182/1. – 1a–154b varaqlar.
4. غزليات مكنونه. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Asosiy fond, №2090. – 23 varaq.
5. بياض. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Asosiy fond, №660. – 239 varaq.
6. بياض. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Hamid Sulaymonov fondi, №314. – 244 varaq.
7. بياض. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Hamid Sulaymonov fondi, №1473. – 100 varaq.
8. بياض. Qoʻlyozma. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik qoʻlyozmalar instituti manbalar xazinas. Hamid Sulaymonov fondi, №1502. – 147 varaq.
9. Кадырова М. Надира. Очерк жизни и творчества. – Ташкент, 1967. – 188 с.

СВЕДЕНИЯ О КОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ В «ТУРКЕСТАНСКОМ СБОРНИКЕ»

Хакимова Саида Бахтиёровна
старший преподаватель
кафедры Всемирной истории ФерГУ, PhD
Маширабжонов Мехрибон
студент I курса исторического направления ФерГУ

Аннотация: В статье проанализировано источниковедческое значение «Туркестанского сборника» в изучении истории Кокандского ханства. На примере отдельных статей сборника показано какого рода информацию по истории ханства можно почерпнуть из указанного сборника. Сделан вывод о том, что некоторые сведения о Кокандском ханстве, приведенные в сборнике, являются уникальными и не встречаются в других источниках.

Ключевые слова: «Туркестанский сборник», Кокандское ханство, история, источник, торговля, ремесло.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda “Turkiston to‘plami”ning manbashunoslik ahamiyati tahlil qilinadi. To‘plamdagi alohida maqolalar misolida, undan xonlik tarixi haqida qanday ma’lumotlar olish mumkinligi ko‘rsatib berilgan. To‘plamda keltirilgan Qo‘qon xonligi haqidagi ba’zi ma’lumotlar noyob va boshqa manbalarda uchramaydi degan xulosa berilgan.

Kalit so‘zlar: “Turkiston to‘plami”, Qo‘qon xonligi, tarix, manba, savdo, hunarmandchilik.

Abstract: This article analyzes the source study significance of the “Turkestan Collection” for studying the history of the Kokand Khanate. Using individual articles from the collection as examples, it demonstrates the type of information on the history of the khanate that can be gleaned from it. It concludes that some of the information about the Kokand Khanate presented in the collection is unique and not found in other sources.

Keywords: “Turkestan Collection”, Kokand Khanate, history, source, trade, crafts.

Содержание известного «Туркестанского сборника» исключительно богато и разнообразно. На страницах этой своеобразной летописи можно найти сообщения и описания касающихся разнообразных сторон жизни Центральной Азии в XIX – начале XX веков во всех подробностях. Завоевание центральноазиатских государств, устройство и колонизация края, экономика его, изучение производительных сил, история и этнография народов Центральной Азии, – всё, что нашло в своё время отражение в печати, собрано

в «Туркестанском сборнике». Вместе с тем, в этом уникальном сборнике собраны сведения о Кокандском ханстве до момента его падения, преимущественно периода 50-60-х годов XIX века, однако существуют материалы и по истории ханства первой половины столетия. Эти материалы касаются политической, этнографической, хозяйственной и культурной сфер ханства.

А.Кун, действительный член Русского Императорского Географического Общества, состоящий при туркестанском генерал-губернаторе для собрания этнографических сведений и восточных рукописей, собрал сведения о Коканде во время последнего похода летом 1875 года. В своем сообщении А.Кун, указав на посещенные им местности, дает вначале общую характеристику ханства и затем переходит к данным о населении, производительности, управлении, податных силах и торговле ханства. По его сведениям, население преимущественно группируется у подошвы гор, для удобнейшего пользования горными водами. Главное средоточие населения и культуры представляет часть ханства к югу от Сыр-Дарьи, к северу же распространено кочевое население; отчасти кочевники живут и в восточной части ханства, но менее. Население ханства, по его словам, представляет пестроту – сарты, таджики, киргизы, узбеки и кипчаки. Общая численность населения по приблизительному счету составляет до 132.000 домов и до 60.000 кибиток кочевников [12: 148].

Перечислив подробно все города ханства, численность их населения, школ, лавок и прочих, А.Кун переходит к характеристике податных сил ханства и местного управления. Он отмечает, что, как и в других среднеазиатских ханствах, в Коканде система податей крайне развита, и нет никакого предмета, который бы не был обложен. Подати собираются старостами, которые вместо жалованья получают часть сбора. Общая сумма сборов в Коканде составляет сумму около 2,5 миллионов рублей: земледельческая производительность края обширна; здесь разводится, кроме хлеба, хлопок и шелк, отчасти вывозимые в Россию. Относительно караванов существует еще обычай, что о прибытии каждого каравана докладывается хану, причем все лучшее доставляется во дворец, для его выбора по цене, какую он назначит [12: 148].

В одной из статей дано описание межэтнических отношений в ханстве. В частности, пишется, «народонаселение ханства состоит из узбеков и сартов, составляющих городское и промышленное оседлое население, и киргизов (то есть казахов), отличающихся беспокойным характером и дорожащих своею независимостью. Каракиргизы, владеющие горными проходами, ведущими в Кашгар, играют особое значение в ханстве. Население ханства состоит из

элементов враждебных и ненавидящих друг друга: духовенство, сохраняющее за собою судебную власть, имеет огромную силу, но нелюбимо народом; сарты стремятся к сближению с Бухарой, или с Кашгаром; киргизы же и кипчаки всегда составляют готовый материал для восстаний и всегда первые поднимают знамя бунта» [10: 158]. Таким образом, кочевое население ханства рассматривалась как постоянная угроза безопасности страны.

Еще одна статья в «Туркестанском сборнике» содержит данные о составе населения Кокандского ханства. Говорится, что «...народ Кокандского ханства, разделяясь на оседлое и кочевое, принадлежит к трем главным племенам, к узбекам, сартам и киргизам. Все оседлое население ханства группируется на пространстве; разве немногим более 150 верст от запада к востоку; впрочем, следует сказать, что в точности неизвестно, где именно вверх по Сырдарье и ее притокам кончается оседлое население сартов и начинаются кочевья каракиргизов. Что касается до кочевого населения, то сведений о нем почти не имеется и только приблизительно можно указать места кочевек того или другого племени.

Из вышесказанного можно убедиться, как трудно составить понятие об общей численности населения ханства. Полагают, что оседлое население можно считать между 350 – 600 тысяч. Число кочевников, вероятно, не превосходит 200 000. Общая же численность колеблется между 600 и 800 тысяч и, вероятно, не доходит до миллиона» [11: 200]. Хотя, как известно из общепринятых источников, население ханства оценивалось около 3 миллионов человек.

Внутренняя и внешняя торговля играла важную роль в жизни населения ханства. Внутренняя торговля в среднеазиатских ханствах с давних времен основывалась на товарообмене между кочевыми скотоводами, оседлыми дехканами, городскими и сельскими ремесленниками. Столица ханства и центры провинций являлись и торговыми центрами. В них находились специализированные базары и торговые ряды. Самыми востребованными были базары, где продавались рис, масло, свежие фрукты и сухофрукты, скот [4: 282].

В.В.Вельяминов-Зернов приводит сведения о том, что большая торговля на базарах Ташкента и Коканда бывала два раза в неделю – по воскресеньям и средам. В эти дни на базар пригоняли лошадей, крупный и мелкий рогатый скот, доставляли зерно, хлопкобумажное полотно и различные предметы, необходимые для хозяйственных нужд [2: 138]. Цены на продукцию менялись не только под влиянием политической и социальной ситуации в стране, но и вследствие изменения погодных условий, проблем с орошением земледельческих культур, а также колебаний на внешнем рынке.

В период завоевания среднеазиатских территорий Российской империей в регионе росли цены на потребительские товары. Так, вторжение русских войск в Ферганскую долину поставило жизнь коренного населения под угрозу. Кроме всего прочего, стало опасно доставлять продукцию, ибо ремесленник или дехканин по пути на базар мог быть ограблен русскими солдатами или местными повстанцами. Поэтому лишь спекулянты или люди, живущие вблизи базаров, осмеливались заниматься торговлей [1: 113].

Кокандско-кашгарские торговые связи осуществлялись через Кульджу, так как караванный путь пролегал через горы и был достаточно безопасным для купцов ханства от грабежей, но российские торговые караваны подвергались ограблениям. Кокандские купцы торговали не только с Россией, Восточным Туркестаном, но и с Бухарой, Афганистаном, Индией. О торговых связях с Индией, например, А.К.Гейнс писал, что в Бухару, Коканд, Ташкент и Кашгар через Кабул отправлялось от 10 000 до 15 000 верблюдов с товаром. Из Средней Азии в Индию вывозилось 20 лаков (1 лак= 100 тысяч) золота [3: 532]. Кокандское ханство и Россию, несмотря на ее открытую вооруженную экспансию против ханств региона, связывали широкие торговые отношения. В период с 1758 по 1853 г. российские купцы первоначально имели 100%, а затем 70% и 50% дохода от торговли с Кокандом. За эти годы экспорт товаров из хозяйства увеличился (в стоимостном выражении) со 174000 до 217 100 руб., а импорт – с 37 000 до 676 000 руб. серебром [13: 98]. В 60-70-е г. XIX в. из ханства в Россию в основном вывозились хлопок, хлопковая пряжа и шелк-сырец.

Таким образом, экономика Кокандского ханства в исследуемый период претерпевала трудности становления и преодоления результатов вооруженной экспансии России против Кокандского ханства. Но постепенно экономика ханства восстанавливалась и укреплялась, налаживались торговые отношения как внутри региона, так и с другими странами. Оживленная торговля с Россией хотя и оказывала положительное влияние на развитие сельскохозяйственных отраслей, производящих необходимую для России продукцию, но вызывала спад местного ремесленного производства и подорожание потребительских товаров, что предопределяло ухудшение материального положения местного населения.

В «Туркестанском сборнике» есть сведения и о денежном обращении в Коканде. В одной из статей пишется, «коканская монетная система проста, она имеет из меди чеку, вышедшую, впрочем, из обращения в наших пределах, из серебра кокан (20 к.) и из золота тилли (3 руб. 80 коп.), причем стоимость всех трех видов, при обращении как в частном, так и в казенном, не определена еще законодательным порядком и стоимость кокана в 20 коп. принимается во всех

частных и казенных платежах Туркестанского края в силу административных распоряжений, и за ними в силу привычки. В каждых 5 тысячах коканов заключается общего веса 35 фунтов, поэтому в 3.750,000 коканов мы имеем 26.250 фунт общего веса. Качество этой монеты, а равно вес и форма ее разнообразны, тем не менее она имеет высокую пробу, начиная от 68 до 93, как это показали исследования в ташкентской химической лаборатории и в Санкт-Петербургском монетном дворе» [9: 275–276].

В сборнике дается характеристика различным видам ремесла, существовавшим в ханстве. «Между туземными мастерами есть очень хорошие формовщики; они весьма порядочно отливают различные вещи как для себя, так и для продажи русским, как, то: котлы, кумганы, вьюшки, дверцы и решетки для печей. Отлитые ими вещи никогда не имеют чистой отделки и поверхность их бывает всегда шероховатая. Это происходит оттого, что чугун у них никогда не бывает достаточно жидким, что зависит, во-первых, от слишком слабого дутья, а во-вторых, от самого способа отливки, при котором употребляется очень много времени на очистку котла и выставление его из горна, причем металл остывает. В экономическом отношении этот способ отливки очень невыгоден, он требует для расплавки одного пуда чугуна до 2 пудов древесного угля и дает до 20% угару» [8: 413].

В статье А.П.Федченко описывается процесс изготовления кокандской бумаги. «Бумага, предмет первой необходимости в каждой стороне хотя сколько-нибудь цивилизованной, получается в Туркестанском крае исключительно с писчебумажных фабрик, существующих в Коканском ханстве. Впрочем, и в этом ханстве фабрики существуют только в двух пунктах: городе Кокане и селении Чарку. Что за причина обуславливает такое спорадическое распространение этих заведений – для меня осталось неизвестным. Правда они нуждаются в сильной струе воды, которая приводила бы в движение толчеи, разбивающие тряпье, толчеи гораздо больших размеров, чем употребляемая для обдирки рису, но это условие встречается и во многих других местах, однако обджуазов мы не видим. Я имел случай как-то познакомиться с китайским способом приготовления бумаги и осматривая обджуаз в Кокане, был поражен сходством виденного с тем, как китайцы готовят бумагу. Источник откуда приготовление бумаги проникло в Туркестан, следовательно, ясен: учителями туркестанских мастеров были несомненно китайцы, но, когда это случилось, сказать конечно трудно. Писчебумажные фабрики в г. Коканде все расположены за воротами Муйимуборак, по арыку того же имени и недалеко от Мазара самого знаменитого святого города Кокана, от которого и арык и ворота получили свое имя» [7: 413-418]. Также автор подробно описывает этапы приготовления

бумаги, и отмечает, что кокандская бумага близка к формату прописной. Не проклеенная бумага употреблялась местными жителями как оберточная, а смазанная маслом заменяла в окнах стекла и т. п. Глянцевая бумага служила для письменных надобностей. Цена бумаги составляла около 5 рублей за стопку.

В одной из статей освещено горнорудное дело в ханстве, даны сведения о его полезных ископаемых. В частности, в ней пишется: «В пяти ташах (40 верст) от Намангана, в пределах Коканского ханства, находится местность Май-булак (масляный источник), весьма изобильная нефтяными ключами и колодцами. Надобно заметить, что нефть известна в Кокане еще с давних времен; ее добывали калмыки, некогда господствовавшие здесь, а затем и сарты стали употреблять нефть, преимущественно, как лекарство от чесотки, болезни, весьма распространенной между туземным населением. Кроме того, сарты умеют готовить из нефти асфальт, но употребляют его единственно для своих сапожных изделий. Сарты получают асфальт, выпаривая горное масло в чугунных котлах.

Кроме нефти, весьма чистой и хорошего качества, на приисках Коканского ханства добывается также и горный воск или нефтедегиль. Сарты добывают ее из глинисто-сланцевой горы, и он известен им уже более 40 лет, под названием сарык-мум. Впрочем, нефтедегиль добывается в весьма ограниченном количестве; в продаже довольно дорога, употребляется для сапожных изделий и для выделки свечей. В 1868 году ташкентский купец Федоров получил дозволение от Коканского правительства на разработку Май-Булакских источников нефти, для приготовления керосина и асфальта, с уплатою за это в пользу хана, части из вывозимого с места разработки добытого материала; это единственная пошлина и кроме ее в коканских владениях пошлина не взимается» [6: 365-368]. Автор статьи И.И.Краузе, впоследствии активно участвовавший в общественно-научной жизни Туркестана, будучи еще студентом был привлечен для изучения нефтяных месторождений Майли-сая в Намангане по поручению купца М.Хлудова. Это указывает на заинтересованность предпринимательских кругов России в разработке природных богатств края.

«Туркестанский сборник» содержит информацию также про пути сообщения в ханстве. В частности, о торговых путях дается следующее описание: «Пути сообщения в Коканде по отсутствию степей и вследствие повсеместного обилия кормов и воды, представляют более удобств для движения, нежели в Бухаре и Хиве. Тем не менее, в дождливое время и в гористых местах, дороги в ханстве бывают, весьма затруднительны, особенно на частых переправах через речки или сая и арыки, на которых нигде не

существует мостов. Для переездов и перевозки тяжестей на недалекие расстояния употребляются преимущественно ишаки, которых, выючат или впрягают в арбы, неуклюжие двухколесные телеги, только с недавнего времени вошедшие здесь в употребление. Для караванных перевозок употребляются исключительно двугорбые верблюды, нанимаемые у кочевых племен. Обыкновенная тяжесть верблюжьего выюка не превышает 16 пудов. На лошадях, за пределы ханства, отправляют товары только на недалекие расстояния и по гористой дороге в Кашгар.» [5: 197-198]. Между Ташкентом и Кокандом существовали три прямых путей сообщения. Караваны из Коканда в Бухару доходили за 23 дня. Караванный путь из Коканда в Кашгар пролегал через города Маргилан, Ош, Андижан, и затем вступал в пределы восточного Туркестана. Как отмечается в статье, по этому направлению, постоянно оживленному торговой деятельностью, происходили сношения Средней Азии с Китаем в самые отдаленные времена.

Таким образом, можно сказать, что материалы «Туркестанского сборника», освещают политическую историю, различные аспекты социальной, экономической и культурной жизни ханства. Они описывают географическое расположение, население, землепользование, сельское хозяйство, занятия населения, положение ремесленничества, налоговую систему ханства, денежное обращение, торговые отношения, быт, традиции, сельские и городские взгляды, архитектурные памятники ханства и многое другое. Эти сведения дополняют локальные произведения по истории ханства, а в освещении некоторых аспектов ханства даже являются единственным источником информации, что еще раз подчеркивает важность данного сборника.

Использованная литература:

1. Бабабеков Х. История Коканда. – Ташкент: Фан, 2011. – 243 с.
2. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. Спб., 1856. Т. 18. – С.107-152.
3. Гейнс А.К. Собрание литературных трудов. Т. II. – СПб., 1897. – 589 с.
4. Потанин И. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830 год). СПб. Б/г. – 289 с.
5. Пути сообщения в Кокане // Туркестанский сборник. – Т. 23. – С. 197-198.
6. Краузе И. И. О нефтяных источниках в Коканском ханстве // Туркестанский сборник. – Т. 57. – С.365-368.
7. Федченко А. Оби джуаз - писчебумажная фабрика в Кокане // Туркестанский сборник. – Т. 57. – С.413-418.

8. Чугунно-литейное производство // Туркестанский сборник. – Т. 57. – С.413.
9. Обмен коканского серебра // Туркестанский сборник. – Т.72. – С.275-276.
10. По поводу волнений в Кокане // Туркестанский сборник. – Т.148. – С.158.
11. Коканское ханство по новейшим известиям // Туркестанский сборник. – Т.150. – С.200.
12. Сообщение Л. Куна о Кокане // Туркестанский сборник. – Т.150. – С.148.
13. Янжул И. Исторический опыт торговли со Средней Азией // Туркестанский сборник. Т.378. – С.98.

MARKAZIY OSIYO TARIXINI O'RGANISHDA YOZMA MANBALAR VA MEMUAR ASARLARNING MANBASHUNOSLIK AHAMIYATI

Roziqov Shohijahon Rashid o'g'li
O'zbekiston Respublikasi
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
kunduzgi ta'lim fakulteti 3-o'quv kursi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tarixini yoritishda yozma manbalar va memuar asarlarning manbashunoslik ahamiyati tahlil qilinadi. Unda manbalarning tarixiy faktlarni tiklashdagi o'rni, ishonchlilik darajasi, subyektivlik omili va tanqidiy-qiyosiy tahlil zarurati yoritiladi.

Kalit so'zlar: manbashunoslik, Markaziy Osiyo tarixi, yozma manbalar, memuar asarlar, arxiv hujjatlari, sayohatnomalar, tarixiy xotira, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В статье анализируется источниковедческое значение письменных источников и мемуарных произведений в освещении истории Центральной Азии. Рассматриваются их роль в восстановлении исторических фактов, степень достоверности, фактор субъективности и необходимость критико-сравнительного анализа.

Ключевые слова: источниковедение, история Центральной Азии, письменные источники, мемуары, архивные документы, путевые записки, историческая память, сравнительный анализ.

Abstract: This article analyzes the source-study significance of written sources and memoirs in illuminating the history of Central Asia. It examines their role in reconstructing historical facts, the issue of reliability, authorial subjectivity, and the need for critical-comparative analysis.

Keywords: source studies, history of Central Asia, written sources, memoirs, archival documents, travelogues, historical memory, comparative analysis.

Markaziy Osiyo tarixi qadimiy sivilizatsiyalar, siyosiy tuzilmalar, madaniy aloqalar, savdo yo'llari, diniy-ma'rifiy jarayonlar va davlat boshqaruvi an'analari bilan boy tarixiy makondir. Ushbu tarixni ilmiy asosda yoritish, avvalo, mavjud tarixiy manbalarni to'g'ri aniqlash, ularning mazmunini tahlil qilish va ilmiy xulosalarni tanqidiy yondashuv asosida shakllantirishni talab qiladi. Shu jihatdan manbashunoslik tarix fanining eng muhim tayanch yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy yilnomalar, sayohatnomalar va memuar asarlar muhim o'rin tutadi. Chunki ular tarixiy jarayonlarni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki o'sha davr kishilarining dunyoqarashi, siyosiy muhit, ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayot bilan bog'liq holda tushunish imkonini beradi. Ayniqsa, memuar asarlar tarixiy voqealarning ichki ruhini, zamondoshlar kayfiyatini va muallifning bevosita kuzatuvlarini aks ettirishi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. Biroq yozma manbalar va memuar asarlarni tarixiy haqiqatning tayyor shakli sifatida qabul qilish mumkin emas. Har bir manba muayyan davr, siyosiy sharoit, muallif dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei va yozilish maqsadi bilan bog'liq. Shu sababli manbashunoslikda manbaning kelib chiqishi, muallifi, yozilgan vaqti, auditoriyasi, ichki mazmuni va boshqa manbalar bilan qiyosiy munosabati tahlil qilinishi zarur.

Yozma manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy ilmiy tayanchi hisoblanadi. Ular tarixiy voqealar, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar, madaniy hayot, iqtisodiy aloqalar va davlat boshqaruvi shakllari haqida muhim ma'lumot beradi. Markaziy Osiyo tarixida yozma manbalar doirasi nihoyatda keng bo'lib, ular orasida tarixiy yilnomalar, arxiv hujjatlari, rasmiy yozishmalar, sayohatnomalar, qo'lyozmalar, vakf hujjatlari, diplomatik maktublar, shajaralar va tarixiy risolalar alohida o'rin egallaydi. Tarixiy yilnomalar ko'pincha davlatlar, sulolalar, hukmdorlar, urushlar, siyosiy voqealar va ijtimoiy hayot haqida ketma-ket axborot beradi. Bunday manbalar tarixiy voqealar xronologiyasini tiklashda muhimdir. Shu bilan birga, yilnomalarda muallif yashagan siyosiy muhit, homiy hukmdor manfaatlari yoki muallifning diniy-mafkuraviy qarashlari aks etishi mumkin. Shuning uchun ular tanqidiy o'rganilishi lozim. Arxiv hujjatlari esa rasmiy xarakterga ega bo'lgani uchun tarixiy tadqiqotlarda alohida ishonchli manba sifatida baholanadi. Ular farmonlar, buyruqlar, diplomatik yozishmalar, moliyaviy qaydlar, ma'muriy hujjatlar, er-suv munosabatlari va davlat boshqaruvi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Biroq arxiv hujjatlari ham o'z davrining rasmiy tili va ma'muriy manfaatlari doirasida yaratilganini unutmaslik kerak. Sayohatnomalar Markaziy Osiyo tarixini tashqi kuzatuvchi nigohida o'rganish imkonini beradi. Ular shaharlar, savdo yo'llari, urf-odatlar, hunarmandchilik, harbiy kuch, iqtisodiy munosabatlar va kundalik hayot haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Biroq sayohatchi muallifning madaniy qarashlari, diniy mansubligi, siyosiy manfaatlari va ma'lumotni qanday maqsadda yozgani ham tahlil qilinishi zarur. Qo'lyozma manbalar esa Markaziy Osiyo madaniy va ilmiy tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular tarix, adabiyot, fiqh, falsafa, geografiya, tibbiyot, astronomiya va boshqa sohalarga oid ilmiy-ma'rifiy merosni o'zida saqlaydi. Qo'lyozmalarni o'rganishda paleografiya, matnshunoslik, kodikologiya va tarjima masalalari muhim o'rin tutadi. Rahmatjon Arslonzoda manbashunoslik masalalariga oid tadqiqotlarida tarixiy manbalarni to'g'ri tasniflash, ularni ichki va tashqi tanqid asosida o'rganish hamda tarixiy xulosalarni manbaviy asosga tayanib chiqarish zarurligini ko'rsatgan. Uning manbashunoslikka oid ishlari tarixchi tadqiqotchilar uchun metodik jihatdan muhim ilmiy tayanch hisoblanadi [1: 18].

Memuar asarlar tarixiy manbalarning o'ziga xos turidir. Ular muallifning shaxsiy xotiralari, bevosita kuzatuvlari, voqealardagi ishtiroki yoki zamondosh sifatidagi qarashlarini aks ettiradi. Shu jihatdan memuarlar tarixiy voqealarning faqat tashqi ko'rinishini emas, balki ichki ruhini, insoniy munosabatlarni, siyosiy kayfiyatni va ijtimoiy muhitni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo tarixini yoritishda memuar asarlar alohida o'rin tutadi. Masalan, "Boburnoma" nafaqat Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiy xotiralari, balki XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixiga oid muhim tarixiy-geografik, etnografik va siyosiy manba hamdir. Unda shaharlar, tabiat, urf-odatlar, siyosiy kurashlar, harbiy yurishlar, hukmdorlar va shaxsiy kuzatuvlar birgalikda yoritilgan [3: 41]. Memuar asarlarning afzalligi shundaki, ular tarixiy voqeani quruq fakt emas, balki muallifning ichki kechinmasi, munosabati va bahosi bilan birga aks ettiradi. Bunday manbalar tarixiy shaxslar xarakterini, davr ruhiyatini, siyosiy munosabatlarning ichki tomonlarini va ijtimoiy hayotdagi nozik jihatlarni tushunishga yordam beradi. Biroq memuar asarlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik zarur. Chunki har qanday memuar muallif xotirasi, shaxsiy manfaatlari, siyosiy qarashlari, o'zini oqlash yoki ayrim voqealarni boshqacha talqin qilish ehtimoli bilan bog'liq bo'ladi. Muallif ayrim voqealarni bo'rttirishi, ba'zilarini kamaytirib ko'rsatishi yoki o'z mavqeidan kelib chiqib baholashi mumkin. Shu sababli memuar asarlar boshqa yozma manbalar, arxiv hujjatlari va tarixiy tadqiqotlar bilan qiyoslab o'rganilishi kerak. Memuar asarlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular rasmiy tarixiy matnlarda ko'rinmay qolgan kundalik hayot tafsilotlarini yoritadi. Rasmiy hujjatlar ko'pincha davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar va ma'muriy jarayonlarni aks ettirsa, memuarlar insoniy tajriba, shaxsiy kuzatuv va ijtimoiy muhitni ko'rsatadi. Shu jihatdan ular tarixiy jarayonni jonliroq anglash imkonini beradi. Manbashunoslikning asosiy vazifalaridan biri manbani tanqidiy tahlil qilishdir. Tanqidiy tahlil ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: tashqi tanqid va ichki tanqid. Tashqi tanqid manbaning kelib chiqishi, muallifi, yozilgan davri, nusxalari,

saqlanish holati va asl yoki ko'chirma ekanini aniqlashga qaratiladi. Ichki tanqid esa manbaning mazmuni, undagi ma'lumotlarning mantiqiy izchilligi, voqealar bayoni, muallif pozitsiyasi va tarixiy faktlarning ishonchligini tekshiradi. Markaziy Osiyo tarixiga oid ko'plab manbalar turli tillarda – arab, fors, turkiy, chig'atoy, rus va boshqa tillarda yaratilgan. Bu holat tarjima va talqin muammolarini keltirib chiqaradi. Ba'zan biror tarixiy atama, joy nomi yoki mansab nomining noto'g'ri tarjima qilinishi butun tarixiy xulosaga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli manbashunos tadqiqotchi faqat tarjima matnga emas, imkon qadar asl matnga ham murojaat qilishi kerak. Manbalarni tahlil qilishda ularning yaratilgan tarixiy sharoiti ham muhimdir. Masalan, saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar hukmdor manfaatlarini aks ettirishi mumkin. Sayohatchilar esa o'z madaniy qarashlari va siyosiy topshiriqlariga ko'ra ma'lumotlarni tanlagan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Memuar mualliflari esa ko'pincha o'z shaxsiy tajribasidan kelib chiqib voqealarni baholaydi. Shu sababli manbani to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish tarixiy xatolarga olib kelishi mumkin. Bir manbadagi ma'lumot boshqa manbalar bilan solishtirilganda uning haqiqiy ilmiy qiymati ochiladi. Qiyosiy tahlil tarixiy faktlarni aniqlashtirish, muallif subyektivligini kamaytirish va voqealarning nisbatan haqqoniy manzarasini tiklash imkonini beradi.

Markaziy Osiyo tarixshunosligida manbashunoslik muammolari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchi muammo ayrim manbalarning etarli darajada o'rganilmagani. Ko'plab qo'lyozmalar, shaxsiy arxivlar, mahalliy hujjatlar va memuar xarakteridagi manbalar hali ham to'liq ilmiy muomalaga kiritilmagan. Bu holat tarixiy tadqiqotlarda ma'lumot bazasining torayishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi muammo manbalarning biryoqlama talqin qilinishi. Ayrim tarixiy voqealar faqat bitta manba yoki bitta tarixshunoslik an'anasi asosida yoritilsa, xulosalar cheklangan bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda mahalliy manbalar, xorijiy manbalar, arxiv materiallari va memuar asarlar birgalikda tahlil qilinishi kerak. Uchinchi muammo tarjima va transkripsiya masalalari. Eski yozuvlarda bitilgan manbalarni zamonaviy alifboga ko'chirish, izohlash va tarjima qilishda xatoliklar yuz berishi mumkin. Ayniqsa, tarixiy joy nomlari, shaxs ismlari, mansablar va ijtimoiy atamalarning to'g'ri talqin qilinishi muhim ahamiyatga ega. To'rtinchi muammo arxiv materiallaridan foydalanishdagi qiyinchiliklar. Ba'zi manbalar turli mamlakat arxivlarida saqlanadi, ayrimlari kataloglashtirilmagan yoki keng ilmiy jamoatchilik uchun etarli darajada ochiq emas. Bu esa tadqiqotchilarning manbaviy bazasini cheklaydi. Beshinchi muammo memuar asarlardagi subyektivlikni etarli hisobga olmaslikdir. Memuarlar muhim manba bo'lsa-da, ulardagi shaxsiy munosabat, xotira xatolari, siyosiy pozitsiya va voqealarga tanlab yondashish ehtimoli inobatga olinishi zarur.

Bugungi kunda manbashunoslik tadqiqotlarida zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish, elektron arxivlar, qo‘lyozmalar katalogi, matnshunoslik dasturlari, fanlararo tahlil va ma‘lumotlar bazalaridan foydalanish tarixiy tadqiqotlar imkoniyatini kengaytirmoqda. Elektron arxivlar tadqiqotchilarga turli hududlarda saqlanayotgan manbalardan masofadan foydalanish imkonini beradi. Qo‘lyozmalarni raqamlashtirish esa ularning saqlanishini ta‘minlash bilan birga, ilmiy muomalaga tezroq kiritilishiga yordam beradi. Bunday jarayon ayniqsa Markaziy Osiyo tarixiga oid noyob qo‘lyozmalar va arxiv hujjatlarini o‘rganishda muhimdir. Matnshunoslik yondashuvi bir manbaning turli nusxalarini solishtirish, matndagi farqlarni aniqlash va asarning nisbatan ishonchli matnini tiklash imkonini beradi. Bu usul ayniqsa qo‘lyozma asarlar va memuar manbalar bilan ishlashda zarur. Fanlararo yondashuv ham manbashunoslik uchun muhimdir. Tarixchi tadqiqotchi arxeologiya, filologiya, geografiya, etnografiya, antropologiya va raqamli gumanitar fanlar natijalaridan foydalansa, manbani yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda yozma manbalar asosiy ilmiy tayanch hisoblanadi. Tarixiy yilnomalar, arxiv hujjatlari, rasmiy yozishmalar, qo‘lyozmalar va sayohatnomalar tarixiy jarayonlarning turli qirralarini yoritadi. Ular siyosiy voqealar, davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar, madaniy hayot va xalqaro aloqalarni ilmiy asosda o‘rganishga imkon beradi. Memuar asarlar esa tarixiy voqealarning ichki ruhini, zamondoshlar qarashini va ijtimoiy muhitni ochishda alohida ahamiyatga ega. Ular rasmiy hujjatlarda ko‘rinmaydigan insoniy tajriba, shaxsiy kuzatuv va davr kayfiyatini aks ettiradi. Biroq manbalarni tanqidiy tahlilsiz ishlatish tarixiy xatolarga olib kelishi mumkin. Har bir manbaning muallifi, yozilgan davri, maqsadi, auditoriyasi va siyosiy-ijtimoiy sharoiti hisobga olinishi zarur. Manbashunoslik yondashuvi tarixiy tadqiqotlarning ilmiy ishonchliligini oshiradi. Kelgusida Markaziy Osiyo tarixini chuqur o‘rganish uchun elektron arxivlar, qo‘lyozmalarni raqamlashtirish, manbalarni qiyosiy tahlil qilish va fanlararo yondashuvlardan keng foydalanish muhim ilmiy vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арслонзода Р.А. Источниковедение / Учебник. Отв. ред. М.М. Исхаков. – Ташкент: Навруз, 2019. – 354 с.
2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
3. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б.
4. Бартольд В.В. Сочинения. Том II. Часть 1. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Наука, 1963. – 760 с.
5. Burnes A. Travels into Bokhara. Vol. I–III. – London: John Murray, 1834.
6. Геродот. История. Пер. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – 600 с.

7. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди. – Ташкент: Фан, 1996. – 728 с.
8. Наршахий Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991. – 128 б.
9. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 112 б.
10. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва: Восточная литература, 2003. – 320 с.

XIX ASR OXIRI –XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDAGI AGRAR MUNOSABATLARNING STATISTIK MANBALARDA YORITILISHI

Iriskulov Olimjon Jaxongirovich
Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi agrar sohadagi oʻzgarishlar manbalar asosida tahlilga tortilgan. Shuningdek, Samarqand viloyati iqtisodiyotida bogʻdorchilik va uzumchilikning oʻrni hamda vino ishlab chiqarish jarayonlari yoritilgan. Sabzavotchilik va polizchilik aholi xoʻjalik hayotida muhim oʻrin tutgan anʼanaviy tarmoqlardan biri ekanligi manbalar asosida oʻrganilgan.

Kalit soʻzlar: bogʻdorchilik, uzumchilik, vinochilik, polizchilik, yer fondi.

Аннотация: В данной статье на основе источников анализируются изменения в сельскохозяйственном секторе Самаркандской области в конце XIX и начале XX веков. Также освещается роль садоводства и виноградарства в экономике Самаркандской области, а также процессы виноделия. На основе источников установлено, что овощеводство и выращивание дынь являются традиционными секторами, играющими важную роль в экономической жизни населения.

Ключевые слова: садоводство, виноградарство, виноделие, выращивание дынь, земельный фонд.

Abstract: This article analyzes the changes in the agricultural sector in the Samarkand region in the late 19th and early 20th centuries based on sources. It also highlights the role of horticulture and viticulture in the economy of the Samarkand region, as well as the processes of wine production. It is studied, based on sources, that vegetable and melon growing are traditional sectors that play an important role in the economic life of the population.

Keywords: horticulture, viticulture, winemaking, melon growing, land fund.

Samarqand viloyatining rasmiy statistik ma'lumotlari viloyat iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etganini yaqqol ko'rsatadi. Viloyat hududining umumiy maydoni 66.487 kvadrat verstni tashkil etgan bo'lib, uning katta qismi dehqonchilik va erdan foydalanish jarayonlariga jalb qilingan. Jumladan, 51.568 desyatina er hovli-joylar uchun ajratilgan bo'lsa, 71.391 desyatina maydon bog'dorchilik va polizchilikka ixtisoslashgan. Asosiy er fondini esa ekiladigan erlar tashkil etib, ularning umumiy hajmi 1.138.602 desyatinaga teng bo'lgan [1].

Samarqand viloyatida etishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlari turliligi bilan ajralib turadi. Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishi tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

XIX asr oxirida Samarqand viloyati iqtisodiyotida bog'dorchilik va uzumchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1895-yilda viloyatda jami 9 231 desyatina sug'oriladigan bog' erlari mavjud bo'lib, shundan 6103 desyatinasi uzumzorlarga, 3 128 desyatinasi esa meva daraxtlariga to'g'ri kelgan. Bu esa bog'dorchilikda uzumchilikning ustun ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi, ya'ni umumiy bog' maydonlarining 66 foizdan ortig'ini aynan uzumzorlar tashkil etgan [2]. Geografik jihatdan mazkur tarmoq eng yuqori darajada Samarqand uyezdida rivojlangan bo'lib, keyingi o'rinlarda Xo'jand, Kattaqo'rg'on va Jizzax uyezdlari qayd etilgan.

Mahalliy aholining bog'lari to'liq tartibga solinmagan. Faqat uzumzorlar alohida ajratilgan holda parvarish qilingan bo'lsa, boshqa meva daraxtlari ko'p hollarda tartibsiz aralash holda o'sgan. Eng keng tarqalgan meva turlari qatoriga o'rik, shaftoli, olma, nok, gilos, tut, yong'oq va bodom kirgan. Kamroq darajada anjir, anor va ayva etishtirilgan. Meva sifati va hosildorligi jihatidan eng yuqori ko'rsatkichlar Xo'jand uyezdida qayd etilgan bo'lib, bu hududdagi Sirdaryo havzasi iqlimi bog'dorchilik uchun eng qulay sharoitlarni ta'minlagan. Biroq 1895-yil bog'dorchilik uchun muvaffaqiyatli yil bo'lmagan. Bahordagi sovuq shamollar, gullash davridagi noqulay ob-havo va kuzdagi uzum yig'im-terimi vaqtidagi yomg'irlar hosilga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, uzum hosili shakar miqdori jihatidan past bo'lib chiqqan, boshqa meva turlarida esa qurtlash va sifatning pasayishi kuzatilgan.

Meva hosili miqdori ham keskin kamaygan. Jumladan, 1895-yilda umumiy uzum hosili 2.745.000 pudni tashkil etgan bo'lsa, 1894 yilda bu ko'rsatkich 6.239.000 pudga teng bo'lgan[3]. Bu deyarli ikki barobar kamayishni anglatadi. Shu bilan birga, uzum narxlari bozorda turlicha shakllangan: ulgurji sotuvda 2-2,2 rubl (batmon hisobida), chakana savdoda esa 3,2-4,8 rubl oralig'ida bo'lgan. Mayiz (kishmish) esa ichki bozorda 1,25-1,50 rubl, eksport uchun esa 0,59-1,07 rubl (pud hisobida) baholangan [4].

Uzum mahsulotlarining asosiy qismi qayta ishlangan. Jumladan, 217.000 pud uzum vino ishlab chiqarishga, 70.000 pud vinochilikga, 1.290.000 pud quritishga (mayiz tayyorlashga), qolgan qismi aholi iste'moliga sarflangan [5]. Ayniqsa, mayiz qilish va uni eksport qilish muhim ahamiyat kasb etgan. 1895-yilda Samarqand bozori orqali taxminan 320 vagon (192.000 pud) mayiz Rossiya va Sibir hududlariga eksport qilingan. Vinochilik tarmog'i esa mazkur davrda hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lgan. Viloyatda jami 10 ta katta va kichik vino zavodi faoliyat yuritgan bo'lib, ular yiliga taxminan 70.000 vedro (Rossiya imperiyasida suyuqliklar (vino, spirt va boshqalar) hajmini o'lchashda qo'llanilgan an'anaviy birlik bo'lib, 1 vedro 12,3 litrga teng hisoblangan., 1 vedro taxminan 12,3 litrga teng. Manbada vino ishlab chiqarish hajmlari ushbu birlikda ifodalangan.) vino ishlab chiqargan. Biroq bu hajm mavjud xom ashyo imkoniyatlariga nisbatan juda kam bo'lib, umumiy uzum hosilining atigi 2,6 foizi vino ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Vinochilik tarmog'ining sekin rivojlanishi bir qator omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, Samarqandning Rossiya bozorlaridan uzoqligi va transportning qimmatligi mahsulotni eksport qilishni qiyinlashtirgan. Ikkinchidan, Qrim, Kavkaz va Bessarabiya kabi hududlarda ishlab chiqarilgan arzon vinolar bilan raqobat qilish imkoniyati cheklangan. Uchinchidan, malakali mutaxassislar va kapital etishmasligi ham tarmoq rivojiga to'sqinlik qilgan [6].

Bog'dorchilik va uzumchilik ham muhim iqtisodiy tarmoq sifatida ajralib turadi. Viloyat bo'yicha 7832 desyatina uzumzor va 2542 desyatina mevazor mavjud bo'lib, umumiy uzum hosili 2.347.100 pud, meva hosili esa 1.271.000 pudni tashkil etgan. Uzum narxi 60-80 kopeyk, quritilgan mahsulotlar (mayiz) esa 1 rubl 40 kopeykdan 2 rubl 40 kopeykgacha sotilgan [7]. Shuningdek, 1897-yilda 365750 pud meva mahsulotlari eksport qilingan. Sabzavotchilik va polizchilik sohalari ham keng tarqalgan bo'lib, umumiy ekish maydoni 8587 desyatinani tashkil etgan [8]. Ushbu sohada kartoshka, karam, sabzi, piyoz, bodring va pomidor kabi mahsulotlar asosiy eksport tovarlari bo'lgan. Hosildorlik yuqori bo'lgani sababli Zakaspiy temir yo'li orqali 75000 puddan ortiq sabzavot mahsulotlari tashqarga chiqarilgan. Bog'dorchilik va uzumchilik tarmoqlari ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Viloyatda uzumzorlar maydoni 9445 desyatina ga etgan bo'lib, bu 1897-yilga nisbatan 20,6% ga ko'pdir [9]. Biroq bu o'sishning barchasi real emas, balki ayrim hollarda statistik hisob-kitoblardagi xatolar bilan izohlanadi. Masalan, Xo'jand uyezdida uzumzorlar maydoni 51% ga oshgani qayd etilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichning ishonchliligi raqamlardagi katta foiz sabab shubhali va haqiqatdan uzoq. Uzumchilik mahsulotlari ishlab chiqarishida ham hududiy farqlar mavjud bo'lgan. Masalan, Samarqand uyezdida 782 560 pud, Xo'jand uyezdida esa 1 516 800 pud uzum yig'ib olingan [10]. O'rtacha hosildorlik 300 pud/desyatina atrofida bo'lgan. Uzum mahsulotlari asosan mahalliy iste'mol uchun ishlatilgan bo'lsa-da,

muayyan qismi Rossiya va boshqa hududlarga eksport qilingan. Vinochilik sohasi ham ma'lum darajada rivojlangan bo'lib, 1898-yilda viloyatda 19 ta vino ishlab chiqarish korxonasi faoliyat yuritgan. Ular tomonidan 54 800 vedro vino ishlab chiqarilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 17% ga kamaygan [11]. Bu holat tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, sohada texnologik jihozlanish ham kuzatiladi: masalan, Samarqanddagi D.L.Filatov korxonasi zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan yirik ishlab chiqarish markazi sifatida ajralib turgan.

Sabzavotchilik va polizchilik tarmoqlari ham ahamiyatli o'rin egallagan. Viloyat bo'yicha ushbu sohalarda 12 117 desyatina sug'oriladigan erlar band qilingan bo'lib, bu 1897-yilga nisbatan qariyb 40% ga ko'pdir. Bu mahsulotlar nafaqat ichki iste'molni ta'minlagan, balki tashqi bozorlarga ham chiqarilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish asosan qo'l mehnatiga tayangan bo'lib, mehnat unumdorligi past darajada saqlangan. XIX asr oxirida Samarqand viloyatida sabzavotchilik va polizchilik aholi xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan an'anaviy tarmoqlardan biri hisoblangan. Manba ma'lumotlariga ko'ra, ruslar kelgunga qadar ham mahalliy aholi turli xil sabzavotlar, poliz ekinlari va oshxona o'simliklarini muvaffaqiyatli etishtirish tajribasiga ega bo'lgan. Bular qatoriga sabzi, qizil va oq lavlagi, piyoz, turli no'xat va loviya turlari, jo'xori, turp, sholg'am, sarimsoq, bodring, mosh, baqlajon, qovun va tarvuz kabi mahsulotlar kirgan. Shuningdek, zira, rayhon, kabi oshxona o'simliklari ham keng tarqalgan bo'lib, ular mahalliy aholining kundalik oziq-ovqatida muhim o'rin tutgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, evropalik aholi sonining ortishi natijasida mahalliy dehqonchilik tizimiga yangi sabzavot turlari kirib kela boshlagan. Jumladan, karam (oq va gulkaram), salat bargi, pomidor, rus no'xati, kungaboqar, shpinat, selderey, petrushka, rediska, shuningdek, kartoshkaning evropa navlari kabi ekinlar joriy etilgan. Biroq bu ekinlar asosan shahar atrofidagi xo'jaliklarda etishtirilgan bo'lib, qishloq joylarda an'anaviy ekin turlari ustunlik qilgan. Bog'dorchilik sohasida esa ma'lum qiyinchiliklar kuzatilgan. Jumladan, erta gullagan shaftoli va o'rik daraxtlari kutilmagan sovuqlar ta'sirida zarar ko'rgan. Shunga qaramasdan, boshqa meva turlari yaxshi hosil bergan bo'lib, ayniqsa, uzum hosilining mo'l-ko'lligi alohida ta'kidlanadi. Yoqilg'i va qurilish materiallari, xususan, o'tin va qurilish uchun mo'ljallangan yog'och narxlarining sezilarli darajada oshgani kuzatiladi. Bu holat mazkur resurslarga bo'lgan talabning ortishi va ularning nisbatan cheklanganligi bilan bog'liq bo'lgan. Yoqilg'i narxlarining o'sishi iqtisodiy jihatdan yangi imkoniyatlarni ham yuzaga keltirgan. Xususan, viloyat tog'larida mavjud bo'lgan ko'mir zaxiralarini o'zlashtirish iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lib qolgan. Biroq amalda ko'mir sanoatining rivojlanishi sekin kechgan, chunki yog'och yoqilg'ining arzonligi va uning bozordagi ustunligi mineral

yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojni cheklab turgan. Ko'mir qazib olishga urinishlar bo'lgan. Masalan, Zarafshon okrugida ko'mir qazib chiqarish ishlari ma'lum darajada tashkil etilgan bo'lsa-da, uning bozordagi narxi yog'och yoqilg'i bilan raqobatlasha olmagan. Natijada, ishlab chiqarish va tashish xarajatlarini qoplash imkoni bo'lmaganligi sababli, mazkur sohada keng ko'lamli sanoat rivoji yuzaga kelmagan.

Bog'dorchilik va polizchilik mahsulotlari narxlari ham bozor munosabatlarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Jumladan, karamning 100 boshi 5-6 rubl, kartoshka (1 pud) 45 kopeyk, lavlagi 30 kopeyk, piyoz va turp 12 kopeykdan, sabzi 15 kopeykdan sotilgan. Poliz mahsulotlaridan qovun 3 kopeyk, tarvuz 5 kopeykdan baholangan. Uzum (1 pud) 40-60 kopeyk, olma 20-40 kopeyk, shaftoli 3-4 rubl, o'rik 40-60 kopeyk, anor 2-3 rubl, nok 40-60 kopeyk, olcha 15-25 kopeyk atrofida sotilgan. Shuningdek, yong'oq, bodom va pista kabi mahsulotlar ham bozorda yuqoriroq narxlarda baholangan bo'lib, ularning narxi mos ravishda 1,5-5 rubl oralig'ida bo'lgan [12].

Sabzavotchilik sohasida eng tajribali dehqonlar etishtirgan mahsulotlar sifati yuqori bo'lgan. Biroq evropacha yangi sabzavotlari etishtirishda muayyan muammolar kuzatilgan. Bu, asosan, mahalliy tuproq xususiyatlari, sug'orish usullari va sifatsiz urug'lar bilan bog'liq bo'lgan. Ko'p hollarda urug'larning sifati past va unib chiqish qobiliyati 50 foizgacha bo'lgan. Hosil miqdoriga qarasak qovun va tarvuz umumiy hajmi 10 million donaga etgan bo'lsa, bodring 26 million dona, kartoshka 92.650 pud, turli sabzavotlar (sabzi, lavlagi, turp va boshqalar) 848.100 pudni tashkil etgan [13]. Bu mahsulotlarning bir qismi mahalliy bozorda sotilgan bo'lsa, ma'lum qismi Zakaspiy temir yo'li orqali tashqi bozorlarga ham chiqarilgan. Xususan, 200.000 puddan ortiq sabzavot mahsulotlari eksport qilingan.

Sabzavotchilik xarajatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bir desyatina erni qayta ishlash uchun o'rtacha 40-50 rubl atrofida mablag' sarflangan. Masalan, Kattaqo'rg'on uezdida bir desyatina er uchun umumiy xarajat 42 rubl 40 kopeykni tashkil etgan. Bu xarajatlar tarkibiga erni shudgor qilish, ekishga tayyor qilish, ekish, sug'orish, o'g'itlash va hosilni yig'ib olish ishlari kirgan.

Xullas, sabzavotchilik va polizchilik Samarqand viloyatining deyarli barcha hududlarida tarqalgan bo'lsa-da, u eng yuqori darajada Samarqand shahri va uning atrofida rivojlangan. Bu erda maxsuslashgan sabzavotchilik xo'jaliklari shakllangan bo'lib, ularni yirik xo'jalik tarmog'i sifatida baholash mumkin. Ayniqsa, sug'oriladigan erlar mavjud bo'lgan hududlarda polizchilik mahsulotlari (qovun va tarvuz) keng ko'lamda etishtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Обзор Самаркандской области за 1888 год. – Самарканд: Областная типография, 1889. – С. 12-18.

2. Обзор Самаркандской области за 1888 год. – Самарканд, 1889. – С. 25-31.
3. Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. Т. 527. – Ташкент, 1909. – С. 45.
4. Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. Т. 527. – С. 45.
5. Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Т. 433. – Ташкент, 1907. – С. 55.
6. Обзор Самаркандской области за 1904 год. – Самарканд, 1905 – С. 40-48.
7. Слуцкий И.М. Краткий очерк Самаркандского виноделия в связи с виноградарством // Туркестанский сборник. Т. 527. – Ташкент, 1909. – С. 49.
8. Обзор Самаркандской области за 1904 год. – Самарканд, 1905 – С. 52
9. Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Т. 433. – С. 57.
10. Вирский Н. Виноградарство в Самаркандском уезде // Туркестанский сборник. Т. 433. – С. 58.
11. Обзор Самаркандской области за 1904 год. – Самарканд, 1905 – С. 57
12. Обзор Самаркандской области за 1910 год. – Самарканд, 1911. – С. 49-56.
13. Обзор Самаркандской области за 1910 год. – Самарканд, 1911. – С. 49-56.

JIZZAX UYEZDINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLARNING STATISTIK MANBALARDA YORITILISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

*Habibullayev Orifjon Muhiddin o‘g‘li
Toshkent xalqaro moliya boshqaruv va
texnologiyalari universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uyezdining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti statistik materiallar asosida tahlil qilingan. Unda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida uездда yuz bergan ma‘muriy, iqtisodiy va demografik o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, Rossiya sanoat mahsulotlarining mahalliy bozorlarga kirib kelishi natijasida kapitalistik munosabatlarning shakllanish jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jizzax uyezdi, Samarqand viloyati, Rossiya imperiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo munosabatlari, bozorlar, dehqonchilik, chorvachilik, transport tizimi.

Аннотация: В данной статье на основе статистических данных анализируется социально-экономическая жизнь Джизахского уезда в конце XIX и начале XX веков. Рассматриваются административные, экономические и демографические изменения, произошедшие в уезде в результате колониальной политики Российской империи. Также раскрываются процессы формирования капиталистических отношений в результате выхода российской промышленной продукции на местные рынки.

Ключевые слова: Джизахский уезд, Самаркандская область, Российская империя, социально-экономическая жизнь, торговые отношения, рынки, сельское хозяйство, животноводство, транспортная система.

Abstract: This article analyzes the socio-economic life of Jizzakh uyezd in the late 19th and early 20th centuries based on statistical materials. It covers the administrative, economic and demographic changes that occurred in the uyezd as a result of the colonial policy of the Russian Empire. It also reveals the processes of the formation of capitalist relations as a result of the entry of Russian industrial products into local markets.

Keywords: Jizzakh uyezd, Samarkand region, Russian Empire, socio-economic life, trade relations, markets, agriculture, livestock, transport system.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uyezdi Turkiston o'lkasining muhim ijtimoiy-iqtisodiy va strategik hududlaridan biri sifatida shakllandi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida uyezd Samarqand viloyati tarkibida harbiy-ma'muriy markaz bo'lgan. Bu davrda Jizzax uyezdi iqtisodiyotida dehqonchilik, chorvachilik va bozor munosabatlari rivojlanib, g'alla, paxta va chorva mahsulotlari savdosi kengaydi. Shu bilan birga, Rossiya sanoat mahsulotlarining kirib kelishi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va aholi tarkibidagi o'zgarishlar uyezd ijtimoiy hayotida yangi iqtisodiy munosabatlarni shakllantirdi. Ayniqsa, mustamlakachilik siyosati natijasida yuzaga kelgan yer munosabatlari, ijtimoiy tafovutlar va demografik o'zgarishlar Jizzax uyezdi tarixini o'rganishni dolzarb ilmiy masalalardan biriga aylantirgan. XIX asr oxirida Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olish siyosati natijasida Jizzax hududi strategik ahamiyatga ega harbiy-ma'muriy markazga aylangan. M.G. Chernyaev qo'shinlari tomonidan 1866-yil oktyabr oyida general Jizzax shahri bosib olingach, hudud Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritildi. Keyinchalik 1886-yilda Samarqand viloyati tashkil etilganidan so'ng Jizzax uyezdi mazkur viloyatining muhim ma'muriy birligi sifatida shakllantirildi. Jizzax shahri Toshkent-Samarqand-Buxoro yo'nalishidagi asosiy tranzit nuqta bo'lib, harbiy yurishlar, pochta xizmati va karvon savdosida muhim o'rin tutgan.

Jizzax uyezdida Samarqand viloyatining eng katta ma'muriy hududlaridan biri bo'lib, uyezdida harbiy boshqaruv tizimi, pochta aloqasi va savdo infratuzilmasi shakllangan. Masalan, Jizzax shahri orqali Samarqanddan Toshkentga boradigan pochta trakti o'tgani qayd etiladi. Ushbu yo'l Rossiya imperiyasining Turkistondagi harbiy-siyosiy nazoratini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Jizzax uyezdida iqtisodiyoti asosan dehqonchilik va chorvachilikka tayangan. Mirzacho'lga tutash hududlarda bug'doy, arpa, jo'xori va tariq ekish keng tarqalgan bo'lib, g'alla mahsulotlari Samarqand va Toshkent bozorlariga yetkazib berilgan[1]. XIX-asr oxirida Jizzax bozorlarida g'alla savdosi yuqori darajada rivojlangani sababli uyezd Samarqand viloyatining asosiy don yetkazib beruvchi hududlaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, Zomin, G'allaorol va Forish atrofidagi qishloqlar dehqonchilik mahsulotlari bilan tanilgan. Shu bilan birga, ko'chmanchi qozoq va qirg'iz aholisi chorvachilik mahsulotlari – jun, teri, qoramol va qo'y savdosini amalga oshirgan.

Jizzax uyezdida Rossiya harbiy qismlari, mahalliy komanda va harbiy omborlari mavjudligi qayd etilgan. Manbada Jizzax shahrida harbiy boshliq idorasi, mahalliy garnizon va harbiy gospital faoliyat ko'rsatgan. Jizzax uyezdida savdo munosabatlari ham faol rivojlangan. Haftalik bozorlarda mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari, ip-gazlamalar, mehnat qurollari, charm buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotilgan. XX asr boshlariga kelib Rossiya sanoat mahsulotlari kirib kelishi natijasida bozorlarda fabrika ishlab chiqargan tovarlar ulushi ortib bordi. 1909-yilga kelib Jizzax shahrida D.L. Filatov firmasining savdo tarmoqlari faoliyat yuritgan. Firma Samarqandda ishlab chiqarilgan vino, konyak va mineral ichimliklarni Turkiston shaharlariga tarqatgan hamda Jizzax bozorida ham o'z mahsulotlarini sotgan. Jizzax shahrida, manufaktura va choy savdosi bilan shug'ullanuvchi rus va mahalliy savdogarlar soni ortib borgan. Ayniqsa, "Voronin, Lyutsh i Chesher" aksiyadorlik jamiyatining manufaktura mahsulotlari Samarqand viloyati bozorlariga, jumladan Jizzaxga olib kelingan. Bu mahsulotlar orasida fabrika usulida ishlab chiqarilgan paxta matolari muhim o'rin tutgan [2]. Jizzax bozorlarida texnik uskunalari, tikuv mashinalari, velosipedlar va Yevropa tovarlari sotuvi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, "Ж. Блок и друг" firmasi tikuv mashinalari va texnik jihozlar savdosi bilan shug'ullangan. Ushbu holat, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda kapitalistik g'oyalar shakllanayotganligini ifodalaydi.

Jizzax uyezdida iqtisodiy hayotida transport tizimi ham muhim o'rin egallagan. Samarqand-Toshkent pochta yo'li orqali yuk va yo'lovchi tashish hajmi ortib borgan. Karvon savdosida tuya transporti asosiy vosita bo'lib qolgan bo'lsa-da, XX asr boshlariga kelib arava va ot-ulov transportidan keng foydalanilgan. Rossiya imperiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax orqali har yili minglab pud g'alla va chorva mahsulotlari Samarqand hamda Toshkent bozorlariga yuborilgan [3]. Temir yo'l

tarmoqlarining kengayishi esa Jizzax iqtisodiyotini tashqi bozorlar bilan bog'lashni kuchaytirgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uyezdi aholisi tarkibi, milliy tarkibi, ijtimoiy qatlamlari va joylashuv xususiyatlari bilan Turkiston o'lkasining muhim hududlaridan biri hisoblangan. Jizzax uyezdi ma'muriy jihatdan Samarqand viloyati tarkibiga kirib, aholining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilgan. Uyezd aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lib, ayniqsa qipchoq, saroy, yuz, qangli, qirg'iz va qoraqalpoq urug'-qabilalari vakillari keng tarqalgan edi. Shuningdek, uyezdga tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar va rus ko'chmanchilari ham yashagan. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida XIX asrning 80-90-yillaridan boshlab Jizzax uyezdiga rus aholisini ko'chirib keltirish jarayoni kuchaygan. Ayniqsa, temir yo'l qurilishi va yangi qishloq posyolkalarining tashkil etilishi aholi tarkibida muayyan o'zgarishlarga olib kelgan. Rossiya imperiyasi birinchi umumiy 1897 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax uyezdida aholi soni 300-350 ming nafarga yaqin bo'lgan [4]. Aholining katta qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlar asosan Zarafshon va Sanzar daryolari havzalarida joylashgan bo'lib, bu hududlarda o'troq aholi zich yashagan. Cho'l va tog'oldi hududlarida esa yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi aholi ustunlik qilgan. Uyezd aholisining iqtisodiy turmushida g'allachilik, paxtachilik, bog'dorchilik va chorvachilik muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Jizzax shahri atrofidagi qishloqlarda bug'doy, arpa va paxta yetishtirish keng tarqalgan edi.

Jizzax shahri uyezdning ma'muriy va savdo markazi sifatida aholining iqtisodiy faolligida muhim o'rin egallagan. Shaharda hunarmandchilik va bozor munosabatlari rivojlangan bo'lib, temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik va charmchilik keng tarqalgan. Bozor kunlari nafaqat mahalliy aholi, balki atrof qishloq va volostlardan kelgan savdogarlar ham qatnashgan [5]. Bu esa Jizzax shahri aholisining ijtimoiy tarkibida savdogarlar, hunarmandlar va vositachilar qatlamining shakllanishiga olib kelgan.

Rossiya imperiyasi davrida Jizzax uyezdi aholisi orasida soliq siyosati va yer munosabatlari bilan bog'liq ijtimoiy tafovutlar ham kuchaygan. Katta yer egalari, boylar va mahalliy amaldorlar muayyan iqtisodiy ustunlikka ega bo'lgan bo'lsa, kam erli dehqonlar va chorikorlar iqtisodiy jihatdan qiyin ahvolda yashagan. Shuningdek, aholining muayyan qismi mavsumiy ishchi sifatida Samarqand, Toshkent va Farg'ona vodiysiga borib ishlagan. XX asr boshlarida Jizzax uyezdi aholisiga oid statistik ma'lumotlar uyezdning demografik rivojlanishida tabiiy o'sish yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, qishloq aholisi shahar aholisiga nisbatan ancha ko'pchilikni tashkil etgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Jizzax uyezdi Rossiya imperiyasining Turkistondagi muhim harbiy-ma'muriy va strategik markazlaridan biriga aylanib,

uyezdning geografik joylashuvi uni Toshkent-Samarqand-Buxoro yo‘nalishidagi asosiy savdo va transport markaziga aylantirgan.

Xullas, uyezd iqtisodiyotining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan bo‘lib, g‘allachilik, paxtachilik va chorva mahsulotlari savdosi Jizzaxning Samarqand viloyati iqtisodiyotidagi ahamiyatini kuchaytirgan hamda ichki bozor munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan. XX asr boshlarida Rossiya sanoat mahsulotlarining kirib kelishi, manufaktura savdosining kengayishi va transport infratuzilmasining rivojlanishi Jizzax uyezdida kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning shakllanayotganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Справочная книжка Самаркандской области. – Самарканд, 1893. – С. 112-128.
2. Материалы для статистики Туркестанского края. – Санкт-Петербург, 1891. – С. 201-219.
3. Обзор Самаркандской области за 1904 год. – Самарканд: Типография «Труд», 1905. – С. 73-89.
4. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года. Т. LXXXIX. Самаркандская область. – Санкт-Петербург, 1905. – С. 15-37.
5. Кауфман А.А. Переселение и колонизация в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург, 1905. – Б. 88–104.

TURKISTON G‘AZNACHILIK PALATASI FAOLIYATINING MANBALARDA YORITILISHI

Irisqulov Bekzod Jaxongirovich
Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston G‘aznachilik palatasi faoliyati arxiv hujjatlari va statistik manbalar asosida yoritilgan. Turkiston G‘aznachilik palatasining shtat birliklari, g‘aznachilik muassasalari, daromad va xarajat hujjatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Nazorat palatasi idora rahbarlarining to‘lov buyruqlarini asoslovchi hujjatlarni talab qilgan hollarda tekshirish olib borganligi, g‘aznachilik muassasalarining davlat byudjeti ijrosiga doir barcha moliyaviy operatsiyalari nazorat qilinganligi jchib berilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat G‘aznachilik Departament, Davlat Kengashi, Turkiston G‘aznachilik palatasi, Moliya vazirligi, Kanselyariya, pasport, sug‘urta.

Аннотация: В данной статье на основе архивных документов и статистических источников рассматривается деятельность Туркестанской

казначейской палаты. Анализируются подразделения, казначейские учреждения, документы о доходах и расходах Туркестанской казначейской палаты. Также отмечается, что Контрольная палата проводила проверки в случаях, когда руководители ведомств запрашивали документы, подтверждающие платежные поручения, и что контролировались все финансовые операции казначейских учреждений, связанные с исполнением государственного бюджета.

Ключевые слова: Государственное казначейство, Государственный совет, Туркестанская казначейская палата, Министерство финансов, Канцелярия, паспорт, страхование.

Abstract: This article covers the activities of the Turkestan Treasury Chamber based on archival documents and statistical sources. The staff units, treasury institutions, income and expenditure documents of the Turkestan Treasury Chamber are analyzed. It is also noted that the Control Chamber conducted inspections in cases where the heads of departments requested documents substantiating payment orders, and that all financial transactions of treasury institutions related to the execution of the state budget were controlled.

Keywords: State Treasury Department, State Council, Turkestan Treasury Chamber, Ministry of Finance, Chancellery, passport, insurance.

Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi tufayli, Turkiston viloyatidagi idoraviy xarajat bo'limi (raskhodnoe otdelenie) bekor qilinib, uning o'rniga yangi Viloyat g'aznasini tashkil etish va ushbu ishlarni bajarilishi xususida Davlat G'aznachilik Departamentiga ma'lumot berish lozimligi ta'kidlandi. Ushbu qaror Rossiya imperiyasi Moliya vaziri Reytern tomonidan tasdiqlangan. Shundan so'ng Reytern Turkiston general-gubernatoriga xat yo'llab, unga Turkiston viloyatida 2 ta viloyat va 12 ta uyezd g'aznachilik bo'limlarini ochishni topshiradi [1].

1869-yilning 3-iyunida Rossiya imperiyasi Davlat Kengashining qarori bilan Toshkentda Moliya vazirligiga qarashli Turkiston G'aznachilik palatasi tashkil etilib, shu paytgacha bu erda faoliyat ko'rsatgan xarajat bo'limi yopilgan. Uning hisobida bo'lgan barcha mablag'lar va mulklar Turkiston G'aznachilik palatasi ixtiyoriga o'tkazilgan. Moliya vazirligidan palataning bir yillik ta'minotiga 36.500 rub. ajratilgan.[2]

Turkiston G'aznachilik palatasiga viloyat boshqarmalarining moliyaviy ishlar bo'yicha barcha ishlari topshirildi, faqat soliq to'lovchi toifalarni qishloq jamiyatlariga tegishli qilib yozish, shahar toifalariga tegishli qilib yozish va hududni koloniyalashtirish ishlari ular qo'lida qoldirildi [3]. K.P.Kaufman yuqoridagi ishlar palataning ixtiyoriga o'tishiga hali erta ekanligini, "mustahkam ma'muriy tizim

o‘rnatilmaguncha” bu jarayon kechiktirilishi lozimligini yuqori idoralarga isbotlay oldi.

Dastlabki paytda Turkiston G‘aznachilik palatasining shtat birliklari u qadar katta bo‘lmagan. Unda 27 ta xodim bo‘lib, ular boshqaruvchi, ikkita bo‘lim boshlig‘i, ish yurituvchi va uning yordamchisi, alohida ishlar bo‘yicha ikkita mansabdor, uchta bo‘linma boshlig‘i va ularning uch yordamchisi, uchta muhosib va ularning uch yordamchisi hamda sakkizta hududiy aksiz noziridan iborat edi [4].

Turkiston G‘aznachilik palatasi ba’zi bir qishloq oqsoqollarining mirzasi yo‘qligi tufayli hisob-kitob qiyinchiliklariga duch kelishini bartaraf qilish uchun, ularga mirzalarni yollashi uchun bir yilda 100 rubldan mablag‘ ajratadi. Turkistondagi g‘aznaxonalar har haftada G‘aznachilik palatasiga barcha kirim-chiqim hujjatlari hamda yakuniy daromad va xarajatlar to‘g‘risida ma’lumotlar yuborgan. Shundan so‘ng birlamchi hujjatlar asosida G‘aznachilik palatasi oylik kirim-chiqim hisobotlarini tayyorlagan va ularni Nazorat palatasiga yuborgan. Ta’kidlash kerakki, Nazorat palatasi nafaqat hisobotlarni, balki idora boshliqlaridan bu ma’lumotlardagi to‘lov ko‘rsatmalarini oqlovchi hujjatlarni ham talab qilgan. Davlat byudjet mablag‘larining ijro etilishi bo‘yicha g‘aznaxonalarning faoliyati shu tarzda nazorat qilingan.

Dastlabki davrda Turkiston G‘aznachilik palatasi Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini qamrab olgan bo‘lib, uning sho‘ba g‘aznaxonalari Toshkent va Verniy shaharlarida ochilgan. O‘lkaning o‘nga yaqin shaharlarida jumladan, Sergiopoli, Kopal, To‘qmoq, Kazalinsk, Perovsk, Issiqko‘l, Chimkent, Avliyoota, Xo‘jand va Jizzaxda g‘azna kassalari bo‘lgan. Aksiz yig‘imlarining to‘g‘ri tushum qilinishini nazorat qilish maqsadida vinokurlik va tamaki ishlab chiqarishga doir aksiz yig‘imlari undirilishi uchun hudud 6 ta nazorat uchastkasiga bo‘lindi. Har bir uchastkani aksiz nazorati bo‘yicha maxsus nozir boshqarib, u mablag‘ tushumining aniq hisobini yuritish va soliqlarning to‘liq undirilishini ta’minlash vazifasini bajargan. Turkiston G‘aznachilik palatasi xodimlari ta’minoti uchun Davlat G‘azna mablag‘idan 48.550 rubl ajratilgan [5].

Turkiston G‘aznachilik palatasi o‘z faoliyatini boshlagandan so‘ng Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi moliyaviy ishlarni o‘z zimmasiga olgan. Keyinchalik Turkiston o‘lkasining ma’muriy tuzilmasidagi o‘zgarishlar natijasida Zarafshon okrugida, Amudaryo bo‘limida va Farg‘ona viloyatida hamda Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Petro-Aleksandrovsk, Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Namangan va O‘sh shaharlarida Moliya vazirligining g‘azna kassalari va aksiz bo‘limlari tashkil topdi. Natijada o‘lka G‘aznachilik palatasi mazkur hududlarni ham qamrab oldi, lekin uning shaxsiy tarkibi o‘zgarishsiz qoldi. Bu o‘zgarishlar 1879-yilning 1-yanvaridan boshlab amalga oshirildi.

Yangi shtat jadvaliga ko'ra, G'aznachilik palatasida quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi: boshqaruvchi, uchta bo'lim boshlig'i, alohida ishlar bo'yicha ikkita mansabdor, kotib, arxivarius, oltita buxgalter va ularning o'nta yordamchisi hamda oltita bo'linma boshlig'i va ularning beshta yordamchisi lavozimlari joriy qilindi. Bundan tashqari, aksiz yig'implari nazorati uchun boshqaruvchi ixtiyoriga bitta okrug, to'qqizta katta va to'rtta kichik aksiz nozirlari berildi [6]. Natijada G'aznachilik palatasining tarkibi 49 kishini tashkil qildi. Xodimlar soni asosan yangi bo'lim ochilishi hamda aksiz nozirlari sonini ko'payishi hisobiga oshgan. Agar aksiz yig'implari doimo davlatning muhim daromad manbai bo'lib kelganligini ko'rish mumkin. 1870-1880-yillarda ular davlat daromadlarining 35-40 foizini tashkil etganini e'tiborga olsak, mamlakatda bilvosita soliqlarning ortishi bilan moliya idoralarida sodir bo'lgan o'zgarishlar tushunarli bo'ladi. Bu holat moliyaviy siyosatda aksiz va boshqa bilvosita soliqlarning o'rni tobora oshganini hamda davlat iqtisodiy strategiyasida ularning ahamiyati kuchayganini ko'rsatadi.

Ushbu davrda Rossiya moliya siyosatining evolyusiyasi va davlat moliyaviy institutlarining mustahkamlanishi yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, N.X.Bunge (1881-1887), I.A.Vishnegradskiy (1887-1892) va S.Yu.Vitte (1892-1903) rahbarligida moliya vazirligidagi Departament belgilanmagan yig'implar departamenti tobora mustahkamlanib, uning vakolatlari kengaytirildi. Bu tuzilma spirtli ichimliklar, tamaki, qand lavlagi shakari, gugurt va kerosin aksizlari bilan bir qatorda gerb, sud, kanselyariya, pasport, sug'urta va boshqa to'lovlarni boshqarish bilan shug'ullangan.

1894-yilda Rossiyada spirtli ichimliklar monopoliyasi joriy etilganidan so'ng, ushbu departament qayta tashkil qilinib, Belgilanmagan yig'implar bo'yicha bosh boshqarmaga aylantirildi. U nafaqat aksiz yig'implarini nazorat qilar, balki spirtli ichimliklarning davlat nazoratidagi savdosi bilan ham shug'ullanardi. Shu bilan birga, Spirtli ichimliklar savdosi ishlari bo'yicha Kengash tashkil etilib, u mazkur sohada qonun loyihalarini muhokama qilish, davlatga spirt etkazib berish narxlarini belgilash, chakana savdo uchun narxlar belgilanishi, shuningdek, yangi vinokurlik va spirt tozalash zavodlarini qurish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish bilan shug'ullangan.

Bu islohotlar Rossiya imperiyasidagi moliyaviy siyosatning davlat monopoliyasi mexanizmi orqali daromadni oshirishga qaratilganligini ko'rsatib, iqtisodiy markazlashuvni kuchaytirgan.

Turkiston o'lkasining moliyaviy boshqaruv tizimida muhim vazifalardan biri G'azna palatasining birinchi bo'limiga yuklatilgan bo'lib, u belgilangan (окладные) va belgilanmagan (неокладные) yig'implar bo'yicha tushumlarni nazorat qilish bilan shug'ullangan. Bu bo'lim tarkibiga bo'lim boshlig'i, to'rtta stolonachalnik va uch nafar yordamchi kirgan. Birinchi bo'lim o'lkadagi barcha g'aznachilik

muassasalarini savdo hujjatlari bilan ta'minlash, turli manbalardan tushgan jarima va penyalarning o'tkazilishi va bekor qilinishini nazorat qilish, G'azna palatasi depozitlarini tekshirish va tartibga solish, harbiy amaldorlarga yordam va mukofotlar to'lash, boshqa hududlarga ko'chirilgan amaldorlarga uch yillik maosh va nafaqa to'lash, Davlat g'azna departamentining smetasiga muvofiq, shaxsiy va xizmat mansabdor shaxslarga turli mablag'larning qaytarilishini ta'minlash, G'aznachilik palatasi va o'lkadagi g'azna muassasalari uchun binolar qurish, ijaraga olish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish kabi vazifalarni bajargan [7].

G'aznachilik palatasiga ushbu vazifalarning yuklatilishi davlat moliyaviy nazoratining kuchaytirilganini va Turkiston o'lkasining iqtisodiy boshqaruv tizimida markazlashtirilgan moliyaviy nazorat muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

G'aznachilik palatasining ikkinchi bo'limi ham o'lkadagi moliyaviy va xo'jalik boshqaruvida muhim o'rin tutgan. Uning tarkibiga bo'lim boshlig'i, ikkita stolonachalnik va ikki yordamchi kirgan. Savdo qoidalari buzilishiga oid bayonnomalarni ko'rib chiqish va aybdorlarga jarima tayinlash, savdo va sanoatning umumiy taftish o'tkazish jarayonini nazorat qilish, savdo hujjatlarini berish bo'yicha hisobot yuritish, ko'chmanchi aholini qishloq jamoalariga rasmiy tarzda biriktirish bo'yicha hisob-kitob ishlarini olib borish, soliq va yig'implar bo'yicha belgilangan to'lov varaqalarini tayyorlash, aksiz yig'implari bo'yicha ish yuritish va hisob-kitob ishlarini olib borish va boshqalar bo'limning asosiy vazifalari hisoblangan [8].

Ikkinchi bo'limning vazifalari Turkiston o'lkasida savdo-sanoat faoliyati ustidan davlat nazoratini ta'minlash, moliyaviy hisobotni yuritish hamda aksiz va soliq yig'implarining o'z vaqtida yig'ilishini nazorat qilishga qaratilgan edi. Bu esa o'lkaning iqtisodiy tartibini mustahkamlashda muhim omil bo'lgan.

Uchinchi bo'lim bo'lim boshlig'i, olti nafar buxgalter va o'n nafar yordamchidan iborat bo'lib, davlat daromadlaridan tushumlar va xarajatlarni boshqarish bilan shug'ullangan. G'azna palatasi kotibi esa inspektorlik ishlari va savdo jarayonlari bo'yicha rasmiy yozishmalarni yuritishga mas'ul bo'lgan.

1882-yilda Turkiston G'aznachilik palatasiga qarashli 20 ta g'aznaxona, 1 ta aksiz okrugi, 7 ta aksiz uchastkasi va 142 ta maxsus soliq yig'uvchilarning kassasi mavjud bo'lgan. Taftish hujjatlariga ko'ra, Turkiston G'aznachilik palatasi xodimlari va aksiz nozirlarini ta'minlash uchun 1880-1882-yillarda 80253 rubl, 20 ta g'aznaxona xodimlari uchun esa 105635 rubl ajratilgan [9].

G'aznachilik muassasalari har 7 kunda barcha daromad va xarajat hujjatlarini haftalik umumiy hisobot bilan birga G'azna palatasiga yuborib turgan. Birlamchi hujjatlar asosida Palata oylik daromad va xarajat hisobotlarini tayyorlab, ularni Nazorat palatasiga taqdim etgan. Nazorat palatasi esa faqat hisobot jadvallarini emas, balki idora rahbarlarining to'lov buyruqlarini asoslovchi hujjatlarni ham talab

qilgan hollarda tekshirish olib borgan. Shu yo'sinda g'aznachilik muassasalarining davlat byudjeti ijrosiga doir barcha moliyaviy operatsiyalari nazorat qilingan.

XX asrning boshlarida Rossiya Moliya vazirligi Turkiston G'aznachilik palatasi faoliyatini qayta tashkil qilishga harakat qilgan. Shunga muvofiq, Samarqandda G'aznachilik palatasini tashkil qilish masalasi muhokama qilinib, uning huquq doirasiga Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy viloyatlari va Buxoro xonligidagi rus qishloqlarini kiritish rejalashtirilgan edi. Toshkent G'azna palatasi deb qayta nomlangan Turkiston G'aznachilik palatasi faoliyati doirasiga esa Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini kiritish mo'ljallangan. Ushbu loyiha ikkinchi marotaba 1910-yilda yana ko'rib chiqilgan, lekin bu safar ham natijasiz tugagan [10]. Vazirlikning islohot o'tkazish maqsadlariga qaramasdan, sohani qayta tashkil qilish harakati mavjud tizimni takrorlashni nazarda tutgan edi, xolos.

Shunday bo'lsa-da, imperiya ma'muriyati o'lkada byudjetni nazorat va taftish qiluvchi davlat muassasalari faoliyatiga ayrim o'zgartirishlarni kiritib borgan. Jumladan, 1879-yildan boshlab G'azna palatasi qoshida ssudo-sberegatelniy kassa tashkil etila boshladi. Keyinchalik, 1916-yilda Davlat jamg'arma kassalari inspeksiyasi tashkil etildi. 1886-yildan G'azna palatasi tasarrufidan aksiz bo'limi chiqarilib, Turkiston o'lkasida mustaqil Turkiston Aksiz Boshqarmasini tashkil etish masalasi ko'tarildi. Bu tuzilma 1886-yil 1-iyuldan boshlab ish boshladi va 1919-yil 1-yanvargacha faoliyat yuritdi.

Xullas, o'lkada mustamlaka moliya-xo'jalik boshqaruvi tizimining shakllanishi, ya'ni G'aznachilik va Nazorat palatalari, viloyatlarda g'aznaxonalar va maxsus kassa bo'limlarining tashkil topishi, Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi, o'lkada imperiya byudjetini nazorat va taftish qiluvchi tashkilotlar bilan bir xilda bo'lgan idoralarni tuzish doirasida amalga oshirildi.

Turkiston o'lkasi davlat budjeti tuzilmasi mustamlakachilik siyosatining "moliyaviy ko'zgusi" sifatida namoyon bo'lgan. Undagi daromadlarning asosiy qismini mahalliy aholidan yig'ilgan soliqlar tashkil etgan bo'lsa, xarajatlar ko'proq Rossiya armiyasi boshqaruvi ehtiyojlariga yo'naltirildi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy soha, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi muhim yo'nalishlarning chetda qolishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'z MA, I.1-fond, 16-ro'yxat, 13-yig'ma jild, 2-varaq va uning orqa varag'i.
2. O'z MA, I.1-fond, 16-ro'yxat, 13-yig'ma jild, 74-varaq.
3. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению, в 2 х частях. Часть II. Суд. Финансы. – СПб., 1888. – С. 103-104.

4. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Ф. Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Ч. II. Суд. Финансы. – СПб., 1888. – С. 103.
5. O‘z MA, I-88-fond, 1-ro‘uxat, 67-yig‘ma jild, 7-13-varaqlar.
6. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Ф. Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Ч. II. Суд. Финансы... – С. 104.
7. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Ф. Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Ч. II. Суд. Финансы... – С. 104.
8. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Ф. Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Ч. II. Суд. Финансы... – С. 105.
9. Отчет о состоянии Туркестанского края, составленный сенатором, тайным советником Ф. Гирсом, командированным для ревизии края по высочайшему повелению. В 2-х частях. Ч. II. Суд. Финансы... – С. 107.
10. Отчет ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором, гофмейстером, графом К. К. Паленом. Налоги и пошлины. Органы финансового управления... – С. 278.

II SHO‘BA



MARKAZIY OSIYO TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI



13 – 14-YUZYILLIKLAR TURON TARIXINING O‘RGANILISHIGA DOIR

Shamsidinov Zafar Ismoilovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Tarix instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 13 – 14-yuzyilliklarda Turon tarixining o‘rganilish darajasi manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Unda rus, xorijiy va o‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari guruhlanib, mo‘g‘ullar hukmronligi davridagi siyosiy tizim, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va etnik jarayonlarning yoritilish masalalari tanqidiy ko‘rib chiqilgan hamda mavzuning kam o‘rganilgan jihatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Turon tarixi, mo‘g‘ullar bosqini, Chig‘atoy ulusi, tarixshunoslik, manbashunoslik, V.V. Bartold, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Аннотация: В статье анализируется степень изученности истории Турана XIII – XIV веков с точки зрения источниковедения и историографии. Сгруппированы исследования российских, зарубежных и узбекских ученых, критически рассмотрены вопросы освещения политической системы, социально-экономической жизни и этнических процессов в период монгольского господства, а также выявлены малоизученные аспекты данной темы.

Ключевые слова: история Турана, монгольское нашествие, Чагатайский улус, историография, источниковедение, В.В. Бартольд, социально-экономическая жизнь.

Abstract: the article analyzes the research level of Turan’s history in the 13th – 14th centuries from the perspective of source studies and historiography. It categorizes the works of Russian, foreign, and Uzbek scholars, critically reviewing the coverage of the political system, socio-economic life, and ethnic processes during the Mongol rule, while identifying under-researched aspects of the period.

Keywords: history of Turan, Mongol invasion, Chagatai Ulus, historiography, source studies, V.V. Barthold, socio-economic life.

13 – 14-yuzyilliklar Turon (Markaziy Osiyo) tarixi insoniyat sivilizatsiyasining eng murakkab va burilishlarga boy davrlaridan biri hisoblanadi. Mo‘g‘ullar istilosi natijasida mintaqada siyosiy xarita butunlay o‘zgardi, yangi davlat boshqaruvi tizimi – ulus tartibi joriy etildi. Ushbu davrni o‘rganish nafaqat mintaq xalqlari, balki butun Yevroosiyo qit’asidagi geosiyosiy jarayonlarni tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Zero, mo‘g‘ullar imperiyasining tarkibiy

qismi bo'lgan Chig'atoy ulusi Sharq va G'arbni bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'tagan bo'lib, iqtisodiy va madaniy almashinuvlar markazi bo'lgan.

Biroq, uzoq yillar davomida bu davr tarixi ko'proq bosqinchilik harakatlari va siyosiy o'zgarishlar doirasida talqin qilib kelindi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot, etnik jarayonlar va madaniy transformatsiyalar masalalari esa ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Ushbu maqolada 13 – 14-yuzyilliklar Turon tarixining o'rganilish darajasi, tarixshunoslikdagi mavjud yondashuvlar va yangi ilmiy tadqiqotlarning o'rni tahlil qilinadi.

13 – 14-yuzyilliklar tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida mo'g'ullar bosqini chog'i, asosan, olimlar tomonidan umumiy tarzda va ko'proq siyosiy tizim nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganligini ko'rish mumkin. Bu davrda boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlarning Turonda qanday kechganligi tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganilmagan. Mo'g'ullar tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- rus tarixchilarining asarlari;
- xorijlik olimlarning tadqiqotlari;
- O'zbekistonlik olimlar tomonidan mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar.

19-yuzyillikning birinchi yarmidan boshlab rus olimlaridan N.Y. Bichurin (Iakinf Bichurin), V. Grigoryev, I. Berezin, V.G. Tizengauzen, N.I. Veselovskiylar tomonidan mo'g'ullar tarixiga oid dastlabki maqolalar nashr qilingan [17; 22; 15; 36; 20]. Ushbu asarlar ko'proq ma'lumot to'plash va dastlabki manbalarni rus tiliga tarjima qilish xarakteriga ega bo'lgan. Ularning tadqiqotlarida ko'proq Oltin O'rda va mintaqadagi harbiy-siyosiy jarayonlar yoritilgan.

20-yuzyillik boshlarida V.V. Bartold bu masalada maxsus tadqiqotni amalga oshirgan. Biroq uning asarlari asosan sovet davrida chop etilib, mazkur davr bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajargan. Uning “Туркестан в эпоху монгольского нашествия” (“Mo'g'ullar bosqini chog'ida Turkiston”) asari 13 – 14-yuzyillik Turon tarixining siyosiy holatiga bag'ishlangan bo'lib, unda chingiziylarning markaziy boshqaruvi, Turondagi milliy idora usuli, lavozimlar, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, shaharlarning iqtisodiy ahvoli va xalqaro savdodagi ishtiroki kabi masalalar to'liq qamrab olinmagan [14: 12-45]. Tadqiqot 13-yuzyillik xitoylik rohib hamda sayyoh Chang-Chungning hikoyasini ilmiy muomalaga tortishidan boshlangan. Bu hikoya “Turkiston o'lkasi 13-yuzyillikda” (Xitoy sayohatchisining hikoyasi asosida) nomi bilan maqola tarzida ham e'lon qilingan [39].

V.V. Bartoldning ushbu asari yillar davomida o'zidan keyingi tadqiqotlar uchun poydevor bo'ldi. Biroq, tadqiqot bosqinchilar mafkurasiga va o'sha davr siyosiy konyukturasiga moslashtirilganligi sababli, unda bosqinchilikning oqibatlari

to'la-to'kis ko'rsatilmadi. Bu jarayonning xalqqa qanchalik katta kulfat keltirishini ochib berish mustamlakachilarga nisbatan nafrat o'yg'otishi hisobga olingan edi. Shu sababli, Bartoldning tadqiqotlarida ijtimoiy qarshiliklar va milliy ozodlik harakatlari masalalari biroz yuzaki yoritilgan.

Shunisi e'tiborliki, 20-yuzyillik boshlari va sovet davri tadqiqotlari, asosan, Oltin O'rda hamda Hulokular davlati tarixiga bag'ishlangan. Ularda Turonning mo'g'ullarga qaramlik davri (Chig'atoy ulusi)ga oid ma'lumotlar esa qisman o'z aksini topgan. Bunday asarlar sirasiga A.Yu. Yakubovskiy, B.D. Grekov, B.Y. Vladimirtsov, S.A. Kozin, A. Alizoda, L.V. Stroyeva, I.P. Petrushevskiy, D. Kara, Sh. Bira, A.P. Grigoryev, Ch. Dalay kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin [44; 7; 21; 30; 16].

Rus olimlari faqat bu davr siyosiy tarixi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rasmiy idora hujjatlari asosida tadqiq etishga ham e'tibor qaratdi. Xususan, O.D.Chexovich tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan vaqf hujjatlari bugungi kunda Turonning mo'g'ullar boshqaruvi chog'idagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yorituvchi muhim tadqiqot sanaladi [42]. Shuningdek, Turondagi iqtisodiy vaziyatni o'rganishda Y.A. Davidovich tomonidan e'lon qilingan tangashunoslik (numizmatik) ma'lumotlarini o'zida jamlagan ilmiy izlanishlar ham alohida ahamiyatga ega. Bu davr tangashunosligi borasida P.N. Petrovning ilmiy ishini alohida aytib o'tish joiz [23; 32]. Davidovichning ishlari shuni ko'rsatadiki, mo'g'ullar bosqinidan so'ng tovar-pul munosabatlari va savdo butunlay to'xtab qolmagan, balki Mas'udbek islohotlari natijasida qayta tiklangan.

13 – 14-yuzyillik Turon tarixi borasida shakllangan ilmiy qarashlar 20-yuzyillikning 50-yillarida nashr qilingan ko'p tomlik "O'zbekiston tarixi"da ham o'z aksini topgan [28; 29]. 20-yuzyillikning 90-yillaridan boshlab tadqiqotchilarning mo'g'ullar davlatchiligi tarixiga doir tadqiqotlari sezilarli ravishda ko'paygan. Ular sirasiga V.V. Trepavlov, O. Karayev, N.S. Trubeskaya, S.G. Klyashtorniy, A.M. Xazanov, A.G. Yurchenko, T.I. Sultonov, O.Y. Klyukova kabi olimlarning asarlarini kiritish mumkin [38; 31; 34]. Mazkur asarlarda asosiy e'tibor mo'g'ul davlatchiligining muhim jihatlari va Chingizxonning vorislari amalga oshirgan siyosat masalalariga qaratilgan.

Chet ellik olimlarning mo'g'ullar tarixini yoritishga oid dastlabki tadqiqotlari 19-yuzyillikning birinchi yarmidan boshlanib, bugunga qadar davom etib kelmoqda. Mo'g'ul davlati tarixining u yoki bu jihatlari d'Osson, Y. Bretshnayder, E. Oliver, R. Grusse, J. Sanders, B. Shpuler, J. Boyl, D. Morgan, J. Fletcher, T. Ollsen, M. Ver kabi G'arb olimlari tomonidan o'rganilgan [2; 4; 6]. Ushbu ilmiy asarlarda, asosan, Chingizxon saltanatining umumiy holati yoritilgan bo'lib, ularda Turondagi mo'g'ul xonadoni (Chig'atoy ulusi) tarixi imperiyaning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Chig'atoy ulusi (1224 – 1340) – Chingizxon bosqinidan so'ng 1224-yili

uning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon va uning vorislari hukmronlik qilgan erlarni o'z ichiga oladi. E. Oliverning maqolasida mo'g'ullarga qaramlik davri Turondagi siyosiy tuzum va uning ma'muriy tuzilishi qisman aks etgan [6].

20-yuzyillikning 90-yillaridan boshlab jahon miqyosida Chingizxonning vorislari boshqargan boshqa davlat tuzilmalari (Hulokular, Oltin O'rda, Yuan davlatlari) bilan bir qatorda, Turondagi mo'g'ullar hukmronligi tarixini yoritishga bo'lgan qiziqish ham ortdi [19: 171-179]. Bu borada isroillik olim M. Biranning ilmiy izlanishlari alohida o'ringa ega. Uning asarlarida mo'g'ullarga qaramlik davridagi diniy hayot, diplomatik munosabatlar va madaniy aloqalar, 13-yuzyillikning ikkinchi yarmidan 14-yuzyillik boshlarigacha hukmronlik qilgan Qaydu (1236–1301) boshqaruvi masalalari o'z aksini topgan [1]. Biranning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Chig'atoy ulusi uzoq vaqt davomida markaziy mo'g'ul hokimiyatiga qarshi kurashib, o'zining mustaqil siyosiy yo'nalishiga ega bo'lgan.

Chig'atoy xonadoni hukmdorlariga tegishli rasmiy hujjalar ham bu davr tarixini o'rganishda ahamiyatlidir. Jumladan, Turfondan topilgan uyg'ur tilidagi chig'atoylar idora hujjatlari Day Matsui tomonidan o'rganilib, iqtisodiy hayotni yoritishda muhim sanaladi [3]. Shu o'rinda xitoylik olim Lyu Inshenning ilmiy faoliyati haqida to'xtalib o'tish kerak. U o'zining ilmiy ishlarida 13 – 14-yuzyilliklarda Turonda kechgan siyosiy jarayonlarni xitoy manbalari asosida tahlil qilgan [5].

Mustaqillik yillarida o'zbek davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan Anushteginiylar sulolasi, Jaloliddin Manguberdining faoliyati, Amir Temur hamda temuriylar chog'ini o'rganishga e'tibor kuchaydi [8; 9; 10; 33]. Bu esa o'z-o'zidan mo'g'ullarga qaramlik yillaridagi siyosiy vaziyat va davlat boshqaruvi haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Shunday bo'lsa-da, Anushteginiylar sulolasi bosib olingandan to Amir Temur hukmronligi o'rnatilguniga qadar bo'lgan Turondagi tarixiy jarayonlar masalasi tadqiqotlarda to'liq o'z aksini topmagan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan 14-yuzyillik va undan keyingi davrlar tarixini yorituvchi manbalar (Yazdiy, Havofiy, Ibn Battuta, Mirzo Ulug'bek asarlari) ilmiy jihatdan o'rganilib, nashr qilindi [43; 27; 41; 35]. Ushbu manbalar nafaqat siyosiy voqealar, balki mintaqaning geografik tavsifi, shaharlar hayoti va diniy muassasalar faoliyati haqida ham boy ma'lumot beradi.

Bundan tashqari, 13-yuzyillikka oid Turondan boshqa hududlarda yaratilgan manbalarni tadqiq qilish ishlari ham amalga oshirilgan. Ular orasida Ato Malik Juvayniyning "Tarixi jahongushoy" ("Jahon fotihi tarixi") asari N.I. Toshev tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o'rganilgan [37]. Shuningdek, L.Q. Asrorova 13 – 14-yuzyilliklarda Turonda diniy hayot, faqihlar va fiqh ilmi

masalalarini tadqiq etgan [11]. 13 – 14-yuzyilliklar Turonda kechgan etnik jarayonlar esa S.U. Ulashovning ilmiy tadqiqotida o‘z aksini topgan [40]. Bulardan tashqari O‘zbekistonda davlatchilik hamda turli shaharlar tarixiga bag‘ishlangan asarlarda ham mavzuga oid ba’zi ma’lumotlar uchraydi [18; 28].

Alohida qayd etish joizki, G.M. Achilovning dissertatsiyasi bevosita Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Chig‘atoy ulusi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan [12]. Muallif ushbu tadqiqotda mo‘g‘ul hukmronligi davridagi mulkchilik shakllari, soliq turlari va shahar madaniyatidagi o‘zgarishlarni keng yoritib bergan. Bu kabi tadqiqotlar mo‘g‘ullar davri tarixini yangicha, mafkuraviy tazyiqlardan xoli tarzda o‘rganishga xizmat qiladi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida mintaqada kechgan ijtimoiy-madaniy hayot masalalari ham oxirgi yillarda tadqiqotchilar e’tiborida bo‘lmoqda. Masalan, I. Jabborovning asarlarida Xorazm vohasining mo‘g‘ullar istilosidan keyingi tiklanish jarayonlari va vohadagi etnomadaniy vaziyat tahlil etilgan [24]. Bu davrda madaniy hayotda forsiylashish va turkiylashish jarayonlarining o‘zaro nisbati, islom dinining mo‘g‘ul aslzodalari orasida yoyilishi kabi mavzular ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

13 – 14-yuzyilliklar Turon tarixi bo‘yicha olib borilgan tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu davr uzoq vaqt davomida faqat siyosiy voqeliklar va harbiy to‘qnashuvlar nuqtayi nazaridan baholab kelingan. Rus olimlarining ilk tadqiqotlari mintaqadagi mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilgan bo‘lsa, sovet davri tarixshunosligida sinfiy kurash tamoyillari ustuvorlik qilgan. Biroq, shunga qaramay, V.V. Bartold, O.D. Chexovich kabi olimlar tomonidan ulkan hajmdagi manba va hujjatlar ilmiy muomalaga kiritildi.

G‘arb olimlari, xususan M. Biran va T. Ollsen kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar Chig‘atoy ulusi tarixiga nisbatan xolis yondashishni boshlab berdi. Ular Chig‘atoy ulusini faqat imperiyaning bir qismi emas, balki o‘ziga xos davlatchilik an‘analariga ega bo‘lgan mustaqil siyosiy tuzilma sifatida talqin etdilar.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, bu davr tarixini o‘zbek davlatchiligi zanjirining uzviy qismi sifatida o‘rganish imkoniyati tug‘ildi. So‘nggi yillarda G.M. Achilova, S.U. Ulashova va boshqa olimlarning tadqiqotlari orqali mo‘g‘ullar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, etnik tarkibning shakllanishi va soliq tizimi masalalari yangicha talqin etila boshlandi.

Shunday bo‘lsa-da, tadqiqotlar tahlili hali ham bu davrning kundalik hayot madaniyati, kichik shaharlar tarixi va ma’naviy hayotiga oid ko‘plab masalalar etarli darajada ochib berilmaganligini ko‘rsatmoqda. Kelgusi tadqiqotlarda arab, fors, xitoy va mo‘g‘ul tillaridagi manbalarni qiyosiy o‘rganish, shuningdek, arxeologik ma’lumotlarni keng jalb qilish orqali Turonning 13 – 14-yuzyilliklardagi ijtimoiy qiyofasini to‘liq tiklash tarix fanining dolzarb vazifasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biran M. Qaidu and the Rise of the Independent Mongol State in Central Asia. – Richmond: Curzon Press, 1997.
2. Boyle J.A. The Mongol Empire. 1206-1370. – London, 1977.
3. Dai Matsui. Taxation systems as seen in Uighur and Mongol Documents from Turfan // Transactions of the International Conference of Eastern Studies. 2005. № 50.
4. Grousset R. The Empire of the Steppes: A History of Central Asia. – New Jersey: Rutgers University Press, 1970.
5. Liu Yingshen. War and Peace between the Yuan Dynasty and the Chaghadaid Khanate (1312 – 1323) // Mongols, Turks and others. – Leyden; Boston: Brill, 2005.
6. Oliver E. The Chagatai Mughals // The Journal of Royal Asiatic Society. Vol. 20. 1888.
7. Али-заде А.А. Социально-экономическая и политическая история Азербайджана XIII–XIV вв. – Баку: Изд. АН АзССР, 1956.
8. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Ҳ. Кароматов. – Париж–Тошкент, 2001.
9. Амир Темур жаҳон тарихида. – Париж–Тошкент, 1996.
10. Ануштагин-Хоразмшоҳлар давлати (1097–1231). / З. Буниёдов; Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси. – Тошкент, 1998.
11. Асророва Л.Қ. Алоуддин Бухорий “Ҳайрату-л-фуқаҳо” асарининг Ислоҳ манбашунослигида тутган ўрни. Тарих фан. бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент, 2019.
12. Ачилова Г. М. Мовароуннахрнинг Чигатой улуси таркибидаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (1227-1370 йиллар) тарих фан. фалсафа доктори дис.: 07.00.01. Тошкент. 2019.
13. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II, Ч. 1, 2; Т. V, VIII. – Москва: Наука, 1963–1973.
14. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва: Изд. вост. лит., 1963.
15. Березин И. Очерк внутреннего устройства улуса Джучиева // Труды восточного отделения имп. археологического общества. – Санкт-Петербург, 1864. Т. 8.
16. Бира Ш. Монгольская историография (XIII–XVII вв.). – Москва, 1978.
17. Бичурин Н.Я. Записки о Монголии. Т. 1. – Санкт-Петербург, 1828.
18. Бобоев Ҳ., Норматов К. Миллий давлатчилик ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 1999.
19. Босворт К.Э. Мусулмон сулолалари. – Тошкент, 2007.
20. Веселовский Н.И. Золотая Орда // Энциклопедический словарь. – Санкт-Петербург, 1894.
21. Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. Монгольский кочевой феодализм. – Ленинград: Изд. АН СССР, 1934.

22. Григорьева В. История монголов от древних времён до Темура / Пер. с перс. – 1834.
23. Давидович Е.А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Мас'уд-бека (XIII в.). – Москва, 1972.
24. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. – Тошкент, 1999.
25. И.П. Петрушевский. Земледелие и аграрные отношения в Иране XIII–XV вв. – Москва-Ленинград, 1960.
26. Иакинф. История первых четырех ханов из дома Чингисова. – Санкт-Петербург, 1829.
27. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии. – Москва: Наука, 1988.
28. История народов Узбекистана. Часть 1. – Ташкент, 1950.
29. История Узбекской ССР. – Ташкент, 1955. Т. 1., Кн. 1.
30. Кара Д. Книги монгольских кочевников. – Москва: Наука, 1972.
31. Кляшторный С.Г., Султанов Т.И. Государства и народы евразийских степей. Древность и средневековье. – Санкт-Петербург, 2000.
32. Петров П.Н. Нумизматическая история Чагатайского государства. 668/1270–770/1369 гг. дис. канд. ист. наук. – Казань, 2007.
33. Рахматуллаева О. Ўзбекистонда Амир Темур ҳаёти ва фаолияти тарихшунослиги (1991–2009): Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010.
34. Султанов Т.И. Чингисхан и Чингизиды. Судьба и власть. – Москва, 2006.
35. Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент, 1996.
36. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. – Санкт-Петербург, 1884. Т. 1.
37. Тошев Н.И. Алоуддин Жувайнийнинг “Тарихи жаҳонгўшо” асари Марказий Осиёнинг XIII–XIV асрлар тарихига оид муҳим манба. Тарих фан. номз. дисс. – Тошкент, 2004.
38. Трепавлов В.В. Государственный строй Монгольской империи XIII в. – Москва, 1993.
39. Туркестанское востоковедение. № 43–44, 1894.
40. Улашова С.У. XIII–XV асрлар форсий манбаларида Мовароуннаҳрдаги этник жараёнлар. Тарих фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. автореферати. – Тошкент, 2022.
41. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи. – Тошкент: Чўлпон, 1993.
42. Чехович О.Д. Бухарские документы XIV. – Ташкент, 1965.
43. Шарафуддин Али Яздий. Мукаддима-и Зафарнома / Нашрга тайёрлаш А. Ўринбоев. – Тошкент, 1972.
44. Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X–XV вв. – Москва, 1932.

TEODOR NOLDEKENING EFTALIYLAR TARIXIGA OID TADQIQOTLARI TAHLILI

*Ergasheva Diloromxon
Farg'ona davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr nemis sharqshunosi va arabshunosi Teodor Noldekening asarlari tahlil qilinib, ularda Eftaliylar davlati haqida qanday ma'lumotlar keltirilgani, nimalarga asoslangani hamda qay darajada ishonchli ekanligi qiyosiy tahlillar asosida ko'rib chiqildi. Noldekening asarlari yurtimizning ilk o'rta asrlar tarixiga oid qanchalik muhim adabiyotlar ekani maqolada batafsil yoritib berildi.

Kalit so'zlar: Eftaliylar, sosoniylar, T.Noldeke, V.Tomashek, M.Shtayn, O'rta Osiyo, Bahrom V, Pero'z I.

Аннотация: В данной статье анализируются работы немецкого востоковеда и арабиста XIX века Теодора Нёльдеке и на основе сравнительного анализа исследуется, какую информацию они предоставляют о государстве Эфталитов, на чём они основаны и насколько они достоверны. В статье подробно освещается значение работ Нёльдеке в истории раннего Средневековья в нашей стране.

Ключевые слова: эфталиты, сасаниды, Т. Нёльдеке, В. Томашек, М.Штейн, Средняя Азия, Бахром V, Пероз I.

Abstract: This article analyzes the works of the 19th-century German orientalist and Arabist Theodor Nöldeke, and examines, based on comparative analysis, what information they provide about the Hephthalite state, what they are based on, and how reliable they are. The article highlights in detail how important Nöldeke's works are in the history of the early Middle Ages in our country.

Key words: Ephthalites, Sasanians, T. Noldeke, V. Tomashek, M. Stein, Central Asia, Bahrom V, Peroz I.

O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlardagi tarixi to'la o'rganilmagan davr bo'lgani uchun oldimizga qo'yilgan ushbu masala o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bundan tashqari o'rganilayotgan davr tarixshunosligi bu borada katta ahamiyat kasb etadi. Demak, masalaning tarixshunosligiga to'xtalar ekamiz, xorij, ayniqsa, nemis tarixshunosligidagi adabiyotlar e'tiborimizni tortadi. Nemis tarixshunosligida eftaliylar tarixi, asosan, forslar tarixidan kelib chiqib o'rganilgan. Bu davrga oid adabiyotlarning ko'pini aynan forslar tarixiga bag'ishlangan asarlar tashkil qiladi. Masalaning asosiy qismiga keladigan bo'lsak, nemis tarixshunosligida O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlardagi tarixi aks etgan asarlar ko'p bo'lgani uchun ham ularni davrlashtirgan holda va ularda aks etgan masalalar yuzasidan toifalashtirgan holda

ko'rib chiqqan maqsadga muvofiqdir, bunda ham asarlarning asosiy qismini o'rganib chiqish, ham ularni o'zaro ichki tahlildan o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi. XIX asr nemis tarixshunosligining taniqli olimlaridan biri bu Teodor Noldeke hisoblanadi. U tarixchi, sharqshunos va arabshunos olim sifatida izlanishlar olib borgan. U Qur'onshunoslik sohasining asoschilaridan biri, ayniqsa uning "Geschichte des Qorāns" ("Qur'on tarixi") nomli fundamental asari orqali o'zidan keyingi ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilgan. Uning tadqiqot qiziqishlari Eski Ahd tadqiqotlarini ham qamrab olgan va arab, ibroniy, aramiy, suriya va efiop tillarini o'z ichiga olgan semit tillarini bilishi unga turli tillardagi tarjimalar, grammatika va adabiyotlar bo'yicha yuzlab tadqiqotlar yozish imkonini bergan. Noldekening 1879-yilda chop etilgan "Sosoniylar davrida forslar va arablar tarixi" nomli asarida sosoniylar tarixi chuqur tadqiq etilgan va asarning 90–167-betlarida eftaliylar tarixi haqida so'z boradi. Eftaliylarning sosoniylar bilan bo'lgan munosabatini har tomonlama o'rganishda ushbu asar qo'l keladi.

Bundan tashqari V.Tomashek ham XIX asr oxirida o'z tadqiqotlarini olib borgan va O'rta Osiyoning antik davr va ilk o'rta asrlardagi tarixini o'rgangan. Uning bir qancha asarlari "Keiserlichen Akademie" ya'ni Germaniya imperatorining akademiyasi nashrida chop etiladi. Ilk o'rta asrlar tarixiga bag'ishlangan asari "Markaziy Osiyo tadqiqotlari: So'g'diyona" bo'lib, unda So'g'dning ilk o'rta asrlardagi tarixi yoritilgan.

Yana bir nemis olimi M.Shtaynning 1897-yilda nashr etilgan "Hindiston shimoli-g'arbiy chegarasi tarixida oq xunlar va qarindosh qabilalar" nomli asarida oq xunlar ya'ni eftaliylarning Hindistonning shimoli-g'arbiy chegarasini egallashi va u erdagi hukmronlik davri haqida so'z boradi.

Yuqoridagi asarlar eftaliylar tarixiga oid muhim aabiyotlar sifatida hali to'liq yoritilmagan bo'lib, ularni kompleks tarzda qiyosiy tahlillar bilan o'rganish ushbu tadqiqotning qimmatligini oshiradi.

Noldeke va Tomasheklarning xulosalari orqali quyidagi fikrlarga aniqlik kiritdik. Eftaliylar V asrning 2-yarmida Eronning shimoli-sharqiy chegarasi hududida bosqinlarning yangi to'liqlini sifatida paydo bo'lgan. Fors shohi Bahrom V (421–438) eftaliylar bilan allaqachon jang qilgan va g'alaba qozongan deb taxmin qilinadi va shu sababdan ham eftaliylarning birinchi marta nomi tilga olinishi 425-yildan boshlanishi mumkin. Yuqorida o'rganilgan Noldekening asarlarida eftaliylar hukmdorlarining aynan Bahrom V bilan bo'lgan munosabatlari ham bayon etilgan. Asar asosan arab manbalariga asoslanib yozilgani uchun ham unda eftaliylar nomi haitallar so'zi orqali ifodalanadi. Asarda Bahrom V va eftaliylar hukmdori o'rtasidagi jang haqida so'z boradi [4: 119]. Biroq Bahrom V tomonidan mag'lub

qilingan bosqinchilarni kimlar bo'lganini aniq ayta olish juda muammoli, chunki bu davrga tegishli manbalarda bu borada aniq bayonotlar berilmagan va voqealar xronologiyasini qayta tiklash qiyin masala bo'lib qolmoqda [10: 104; 9: 25]. Bu fikrlar nemis tarixshunoslaridan bo'lmish Walter Pohl va Timo Stiklerlarning asarlarida ham bir xil holatda keltirilgan. Boshqa tarixshunoslar Daniel Potts va Nikolaus Shindellarning fikriga ko'ra esa, Bahrom V hali ham xioniylar yoki kidariylarga qarshi kurashib kelgan [3: 365]. Bundan ko'rinib turibdiki, XIX asrda yaratilgan adabiyotlar keyinchalik tahlil qilinib, yangi yondashuvlar bilan tadqiqotlar olib borilgan. Shu sababli ham adabiyotlardagi ma'lumotlarni o'zaro qiyoslab o'rganish joizdir. Yana boshqa adabiyotlarda quyidagi fikrlar ilgari suriladi:

Ehtimol eftaliylar keyinroq, V asrning 70-yillaridan keyin kirib kelgan, chunki Pero'z I 460-yillarda kidariylarga qarshi janglar qilgan, eftaliylar bilan esa 470-yillarda kurashgan [1: 138]. Frans Althaym ushbu ma'lumotlarni vizantiya va arman manbalariga asoslanib berganini o'z asarida keltirib o'tadi.

Ammo eftaliylar va kidariylarni bir guruhga kiritilgan tadqiqotlarni ham ko'rishimiz mumkin. Numizmat olim Robert Gobl ularni "Eron xunnlari" nomi bilan mashhur bo'lgan guruhga kiritadi [2: 138]. Biroq Goblning bu sof numizmatik tasnifi, albatta, o'zgartirilishi mumkin, chunki u yozma manbalarni chetlab o'tgan, va hatto xioniylar nomi uning ishida uchramaydi [9: 29], – deydi Timo Stickler o'z asarida. Eftaliylarning Sosoniylar saltanatiga qayta-qayta yurish qilib, yuqorida tilga olingan sosoniylar shohi Pero'z I ni 484-yilda ular tomonidan o'ldirilishi yozma manbalarda o'z aksini topgan [4: 125]. Noldeke ham o'z asarida eftaliylar va Pero'z o'rtasidagi muammoli vaziyatni o'rganadi.

Fors manbalarida 442-yildan boshlab Yazdigird II (435–457) bilan jang qilgan "fetal qabilalari" sifatida tilga olinadi, deydi arman tarixchisi Yelisey Vardaped. 453-yilda Yazdigird II eftaliylar yoki ularga aloqador guruhlar bilan aloqa o'rnatish uchun o'z saroyini sharqqa ko'chiradi. 458-yilda eftaliylar podshosi Sosoniylar imperatori Pero'z I ga ukasidan Fors taxtini tortib olishga yordam beradi. Buning evaziga esa Pero'z eftaliylarga kidariylarni yo'q qilishda yordam bergan bo'lishlari mumkin [4: 121]. 467-yilda ular kidariylarni mag'lub etishadi va Gandharada panoh topishga majbur bo'lishadi [6: 74]. Ushbu ma'lumotni M.Shtayn o'zining asarida keltirib o'tadi.

Eftaliylar davlatining tashkil topishi Sharqdagi sosoniylarning tashqi siyosiy ta'limotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 428-yilda eftaliylar o'zlarining harbiy va siyosiy ta'sirini mintaqada kengaytirish maqsadida Sosoniylar Eroniga hujum qildilar, ammo mag'lubiyatga uchradilar va tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ldilar, unga ko'ra urushayotgan tomonlar o'rtasidagi chegaralar belgilandi. Eftaliylarning sosoniylar bilan bu urushi IX–XI asrlarga oid bir qator arab va fors tilidagi

manbalardan dalolat beradi. Bu ma'lumotlar (kichik tafovutlar bilan) quyidagilarni aniqlashtirish imkonini beradi: birinchidan, shoh Varahran V (421–439) boshchiligidagi sosoniy qo'shinlarining Marvga, so'ngra go'yoki Buxoroga harakatlanish yo'li; ikkinchidan, Bahrom V ning sharqiy mudofaa yurishining geografik hududi, u ko'p jihatdan Kayxusravning Afrosiyob bilan urushidagi yurishlar maydoniga o'xshash; uchinchidan, O'rta Osiyo Mesopotamiya yarim mustaqil mulklarining Sosoniylar Eroniga bog'liqlik darajasi; to'rtinchidan, Afg'oniston va O'rta Osiyoning salmoqli qismini (Balx, Garjiston, Xuttalon, Chag'oniyon va Buxoro) qamrab olgan eftaliylarning siyosiy hokimiyati tarqalgan hududlar [1: 252]. Bobda Eronning shimoli-sharqiy chegarasida eftaliylarga qarshi kurash sosoniy podshohlari – Yazdigard II (439–457) va Pero'z (459–484) larning asosiy vazifasi bo'lganligi qayd etilgan. Arman-suriya manbalariga ko'ra, Yazdigard II shimoli-sharqiy yo'nalishda uchta yurish (442–449, 450–451, 453–454) amalga oshirib, sosoniylar chegaralarini eftaliylar hujumidan himoya qilishga uringan. Yazdigard II ning birinchi yurishi Janubiy Kaspiy dengizi (Jurjon shahri ulushi bilan), ikkinchisi Xuroson, uchinchisi Shimoliy Baqtriya-Toxariston hududlarini qamrab oldi. Xurosonga qarshi yurish yanada muvaffaqiyatli hisoblanadi, chunki bundan keyin Yazdigard II Kushonshahrda sosoniylarning siyosiy hokimiyatini tikladi va sosoniylar taxti vorislari orasidan hokimlarni tayinlash amaliyotini tikladi. Ushbu operatsiyalar ishtirokchisi Yegishe Yazdigard II ning (450–451) ikkinchi yurishi bilan bog'liq voqealarni bayon qilib, “Eftaliylar mamlakati” (“La terre des Ephthalite”) haqida gapiradi va bu birinchi xabardir. Birinchi yurishlardagi muvaffaqiyatlar Yazdigard II ga Sharqqa yanada oldinga siljish imkonini berdi, ammo bu safar sosoniylar qo'shini Shimoliy Baqtriya-Toxaristonda eftaliylar bilan to'qnash keldi va mag'lubiyatga uchradi. Ayni vaqtda eftaliylar Sosoniylar Eroniga bostirib kiradilar va Yegishning yozishicha: “... o'sha paytda Kushonlar o'lkasidan dushman otryadi ajralib chiqqani haqida og'ir xabar keladi, bu otryad chiqib ketib, ko'plab podsholik hududlarini vayron qiladi” [11: 148]. Bu voqea aks-sadolari Noldekening asarida ham o'z aksini topgan bo'lib, eftaliylar shohi Faganish (458-yil) sosoniy shahzodasi Pero'zga (Yazdigard II davrida) O'rta Osiyoning Termiz va Visegerd shaharlarini eftaliylar qo'lga o'tkazish to'g'risidagi o'zaro kelishuvni eslatadi [4: 128]. Bundan kelib chiqadiki Noldeke nafaqat Tabariyning asarini, balki arman manbalarini ham tadqiq qilgan.

Bu boradagi fikrlar shu qadar chalkashligidan va manbalarining to'liq o'rganilmaganligi, ulardagi ma'lumotlarning esa etarli emasligi ilk o'rta asrlar tarixini aniq faktlar orqali ochib berishni qiyinlashtiradi.

XVII asr oxirida boshlangan eftaliylar tarixi masalasidagi muammolarni o'rganish dastlab xitoy, arab va fors manbalarida asosiy ma'lumotlar saqlanib qolgan tor doiradagi masalalarni o'rganish bilan cheklandi. Yevropa va Rossiyada

eftaliylar tarixini o'rganishning boshlanishi xitoy, arab va fors tilidagi o'rta asr manbalarini tarjima qilish va nashr etish bilan bog'liq. Yevropa tadqiqotchilari G'arbiy sharqshunoslik shakllanishidan ancha oldin tanish bo'lgan eftaliylar haqidagi arman, yunon, Vizantiya va Suriya rivoyat manbalaridan olingan ma'lumotlar bu masalani shakllantirish va ilmiy yoritish uchun etarli emas edi. XX asr sovet va chet el arxeologlari tomonidan olib borilgan qazishma va kashfiyotlar asosida umuman O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixi, xususan, eftaliylar tarixi bo'yicha moddiy-axborot bazasi sezilarli darajada kengaydi. Eftaliylar tarixini o'rganish O'rta Osiyo va uning alohida tarixiy-madaniy mintaqalari va davlatlari tarixiga oid ilmiy nashrlarda, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlari va mamlakatlari tarixi va madaniyatiga oid umumlashtirilgan ilmiy va akademik ishlarda o'z aksini topgan.

Natijalarni umumlashtiradigan bo'lsak, eftaliylarning sosoniylar bilan olib borgan siyosati nihoyatda muammoli kechgan, goh sosoniy shahzodalar taxtni egallash uchun eftaliy hukmdorlardan madad so'ragan bo'lsa, goh ularga hiyla ishlatib, urushlarni boshlaganlar. T.Noldeke buni arman manbalari orqali izohlaydi. Ammo xolislik tamoyili bilan yondashadigan bo'lsak, armanlar eftaliylar bilan nihoyatda yaxshi munosabatda bo'lganligini va ular o'rtasidagi aloqalar uzoq vaqtgacha saqlanib qolganiniga ham e'tibor berish lozim. Shu sababdan ham bu masalani keng doirada, manbalar va adabiyotlardagi ma'lumotlarni qiyoslagan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, ba'zi ma'lumotlarning qarama-qarshiligi nemis tarixshunosligidagi adabiyotlarda ham ko'zga tashlanadi. XIX asr nemis tarixshunoslari bo'lmish Noldeke, Tomashek va Shtaynlarning asarlarini o'rganish davomida Eftaliylar davlatining sosoniylar bilan olib borgan tashqi siyosati va ular o'rtasidagi ziddiyatli masalalar ham yoritilganiga guvoh bo'ldik. T.Noldeke eftaliylarning fors shohi Bahrom V va Pero'z bilan qarama-qarshiliklarini nafaqat Tabariyning asari asosida, balki vizantiya va arman manbalari asosida ham izohlaydi. V.Tomashek va M.Shtaynlar esa bu masalaga umumiy kontekstda yondashib o'tganlar.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, XIX asrdayoq nemis tarixshunoslari O'rta Osiyo tarixi masalasiga ham to'xtalib o'tganlar. Bir qarashda yuqorida keltirilgan adabiyotlar bizning tariximizga bog'liq emasdek ko'rinadi, ammo tarixshunoslik nuqtayi nazaridan chuqurroq o'rganilganda qidirayotgan ma'lumotlarimizni topishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu asarlarni ham chuqurroq o'rganib, ilm-fanga tatbiq etilsa, tariximizdagi bizga hali hamon noma'lum bo'lib kelayotgan masalalarga oydinlik kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altheim, Franz. Geschichte der Hunnen. Band 2: Die Hephthaliten in Iran. Berlin, 1989. – 347 s.

2. Göbl, Robert. Dokumente zur Geschichte der Iranischen Hunnen und Indien. Wiesbaden, 1967. – 178 s.
3. Nikolaus Schindel: Wahram V. Band. 1. – Wien 2004. – 420 s.
4. Nöldeke, Teodor. Geschichte der Perser und Araber zur Zeit der Sasaniden. Aus der arabischen Chronik der Tabari. Leyden, 1879. – 503 s.
5. Nöldeke, Teodor. Aufsätze zur persischen Geschichte. Leipzig, 1887. – 450 s.
6. Stein, M. A. White Huns and Kindred Tribes in the History of the Indian North-West Frontier. Indian Antiquary 34, 1897. pp. 73 – 87.
7. Tomaschek, W. Centralasiatische Studien. I. Sogdiana. Sitzungberichte der philosophisch-historischen Classe der kaiserlichen Akademie der Wissenschaften 87, 1877. 67 – 184 s.
8. Tomaschek, W. Chionitae. Paulys Real-Encyclopädie der classischen Altertumwissenschaft. Herausgegeben von Wissowa, G. Stuttgart – München, 1899. 340 s.
9. Timo Stickler: Die Hunnen. – München 2007. – 38 s.
10. Walter Pohl. Die Völkerwanderung. 2. Band. – Stuttgart 2005. – 258 s.

MARKAZIY OSIYO FAN TARIXINI O‘RGANISHDA JORJ SARTONNING O‘RNI

Abdurahimov Javlonbek Bahodirjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy fan tarixshunosligining asoschilaridan biri Jorj Sartoning Markaziy Osiyo fan tarixini jahon ilmiy taraqqiyoti kontekstida talqin etishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sartoning fan tarixini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirishdagi metodologik xizmati, uning universal-xronologik yondashuvi, musulmon Sharqi ilm-faniga bergan bahosi hamda al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi Markaziy Osiyo allomalarini jahon fan tarixining markaziy siymolari sifatida ko‘rsatishdagi hissasi yoritiladi. Maqolada Sarton qarashlarining ilmiy ahamiyati bilan bir qatorda, uning XX asr birinchi yarmiga xos terminologik va metodologik cheklanishlari ham tanqidiy baholanadi.

Kalit so‘zlar: Jorj Sarton, fan tarixi, Markaziy Osiyo, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, musulmon ilm-fani, tarixshunoslik.

Abstract: The article analyzes the role of George Sarton, one of the founders of modern historiography of science, in interpreting the history of science in Central Asia within the context of global scientific development. The study examines Sarton’s methodological contribution to the formation of the history of science as an independent academic discipline, his universal-chronological approach, his

assessment of the scientific achievements of the Muslim East, and his role in presenting such Central Asian scholars as al-Khwārizmī, al-Farghānī, Abū Rayḥān al-Bīrūnī, and Ibn Sīnā as central figures in world history of science. Along with the scholarly significance of Sarton's views, the article also critically evaluates the terminological and methodological limitations characteristic of the first half of the twentieth century.

Keywords: George Sarton, history of science, Central Asia, al-Khwārizmī, al-Farghānī, Abū Rayḥān al-Bīrūnī, Ibn Sīnā, Muslim science, historiography.

Аннотация: в статье анализируется роль Джорджа Сартона, одного из основоположников современной историографии науки, в осмыслении истории науки Центральной Азии в контексте мирового научного развития. В исследовании рассматриваются методологические заслуги Сартона в становлении истории науки как самостоятельного научного направления, его универсально-хронологический подход, оценка им научных достижений мусульманского Востока, а также его вклад в представление таких центральноазиатских учёных, как аль-Хорезми, аль-Фергани, Абу Райхан аль-Бируни и Ибн Сина, в качестве ключевых фигур мировой истории науки. Наряду с научным значением взглядов Сартона в статье также критически оцениваются терминологические и методологические ограничения, характерные для первой половины XX века.

Ключевые слова: Джордж Сартон, история науки, Центральная Азия, аль-Хорезми, аль-Фергани, Абу Райхан аль-Бируни, Ибн Сина, мусульманская наука, историография.

Markaziy Osiyo fan tarixini o'rganishda asosiy ilmiy masalalardan biri mintaqalarning merosini faqat mahalliy yoki milliy tarix doirasida emas, balki jahon ilmiy tafakkuri rivojining uzviy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilishdan iboratdir. Chunki IX–XI asrlarda Xorazm, Farg'ona, Buxoro, Marv, Balx, Samarqand va Xuroson bilan bog'liq ilmiy muhitlarda yetishgan mutafakkirlar matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, falsafa, geodeziya va tabiiy fanlarning bir qator yo'nalishlarida insoniyat ilmiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ushbu ilmiy meros arab tili orqali umumislom ilmiy makoniga, keyinchalik lotin tarjimalari vositasida G'arbiy Yevropa intellektual muhitiga kirib borgan.

Ana shu jarayonni jahon fan tarixi nuqtayi nazaridan izohlashda Jorj Alfred Leon Sartonning o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Jorj Sarton 1884-yilda Belgiyada tug'ilgan, 1915-yilda AQSHga ko'chib o'tgan va 1918-yildan boshlab Karnegi instituti bilan bog'liq ilmiy faoliyat olib borgan [2: 74]. U 1912-yilda *Isis* jurnaliga asos solgan, keyinchalik fan tarixi bo'yicha maxsus ilmiy jamiyat va ilmiy maktab

shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan [2: 74]. Aydin Sayilning qayd etishicha, Sarton faoliyatining asosiy maqsadi fan tarixini mustaqil akademik yo'nalish sifatida qaror toptirishdan iborat bo'lgan [2: 79].

Sartonning Markaziy Osiyo fan tarixini o'rganishdagi eng muhim xizmati shundaki, u al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi allomalarni alohida madaniy yoki diniy muhit vakillari sifatidagina emas, balki insoniyat ilmiy taraqqiyotining yetakchi bosqichlarini belgilagan tarixiy shaxslar sifatida talqin etdi. Ayniqsa, uning *"Introduction to the History of Science"* asarida IX asr birinchi yarmi "al-Xorazmiy davri", XI asr birinchi yarmi esa "Beruniy davri" tarzida nomlanishi Markaziy Osiyo ilmiy merosining jahon fan tarixidagi mavqeini belgilashda muhim tarixshunoslik hodisasi hisoblanadi [1: 543; 1: 693].

Sartonning ilmiy konsepsiyasida fan tarixi insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotini tushuntiruvchi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. U tarixni faqat siyosiy voqealar, urushlar, sulolalar yoki davlatlar almashinuvi orqali emas, balki ilmiy bilimlarning izchil to'planishi, uzatilishi va takomillashuvi orqali anglash zarurligini ilgari surdi. Shu jihatdan Sarton yondashuvi tarixshunoslikda muhim burilish yasadi: fan tarixi yordamchi soha emas, balki insoniyat tafakkuri evolyutsiyasini izohlovchi mustaqil ilmiy maydon sifatida talqin qilindi.

Sartonning *"Introduction to the History of Science"* asari uch jild, besh kitobdan iborat bo'lib, birinchi jildi "Gomerdan Umar Xayyomgacha" bo'lgan davrni qamrab oladi. Mazkur jildda qadimgi yunon, hind, xitoy, suryoniy, arab-musulmon va lotin ilmiy an'analari o'zaro bog'liq holda yoritiladi. Bu usul muayyan sivilizatsiyani boshqasidan ajratib qo'yish emas, balki ilmiy bilimlarning tarixiy harakatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Aynan shu yondashuv Markaziy Osiyo fan tarixini umumjahon fan tarixi tarkibida tahlil qilish imkonini beradi.

Sarton metodologiyasining yana bir muhim jihati – u ilm-fan taraqqiyotini xronologik davrlarga ajratib, har bir davrni eng yirik ilmiy siymolar nomi bilan bog'laydi. Bu usulda ayrim olimlar shunchaki biografik shaxs sifatida emas, balki muayyan tarixiy-intellektual bosqichning ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, IX asr birinchi yarmi "al-Xorazmiy davri", XI asr birinchi yarmi esa "Beruniy davri" sifatida nomlanadi [1: 543; 1: 693]. Bunday nomlash Sarton uchun oddiy tasnif emas edi; u orqali muayyan davrdagi ilmiy taraqqiyotning markaziy og'irlik nuqtasi ko'rsatiladi.

Bu jihat Markaziy Osiyo fan tarixshunosligi uchun juda muhim. Chunki Sarton o'zining universal fan tarixi modelida Markaziy Osiyo allomalarini chekka yoki ikkilamchi figura sifatida emas, balki butun bir davr ilmiy tafakkurini belgilagan yetakchi shaxslar sifatida ko'rsatdi. Demak, Sarton yondashuvi Markaziy Osiyo fan tarixini "mahalliy meros" darajasidan chiqarib, uni jahon ilmiy taraqqiyoti tarixining markaziy masalalaridan biriga aylantirishga xizmat qildi.

Sarton IX asr birinchi yarmini “al-Xorazmiy davri” deb nomlaydi va bu davrni musulmon olamida matematika hamda astronomiya fanlarining yuksalish bosqichi sifatida tavsiflaydi [1: 543]. Uning qayd etishicha, bu davrda musulmon olimlari matematika va astronomiya sohalarida katta ishlarni amalga oshirgan, ayniqsa astronomik jadvallar tuzish jarayonida trigonometriyaning rivojlanishiga muhim qadamlar qo‘yilgan [1: 545].

Sarton al-Xorazmiyni ushbu davrning eng yirik matematik olimi sifatida baholaydi. Uning yozishicha, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning nisbasi uning Xorazmdan chiqqanini bildiradi; Sarton buni o‘z davri geografik tasavvurida “zamonaviy Xiva” bilan bog‘laydi [1: 563]. Olim Ma‘mun xalifaligi davrida, ya’ni 813–833-yillar oralig‘ida faoliyat ko‘rsatgan va taxminan 850-yilda vafot etgan deb ko‘rsatiladi [1: 563].

Sartonning al-Xorazmiyga bergan bahosi nihoyatda yuqori. U al-Xorazmiyni musulmon matematikasi, astronomiyasi va geografiyasining yirik vakili, o‘z davrining eng buyuk olimlaridan biri sifatida ta’riflaydi [1: 563]. Sarton talqinida al-Xorazmiy yunon va hind ilmiy merosini ijodiy sintez qilgan, arifmetika va algebra bo‘yicha bilimlarni keyingi asrlarga uzatgan hamda O‘rta asr matematika tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatgan olimdir [1: 563–564].

Bu yerda Sarton qarashining Markaziy Osiyo fan tarixshunosligi uchun ikki muhim tomoni bor. Birinchidan, u al-Xorazmiyni matematik tafakkur tarixida markaziy shaxs sifatida ko‘rsatadi. Ikkinchidan, al-Xorazmiy merosini yunon, hind, arab-musulmon va lotin-g‘arb ilmiy an‘analari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikda talqin qiladi. Sarton al-Xorazmiyning arifmetikaga oid asari hind raqamlarining arablar va yevropaliklarga tanilishida muhim rol o‘ynaganini qayd etadi [1: 563]. Uning algebra haqidagi asari esa chiziqli va kvadrat tenglamalarning analitik yechimlarini bayon qilgani bilan muhim bo‘lib, Sarton uni geometriyadan ajralgan mustaqil algebraik tahlilning muhim bosqichi sifatida baholaydi [1: 563–564].

Al-Xorazmiyga berilgan bunday baho Markaziy Osiyo fan tarixini o‘rganishda prinsipial ahamiyatga ega. Chunki Sarton talqinida Xorazm ilmiy muhiti jahon matematik tafakkurining passiv qabul qiluvchisi emas, balki bilimlarni qayta ishlab, tizimlashtirib, keyingi sivilizatsion bosqichlarga uzatgan faol ilmiy markaz sifatida namoyon bo‘ladi.

Sarton IX asr birinchi yarmidagi ilmiy yuksalish jarayonida al-Farg‘oniyga ham alohida o‘rin beradi. U al-Farg‘oniyni o‘z davrining eng ko‘zga ko‘ringan astronomlaridan biri sifatida baholaydi va uning astronomiyaga oid asari musulmon, nasroniy va yahudiy astronomlari orasida uzoq vaqt muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilganini qayd etadi [1: 546].

Sarton al-Farg‘oniyni lotin manbalarida Alfraganus nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu-l-Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy sifatida

ko'rsatadi. Uning yozishicha, al-Farg'oniy Farg'onada, ya'ni Movarounnahr hududida tug'ilgan, Ma'mun davrida faoliyat yuritgan va 861-yilda hali hayot bo'lgan [1: 567]. Sarton uni Ma'mun va uning vorislari davrida faoliyat ko'rsatgan eng yirik astronomlardan biri deb baholaydi [1: 567].

Al-Farg'oniyning eng muhim xizmati sifatida Sarton uning astronomiya asoslariga oid asarini ko'rsatadi. Bu asar lotin tilida *"Elements of Astronomy"* mazmunida tanilgan bo'lib, XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan va Regiomontan davrigacha Yevropa astronomiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan [1: 567]. Shuningdek, Sarton al-Farg'oniyning 861-yilda Fustotda Nil daryosi suv sathini o'lchovchi nilometr qurilishiga rahbarlik qilganini ham qayd etadi [1: 567].

Al-Farg'oniy haqidagi bu ma'lumotlar Sartonning Markaziy Osiyo ilmiy merosiga yondashuvda astronomiya tarixining alohida ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi. Al-Farg'oniy merosi orqali Sarton Farg'ona ilmiy muhitini IX asr xalqaro astronomik bilimlar tizimining muhim bo'g'ini sifatida ko'rsatadi. Bu talqinda Markaziy Osiyo olimlari nafaqat Bag'dod ilmiy markazida faoliyat yuritgan ijrochilar, balki keyinchalik Yevropa ilmiy muhitida ham o'z ta'sirini saqlab qolgan nazariy bilimlar mualliflari sifatida namoyon bo'ladi.

Sartonning Markaziy Osiyo fan tarixiga oid eng muhim tarixshunoslik xulosalaridan biri XI asr birinchi yarmini "Beruniy davri" deb nomlaganidir [1: 693]. Bu nomlash tasodifiy emas. Sartonning fikricha, XI asr birinchi yarmi O'rta asr ilmiy tafakkurining eng yuksak bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda Ibn Yunus, Ibn al-Haysam, al-Beruniy, Ibn Sino, Ali ibn Iso, al-Karxiy va Ibn Gabirol kabi yirik ilmiy shaxslar faoliyat ko'rsatgan [1: 693]. Shunga qaramay, Sarton ushbu davrning eng baland cho'qqisi sifatida ikki allomani – Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinoni alohida ajratib ko'rsatadi [1: 693].

Sartonning Beruniyga bergan bahosi nihoyatda yuksak. U Beruniyni sarguzashtkor, tanqidiy fikrli, izlanishga moyil va zamonaviy ilmiy idealga yaqin olim sifatida tavsiflaydi [1: 693]. Ibn Sino esa Sarton talqinida sintezlovchi tafakkur egasi, tizimlashtiruvchi olim, ensiklopedist va faylasuf sifatida namoyon bo'ladi [1: 693]. Shu taqqoslashning o'ziyoq Sarton uchun Beruniy faqat ko'p sohalarda yozgan alloma emas, balki ilmiy bilishning tanqidiy-tajriba asosidagi yo'nalishini ifodalagan markaziy figura bo'lganini ko'rsatadi.

Sarton Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyni 973-yilda Xorazmda tug'ilgan, Hindistonda bo'lgan, 1048-yilda G'aznada vafot etgan olim sifatida ko'rsatadi [1: 707]. U Beruniyni sayyoh, faylasuf, matematik, astronom, geograf va ensiklopedist sifatida ta'riflaydi hamda uni islom olami va barcha davrlarning eng buyuk olimlaridan biri deb baholaydi [1: 707]. Sarton nazarida Beruniyda tanqidiy ruh, haqiqatga muhabbat, intellektual jasorat va xolis ilmiy yondashuv mujassam edi [1: 707].

Beruniy merosining muhim tomoni sifatida Sarton uning Hindistonni chuqur o'rganganini alohida ta'kidlaydi. U Beruniyni hind falsafasi va ilmiy madaniyatini jiddiy o'rgangan ilk musulmon olimlaridan biri, Hindiston va islom dunyosi o'rtasidagi muhim ilmiy vositachi sifatida baholaydi [1: 694–695].

Sarton Beruniyning geografiya va geodeziyaga oid xizmatlarini ham yuqori baholaydi. Uning yozishicha, Beruniy barcha davrlarning eng buyuk geograflaridan biri sanalishi mumkin; u geografiyaning matematik tomoniga, geodezik o'lchovlarga, joylarning kenglik va uzunliklarini aniqlashga, stereografik proyeksiyani soddalashtirishga muhim hissa qo'shgan [1: 699]. Sarton Beruniyning Hindiston haqidagi tadqiqotini fundamental geografik yodgorlik sifatida baholaydi [1: 699]. Bundan tashqari, u Beruniyning gidrostatika, buloqlar va quduqlar tabiati, Hind vodiysining qadimiy dengiz havzasi bo'lganiga oid mulohazalarini ham ilmiy ahamiyatga ega deb ko'rsatadi [1: 699].

Beruniy haqidagi ushbu talqin Markaziy Osiyo fan tarixini o'rganishda uch jihatdan muhimdir. Birinchidan, Sarton Beruniyni XI asr ilmiy tafakkurining ramziy markaziga aylantiradi. Ikkinchidan, Beruniy orqali Xorazm ilmiy muhitining global fan tarixidagi o'rni asoslanadi. Uchinchidan, Beruniy merosi faqat astronomiya yoki matematika doirasida emas, balki sivilizatsiyalararo bilish, qiyosiy madaniyatshunoslik, geodeziya, geografiya va tabiiy fanlar kesimida talqin qilinadi.

Sarton XI asr birinchi yarmidagi ilmiy yuksalishni baholashda Ibn Sinoga ham alohida o'rin beradi. U Ibn Sinoni Beruniy bilan yonma-yon qo'yadi, biroq ularning ilmiy qiyofasini farqlaydi: Beruniy Sarton nazarida tanqidiy izlanish va kashfiyotga yaqinroq bo'lsa, Ibn Sino sintezlovchi, tizimlashtiruvchi va ensiklopedik tafakkur egasi sifatida ko'rsatiladi [1: 693]. Bu baho Ibn Sino merosining umumiy tabiatiga mos keladi, chunki uning ilmiy faoliyati tibbiyot, falsafa, mantiq, tabiiy fanlar, matematika va astronomiyani qamrab olgan.

Sarton Ibn Sinoni musulmon falsafiy tafakkurining cho'qqilaridan biri sifatida ta'riflaydi, lekin uni faqat faylasuf sifatida emas, balki ijodkor fan odami sifatida ham baholaydi [1: 695]. Uning qayd etishicha, Ibn Sino matematik va astronomik masalalar bilan shug'ullangan, kuzatuv asboblari takomillashtirishga uringan, harakat, kuch, bo'shliq, cheksizlik, yorug'lik, issiqlik va solishtirma og'irlik kabi masalalar yuzasidan fikr yuritgan [1: 711]. Sarton, shuningdek, Ibn Sino yorug'lik tezligi cheksiz emas, balki muayyan tezlikka ega bo'lishi mumkinligi haqida mulohaza bildirganini ham qayd etadi [1: 711].

Ibn Sinoning *“al-Qānūn fī al-tibb”* asariga Sarton alohida ahamiyat beradi. Uning qayd etishicha, mazkur asar Kremonalik Gerard tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan va keyingi asrlarda Yevropa tibbiy ta'limida muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan [1: 711]. Bu fakt Markaziy Osiyo ilmiy merosining Yevropa

ilmiy muhitiga o'tishida tarjima jarayonlari qanday muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

Sarton talqinida Ibn Sino Markaziy Osiyo ilmiy tafakkurining ensiklopedik xususiyatini ifodalaydi. Ya'ni mintaqada allomalari ilmiy bilimlarni tor ixtisoslar doirasida emas, balki o'zaro bog'langan umumiy nazariy tizim sifatida ko'rganlar. Ibn Sino orqali Sarton Markaziy Osiyo ilmiy merosining faqat alohida kashfiyotlar yig'indisi emas, balki mantiqiy, falsafiy va tajribaviy bilimlarni birlashtirgan yirik intellektual tizim ekanini ko'rsatadi.

Sartonning Markaziy Osiyo fan tarixini o'rganishdagi o'rnini bir necha yo'nalishda baholash mumkin.

Birinchidan, Sarton Markaziy Osiyo allomalarini jahon fan tarixi xronologiyasiga kiritdi. Uning asarida al-Xorazmiy IX asr birinchi yarmining, Beruniy esa XI asr birinchi yarmining ramziy ilmiy siymosi sifatida ko'rsatiladi [1: 543; 1: 693]. Bu hol Markaziy Osiyo olimlarini tarixiy jarayonning chekka ishtirokchilari emas, balki ilmiy taraqqiyot bosqichlarini belgilagan markaziy shaxslar sifatida talqin qilishga imkon berdi.

Ikkinchidan, Sarton O'rta asrlar haqidagi yevropamarkazchi "ilmiy uzilish" tasavvurini muvozanatlashtirdi. U VIII–XI asrlar oralig'ida ilmiy tafakkur rivojida musulmon olami, ayniqsa Markaziy Osiyo va unga tutash ilmiy hududlar muhim rol o'ynaganini ko'rsatdi. Sarton XI asr birinchi yarmida ilmiy vazifalarning katta qismi musulmon olimlari tomonidan bajarilganini ta'kidlaydi [1: 701–702]. Bu yondashuv O'rta asrlar fan tarixini antik davr va Yevropa Renessansi o'rtasidagi "bo'shliq" sifatida emas, balki Sharq ilmiy markazlari faol bo'lgan uzluksiz jarayon sifatida tushunishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Sarton Markaziy Osiyo ilmiy merosini sivilizatsiyalararo transmissiya jarayonida ko'rsatdi. Al-Xorazmiy orqali hind raqamlari va algebraik tafakkur, al-Farg'oniy orqali astronomik bilimlar, Beruniy orqali hind-islom ilmiy aloqalari, Ibn Sino orqali tibbiy-falsafiy bilimlar Sharqdan G'arbga o'tgan murakkab ilmiy almashinuvning tarkibiy qismlari sifatida talqin qilindi [1: 563–564; 1: 567; 1: 707–708; 1: 711].

To'rtinchidan, Sarton Markaziy Osiyo ilmiy merosini fan tarixi metodologiyasining maxsus obyekti sifatida ko'rishga yo'l ochdi. Uning yondashuvida allomalar biografiyasi, asarlar ro'yxati, tarjimalar tarixi, ilmiy ta'sir, terminologiya va xronologiya birgalikda tahlil qilinadi. Bu esa keyingi tadqiqotchilar uchun Markaziy Osiyo fan tarixini faqat madaniy faxr yoki biografik tavsif sifatida emas, balki manbashunoslik, matnshunoslik, tarjimashunoslik va ilmiy g'oyalar tarixi kesimida o'rganish zarurligini ko'rsatdi.

Sartonning ilmiy xizmati katta bo'lishiga qaramay, uning qarashlarini bugungi tarixshunoslik mezonlari asosida tanqidiy o'qish zarur. Avvalo, Sarton XX

asr birinchi yarmi ilmiy muhitida shakllangan olim edi. Shu sababli uning asarlarida “musulmon fani”, “arab fani”, “fors olimlari”, “Sharq” kabi umumlashtiruvchi kategoriyalar keng qo‘llanadi. Masalan, Sarton Beruniyning Xorazmda tug‘ilganini qayd etgani holda, uni o‘z davri terminologiyasi asosida “forslik” doirasida tasniflaydi [1: 707]. Bugungi Markaziy Osiyo tarixshunosligida bunday tasniflar ehtiyotkorlik bilan izohlanishi lozim.

Bu yerda muhim metodologik masala shundaki, “arab fani” atamasi har doim etnik arablikni anglatmaydi. Ko‘p hollarda u arab tilidagi ilmiy adabiyot va islom sivilizatsiyasi doirasidagi ilmiy muhitni bildiradi. Xuddi shuningdek, “fors” yoki “musulmon” kabi atamalar ham Sarton matnida zamonaviy milliy identifikatsiya ma’nosida emas, balki keng madaniy-geografik yoki sivilizatsion tasnif sifatida ishlatiladi. Shu bois Sarton ma’lumotlarini bugungi ilmiy tadqiqotlarda qo‘llashda Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, Movarounnahr va Xuroson kabi aniq tarixiy-geografik kontekstlarni alohida tiklash zarur.

Ikkinchidan, Sarton ko‘proq yirik sintez yaratgan. Uning maqsadi alohida Markaziy Osiyo fan tarixini yozish emas, balki jahon fan tarixining universal panoramasini yaratish edi. Shu sababli ayrim allomalar merosining mahalliy ilmiy maktablar, qo‘lyozmalar an’anasi, asarlarning ichki tarkibi va matnshunoslik muammolari chuqur tahlil qilinmaydi. Bugungi tadqiqotlar Sarton yaratgan umumiy ilmiy xaritani qo‘lyozmashunoslik, manbashunoslik va mahalliy ilmiy muhitlar tahlili bilan boyitishi lozim.

Uchinchi jihat shundaki, Sarton yondashuvida buyuk shaxslar markaziy o‘rinda turadi. Bu usul ilmiy davrlarni tushuntirish uchun qulay bo‘lsa-da, ilmiy maktablar, tarjimonlar, kutubxonalar, rasadxonalar, ilmiy homiylik, ta’lim muassasalari va intellektual tarmoqlar rolini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, Sartonning shaxslar asosidagi xronologiyasi Markaziy Osiyo allomalarning global fan tarixidagi mavqeini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Jorj Sarton Markaziy Osiyo fan tarixini alohida mintaqaviy mavzu sifatida maxsus tadqiq qilmagan bo‘lsa-da, uning fan tarixshunosligidagi konsepsiyasi Markaziy Osiyo ilmiy merosini jahon ilmiy taraqqiyoti tarkibida talqin qilish uchun muhim metodologik asos yaratdi. U al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino kabi allomalarni insoniyat ilmiy tafakkuri rivojining markaziy siymolari sifatida ko‘rsatdi. Ayniqsa, IX asr birinchi yarmining “al-Xorazmiy davri”, XI asr birinchi yarmining esa “Beruniy davri” sifatida nomlanishi Markaziy Osiyo fan tarixining global ilmiy xronologiyadagi o‘rnini mustahkamladi [1: 543; 1: 693].

Sartonning asosiy xizmati shundaki, u Markaziy Osiyo allomalari merosini mahalliy tarix yoki diniy-madaniy muhit doirasida emas, balki ilmiy bilimlarning

sivilizatsiyalararo harakati, tarjima jarayonlari, nazariy yangilanishlar va fanlararo aloqalar kontekstida tahlil qildi. Al-Xorazmiy orqali algebra va arifmetika, al-Fargʻoniy orqali astronomiya, Beruniy orqali geodeziya, geografiya va qiyosiy sivilizatsion tadqiqotlar, Ibn Sino orqali tibbiyot va falsafiy-tabiiy bilimlar jahon fan tarixining ajralmas tarkibiy qismi sifatida koʻrsatildi.

Shu bilan birga, Sarton merosidan foydalanishda uning terminologiyasi tanqidiy yondashuvni talab qiladi. “Arab”, “musulmon”, “fors” kabi atamalarni bugungi milliy-hududiy tarixshunoslik mezonlari asosida bevosita takrorlash emas, balki ularni oʻz davrining ilmiy tasniflari sifatida izohlash zarur. Zamonaviy Markaziy Osiyo fan tarixshunosligining vazifasi Sarton yaratgan universal ilmiy xaritani birlamchi manbalar, qoʻlyozmalar, mahalliy ilmiy maktablar va intellektual tarmoqlar tahlili bilan yanada chuqurlashtirishdan iboratdir.

Demak, Jorj Sarton Markaziy Osiyo fan tarixini oʻrganishda uch jihatdan muhim oʻrin tutadi: birinchidan, u mintaqa allomalarini jahon fan tarixi xronologiyasiga kiritdi; ikkinchidan, u musulmon Sharqi va Markaziy Osiyo ilmiy merosini Oʻrta asrlar ilmiy taraqqiyotining faol markazi sifatida talqin qildi; uchinchidan, u keyingi tadqiqotchilar uchun fan tarixini sivilizatsiyalararo, xronologik va manbashunoslik asosida oʻrganish metodologiyasini taklif etdi. Shu maʼnoda Sarton merosi Markaziy Osiyo fan tarixshunosligi uchun hanuzgacha muhim konseptual tayanch boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sarton G. A Guide to the History of Science. – Waltham, Mass.: Chronica Botanica Co., 1952. – 316 p.
2. Sarton G. A History of Science: Ancient Science Through the Golden Age of Greece. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1952. – 646 p.
3. Sarton G. Al-Biruni Centennial Address // Isis. – 1952. – Vol. 43. – No. 2. – P. 102–106.
4. Sarton G. Introduction to the History of Science. Vol. I: From Homer to Omar Khayyam. – Baltimore: The Williams & Wilkins Company; Carnegie Institution of Washington, 1927. – 839 p.
5. Sarton G. Preface to Isis Volume 35 // Isis. – 1944. – Vol. 35. – No. 1. – P. 1–5.
6. Sarton G. Preface to Osiris Volume 1 // Osiris. – 1936. – Vol. 1. – P. 5–9.
7. Sarton G. The Appreciation of Ancient and Medieval Science During the Renaissance (1450–1600). – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1955. – 234 p.
8. Sarton G. The Incunabula of the Arabic Science // Proceedings of the American Philosophical Society. – 1951. – Vol. 95. – No. 3. – P. 215–227.
9. Sarton G. The Life of Science: Essays in the History of Civilization. – New York: Henry Schuman, 1948. – 197 p.

10. Sarton G. The New Humanism and Academic Synthesis // *Isis*. – 1944. – Vol. 35. – No. 1. – P. 3–8.
11. Sarton G. The Progress of Science and the Dynamic of Humanism // *Isis*. – 1947. – Vol. 37. – No. 1. – P. 3–11.
12. Sayılı A. George Sarton and the History of Science. – Ankara: Atatürk Culture Center, article text. – P. 74–117.

EVOLUTION AND PERSPECTIVES OF CENTRAL ASIAN HISTORIOGRAPHY: METHODOLOGICAL CHALLENGES AND MODERN APPROACHES

Anvarov Alisher Abdulatifovich
Namangan State Technical University
Senior Lecturer

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo tarixshunosligining dolzarb muammolari an'anaviy paradigmalardan zamonaviy metodologik yondashuvlarga o'tish kontekstida tahlil qilingan. Tarixiy bayonlarni dekolonizatsiya qilish va ko'p tarmoqli manbalarni integratsiyalash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda professor Rahmatjon Arslonzodaning sohadagi hissasiga alohida urg'u berilib, tarixiy xotirani saqlash ahamiyati ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, tarixshunoslik, manbashunoslik, Rahmatjon Arslonzoda, metodologiya, dekolonizatsiya, madaniy meros, ilmiy paradigmalar, tarixiy xotira.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные проблемы историографии Центральной Азии в контексте перехода от традиционных парадигм к современным методологическим подходам. Исследуются вопросы деколонизации исторических повествований и интеграции мультидисциплинарных источников. В работе подчеркивается вклад профессора Рахматжона Арслонзода и оценивается значение сохранения исторической памяти в современной науке.

Ключевые слова: Центральная Азия, историография, источниковедение, Рахматжон Арслонзода, методология, деколонизация, культурное наследие, научные парадигмы.

Annotation: This article analyzes current problems in Central Asian historiography, focusing on the transition from traditional paradigms to modern methodological approaches. It explores the challenges of decolonizing historical narratives and integrating multidisciplinary sources. The research emphasizes the importance of preserving historical memory and evaluates the scientific contributions of Professor Rakhmatjon Arslonzoda to the field.

Keywords: Central Asia, historiography, source studies, Rakhmatjon Arslonzoda, methodology, decolonization, cultural heritage, scientific paradigms, historical memory.

The study of the history of Central Asia has always been at the crossroads of global geopolitical interests and intense intellectual debates. Today, as we honor the memory of the prominent historian and source studies expert, Professor Rahmatjon Arslonzoda, the academic community faces the necessity of re-evaluating the methodological foundations of our craft. Historiography is not merely a record of what happened; it is a critical examination of *how* and *why* history is written, interpreted, and utilized in the construction of national and regional identities.

Professor Arslonzoda's legacy provides a unique lens through which we can observe the evolution of historical science in Uzbekistan and the wider region. His commitment to the "purity" of the source and his rejection of ideological distortions set a standard for modern scholarship [3: 12]. The transition from the rigid Marxist-Leninist framework of the 20th century to the pluralistic and national-centered paradigms of the 21st century has presented both opportunities and significant challenges for researchers.

The current state of Central Asian historiography requires a departure from Eurocentric and Sinocentric perspectives that have dominated the field for decades. The methodological framework of this study is based on the principles of historicism, objectivity, and a transdisciplinary approach. We utilize the "decolonial" method to analyze how Central Asian history was marginalized or "peripheralized" in imperial narratives [7: 45].

Furthermore, the integration of source-based analysis – a field where Rakhmatjon Arslonzoda excelled – remains the bedrock of our investigation. Without a rigorous critique of primary sources, including Arabic, Persian, and Turkic manuscripts, as well as oral histories and archaeological data, historiography risks becoming a tool for political myth-making rather than a scientific discipline [1: 88].

The history of Central Asia has traditionally been divided into the "Pre-Islamic", "Islamic", "Colonial", and "Postsoviet" periods. Each of these eras carries its own historiographical weight and set of problems.

One of the primary challenges in the historiography of ancient Central Asia is the heavy reliance on external sources – primarily Greek, Chinese, and Persian. Modern historiography seeks to balance these external accounts with internal archaeological findings. Professor Arslonzoda often noted that "the soil of Central Asia speaks a language that is more honest than the chronicles written in distant courts" [2: 56]. The challenge here lies in synthesizing these disparate sources into

a cohesive narrative that reflects the agency of the local populations rather than seeing them as mere subjects of external empires.

In the study of the Timurid and post-Timurid eras, the problem shifted to the over-reliance on hagiographic and court-centered chronicles. For a long time, the socio-economic life of the common people was ignored in favor of the biographies of rulers. Current historiographical trends, influenced by the *Annales* school, are moving toward “History from Below” [10: 210]. This requires a re-reading of archival documents (waqf papers, judicial records) which Rakhmatjon Arslonzoda advocated for throughout his career.

The most pressing issue in contemporary Central Asian historiography is the “decolonization of the mind”. For over seventy years, the region’s history was forced into a teleological progression toward the socialist ideal. Any event that did not fit this narrative was either suppressed or labeled as “reactionary”.

The post-independence period (since 1991) saw a rapid shift toward “national history”. However, this transition faced several hurdles:

- **Methodological Inertia:** Many historians struggled to move beyond the dialectical materialism they were trained in.
- **The Heroization of History:** The need to build a national identity sometimes led to an uncritical glorification of historical figures, replacing one ideology with another.
- **Access to Archives:** Significant portions of the region’s history are stored in archives outside Central Asia (Moscow, Saint Petersburg, London, Istanbul), making comprehensive research difficult and expensive [5: 34].

Rakhmatjon Arslonzoda was a pioneer in navigating this transition. He argued that national pride should be built on the bedrock of historical truth, not on convenient myths. His work on the “Jadid” movement, for example, demonstrated a balanced approach to understanding the complex intellectual currents of the early 20th century [4: 102].

Historiography is only as strong as its source base. In the Central Asian context, we face a “source study crisis”. Many rare manuscripts are deteriorating in private collections or poorly funded regional libraries. Moreover, the number of scholars capable of reading medieval Persian (Tajik), Arabic, and Chagatay Turkic is declining.

Professor Arslonzoda emphasized that a historian who cannot read the primary source is “a blind man leading the blind” [3: 15]. The digital age offers a solution – Digital Humanities – but the implementation of large-scale digitization projects in Central Asia is slow due to a lack of technical expertise and funding. The challenge for modern historiography is to integrate these new digital tools with traditional philological rigor.

Central Asian history is often studied within the confines of modern national borders (Uzbekistan, Kazakhstan, etc.). However, historical processes – such as the Silk Road, the spread of Islam, or the Mongol invasions – did not respect these boundaries.

The current problem is the “compartmentalization” of history. We need a “Regional Historiography” that views Central Asia as a unified cultural and economic space. This requires international cooperation and the harmonization of historical curricula across the Five Stans. Professor Arslonzoda’s research often crossed these artificial boundaries, looking at the Fergana Valley or the Khorezm oasis as integrated historical ecosystems rather than fragmented territories [8: 121].

The contribution of Rakhmatjon Arslonzoda to the development of historical science cannot be overstated. He was not just a chronicler but a philosopher of history. His methodology focused on:

1. Objectivity: Seeking the truth regardless of the political climate.
2. Source Integrity: The belief that the manuscript is the ultimate authority.
3. Pedagogy: Training a new generation of historians who are linguistically proficient and methodologically versatile.

His works on the historiography of the 19th and 20th centuries served as a bridge between the old school of Orientalism and the new, independent school of Uzbek historiography. He taught us that history is a living dialogue between the past and the present [6: 77].

Based on the analysis of current historiographical trends and the challenges identified above, several key results emerge:

- There is a significant need for a new generation of source-study materials that utilize modern technology (OCR for manuscripts, GIS for historical geography).
- Multidisciplinary collaboration (between historians, geneticists, linguists, and climatologists) is essential for solving the mysteries of the ancient and medieval periods.
- The decolonial project must continue, but it must be based on rigorous archival research rather than populist rhetoric.

The discussion at this conference should focus on how to institutionalize the standards set by scholars like Professor Arslonzoda. This includes creating better incentives for young scholars to study ancient languages and ensuring that historical research is accessible to the broader public without losing its academic depth.

The historiography of Central Asia is currently at a critical juncture. The challenges – ranging from the decolonization of narratives to the preservation of source – are formidable but not insurmountable. By adhering to the principles of

scientific objectivity and source-based analysis championed by Rakhmatjon Arslonzoda, we can ensure that Central Asian history takes its rightful place in the global academic discourse.

The future of our field lies in our ability to synthesize the rich local traditions of scholarship with global methodological innovations. Only then can we provide a history that is not only accurate but also meaningful for the future generations of the region. This conference, dedicated to the memory of a great teacher, serves as a vital platform for this noble endeavor.

References

1. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 416 p.
2. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865-1924. – London: Routledge, 2004. – 430 p.
3. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent: Noshir, 2020. – 320 b.
4. Frank A. Islamic Historiography and "Bulghar" Identity among the Tatars and Bashkirs of Russia. – Leiden: Brill, 1998. – 250 p.
5. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 280 b.
6. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 368 p.
7. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 360 b.

ANKLAV HUDUDLAR TARIXSHUNOSLIGI

*Oripov Bahodir Olimjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti
tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlatlarning anklav hududlari, ayniqsa Markaziy Osiyodagi anklav hududlar tarixshunosligi hamda Farg'ona vodiysida shakllangan anklav va eksklavlarning tarixiy-geografik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, anklav hududlarning mutaxassislar tomonidan o'rganilishi va ular tomonidan bildirilgan ilmiy fikrlar yoritib beriladi. Bundan tashqari, tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari asosida anklav hududlarning tarixshunoslikdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: anklav, eksklav, Farg'ona vodiysi, chegara muammolari, sovet milliy-hududiy chegaralanishi, So'x anklavi, tarixshunoslik, Markaziy Osiyo, delimitatsiya, geosiyosat.

Аннотация: В данной статье анализируется историография анклавных территорий государств, в особенности анклавов Центральной Азии, а также историко-географические особенности анклавов и эксклавов, сформировавшихся в Ферганской долине. Также освещается изучение анклавных территорий специалистами и высказанные ими научные взгляды. Кроме того, на основе научных взглядов исследователей раскрывается место анклавных территорий в историографии.

Ключевые слова: анклав, эксклав, Ферганская долина, пограничные проблемы, советское национально-территориальное размежевание, анклав Сох, историография, Центральная Азия, делимитация, геополитика.

Abstract: This article analyzes the historiography of state enclaves, especially the enclave territories of Central Asia, as well as the historical and geographical features of enclaves and exclaves formed in the Fergana Valley. The article also highlights the study of enclave territories by specialists and the scholarly opinions expressed by them. In addition, the place of enclave territories in historiography is revealed on the basis of researchers' scientific views.

Keywords: enclave, exclave, Fergana Valley, border problems, Soviet national-territorial delimitation, Sokh enclave, historiography, Central Asia, delimitation, geopolitics.

Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi anklav hududlar murakkab tarixiy va siyosiy jarayonlar mahsuli sifatida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi So'x, Shohimardon va Vorux kabi hududlar uzoq yillardan beri tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ularning shakllanishi asosan 1920-yillardagi sovet milliy-hududiy chegaralanishi bilan bog'liqdir. Shu jarayon natijasida murakkab chegaralar paydo bo'lib, ayrim hududlar boshqa respublikalar tarkibida qolib ketgan. Mustaqillikdan keyin esa bu hududlar xalqaro chegaralarga aylanishi sabab transport, bojxona, suv taqsimoti va xavfsizlik bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida aholining zich va aralash yashashi chegara masalalarini yanada murakkablashtirdi. Ushbu maqolaning maqsadi Markaziy Osiyodagi anklav hududlar tarixshunosligini tahlil qilish va tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarini umumlashtirishdan iborat.

Markaziy Osiyo anklavlari va chegara muammolari bo'yicha eng muhim tadqiqotchilardan biri britaniyalik siyosiy geograf N.Megoran hisoblanadi. Uning Qirg'iziston va O'zbekiston chegrasi to'g'risidagi asarida Qirg'iziston - O'zbekiston chegarasining shakllanishi hamda Farg'ona vodiysidagi chegara muammolari tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. N.Megoran fikricha, Markaziy Osiyodagi zamonaviy chegaralar 1924–1927-yillardagi sovet milliy-hududiy chegaralanishi jarayoni natijasida shakllangan. Aynan shu jarayon Farg'ona vodiysida murakkab

anklav hududlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan [1: 1-2]. Shuningdek, chegaralarni delimitatsiya qilish hamda hududlarni shoshilinch ravishda bo'linishi, davlatlarning ichida qolib ketgan anklav hamda eksklavlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, bunday hududiy bo'linishlar olimlar va tarixchilarni qiziqish uyg'otishi sabab, hududlarni o'rganish boshlanadi.

M.Reeves Markaziy Osiyodagi yangi xalqaro chegaralarning kundalik hayotda qanday shakllanishini tadqiq qilgan. Olim chegaralarni faqat siyosiy chiziq emas, balki ijtimoiy va antropologik hodisa sifatida talqin qiladi. M. Reeves Farg'ona vodiysi chegaralarini "shaxmat taxtasiga o'xshash murakkab chegaralar" sifatida ta'riflaydi. Olimning fikricha, bu holat sovet milliy-hududiy chegaralanishi natijasida yuzaga kelgan [2: 3-6]. Aynan Sovet davrida milliy-hududiy chegaralanishlarning o'tkazilishi munosabati bilan hududlarda ijtimoiy iqtisodiy muammolar vujudga kela boshladi. Misol uchun, Fargona vodiysidagi So'x, Shohimardon va boshqa anklavlarda vaziyat og'irlashgan edi. Keyinchalik, mutaxasislarni qiziqtirgan bu hududlarni borib izlanishlar o'tkazilishi tufayli ancha muammolarga echim topildi.

F.Tolipov So'x anklavini Farg'ona vodiysi va butun Markaziy Osiyo uchun ramziy hudud sifatida baholaydi. Olimning fikricha, anklavlar mintaqaviy integratsiya va chegaraviy munosabatlarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, F.Tolipov So'x anklavini Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega hudud sifatida baholaydi. Olim anklavlar muammosini mintaqaviy xavfsizlik va davlatlararo munosabatlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [3: 5].

R.Gabdulhakov tadqiqotlarida So'x anklavi Farg'ona vodiysidagi eng yirik anklav hududlardan biri sifatida tavsiflangan. Muallif anklavlar muammosini tarixiy-geografik nuqtai nazardan tahlil qilgan [4: 2-3].

Y.Bregelning "Markaziy Osiyo tarixi XII asrlarda" asarida Markaziy Osiyo tarixshunosligining shakllanishi va rivojlanishi batafsil yoritilgan. Olimning ta'kidlashicha, Markaziy Osiyodagi dastlabki tarixiy asarlar fors tilida yozilgan bo'lib, ular asosan Buxoro, Samarqand, Xorazm va Farg'ona tarixiga bag'ishlangan. Bregel shuningdek, tarixnavislik an'analari Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar davrida turlicha rivojlanganini ko'rsatadi [5: 397-402]. Uning fikricha, XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda haqiqiy mahalliy tarixshunoslik an'anasi shakllangan va ayniqsa Shayboniylar davrida sulolaviy tarixlar yozish keng rivoj topgan. Bregel tarixiy manbalar forsiy va turkiy tillarda yaratilganini, ular orqali mintaqaning siyosiy, etnik va madaniy tarixi o'rganilishini ta'kidlaydi.

N.Abduvaliyev, A.Vahobjonov, K.Rahimberdiyevlarning hammualliflikda chop etgan maqolalarida Markaziy Osiyodagi chegara muammolari 1924-yildagi sovet milliy-hududiy chegaralanishi bilan bog'liq ekanligi, ushbu jarayonda etnik,

xo'jalik va geografik omillar etarli darajada hisobga olinmaganligi sababli murakkab chegara hududlari va anklavlar shakllanganligi, bugungi kunda davlatlararo munosabatlarda uchrab turadigan hududiy va chegara bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganligini ko'rsatib o'tadilar [6: 4-6].

Anklavlar tarixshunosligida ularning kelib chiqishi, hududiy shakllanishi va davlatlararo munosabatlardagi o'rni muhim masala sifatida qaralgan. Tadqiqotlarda anklavlarning paydo bo'lishi ko'pincha chegaralarning sun'iy ravishda belgilanishi, siyosiy bo'linishlar va tarixiy hududiy o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, tarixshunoslikda anklavlar davlatlararo aloqalar, chegara xavfsizligi, etnik munosabatlar va mintaqaviy integratsiyaga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida talqin qilinadi.

M.Rahimov hamda G.Urazayeva 1920–1930-yillardagi sovet milliy-hududiy chegaralanishi sun'iy tarzda amalga oshirilganini va aynan shu jarayon bugungi chegara muammolarining asosiy sababi ekanini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi So'x, Shohimardon va Vorux kabi anklav hududlar murakkab delimitatsiya jarayonlari natijasida shakllanganligi ko'rsatib o'tiladi [7]. Mualliflarning fikricha, o'sha davrda chegaralarni belgilashda etnik tarkib, aholi joylashuvi va xo'jalik aloqalari to'liq hisobga olinmagan. Natijada bir davlat hududi ichida boshqa davlatga tegishli hududlar paydo bo'lib, bu holat keyinchalik transport qatnovi, er va suv taqsimoti hamda chegaralarni nazorat qilish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirgan. Shu sababli anklav hududlar bugungi kunda ham Markaziy Osiyodagi davlatlararo munosabatlarda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

S.Tayshanova Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda xorijiy, xususan fransuz tarixshunosligi muhim o'rin tutishini, tadqiqotlarda mintaqaning siyosiy chegaralari, etnik tarkibi va tarixiy rivojlanish jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgani, Markaziy Osiyoni faqat tarixiy hudud sifatida emas, balki geosiyosiy va madaniy makon sifatida qayd etilgani haqida ma'lumot beradi [8: 1-3].

M.Rahimov va G.Urazayeva Markaziy Osiyodagi zamonaviy chegara muammolarining asosiy sababi sovet milliy-hududiy chegaralanishi jarayoni bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydilar. Mualliflar fikricha, mazkur jarayon natijasida Farg'ona vodiysida murakkab anklav hududlar shakllangan [7: 16-20]. Tadqiqotchilar fikricha, sovet davrida chegaralar asosan ma'muriy tuzilishida farq qilgani bo'lgani sababli ularni qat'iy muhofaza qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Biroq mustaqillikdan keyin mazkur ma'muriy chegaralar xalqaro davlat chegaralariga aylanib, anklav hududlarda transport, xavfsizlik va chegara nazorati bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqargan.

Zamonaviy xorijiy tarixshunoslikda Markaziy Osiyo geosiyosiy va strategik jihatdan muhim mintaqqa sifatida baholanadi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha,

SSSR parchalanganidan keyin mintaqa jahon siyosiy kuchlari diqqat markaziga aylangan. Ayniqsa, G'arb olimlari Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy yo'nalishi, chegara xavfsizligi va mintaqaviy munosabatlarini faol o'rgana boshladilar. Ularning fikricha, mintaqa nafaqat tarixiy-madaniy hudud, balki muhim geosiyosiy makon hisoblanadi [8: 18-19].

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyodagi anklav hududlar murakkab tarixiy va siyosiy jarayonlar natijasida shakllangan. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidagi anklavlar sovet davridagi milliy-hududiy chegaralanish oqibatida paydo bo'lib, bugungi kunda ham mintaqadagi chegara va xavfsizlik masalalarida muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu hududlarning tarixiy-geografik xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu sababli anklavlar masalasini o'rganish nafaqat tarixiy, balki geosiyosiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nick Megoran, "Rethinking the Study of International Boundaries: A Biography of the Kyrgyzstan–Uzbekistan Boundary", *Annals of the Association of American Geographers*, Newcastle University, 2011, 1-2 p.
2. Madeleine Reeves, *Border Work: Spatial Lives of the State in Rural Central Asia*, Ithaca–London: Cornell University Press, 2014. 3-6 p.
3. Farhod Tolipov, "The Sokh Enclave: A Breakthrough in Central Asian Cooperation", *The Central Asia-Caucasus Analyst*, 21 April 2021. 5 p.
4. Gabdulhakov R. Geographical Enclaves of the Fergana Valley: Do Good Fences Make Good Neighbors? // OSCE Academy Policy Brief. – Bishkek, 2012. 2–3 p.
5. Yuri Bregel, "Historiography XII. Central Asia", *Encyclopaedia Iranica*, Vol. XII, Fasc. 4, 2004. 397-402 p.
6. Abduvaliyev H.A., Vahobjonov A.A., Rahimberdiyeva K.D. *Enclave and Exclave Regions of Central Asia* // Fergana State University. – B. 4-6.
8. Mirzohid Rahimov, Galina Urazaeva, *Central Asian Nations & Border Issues*, Conflict Studies Research Centre, March 2005, pp. 16–20.
9. Tayshanova S. *French Historiography of Central Asia* // Utopía y Praxis Latinoamericana. – 2018. Pp. 1-19.

INGLIZZABON TADQIQOTCHILARNING MARKAZIY OSIYONING ILK O'RTA ASRLAR TARIXIGA OID QARASHLARI TAHLILI

Yuldashaliyeva Oyista
Farg'ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inglizzabon olimlarning Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiga qarashlari va ilmiy yondashuvlari tahlil qilinadi. V-VIII asrlarda mintaqada sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik-diniy jarayonlarni o'rgangan etakchi olimlarning asarlariga alohida e'tibor qaratilgan. Unda tadqiqotning metodologik asoslari, manbalar bazasi va ingliz tilidagi mualliflar tomonidan Markaziy Osiyo tarixini qayta tiklashda qo'llanilgan tarixshunoslik tushunchalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyosi, xorijiy tarixshunoslik, inglizzabon tadqiqotchilar, Turk xoqonligi, Eftaliylar, So'g'diyona, Baqtriya, Movarounnahr.

Аннотация: В данной статье проводится анализ взглядов и научных подходов англоязычных исследователей к истории Центральной Азии раннего Средневековья. Особое внимание уделяется трудам ведущих ученых, изучавших политические, социально-экономические, культурные и этнорелигиозные процессы, происходившие в регионе в V–VIII вв. Рассматриваются методологические основы исследований, источниковая база и историографические концепции, используемые англоязычными авторами при реконструкции истории Центральной Азии.

Ключевые слова: Центральная Азия раннего Средневековья, зарубежная историография, англоязычные исследования, Тюркский каганат, эфталиты, Согд, Бактрия, Мавераннахр.

Abstract: This article analyzes the views and scholarly approaches of English-language scholars to the history of Central Asia in the early Middle Ages. Particular attention is given to the works of leading scholars who studied the political, socioeconomic, cultural, and ethnoreligious processes that took place in the region in the 5th–8th centuries. It examines the methodological foundations of research, the source base, and the historiographical concepts used by English-language authors in reconstructing the history of Central Asia.

Keywords: Early Medieval Central Asia, foreign historiography, English-language studies, Turkic Khaganate, Hephthalites, Sogdiana, Bactria, Maverannakhr.

Ingliz tilida yaratilgan tadqiqotlardan foydalangan tarixchilardan biri S.M.Radjabov hisoblanadi. Tadqiqotning birinchi bobida manbalar haqida ma'lumot beriladi. Bu dissertatsiyada ingliz eronshunos olimi Meri Boys asaridan ham foydalanilgan. S.M.Radjabov Meri Boysning tadqiqotida keltirilgan ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi diniy vaziyat haqida ma'lumotga asoslanib xulosa beradi [1]. Dissertatsiyaning 38-sahifasida arablarning Markaziy Osiyoga dastlabki yurishlari haqida Richard Frey asari asosida ma'lumot beradi [2].

Turkiyalik olim Muslume Cheliktashning doktorlik dissertatsiyasida ham Markaziy Osiyo tarixiga doir bir qancha ingliz tilli tadqiqotlardan va ularning xulosalaridan foydalangan [3]. Unda keltirilishicha, Baqtriya zabtidan so'ng eftaliylarning bir qismi Farg'onaga kelishadi. So'ngra ular Sug'diyona va Baqtriya orqali Hindistonga o'tib, yarim orolning shimoli-g'arbiy hududlarini egallab, Kushon saltanati erlarini batamom o'ziga bo'ysundiradi [4]. O.Maenchen-Helfen, M.Alam, J.Harmatta va V.Sundermann va boshqa ingliz tadqiqotchilar asarlaridan foydalangan [5].

A.Kurbanovning Moskvada nashr etilgan “Эфталиты” (“Eftaliylar”) nomli tarixiy ocherkida [6] Eftaliylar davlati tarixiga oid yozma manbalar, arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar hamda mavzuga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar kompleks va tizimli ravishda tahlil qilingan. Muallif tadqiqotida eftaliylarning etnik kelib chiqishi, ularning Markaziy Osiyodagi siyosiy mavqei, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari hamda qo'shni davlatlar bilan munosabatlari masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, eftaliylar tarixining eng murakkab va bahsli jihatlaridan biri bo'lgan ularning etnogenezi masalasi turli ilmiy konsepsiyalar asosida yoritilib, mavjud qarashlar qiyosiy tahlil qilingan nomli tarixiy ocherkida Eftaliylar davlati to'g'risidagi manbalar, arxeologik izlanishlar va ilmiy adabiyotlar tizimli tahlil qilingan [7]. A.Kurbanov o'z tadqiqotlarida mashhur sharqshunos va eronshunos olim Richard Nelson Fryening ilmiy qarashlaridan ham samarali foydalangan. Xususan, R. Freyning eftaliylarning etnik tarkibi va kelib chiqishi masalasiga doir xulosalari tahlil qilinib, ularning Sharqiy Eroniy unsurlar bilan bog'liqligi hamda ko'p etnik tarkibga ega siyosiy uyushma sifatida shakllanganligi haqidagi fikrlari muhokama etilgan. Kurbanov ushbu qarashlarni boshqa olimlarning konsepsiyalari bilan qiyoslab, eftaliylarning tarixiy taraqqiyotiga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishga harakat qilgan.

Z.Shtarkning tadqiqotida Markaziy Osiyodagi “Qadimgi turklar davri” (taxminan VI asr o'rtalaridan VIII asr o'rtalarigacha) arxeologiyasi va tarixining ayrim masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot markazida Turk ko'chmanchilarining siyosiy va madaniy makoniga mansub chorvador ko'chmanchilar bilan Movarounnahr vohalarining o'troq aholisi o'rtasidagi o'zaro

aloqalar turadi. Tahlilning asosini arxeologik, yozma va epigrafik manbalar tashkil etadi. Ushbu manbalar ilk bor teng huquqli ravishda va bevosita qiyosiy tahlil asosida birgalikda o'rganilgan hamda shu jarayonda ingliz tarixchilarining asarlaridan ham foydalangan [8].

Nemis tarixshunosligida xunlar tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar muallifi Frants Althaim hisoblanadi. Olimning tadqiqotlarida Eftaliylar (Oq xunlar) tarixiga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ularni xunlar tarixining muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Xususan, "Xunlar tarixi" turkumining ikkinchi jildi Eftaliylarning Erondagi faoliyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda ularning Sosoniylar davlati bilan siyosiy va harbiy munosabatlari, Markaziy Osiyodagi hukmronlik tizimi hamda etnik masalalari tahlil qilingan. Olimning "Xunlar tarixi" asrida ham G.Glaesserning "G'arb va Sharq" jurnalida nashr etilgan muhim magolasidan foydalangan [9].

Tojikistonlik olim M.M.Isamatov tadqiqotlarida ham Markaziy Osiyoning eftaliylar davri tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Uning nomzodlik ishi "Та'рихи Табари Абу 'Али Бал'ами как источник изучения взаимоотношения эфталитов и сасанидов (IV–VI)" ("Abu 'Ali Bal'amiyning "Ta'rixi Tabariy" asari eftaliylar va sosoniylar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda manba sifatida (IV–VI)") mavzusida bo'libeftaliylar va sosoniylar munosabatlari tadqiq etilgan. Bu masalaga oid xorijda ko'plab tadqiqotlar bo'lsa-da, ammo ulardan faqatgina Ch.A.Story asaridagina foydalangan, xolos [10]. Lekin doktorlik dissertatsiyani tayyorlashda ingliz tilidagi adabiyotlardan keng foydalangan. Masalan, R.Frey, H.Sims-Villiams, A.Stayn, A.Kunninghem, K.Enoke va boshqalarning asarlaridan unumli foydalanadi [11].

Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyosi tarixiy geografiyasi, xususan, toponimlar va ularning lingvistik-hududiy tahliliga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biri P.Lurye tomonidan tayyorlangan dissertatsiya hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyoning turli tarixiy-madaniy mintaqalarida uchraydigan joy nomlari yozma manbalar, epigrafik yodgorliklar, numizmatik materiallar hamda arxeologik ma'lumotlar asosida kompleks ravishda o'rganilgan. Muallif toponimlarning etimologiyasi, tarixiy shakllanish jarayoni, fonetik va semantik o'zgarishlari, shuningdek, ularning muayyan tarixiy-geografik hududlarni lokalizatsiya qilishdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. P.Lurye tadqiqotni tayyorlash jarayonida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va filologiyasi bo'yicha etakchi mutaxassislarning ilmiy merosidan keng foydalangan. Jumladan, Nikolas Sims-Villiamsning sug'diy va baqtriy yozma manbalariga oid tadqiqotlari, Yanos Harmattanining Markaziy Osiyo xalqlari va tillari tarixiga bag'ishlangan ishlari, Valter Bruno Henningning o'rta eroniy tillar hamda sug'diy epigrafika bo'yicha fundamental tadqiqotlari, shuningdek, Aleksandr Naymarkning tarixiy geografiya va numizmatikaga doir

ilmiy xulosalari dissertatsiyaning nazariy-metodologik asosini tashkil etgan. Ushbu olimlarning ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali muallif tarixiy toponimlarni identifikatsiya qilishning yangi usullarini taklif etgan hamda ayrim bahsli geografik obyektlarning joylashuviga aniqlik kiritgan [12].

Xulosa qilib aytganda, xorij tarixshunosligida Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixini o'rganish masalasi, ayniqsa, ingliz tilli tadqiqotchilar asarlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ushbu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlarda mintaqaning siyosiy tarixi bilan bir qatorda uning ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va tarixiy-geografik jihatlarini kompleks o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Ingliz tilli tarixshunoslik vakillari Markaziy Osiyoni Yevroosiyo tarixiy jarayonlarining ajralmas qismi sifatida baholab, mintaqaning Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtasidagi vositachilik rolini ilmiy asosda yoritishga harakat qilganlar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilli olimlar tomonidan Turk xoqonliklari, Eftaliylar davlati, Sug'd, Baqtriya va Movarounnahr tarixiga oid masalalar yozma manbalar, arxeologik topilmalar, numizmatik materiallar hamda epigrafik yodgorliklar asosida qiyosiy va fanlararo yondashuvlar yordamida tadqiq etilgan. Xususan, R. Frey, N. Sims-Villiams, A. Naymark, P. Lurye, Ch. Beskvit, E. de la Vaissiere va boshqa olimlarning ilmiy ishlari Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri tarixini qayta tiklashda muhim metodologik va manbashunoslik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ingliz tilli tarixshunoslikda mintaq tarixini o'rganishda faqat siyosiy voqealar emas, balki savdo yo'llari, etnik jarayonlar, madaniy almashinuvlar, diniy munosabatlar va shaharlar taraqqiyoti masalalariga ham katta e'tibor berilganligi kuzatiladi. Bu esa Markaziy Osiyo tarixini kengroq geosiyosiy va sivilizatsion kontekstda talqin qilish imkonini yaratgan.

Natijada, ingliz tilli tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixining ko'plab bahsli masalalariga aniqlik kiritishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ayrim tarixiy-geografik, etnogenetik va siyosiy muammolar yuzasidan ilmiy munozaralar hanuz davom etmoqda. Shu bois mazkur tadqiqotlar natijalarini yangi arxeologik ma'lumotlar va manbashunoslik yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda o'rganish kelgusidagi ilmiy izlanishlarning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раджабов С.М. Борьба народов Мавераннахра и Хорасана за независимость (VII – первая половина VIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе, 2010. – С. 21.

2. Раджабов С.М. Борьба народов Мавераннахр и Хорасана за независимость (VII – первая половина VIII вв.). Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Душанбе, 2010. – С. 38.
3. Çelıktaş Müslüme Melis. Ak hunlar tarihi üzerine Türkiye ve dünyada yapılan çalışmaların değerlendirilmesi. Ankara, 2011. – 144 s.
4. Çelıktaş Müslüme Melis. Ak hunlar tarihi üzerine Türkiye ve dünyada yapılan çalışmaların değerlendirilmesi. Ankara, 2011. – S. 64.
5. Çelıktaş Müslüme Melis. Ak hunlar tarihi üzerine Türkiye ve dünyada yapılan çalışmaların değerlendirilmesi. Ankara, 2011. – S. 30–44.
6. Курбанов А. Эфталиты (очерки истории). – Санкт-Петербург: Европейский дом, 2006. – 152 с.
7. Курбанов А. Эфталиты (очерки истории). – Санкт-Петербург: Европейский дом, 2006. – С. 32–67.
8. Stark S. Die Alttürken zeit in Mittel-und Zentralsien. Wiesbaden, 2008. – P. 221–222.
9. Althaim F. Geschichte der hunnen. Band 2. – Berlin: Walter de Gruyter, 1969. – P. 274.
10. Исаматов М.М. Таърихи Табарӣ Абу Али Балъами как источник изучения взаимоотношения эфталитов и сасанидов (IV–VI). Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Душанбе. 1994. – С. 16.
11. Исаматов М.М. Эфталитское государство и его роль в истории Центральной Азии. Автореферат диссертации на соискание учёной степени доктора исторических наук. – Душанбе. 2009. – С. 11–25.
12. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: Дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004. – С. 50–154.

JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA SOMONIYLAR SULOLASI TARIXINING O'RGANILISHI

Shamsiddin Kamoliddin
Oriental universiteti
tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqola Somoniylar sulalasi va davri tarixining jahon tarixshunosligida o'rganilishi masalasiga bag'ishlangan. O'rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX–X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Shuning uchun Somoniylar hukmronligi davri har doim jahon tarixshunosligi va sharqshunosligining muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Sho'rolar davrida Somoniylar tarixi masalasiga siyosiy tus berilib, sovet olimlari Somoniylar sulolasi tojik davlatchiligiga asos solgan, ularning hukmronligi davrida

“tojik xalqi” vujudga kelib, shakllangan degan g‘oyani ilgari surdilar. Oxirgi yillarda O‘zbekistonda birlamchi manbalar va ishonchli dalillar asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Somoniylarning asl kelib chiqishi, ularning huquqiy maqomi va O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnini kabi masalalarga aniqliklar kiritishga imkon berdi.

Kalit so‘zlar: Arab xalifaligi, Xuroson va Movarounnahr, Somoniylar sulolasi, jahon tarixshunosligidagi turli yondashuvlar.

Аннотация: Статья посвящена изучению истории династии Саманидов и периода их правления в мировой историографии. Период правления династии Саманидов (IX–X веков) имеет особое значение в истории Центральной Азии. Поэтому период правления Саманидов всегда был одним из важных направлений научных исследований в мировой историографии и востоковедении. В советскую эпоху вопрос истории Саманидов приобрел политический оттенок, и советские ученые выдвинули идею о том, что династия Саманидов заложила основу таджикской государственности, а в период их правления возник и сформировался «таджикский народ». В последние годы научные исследования, проведенные в Узбекистане на основе первоисточников и достоверных данных, позволили прояснить такие вопросы, как истинное происхождение Саманидов, их правовой статус и место в истории Центральной Азии.

Ключевые слова: Арабский халифат, Хорасан и Трансоксиана, династия Саманидов, различные подходы в мировой историографии.

Abstract: This article examines the history of the Samanid dynasty and its period of rule in global historiography. The Samanid period (9th-10th centuries) holds particular significance in the history of Central Asia. Therefore, the Samanid period has always been a key area of research in global historiography and oriental studies. During the Soviet era, the history of the Samanids acquired political overtones, and Soviet scholars proposed that the Samanid dynasty laid the foundations of Tajik statehood, and that the “Tajik people” emerged and developed during their reign. In recent years, scholarly research conducted in Uzbekistan, based on primary sources and reliable data, has clarified issues such as the true origins of the Samanids, their legal status, and their place in the history of Central Asia.

Keywords: Arab Caliphate, Khorasan and Transoxiana, Samanid dynasty, various approaches in global historiography.

O‘rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX – X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar islom dunyosining eng yirik madaniy va ilmiy markazlariga aylandi, mahalliy xalqlarning islom davridagi davlatchiligi asoslari yaratildi. Shuning uchun Somoniylar hukmronligi davri jahon tarixi va sharqshunosligining

ilk bosqichlardan boshlab muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan. Bundan tashqari, IX – X asrlarda, yani Somoniylar davrida butun islom dunyosida madaniy yuksalish jarayoni kechgan edi. Hozirda biz uni “Islom Renessansi” yoki “Islom Uygonish davri” deb ataymiz. Somoniylar hukmronlik qilgan Movarounnahr va Xuroson bu jarayonning asosiy markazlaridan biri edi. Shu sababli Somoniylar tarixi har doim butun jahon olimlarining diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan.

Somoniylar sulolasining tarixi va numizmatikasiga oid ilk asarlar XIX asrda Yevropa va Rossiyada yozilgan. Xususan, Buyuk Britaniyalik sharqshunos olim Ye. Oliver Somoniylar va G‘aznaviylar hukmronligiga bag‘ishlagan maxsus maqola yozgan (Kalkutta, 1887). XIX asr o‘rtalarida Sankt-Peterburgda Chor Rossiyasi arxeologik jamiyatining Sharqiy bo‘limi tashkil etilgan edi. 1895-yilda Turkiston general-gubernatorligida uning qoshida Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi tuzilgan edi. Unda V. V. Bartold, N. P. Ostroumov, N. N. Pantusov, V. A. Kallaur, A. G. Tumanskiy, V. R. Rozen kabi jami 100 ga yaqin sharqshunos olimlar faoliyat olib borgan. Ular olib borgan tadqiqotlar asosan Turkiston o‘lkasidagi tarixiy yodgorliklar, osori-atiqalarni aniqlash va o‘rganish, tarixiy tangalar va boshqa buyumlar, ayniqsa tarixiy hujjattlar va qo‘lyozmalarni yig‘ish kabi ishlardan iborat edi. Somoniylar tarixiga oid ma’lumotlar ham ilk bor o‘sha davrda o‘rganila boshladi.

XX asr boshlarida yashagan rus va sovet sharqshunos olimi A. A. Semenov ilk bor Somoniylarning kelib chiqishi haqida tadqiqotlar olib borgan (Stalinobod, 1955). XX asrda arxeologiya fani va numizmatikaning jadal suratlar bilan rivojlanishi tufayli Somoniylar tarixiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Sovet olimlaridan A. Yu. Yakubovskiy, M. N. Fedorov (1973) va I. G. Dobrovolskiy (1982) Somoniylarning tangalari haqida maqolalar e’lon qildilar (Moskva, 1946). Ye.A. Davidovich ham Somoniylarning tangalariga bag‘ishlangan bir qator maqolalar e’lon qildi (Moskva, 1954, 1956, 1960, 1966, 1969, 1977). Me’morshunos S. Xmelnitskiy Somoniylar davri arxitekturasini haqida maxsus kitob nashr etgan (Berlin – Riga, 1992).

Somoniylar sulolasi va davri tarixi Yevropa va Amerikada ham ko‘p o‘rganilgan. Yevroplik sharqshunos olimlardan Somoniylar tarixi bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borgan eng yirik olimlardan biri Buyuk Britaniyalik sharqshunos K.E. Bosvort (1928 – 2015) edi. U arab tilidagi manbalar bo‘yicha asosan G‘aznaviylar tarixi bilan shug‘ullangan, lekin uning Somoniylar sulolasi va davri tarixiga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlari ham bor. Xususan, u ko‘p jildli xalqaro “Islom Ensiklopediyasi” uchun “Samanids” (“Somoniylar”) nomli maxsus maqolaning muallifidir. 4 sahifadan iborat bu maqola 1995-yilda mazkur ensiklopediyaning 8-jildida nashr etilgan (Leyden, 1995). Bu maqolada Somoniylar sulolasi haqida mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar tahlil qilinib, ular haqida ilmiy

asoslangan umumiy ma'lumot berilgan. K. Bosvortning "Musulmon sulolalari" nomli kitobida (1971) ham Somoniylar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari K. Bosvort Somoniylarning tashqi aloqalari haqida maxsus maqola yozgan (Tehron, 1969).

Somoniylar sulolasi haqida maxsus ilmiy tadqiqot olib borgan olimlardan yana biri amerikalik sharqshunos R. N. Frye (1920 – 2014) edi. U asosan fors tilidagi manbalar bo'yicha qadimgi davr va o'rta asrlardagi Eron va O'rta Osiyo tarixi bilan shug'ullangan. Xususan u 1993-yilda nashr etilgan 7 jildlik "Cambridge History of Iran" ilmiy to'plami uchun "The Samanids" ("Somoniylar") nomli katta maqola yozgan (4-jild, 136 – 161 betlar). Bu maqola C. E. Bosworth maqolasiga nisbatan ancha keng bo'lib, unda bir qator ilgari noma'lum bo'lgan yangi manbalar jalb qilingan va chuqur tahlil etilgan. Bundan tashqari u Somoniylar davridagi fors adabiyoti haqida va shu davr bilan bog'liq yana bir qator maqolalar ham yozgan.

Somoniylar tarixi bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot olib borgan yevropalik sharqshunoslardan yana biri Buyuk Britaniyalik L. Tredvel bo'lib, u asosan tangalar va arab tilidagi manbalar bilan shug'ullangan. 1991-yilda u Oksford universitetida "The Political History of the Samanid State" ("Somoniylar davlatining siyosiy tarixi") nomli PhD dissertasiyasini himoya qilgan (Oksford, 1991). Bundan tashqari u Somoniylar haqida bir qator maqollar ham yozgan. Xususan, uning "The Samanids: The First Islamic Dynasty of Central Asia" ("Somoniylar: O'rta Osiyoning ilk islom sulolasi") nomli maqolasi (2011) shular jumlasidandir.

Bulardan tashqari N. Lovik (1977), Mitchiner (1987), G. Hennekin (1970, 1984) Somoniylarning tangalari haqida maqolalar yozganlar. Ye. Daniel, "Osiyo tarixi ensiklopediyasi" uchun Somoniylar haqida maqola yozgan (London, 1988). P. Kron Somoniylar davrida ismoiliylar haqida maqola yozgan (Leyden, 2003). Nemis olimi Yu. Paul Somonoylarning harbiy tizimi haqida maqola yozdi (Blumington, 1994).

Somoniylar tarixi Osiyo mamlakatlari, jumladan, Turkiya, Eron, Afg'oniston va arab mamlakatlarida, shuningdek Yaponiya, Xitoy va Koreyada ham keng o'rganilgan. Xususan, eronlik olimlardan Inoyatulloh Rizo "Somoniylar davrida Eron va turklar" nomli kitob nashr etgan (Tehron, 1955). Yana bir eronlik olim Sayyid Abu-l-Qosim Faruzaniy Somoniylar haqida "Somoniyon – az og'oz-i to farjom" nomli kitob yozgan (Tehron, 1381). Muhammad Rizo Nojiyning "Farhang va tamaddun-i Islami dar qalamraw-i Samaniyan" (Tehron, 1392/2013) asari ham shular jumlasidandir.

Afg'onistonlik olim Javad Haraviy "Tarix-i Samaniyan: 'asr-i talayi-i Iran ba'd az Islam" (Tehron, 1393/2014) nomli asar yozgan. Tunislik arab olimi Ali as-Sabiy "Somoniylar davrida fors tilli adabiyot" haqida monografiya yozgan (Tunis, 1965). Livanlik arab olimi Ihson Zunun as-Samiri "Somoniylar davrida Xuroson va

Movarounnahr madaniyati” nomli kitob e’lon qilgan (Bayrut, 2001). Turk olimlarodan M. Koprulu-zade “Somon o’g’illari” nomli kitob nashr etgan (Istanbul, 1955). Aydin Usta ismli tarixchi olim esa 2003-yilda Ankara universitetida Somoniylar sulolasi tarixi bo’yicha maxsus PhD dissertasiyasi yoqlagan (Ankara, 2003).

O’zbekistonda ham Somoniylar tarixi bo’yicha ayrim tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, sho’rolar davrida san’atshunos olim G. A. Pugachenkova Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasining me’moriy xususiyatlari haqida maqola e’lon qilgan (Toshkent, 1962). Me’mor va olim M. Bulatov ham shu maqbara haqida maxsus tadqiqot olib borgan va kitob nashr etgan (Toshkent, 1976). Numizmat olimlardan, B. D. Kochnev (Toshkent, 1978, 1984, 1988, 1990, 1999, 2002), T. S. Yernazarova (Toshkent, 1977) va E. V. Rtveladze (Moskva, 1980, Toshkent, 1985) Somoniylarning tangalari bo’yicha maqolalar e’lon qilganlar. Sharqshunos olimlardan M. Usanova Ismoil Somoniy avlodlarining vaqfnomasi haqida tadqiqot olib borgan (Toshkent, 1995). Tarixchi olim G. A. Hidoyatov “Somoniylarning qulashi” nomli kitob yozgan (Moskva – Tashkent, 2004).

Shunday qilib, qariyb 150 yil davomida jahonda Somoniylar hukmronligi tarixnavisligi bo’yicha ko’plab ilmiy asarlar yozilgan. Lekin bu asarlar tarixnavislik nuqtai nazaridan hali o’rganilmagan va umumlashtirilmagan.

Shuni ham aytish lozimki, turli mamlakatlarda Somoniylar hukmronligi davriga oid masalalar bo’yicha turlicha yondashuvlar va xulosalar qayd etilgan. Xususan, Tojikiston olimlari rus olimlari yordamida sho’rolar davridayoq ilm-fanda Somoniylar sulolasi tojik davlatchiligiga asos solgan, ularning hukmronligi davrida tojik xalqi vujudga kelib, shakllangan degan g’oyani ilgari surgan edilar. Xususan, B. Gafurov “Somoniylarlarning yuksalishi va qulashi sabablari” nomli maqola e’lon qilgan (Moskva, 1958). Arxeolog olim N. Negmatov “Somoniylar davlati” nomli monografiya yozgan (Dushanbe, 1977).

Tojikiston mustaqillikka erishganidan so’ng u yerda Somoniylar tarixi va madaniyati yana ham jadal suratlar bilan o’rganila boshladi. Tojik tilida “Somoniyon va exyo-i tamaddun-i forsi-i tojiki” (“Somoniylar va fors-tojik tamaddunining yuksalishi”) nomli to’plam nashr etildi (Dushanbe, 1998). 1999-yilda Dushanbe va Sankt-Peterburg shaharlarida Somoniylar davlati tashkil topishining 1100 yilligiga bag’ishlab xalqaro ilmiy konferensiya o’tkazildi. “Vklad epoxi Samanidov v kul’turnoe nasledie Sentral’noy Azii” (Somoniylar davrining Markaziy Osiyo madaniy merosiga qo’shgan hissasi) nomli ilmiy to’plam nashr etildi (Dushanbe, 1999). Somoniylarning huquqiy tizimi haqida I. Safarov kitob (Dushanbe, 1999), D. M. Zoirov esa maqola (SPb., 1999) yozdilar. A. Muxtorov “Somoniyon: zamon va makon” nomli kitob yozdi (Dushanbe, 1999).

Lekin tojik olimlari Somoniylar masalaga siyosiy tus berib, ba'zilar ochiq va tajovuzli millatchilik yo'liga o'tib oldilar va hatto O'zbekistonga hududiy da'volar qila boshladilar. Holbuki, jahon sharqshunosligida bu masalalar bo'yicha boshqacha tasavvurlar mavjud. Xususan, Somoniylarning davlatchilik tarixi va numizmatikasi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan Buyuk Britaniyalik taniqli sharqshunos olim L. Tredvel 1999-yilda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada: "Somoniylarning kelib chiqishi hali aniqlanmagan. Buning uchun qo'shimcha tadqiqotlar olib borish lozim. Bu masalada ayniqsa Markaziy Osiyolik olimlarining tadqiqot olib borishi maqsadga muvofiq bo'lar edi", deb ta'kidladi. 2005 – 2010-yillarda o'zbek olimi Sh.S. Kamoliddin ana shunday ilmiy tadqiqotni amalga oshirib, birlamchi manbalar va ishonchli dalillar asosida Somoniylarning asl kelib chiqishini aniqladi (Kamoliddin 2011, 2012). 2014-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarix fakultetining "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida t.f.d., professor Sh. S. Kamoliddin ilmiy rahbarligi ostida magistratura talabasi Feruz Yusupov "Markaziy Osiyoda Somoniylar hukmronligi davri tarixnavisligi" mavzusi bo'yicha magistrlik dissertatsiyasi yoqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bosworth C. E. Samanids, in: *Encyclopaedia of Islam*, New Edition, prepared by a number of leading orientalists, vol. 8. Leyden: E. J. Brill, 1995, p. 1025 – 1029.
2. Crone P., Treadwell L. A New Text on Ismailism at the Samanid Court, in: C. F. Robinson, ed. *Texts, Documents and Artefacts: Islamic Studies in Honour of D.S. Richards*, Leiden, 2003.
3. Daniel E. L. Samanid dynasty, in: *Encyclopedia of Asian History*, Prepared under the auspices of the Asia Society, ed. by A. T. Embree, I – IV volumes, New-York – London: Charles Scribner's Sons – Collier Macmillan Publishers, 1988, vol. 4, p. 371 – 372.
4. Faruzani, Sayyid Abu-l-Qasim. Samaniyan – az aghaz-i ta farjam. Tehran, 1381.
5. Frye R. N. The Samanids, in: *Cambridge History of Iran*, in 7 volumes, vol. 4. The period from the Arab invasion to the Saljuqs. Cambridge, 1993, p. 136 – 161.
6. Harawi J. Tarikh-i Samaniyan: 'asr-i talayi-i Iran ba'd az Islam. Tehran: Amir Kabir, 1393/2014.
7. Hennequin G. Grandes Monnaies Samanides et Ghaznavides de l'Hindu Kush (331 – 421 AH), Etude Numismatique et historique, in: *Annales Islamologiques*, tome 9. Le Caire, 1970, p. 127 – 177.
8. Hennequin G. Macrodirhams Samanides inedits (Collection particuliere), in: *Annales Islamologiques*, tome 20. Le Caire, 1984, p. 197 – 221.
9. Kamoliddin, Shamsiddin. The Samanids. The First Islamic Local Dynasty in Central Asia. Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2011.

10. Köprülü-zade M. F. Saman Oğulları (874 – 1005), in: “Türk tarihinin Ana Hatları” eserinin musveddeleri, No. 53, II fasıl. Orta Asiya, 5. Orta ve eni zamanlarda Orta Asiya tarihini hulâsası, İstanbul, 1955, p. 1 – 23.
11. Lowick N. M. An Early Tenth Century Hoard from Isfahan, in: *Numismatic Chronicle*, Seventh series, vol. 15, London: The Royal Numismatic Society, 1975, p. 110 – 154.
12. Lowick N. On the dating of Samanid outside dirhams, in: *Spink's Numismatic Circular*, May, 1977, p. 204 – 207. London, 1977 (reprint: Variorum, UK, 1990, VII, p. 1 – 8).
13. Mitchiner M. Evidence for Viking – Islamic Trade Provided by Samanid Silver Coinage, in: *East and West*, vol. 37, 1 – 4 (December, 1987), p. 139 – 150.
14. Naji, Mohammad Reza. *Farhang va tamaddun-i Islaami dar qalamraw-i Samaniyan*. Tehran : Amir Kabir, 1392 [2013].
15. as-Sabi, ‘Ali. *Al-Adab al-farisi fi-l-‘asr al-G‘aznavi*. Tunis, 1965.
17. Oliver E. E. The Decline of the Samanids and the Rise of the Ghaznavids in Mawara-an-Nahr and part of Khurasan, in: *Journal of the Asiatic Society of Bengal*, vol. LV, part 1, No. 2 (1886), Calcutta, 1887, p. 89 – 135.
18. Paul J. The State and the military: the Samanid case, in: *Bloomington: Indiana University, Research Institute for Inner Asian Studies*, 1994 (Papers on Inner Asia, 26), 40 pp.
19. Reza, Inayarullah. *Iran va Turkan dar ruzgar-i Sasaniyan*. Tehran, 1374/1955.
20. As-Samiri, Ihsan Zunun. *Al-Hayat al-‘ilmiyya zaman as-Samaniyyin. At-Ta’rix al-thaqafi li-Xurasan va Ma wara’ an-nahr fi-l-qarnayn al-thalith va-r-rabi’ al-hijri*. Bayrut: Dar at-tali’a li-t-tiba’a va-nashr, 2001.
21. Treadwell L. *The Political History of the Samanid State* / PhD thesis. Oxford: University of Oxford, 1991.
22. Treadwell L. The Samanids: The First Islamic Dynasty of Central Asia // Edmund Herzig and Sarah Stewart (eds.) *Early Islamic Iran. The Idea of Iran*. London and New York: I. B. Tauris, 2011, p. 3 – 15.
23. Usanova M. *Ismoil Somoniy vaqfnomasi* // *Sharqshunoslik*, № 6. Toshkent, 1995. 24 – 31-betlar.
25. Булатов М. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. Ташкент: Изд-во лит-ры и искусства им. Г. Гуляма, 1976.
26. Вклад эпохи Саманидов в культурное наследие Центральной Азии (Материалы Международного семинара). Душанбе: Адиб, 1999.
27. Гафуров Б. Г. О причинах возвышения и падения Саманидов // *Советское востоковедение*, 1958, № 1. С. 51 – 55.
28. Давидович Е. А. Вторая монета Саманида Нуха ибн Асада // *Эпиграфика Востока*, вып. 9. М.; Л., 1954. С. 38 – 39.
29. Давидович Е. А. Ферганские Саманиды по нумизматическим данным // *Эпиграфика Востока*, вып. 11. М.; Л., 1956. С. 14 – 26.

30. Давидович Е. А. Саманидские монеты Куббы // Советская археология, 1960, № 2. С. 254 – 257.
31. Давидович Е. А. Денежное обращение в Мавераннахре при Саманидах // Нумизматика и эпиграфика, вып. 6. М., 1966. С. 103 – 134.
32. Давидович Е. А. Об институте феодальных пожалований в Средней Азии в IX – X вв. // Проблемы возникновения феодализма у народов СССР. М., 1969.
33. Давидович Е. А. Монеты Ферганы как источник для характеристики института феодальных пожалований за службу в Средней Азии в X в. // ППВ. Историко-филологические исследования. Ежегодник. 1969. М., 1972. С. 110 – 141.
34. Давидович Е. А. Бараб – новый среднеазиатский монетный двор Саманидов и Ануштегинидов // ППВ. Историко-филологические исследования. Ежегодник. 1972. М., 1977. С. 124 – 129.
35. Давидович Е. А. Новые данные по истории Саманидов // Средняя Азия в древности и средневековье (История и культура). М., 1977. С. 112 – 125.
36. Давидович Е. А. Золото в денежном хозяйстве Средней Азии IX – XVIII вв. // БЧ, 1978, год четвертый (ТД). М., 1978. С. 23 – 25.
37. Давидович Е. А. Заметки по нумизматике Средней Азии. Част 2 (Уникальные и редкие монеты Саманидов, Тимуридов и Шейбанидов) // Средневековый Восток. История. Культура. Источниковедение. М., 1980. С. 127 – 138.
38. Давидович Е. А. Наршахи и Кубави о реформе Гитрифа: легенда и действительность // БЧ, 1981, год пятый (ТД). М., 1981. С. 33 – 36.
39. Давидович Е. А., Зеймал Е. В. Денежное хозяйство Средней Азии в переходный период от древности к средневековью // БЧ, 1978 г., год четвертый. М., 1978. С. 25 – 28.
40. Добровольский И. Г., Кочнев Б. Д. Монеты с именем Саманида Йахьи ибн Асада // ИМКУ, вып. 17. Ташкент, 1982. С. 190 – 198.
41. Зоиров Д. М. Особенности становления и источники правовой системы государства Саманидов // 1100-летие образования государства Саманидов. Материалы международной конференции 28 – 29 апреля 1999 г. СПб., 1999. С. 61 – 70.
42. Ерназарова Т. С., Кочнев Б. Д. Материалы к истории торговли и денежного обращения Самарканда в IX – X вв. // ИМКУ, вып. 13. Ташкент, 1977. С. 131 – 154.
43. Камолиддин Ш. С. Саманиды. Из истории государственности Узбекистана в IX – X вв. Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2012.
44. Кочнев Б. Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии. Част 1. (Саманиды, Караханиды, Джаниды) // ИМКУ, вып. 14. Ташкент, 1978. С. 120 – 131.
45. Кочнев Б. Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии. Часть 6 (Раннее средневековье, Саманиды, Караханиды) // ИМКУ, вып. 19. Ташкент, 1984. С. 185 – 205.

46. Кочнев Б. Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии. Часть 9 (Саманиды, Караханиды, Ануштегиниды) // ИМКУ, вып. 22. Ташкент, 1988. С. 191 – 205.
47. Кочнев Б. Д. Смешанные клады саманидских и караханидских фельсов конца X – первой трети XI в. // БЧ, (ТД). М. 1990. С. 84 – 85.
48. Кочнев Б.Д. Монетный чекан Кубы (X – XI вв.) // ИМКУ, № 30. Самарканд, 1999. С. 246 – 255.
49. Кочнев Б. Д. Нумизматическая история саманидского сановника Кут-тегина / Хут-тегина (XI в.) // Нумизматика Центральной Азии, вып. 6, Ташкент, 2002. С. 59 – 66.
50. Мухторов А. Сомониён: замон ва макон. Душанбе: Сурушан, 1999.
51. Негматов Н. Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX – X вв.). Душанбе: Дониш, 1977.
52. Пугаченкова Г. А. Архитектурный генезис мавзолея Саманидов // Общественные науки в Узбекистане, 1962, № 2. С. 47 – 52.
53. Ртвеладзе Э. В. Чаганийские медные фелсы Мухтаджидов X в. // Средневековый Восток. История, культура, источниковедение. М., 1980. С. 231 – 236.
54. Ртвеладзе Э. В. К истории денежного обращения в Чаганийане в VIII – начале XIII вв. // Эпиграфика Востока, вып. 23. Л., 1985. С. 38 – 43.
55. Сафаров И. Правовая система государства Саманидов (IX – X вв.). Душанбе: Ирфон, 1999.
56. Семенов А.А. К вопросу о происхождении Саманидов // Труды ИИАЭ АН ТаджССР. Т. 27. Сборник статей, посвященных истории и культуре периода формирования таджикского народа и его государственности (IX – X вв. н.э.). Сталинабад, 1955. С. 3 – 11.
57. Сомониён ва эҳёи тамаддуни форси ва тожики. Душанбе, 1998.
58. Туманский А. Г. Протоколы заседаний Восточного отделения императорского Русского археологического общества // ЗВОРАО. Т. 9. 1895. Под ред. В. Р. Розена. СПб., 1896. С. XIV.
59. Федоров М. Н. Из истории денежного обращения в Средней Азии конца VIII – первой половины XII в. (К проблеме «черных дирхемов») // Советская археология, 1973, № 2. С. 75 – 82.
60. Хидоятов Г. А. Крушение Саманидов. Москва – Ташкент, 2004.
61. Хмелницкий С. Между Саманидами и монголами (Архитектура Средней Азии XI – начала XIII вв.). Част 1. Берлин – Рига. 1996.
62. Якубовский А. Ю. Об одном раннесаманидском фельсе (Из ранней истории Саманидского дома) // КС ИИМК АН СССР. Т. 12. М.; Л., 1946. С. 103 – 112.

“ZAYN UL-AXBOR” ASARINING SHARQSHUNOS OLIMLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI

*Karimjonov Asadbek Gulshanzoda
Farg‘ona davlat universiteti
Tarixshunoslik, manbashunoslik va
tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XI asr fors tarixnavisligining noyob namunasi bo‘lgan Abu Said Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asarining jahon sharqshunosligida o‘rganilish tarixi tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘zbek, rus, eron va g‘arb olimlarining asarga nisbatan turlicha metodologik yondashuvlari qiyosiy o‘rganilgan. Xususan, asarning Markaziy Osiyo xalqlari etnik tarixi, geografiyasi, davlatchilik an‘analari hamda Somoniylar davri ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishdagi fundamental ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Gardizi, Zayn ul-axbor, Somoniylar, fors tarixnavisligi, manbashunoslik, Markaziy Osiyo etnografiyasi, sharqshunoslik.

Аннотация: В данной статье анализируется история изучения произведения Абу Саида Гардизи «Зайн ул-ахбор» – уникального памятника персидской историографии XI века. В исследовании сравниваются методологические подходы узбекских, русских, иранских и западных востоковедов. В частности, раскрывается фундаментальное значение труда в освещении этнической истории, географии, традиций государственности народов Центральной Азии и социально-политической жизни эпохи Саманидов.

Ключевые слова: Гардизи, Зайн ул-ахбор, Саманиды, персидская историография, источниковедение, этнография Центральной Азии, востоковедение.

Abstract: This article analyzes the history of studying Abu Said Gardizi’s “Zayn al-Akhbar”, a unique monument of 11th-century Persian historiography in world Oriental studies. The research provides a comparative study of the methodological approaches of Uzbek, Russian, Iranian, and Western scholars toward the work. Specifically, the fundamental significance of the source in illuminating the ethnic history, geography, statehood traditions of Central Asian peoples, and the socio-political life of the Samanid era is revealed.

Keywords: Gardizi, Zayn al-Akhbar, Samanids, Persian historiography, source studies, ethnography of Central Asia, Oriental studies.

Abu Said Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asari o‘rta asrlar tarixshunosligida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u turli davrlarda g‘arb va sharq sharqshunoslari

tomonidan turlicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiqot ishlari olib borilgan. Ta'kidlash joyizki, Said Nafisiy va Muhammad Qazvinij tadqiqotlari asarning manbashunoslik qimmatini ochib berishda fundamental vazifa ijrosini ta'minlaydi. Muhammad Qazvinij birinchilardan bo'lib, "Zayn ul-axbor"ning Londondagi Kembrij va Oksford qo'lyozmalarini ilmiy tahlilga olib kirdi. Uning asosiy xizmati asarning asl muallifini aniqlash va matndagi chalkashliklarni boshqa arab tilidagi manbalar bilan solishtirish orqali bartaraf etish bo'ldi. Qazvinij Gardizini "Fors tilidagi tarixnavislikning tamal toshini qo'ygan olim" deb ta'riflaydi [16]. Said Nafisiy esa 1954-yilda asarni nashrga tayyorlash jarayonida Qazvinij boshlab bergan mantiqiy tanqidning yangi bosqichga ko'tardi. Nafisiyning tadqiqotlarida Gardiziy asari nafaqat tarixiy faktlar to'plami, balki XI asr fors tilining leksik boyligini aks ettiruvchi lisoniy yodgorlik sifatida baholaydi. Qazvinij ko'proq nusxalar o'rtasidagi xronologik aniqlikka e'tibor qaratgan bo'lsa, Nafisiy asarning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini, xususan, Xuroson va Mavorounnahrning yaxlit bir hudud sifatida tasvirlanishini birinchi pog'onaga chiqardi [18:20-22]. Markaziy Osiyo tarixshunosligida o'z o'rniga ega akademik Bobojon G'ofurovning "Tojikon" asarida Gardiziy ma'lumotlariga Somoniylar davrini yoritishda eng ishonchli birlamchi manba sifatida tayanadi.

B. G'ofurov Gardiziyning Ismoil Somoniy shaxsiyati va u barpo etgan markazlashgan davlat tizimi haqidagi ma'lumotlar tahlilda "Zayn ul-axbor" dagi devonlar tizimi haqidagi ma'lumotlar orqali Somoniylar davlati murakkab byurokratik apparatga ega bo'lganini ko'rsatib beradi [4: 412]. Shuningdek, asardan foydalangan holda, Somoniylar davrida dehqonlar (yer egalari) va markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni sinfiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. U Gardiziyning "adolatli shoh" haqidagi tasvirlarini Somoniylarning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosatidir deb talqin etadi [4: 415-418]. Akademik B.G'ofurov yondashuvining boshqa sharqshunoslardan farqi shundaki, u Gardiziy ma'lumotlarini shunchaki bayon etibgina qolmay, balki ularni moddiy madaniyat yodgorliklari va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lagan holda, Somoniylar davrini Markaziy Osiyo "Renessansi"ning asosi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi olimlarning o'rganish yondashuvida o'zaro tafovutlar mavjuddir. "Zayn ul-axbor" asarini o'rganishda g'arb olimlari (masalan, V.V. Bartold) ko'proq asarning geografik va etnik ma'lumotlariga (turkiy qabilalar tavsifiga) urg'u bergan bo'lsalar, B. G'ofurov va S. Nafisiy kabi mintaqa olimlari asarning milliy davlatchilik, madaniyat va siyosiy etika masalalariga e'tibor qaratganlar. Bu o'z navbatida asarning ko'p qirrali manba ekanligini isbotlab beradi. O'zbekiston tarixshunoslik maktabi vakillari Gardiziy asarini o'rganishda asosan uning mintaqa xalqlari etnik tarixi, geografik joylashuvi va Somoniylar davri ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ma'lumotlariga katta e'tibor qaratishgan. O'zbekistonlik manbashunos

olimlar manbani o'rganishda uning fors tilidagi ilk tarixiy manbalardan biri ekanligini alohida ta'kidlashgan. Xususan, A. O'rinboyev Gardiziy ma'lumotlarini Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari bilan qiyoslagan holda, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy taqvimlari va bayramlari (masalan, Navro'z, Mehrjon) haqidagi qismlarini yuqori baholagan [12: 67-70]. Tarix fanlari doktori, professor Sh. Kamoliddinov "Zayn ul-axbor" ning turkiy qabilalar haqidagi ma'lumotlarini tahlil qilib, Gardiziyning Markaziy Osiyo etnografiyasini yoritishdagi o'rni beqiyos ekanligini isbotlagan. Uning fikricha, Gardiziy turli turkiy urug'larning (xususan, kimeklar va qirg'izlar) joylashish o'rinlari haqida o'zidan oldingi mualliflarda uchramaydigan noyob faktlarni keltirgan [7: 12-18]. Olim S. Hasanov o'rta asrlar tarixshunosligiga oid tadqiqotlarida Gardiziyni "xolis va mantiqiy fikrlovchi muallif" sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, Gardiziy asarining Somoniylar davriga oid qismi O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asrlar shaharlari (Buxoro, Samarqand, Termiz) tarixini o'rganishda eng ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi [7: 145]. O'zbek olimlarining asar haqida quyidagi fikrlarni ilgari surishgan: Somoniylar davlati o'zbek davlatchiligi tarixida markazlashgan boshqaruv tizimining shakllanishidagi ahamiyatli o'rnini ko'rsatib beradi. Asardagi turli qabilalar tavsifi mintaqada yashovchi xalqlarning o'zaro etnik va madaniy aloqalarini isbotlaydi. Bizning olimlar Gardiziy ma'lumotlarini Narshaxiyning "Buxoro tarixi" va Beruniy asarlari bilan qiyosiy o'rganishni taklif etadilar, bu esa manbaning ob'ektivligini ta'minlaydi. Akademik Asomiddin O'rinboyev va Abdulla Rasulov o'zlarining o'rta asrlar qo'lyozmalariga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlarida Gardiziyni fors tilidagi tarixnavislikning eng ishonchli vakillaridan biri sifatida ko'rsatib, Gardiziyning boshqa mualliflardan (masalan, Tabariy yoki Bal'amiy) farqli o'laroq, Islomgacha bo'lgan bayramlar (Navro'z, Mehrjon, Sada) va urf-odatlarini bayon etishda Beruniy metodologiyasiga yaqin turishini ta'kidlashgan. Ular "Zayn ul-axbor"ni Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyatini o'rganishda "Osor ul-boqiya" dan keyingi eng muhim manba deb hisoblashgan [12: 68]. Tarix fanlari doktori Shamsiddin Kamoliddinov Gardiziy asarining turkiy qabilalar haqidagi 17-bobini maxsus tahlil qilib, turkiy qabilalar (xususan, kimeklar, qirg'izlar va o'g'uzlar) joylashuvi haqidagi ma'lumotlarini arxeologik ma'lumotlar bilan qiyoslagan. Olimning fikricha, Gardiziy turkiy qabilalarning ko'chish yo'nalishlari va ularning Markaziy Osiyo daryolari (Sirdaryo, Amudaryo, Irtish) bo'yida joylashish tartibini o'ta aniqlik bilan bergan. U Gardiziyni "Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiy geografiyasini chizib bergan muallif" sifatida ta'riflaydi [7: 13]. Professor Sirojiddin Hasanov o'zining manbashunoslik darsliklarida Gardiziyni Somoniylar davri tarixini yoritishda "saroy tarixchilari"ga xos bo'lmagan xolislikda ayblaydi. Hasanovning ta'kidlashicha, Gardiziy G'aznaviylar sultoniga bag'ishlab asar yozsa-da,

Somoniylar davlat boshqaruv tizimini ideal model sifatida tasvirlagan. Olim Gardiziy asaridagi “Devonlar tizimi” (vazir devoni, mustavfiy devoni) haqidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston davlatchilik tarixi o‘quv kurslari uchun asosiy manba sifatida tavsiya etadi [6: 146]. Manbashunos olim Qomush Munirov Gardiziy asarining O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondidagi mavjud nusxalari (parchalari) va jahon kutubxonalaridagi nusxalari o‘rtasidagi matniiy o‘xshashliklarni o‘rgangan. U Gardiziyning o‘rta asrlar forsiy prozasining (nasrining) eng yaxshi namunalaridan biri deb biladi va asarning tili soddaligi bilan XI asrdagi boshqa asarlardan (masalan, Utbiyning arabcha asaridan) ustun turishini ta’kidlaydi [11: 52]. Olimlarning asar haqida berilgan fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki Markaziy Osiyoning XI asar tarixini yoritishda ushbu manbani o‘zbek tiliga to‘liq tarjima qilish va tadqiqotlar olib borish zaruratini to‘g‘diradi. Rus sharqshunosi, akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold “Zayn ul-axbor” asarini ilmiy iste’molga kiritgan va uning eng muhim qismlarini rus tiliga tarjima qilgan birinchi olimdir. Bartold asarning Markaziy Osiyodagi turkiy qabilalar (o‘g‘uzlar, qirg‘izlar, kimeklar) va hindular haqidagi ma’lumotlarini o‘zining “Hisobot” (Отчет) nomli asarida nashr etdi. U Gardiziyning “asl manbalardan foydalangan, voqelikni bezamasdan, boricha tasvirleydigan xolis muallif” sifatida yuqori baholagan [2: 47-52]. Bartold asarning turkiy qabilalar tarixi va geografiyasiga oid 17-bobini hamda Somoniylar tarixining ayrim parchalarini rus tiliga tarjima qilib, izohlar bilan nashr etgan.

Taniqli rus olimi Vladimir Fedorovich Minorskiy Gardiziy asarini tarixiy-geografik nuqtai nazardan chuqur tadqiq etgan. Minorskiy Gardiziyning Markaziy Osiyo shaharlari, savdo yo‘llari va masofalar haqidagi ma’lumotlarini “Hudud al-Olam” asari bilan qiyoslagan. U Gardiziyning Markaziy Osiyo shimolidagi xalqlar haqidagi ma’lumotlari “noyob va takrorlanmas” ekanligini ta’kidlagan [10: 154]. Olimning fikricha, Gardiziy o‘zidan oldin o‘tgan Jayhoniylar kabi mualliflarning asarlarini saqlab qolgan yagona manba hisoblanadi. Yana bir rus sharqshunosi Alfred Karlovich Arends o‘zining Somoniylar va G‘aznaviylar davri tarixiga oid ishlarida Gardiziy ma’lumotlariga tayangan. Arends Gardiziyning Somoniylar amirlari xronologiyasini boshqa arab tilidagi manbalar bilan solishtirib, uning yozish uslubidagi soddalik va faktologik aniqlikni e’tirof etgan. U asarning aynan Somoniylar davri qismini rus tilidagi ilmiy asarlarida keng qo‘llagan [1: 112]. Rossiyalik tadqiqotchilar asarning Islomgacha bo‘lgan Eron shohlari va ularning an‘analari haqidagi qismlarini ham o‘rganganlar. Olimlar Gardiziyning “Zayn ul-axbor” asari o‘sha davr fors nasrining (prozasining) eng yaxshi namunasi bo‘lishi bilan birga, islomiy va islomgacha bo‘lgan an‘analarni birlashtirgan noyob sintez ekanligini ta’kidlashadi [8: 89].

Rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar ro‘yxati:

V.V. Bartold: 1894-yilda “Zayn ul-axbor” ning turkiy qabilalar haqidagi bobi rus tiliga tarjima qilingan.

R.P. Yushkevich: Turkiy xalqlar va ularning joylashuvi haqidagi parchalarni ilmiy izohlar bilan rus tiliga o‘g‘irgan.

V.V. Trepavlov: Asarning etnografik ma’lumotlarini zamonaviy rus tarixshunosligida tahlil qilib, ayrim parchalarni qayta tarjima qilgan.

G‘arb sharqshunoslik maktablarida, ayniqsa Buyuk Britaniya va AQSH ilmiy doiralarida “Zayn ul-axbor” asari o‘rta asrlar islom olami sharqiy o‘lkalarining ijtimoiy-siyosiy manzarasini chizib beruvchi muhim hujjat sifatida o‘rganiladi. Ingliz sharqshunosi, professor K.E. Bosvort Gardiziy asarini eng ko‘p tadqiq etgan va uning ahamiyatini ingliz tilli o‘quvchilarga tanishtirgan olimdir. Bosvort o‘zining “G‘aznaviylar: ularning imperiyasi Afg‘oniston va Sharqiy Eron (994–1040)” nomli asarida Gardiziy G‘aznaviylar davlat boshqaruvi va harbiy tizimi haqida eng aniq ma’lumot beruvchi muallif sifatida ko‘rsatadi. U Gardiziyning G‘aznaviylar saroyida xizmat qilgani, biroq Somoniylar an‘analarini saqlab qolganini alohida qayd etadi [3: 12-15]. Bosvort Gardiziy “quruq, ammo o‘ta ishonchli xronist” deb ataydi. Uning fikricha, Gardiziy voqealarni bo‘rttirmasdan, boricha yozishi bilan zamondoshi Utbiydan (“Tarixi Yaminiy” muallifi) ustun turadi. Ingliz tilida asarning to‘liq tarjimasi mavjud bo‘lmasa-da, uning eng muhim qismlari turli olimlar tomonidan mahorat bilan o‘g‘irilgan. K.E. Bosvort “Encyclopedia of Islam” (Islom Ensiklopediyasi) uchun yozgan “Gardizi” maqolasi g‘arb ilm-fanida yangi manbaning rasmiy qabul qilinishi hisoblanadi.

V.Minorskiy va keyinchalik A.P. Martinez Gardiziyning turkiy qabilalar va Hindiston haqidagi boblarini ingliz tiliga tarjima qilib, ularga chuqur ilmiy izohlar yozganlar [9: 109-217]. 2011-yilda ingliz sharqshunosi Endryu Pikok (A.C.S. Peacock) Gardiziy asarining ilk islomiy davr va xalifalik tarixiga oid qismlarini o‘rganib, uning manba sifatidagi o‘ziga xosligini ingliz tilida nashr ettirdi [13: 85]. G‘arb olimlari Gardiziyning asosan “Turklar haqida kitob” (Kitob al-Turk) deb ataluvchi qismiga katta qiziqish bildirishgan. Ahamiyati jihatidan shundan iboratki, Ingliz tarixchisi Piter Golden (Peter B. Golden) Gardiziyning o‘g‘uzlar va xazarlar haqidagi ma’lumotlarini ko‘chmanchi xalqlar tarixini o‘rganishda birlamchi manba sifatida ko‘radi. U Gardiziy ma’lumotlari yordamida o‘rta asrlar Yevrosiyo dashtlarining etnik xaritasini tiklashga harakat qilgan [5: 184-187]. Minorskiy geografik joylashuvga, Martinez esa ko‘proq ijtimoiy terminologiyaga urg‘u berganligini guvohi bo‘lamiz. Fors sharqshunosligi va tarixshunosligi uchun “Zayn ul-axbor” asari o‘z ona tilida (forsi-yi dariy) yozilgan ilk fundamental manbalardan biri sifatida o‘ta qadrli hisoblanadi. Eronlik olimlar bu asarni nafaqat tarixiy manba, balki XI asr fors nasriy tilining mukammal namunasi sifatida ham tadqiq etishgan. Eronlik tadqiqotchilar Gardiziy ilmiy merosini o‘rganishda asarning lingvistik

xususiyatlari bilan bir qatorda Eron va Turonning qadimiy mifologiyasi hamda Somoniylar davri davlatchilik an'analariga alohida urg'u berishgan. Lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda Said Nafisiyning 1954-yildagi nashrida Gardiziyni fors tili rivojiga ulkan hissa qo'shgan adib sifatida ko'rsatadi. Nafisiyning ta'kidlashicha, Gardiziy tili "Tarixi Bal'amiy"dan keyingi eng sodda va ravon forsiy uslubdir. U Gardiziyning G'aznaviylar saroyida yozganiga qaramay, asarda arabcha so'zlarni kam ishlatib, qadimiy forsiy va so'g'diy atamalarni saqlab qolganini yuqori baholagan [18: 15-20]. Nafisiy asarni "Milliy tarix" (tarixi milliy) sifatida talqin qilib, uning Markaziy Osiyo va Eron xalqlarini birlashtirib turuvchi madaniy ko'prik ekanligini isbotlagan. Muhammad Qazviniiy (Alloma Qazviniiy) asarning qo'lyozma nusxalarini Londonda o'rganib, uning tarkibiy tuzilishini tahlil qilgan. O'rganish jarayonida Qazviniiy Gardiziyni "xolislikda tengsiz tarixchi" deb ataydi. Uning fikricha, Gardiziy o'zi yashagan davr voqealarini (masalan, G'aznaviylar o'rtasidagi taxt kurashlarini) bayon etishda saroy manfaati uchun haqiqatni yashirmagan yagona muallifdir [17: 45]. Tarixshunos olimlar Abdulhay Habibiy tomonidan tayyorlangan 1968-yildagi Tehron nashri asarning eng mukammal variantlaridan biri deb hisoblanadi. Habibiy asarni nafaqat matn sifatida, balki geografik xarita sifatida tahlil qilgan. U Gardiziy keltirgan joy nomlarini (toponimlarni) zamonaviy Afg'oniston va Markaziy Osiyo xaritalari bilan solishtirib, ularning 90% aniq ekanligini isbotlagan [15: 31-35]. Mashhur fors adabiyotshunosi Zabihullo Safo o'zining "Eron adabiyoti tarixi" asarida Gardiziyni "Somoniylar madaniy merosini G'aznaviylar davriga etkazib bergan xazinabon" deb ta'rif beradi. Safo Gardiziyning asari o'rta asrlar forsiy tarixnavisligida "Xudoynoma"lardan (qadimgi shohnomalar) keyingi eng muhim bosqich ekanligini ta'kidlagan [14: 912].

Xulosa qilib, aytganda "Zayn ul-axbor" asari o'zbek, rus, ingliz va fors sharqshunosligida o'ziga xos tarzda tadqiq etilgan. Agar rus va g'arb olimlari ko'proq etnografiya va geografiyaga urg'u bergan bo'lsa, fors va o'zbek olimlari asarni milliy davlatchilik tarixi va til taraqqiyotining noyob namunasi sifatida tahlil qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арендс А.К. Краткий обзор источников по истории государства Саманидов. – М.: ИВ АН СССР, 1950.
2. Бартольд В.В. Отчет о поездке в Среднюю Азию с научной целью. 1893-1894 гг. // Сочинения. Т. IV. – М.: Наука, 1966.
3. Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran 994-1040. – Edinburgh: University Press, 1963.
4. G'ofurov B. Tojikon. Olamning paydo bo'lishidan to bugungi kungacha bo'lgan tarix. – Dushanbe: Muosir, 2020.

5. Golden P.B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wiesbaden: Harrassowitz, 1992.
6. Hasanov S. O'rta Osiyo tarixiy manbashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
7. Камолиддинов Ш.С. «Зайн ал-ахбор» Гардизи как источник по истории и этнографии тюркских народов Средней Азии // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2002. – №3.
8. Луконин В.Г. Культура Сасанидского Ирана. – М.: Наука, 1969.
9. Martinez A.P. Gardizi's two chapters on the Turks // Archivum Eurasiae Medii Aevi. – 1982. – Vol. 2.
10. Минорский В.Ф. Худуд аль-Алам: Регионы мира. – М.: Наука, 1937.
11. Munirov Q. Markaziy Osiyo tarixiga oid asarlar tavsifi. – Toshkent: Fan, 1990.
12. O'rinboyev A., Rasulov A. O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid qadimiy qo'lyozmalar. – Toshkent: Fan, 1994.
13. Peacock A.C.S. Mediaeval Islamic Historiography and Statutory Identity. – London: Routledge, 2011.

MARKAZIY OSIYO TARIXSHUNOSLIGIDA CHIG'ATOY ULUSI DAVRI MADANIY HAYOTINING O'RGANILISHI (XXI yuz yillik chog'ida)

*Samandarov Qalandar Daniyor o'g'li
Toshkent amaliy fanlar
universiteti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Chig'atoy ulusi davri Movarounnahrda madaniy hayot tarixining tadqiqotlarda yoritilishi tadqiq qilingan. XIII-XIV asrlar Movarounnahrda chingiziylar sulolasi vakillari hukmronligi davrida madaniy sohada yuz bergan o'zgarishlarning jamiyat hayoti, davlat boshqaruviga ta'siri o'rganilishi tahlil qilingan. Davr jihatidan ushbu maqolada aynan XXI asrda mavzuning tarixshunosligi masalasi asosiy o'rinni egallagan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, madaniy hayot, tarixshunoslik, Frederik Starr, so'fiylik, islom, Markaziy Osiyo, mo'g'ullar, tadqiqot.

Аннотация. В данной статье исследуется освещение истории культурной жизни Мавераннахра в период Чагатайского улуса в научных исследованиях. Проанализировано изучение влияния изменений в культурной сфере на общественную жизнь и государственное управление в период правления представителей династии Чингизидов в Мавераннахре в XIII–XIV

веках. С хронологической точки зрения основной акцент в статье сделан на историографии данной темы именно в XXI веке.

Ключевые слова: Чагатайский улус, культурная жизнь, историография, Фредерик Старр, суфизм, ислам, Центральная Азия, монголы, исследование.

Abstract. This article examines the coverage of the history of cultural life in Mawarannahr during the Chaghatai Khanate in research studies. It analyzes the study of how cultural changes influenced social life and state administration during the reign of the Chinggisid dynasty in Mawarannahr in the 13th–14th centuries. From a chronological perspective, the primary focus of the article is on the historiography of the subject specifically in the 21st century.

Keywords: Chaghatai Khanate, cultural life, historiography, Frederick Starr, Sufism, Islam, Central Asia, Mongols, research.

XIII-XIV asrlardagi Chigʻatoy ulusi tarixiga doir ilmiy tadqiqotlar asosan xorij olimlari tomonidan umumiy va koʻproq yoritilganligini guvohi boʻlishimiz mumkin. Markaziy Osiyo, xususan, Oʻzbekistonda mavzuga aloqador ayrim tadqiqotlar soʻnggi oʻn yillikda amalga oshirish jadallashgan.

Bu davr madaniy hayotidagi oʻzgarishlar, tarixiy jarayonlarning Movarounnahrda qanday kechganligi tadqiqotchilar tomonidan maxsus tarzda kompleks oʻrganilgan emas. Shu nuqtayi nazardan, madaniy hayotning ayrim sohaları toʻgʻrisida qisman amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilindi.

Qozogʻistondagi tadqiqotchilar tomonidan Joʻji ulusi (Oltin Oʻrda) davlati tarixiga oid salmoqli ilmiy izlanishlarni olib borilmoqda. Qozogʻistonlik tarixshunos tadqiqotchi N.D. Nurtazina [7: 85-102] ning tadqiqotida oʻrta asr yozma manbalari va tadqiqotchilarning ilmiy asarlarini qiyosiy tahlil qilish asosida koʻchmanchi qabilalarning islomlashuvi masalalari, dinning davlat tarixidagi rolini tadqiq etiladi. Shuningdek, ushbu ilmiy ishda Markaziy Osiyoda tarixida chuqur ildiz otgan islom dini eʼtiqodining nafaqat Chigʻatoy ulusida, balki qoʻshni Moʻgʻuliston hududiga oʻtishi, yoyilishi, tarqalishiga (Moʻulistondagi islomlashuv jarayonlariga) taʼsir qilgan omillarni oʻrganadi. Tadqiqotchi xonlarning hayotiy tarjimai holi va soʻfiy ulamolari biografiyalari kontekstida islomlashuvning shart-sharoitlari va jarayonini ochib beradi. Tashqi aloqalarda dinning rolini koʻrsatib berishga urinadi. Shu asosda Moʻgʻuliston hududida islom dinining yoyilishi boʻyicha tarixiy tasvirni qayta tiklashga harakat qiladi. “Moʻgʻuliston hududida islomning tarqalishi Markaziy Osiyoning maʼnaviy va sivilizatsion tarixi, anʼanaviy islom eʼtiqodi hamda koʻchmanchilarning diniy oʻtmishini keng, panoramik nuqtai nazardan oʻrganish, bu hodisalar va jarayonlarda tasavvufning rolini chuqurroq tushunishimizni taqozo etadi” [7: 87]. Nurtazina bu oʻrinda koʻchmanchi xalqlarni mahalliy oʻtroq aholi

bilan integratsiyalashuvida islomni vosita deb biladi va bu jarayonga tasavvuf ta'limotining ta'siri katta bo'lganligini takidlaydi.

Tojikistonlik tarixchi L. Boymatov [3] shu yo'nalishda ilmiy asarlarni yozgan. Ularda mo'g'ullar xususan, chig'atoy ulusining Markaziy Osiyodagi boshqaruv masalasining ayrim jihatlari yoritib berilgan.

O'zbekiston tarixining XIII-XIV asrlardagi madaniy hayot tarixi, ilm-fan sohasi haqida alohida tadqiq etilgan yaxlit ilmiy ishlar qilingan emas. Ayrim tadqiqot ishlarida esa mavzu bo'yicha qisman o'rganilgan. O'zbekistonlik milliy tadqiqotchilardan N. Toshevning "Alouddin Juvayniyning "Tarixi jahongo'sho" asari Markaziy Osiyoning XII-XIII asrlar tarixiga oid muhim manba" [8] nomli nomzodlik dissertatsiyasida Chig'atoy ulusi davriga oid ma'lumotlar qisman aks ettirilgan. Shuningdek, G. Achilova [1] ning ilmiy ishida Chig'atoy ulusidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarixi tadqiq etilgan. Lekin bu imliy ishda birlamchi manbalardagi ma'lumotlar keyingi davrdagi tadqiqot ishlarining natijalari bilan qiyosiy taqqoslanmaganligi ayrim mavhumliklarni keltirib chiqargan. G.Achilovanning ishida Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy hayot mavzusi o'rganilgan bo'lib unda madaniy hayot tarixi yoritilmagan. Lekin bu ilmiy tadqiqot Chig'atoy ulusi mavzu obyekti qilib olingan dastlabki ilmiy izlanish bo'lganligini e'tirof etish kerak.

S.U. Ulashova [9] ning ilmiy ishida Chig'atoy ulusida etnik munosabatlarning aholi ijtimoiy-madaniy hayotidagi ayrim o'zgarishlarga olib kelganligi tahlil qilinadi. S.T. Bekmuradovning "O'zbek davlatchiligi tarixida Chig'atoy ulusining boshqaruv tizimi (XIII–XV asrlar arab va fors manbalari asosida)" [2] nomli tadqiqotining bir mavzusi diniy munosabatlarning davlat boshqaruvidagi roliga bag'ishlangan. Unda diniy hayot huquqiy sohaning konteksti sifatida aks ettirilganligi uchun diniy tizimning madaniy hayotdagi o'rnini to'laqonli anglashga xizmat qilmaydi. Dissertatsiya ishi davlat boshqaruvi mavzusida bo'lganligi uchun unda boshqaruv tizimi va legitimatsiya masalasiga urg'u beriladi: "Ko'chmanchi iqtisodiyotni qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan to'ldirish kerak bo'lganidek, ko'chmanchi madaniyati ayniqsa siyosiy mafkuralar, shu jumladan diniy mafkuralar bilan bog'liq bo'lgan davrlarda, taqqoslash, taqlid qilish yoki rad etish uchun ko'chmanchi madaniyatlar manba, tarkibiy qism va modelga muhtoj bo'lishgan. Bu siyosat Chig'atoy ulusining keyingi rivojlanishi kerak bo'lsa, boshqaruvni qo'lda saqlab qolishi, mahalliy xalqning simpatiyasiga erishish va eng muhimi legitimlikni saqlab qolish bilan uzviy bog'liq bo'lgan" [2: 25]. Yuqoridagi tadqiqotlardan boshqa Chig'atoy ulusi davri tarixiy holatni maxsus tadqiq etgan ilmiy izlanishlarni uchratmaymiz.

XIII-XIV asr Movarounnahrda madaniy hayot tarixiga doir ayrim sohalar bo'yicha, xususan, ilmiy faoliyat olib borgan ayrim allomalar, fiqhshunos olimlar,

adabiyot, yozuv (til) masalalari bir nechta tadqiqot ishlarida yoritib o'tilgan. Jumladan, A.K. Mo'minov, N.H. Nasrullayev, Sh.A. Umaraliyevlarning tadqiqotlarida islom fiqhi olimlari, hanafiy mazhabidagi ulamolarning faoliyati tarixi o'rganilgan. Bu tadqiqotlarning ahamiyatli tomoni mo'g'ullarning istilosidan keyingi bosqichda aynan Chig'atoy ulusi davri Movarounnahrda fiqh yo'nalishida yuz bergan o'zgarishlar davr sharoiti bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. N. Muhammad, N. Muhamedovlarning ishlarida allomalarning hayoti, ilmiy merosi, tarjimayi hollari hududiy jihatdan yoritilgan. "O'zbekiston buyuk allomalar yurti" asarida IX asrdan XVII asrgacha bo'lgan davrda yashab o'tgan allomalarnig tarjima hollari, ilmiy asarlari to'g'risida so'z yuritilgan bo'lib, ular qatorida XIII-XIV asrlarda yashagan ayrim allomalar xususida ma'lumotlar keltirilgan [11].

Tadqiqotchi E. Karimov ilmiy ishida Chig'atoy ulusida islom dini holatidagi o'zgarishlar, so'fiylikning yangi bosqichda rivojlanishini ko'rsatib berishga harakat qilgan [6]. Elyor Karimov so'fiylik ta'limoti masalasiga o'z ishida alohida to'xtalib o'tadi. Unga ko'ra, so'fiylik ta'limoti Chig'atoy ulusi davrida, xususan, shayx Sayfiddin Boharziy faoliyati vaqtida rivojlanganligi qayd etiladi. Olimning tadqiqotida XIII asrda so'fiylik ta'limoti Buxoroda Sayfiddin Boharziy va uning avlodlari, Samarqandda esa Burhoniddin Marg'inoniyning avlodlari vakillari tomonidan ikkita yo'nalishda keng targ'ib etilganligini ko'rishimiz mumkin.

H. Boltaboyev, H. Homidiy, U. Uvatov, N. Komilov kabi olimlarning kitoblarida asosan tasavvuf tarixi va allomalari faoliyati yoritilgan.

Chig'atoy ulusi davri Movarounnahrda ta'lim tizimi, madrasalar faoliyati xususida A. Jumanazar [5] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda Buxoro va Samarqanddagi madrasalar, ta'lim jarayonlari, madrasalar qurilishi xususida ma'lumotlar manbalar, arxiv materiallari hamda tarixshunoslik tadqiqotlari asosida ochib berilgan. Lekin J.Abdusattorning tadqiqotlari aynan Chig'atoy ulusi davri bo'yicha maxsus amalga oshirilmagan bo'lib, unda mintaqadagi dastlabki madarasalar paydo bo'lishidan to mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi madrasalar tarixi va ta'lim tizimi holati kompleks tarzda o'rganilgan. G.V. Izbullayeva [4] ning monografiyasida pedagogika yo'nalishida, asosan didaktik tamoyillarning XII–XIV asrlardagi madaniy hayotdagi o'zgarishlarga ta'siri va o'rni tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo va O'zbekistondagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida Chig'atoy ulusi davri tarixi ikki xil yo'nalishda tadqiq etilganligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi yo'nalish Chig'atoy ulusi davlatining boshqaruv tizimi, davlatchilik munosabatlari va etnik masalalarga qaratilgan tadqiqotlar tashkil qiladi. Bunga L. Boymatov, G. Achilova, S.U. Ulashova, S.T. Bekmuradovlarning tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi yo'nalishdagi taqiqotlardagi mavzusi asosan islom dini, so'fiylik ta'limoti, tasavvuf, fiqh sohasi va fiqshunos allomalar faoliyati, madrasalarda ta'lim

tizimi, umuman islom dini bilan bog‘liq sohalarning davlat, jamiyat hayotiga ta’siri yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarni misol qilish mumkin. Bu yo‘nalish bo‘yicha N.D. Nurtazina, A.K. Mo‘minov, N.H. Nasrullayev, SH.A. Umaraliyev, N. Muhammad, N. Muhamedov, E. Karimov, H. Homidiy, U. Uvatov, N. Komilov, A. Jumanazar, G.V. Izbullayevalarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Bu tadqiqotlarda XIII–XIV asrlar Chig‘atoy ulusi davri Movarounnahrda madaniy hayot tarixiga oida ma’lumotlar asosiy mavzu sifatida tadqiq etilgan emas.

XXI asr boshlariga kelib, Chig‘atoy ulusi tarixini o‘rganishda xalqaro va milliy miqyosda o‘ziga xos “qayta jonlanish” davri kuzatilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, ushbu davrning madaniy hayoti kompleks ravishda, yaxlit ilmiy tadqiqot obyekti sifatida hali to‘liq o‘rganilmagan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Chig‘atoy ulusi davri madaniy hayotiga doir bir qancha jihatlar kam e’tibor qaratilgan hamda etarli darajada yoritilmagan. Jumladan, XIII–XIV asrlarda mintaqadagi madaniy jarayonlar qanday kechganligi kompleks ravishda o‘rganilmagan. Diniy tizimning madaniy hayotdagi o‘rni tadqiq etilmagan. Ko‘p hollarda diniy hayot faqat huquqiy yoki boshqaruv kontekstida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uning madaniy hayotdagi, xalq kundalik turmushidagi o‘rni to‘laqonli ochib berilmagan. Chig‘atoy ulusi tarixi uzoq vaqt davomida faqat siyosiy va harbiy to‘qnashuvlar prizmasidan o‘rganib kelingan. Bugungi kunda ushbu davr madaniy hayotini – san’at, musiqa, adabiyot va ta’lim tizimini yaxlit sivilizatsion transformatsiya sifatida tadqiq etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ачилова Г.М. Мовароуннахрнинг Чигатой улуси таркибидаги сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаёти. (1227-1370 йиллар). PhD дисс. – Тошкент, 2019. – 142 б.
2. Bekmuradov S.T. O‘zbek davlatchiligi tarixida Chig‘atoy ulusining boshqaruv tizimi (XIII-XV asrlar arab va fors manbalari asosida). PhD diss. – Toshkent, 2025. – 150 b.
3. Бойматов Л.Д. Социально - экономическое положение Центральной Азии в XIII - XIV вв. – Душанбе, 2009. – 228 с.
4. Izbullayeva G.V. Markaziy Osiyoda XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida pedagogik fikrlar rivoji [Matn]: monografiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti. – 2023. – 236 b.
5. Jumanazar A. Buxoro ta’lim tizimi tarixi [Matn]. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 592 b; shu muallif, Samarqand madrasalari va ta’lim tizimi tarixi [Matn]. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 592 b.
6. Karimov E. The advent of islam: extent and impact. /History of civilizations of Central Asia, Volume IV. The age of achievement: A.D. 750 to the end of the fifteenth century, part two. UNESCO, 2000. – P. 81-85.

7. Нуртазина Н.Д. Исламизация и роль суфизма в истории Могулистана XIV-XVI вв. / Шығыстану сериясы. №3 (106) 2023. – 85-102 с.
8. Тошев Н. Алоуддин Жувайнийнинг “Тарихи жаҳонгўшо” асари Марказий Осиёнинг XII-XIII асрлар тарихига оид муҳим манба. Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент, 2004. – 130 б.
9. Улашова С.У. XIII-XV асрлар форсий манбаларида Мовароуннаҳрдаги этник жараёнлар. PhD дисс. – Тошкент, 2022. – 135 б.
10. Ulashova S.U. XIII-XVI asrlar Sharq manbalarida Chig‘atoy ulusi hukmdorlari va ularning faoliyati. Tarix fanlari doktori (DSc) diss. – Toshkent, 2026. – 244 b.
11. Ўзбекистон – буюк алломалар юрти / тузувчи ва нашрга тайёрловчи У. Уватов. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 400 б.

MIRZO ULUG‘BEK ILMIY FAOLIYATINING JAHON TARIXSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI: TARIXIY TAHLIL VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*Qodirova Ra‘no Mamirjonovna
Farg‘ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Annotatsiya. Mazkur maqola buyuk o‘zbek astronomi va matematigi Mirzo Ulug‘bek (1394–1449) ilmiy merosining jahon tarixshunosligida o‘rganilish tarixiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Ulug‘bek ilmiy faoliyatining Yevropa, Amerika va Sharq tarixshunosligidagi talqini, uning astronomik jadvallari (“Ziji jadidi Ko‘ragoniy”)ning ilmiy dunyoda tan olinishi, Samarqand rasadxonasi faoliyati va Ulug‘bek maktabi olimlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, XX–XXI asr boshlarida Ulug‘bek merosini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari, ilmiy maktablar va zamonaviy tadqiqot metodologiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, jahon tarixshunosligi, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, Samarqand rasadxonasi, Sharq uyg‘onish davri, astronomiya tarixi, ilmiy meros, Ali Qushchi.

Аннотация. Данная статья посвящена истории изучения научного наследия великого узбекского астронома и математика Мирзо Улугбека (1394–1449) в мировой историографии. В исследовании анализируется интерпретация научной деятельности Улугбека в европейской, американской и восточной историографии, признание его астрономических таблиц («Зиджи

джадиди Курагони») в научном мире, деятельность Самаркандской обсерватории и вклад ученых школы Улугбека в развитие мировой цивилизации. Также рассматриваются основные направления изучения наследия Улугбека на рубеже XX–XXI веков, научные школы и современные методологии исследований.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, мировая историография, «Зиджи джадиди Курагони», Самаркандская обсерватория, Восточный Ренессанс, история астрономии, научное наследие, Али Кушчи.

Abstract. This article examines the history of the scientific legacy of the great Uzbek astronomer and mathematician Mirzo Ulugbek (1394–1449) in global historiography. The study analyzes the interpretation of Ulugbek’s scientific work in European, American, and Eastern historiography, the scientific recognition of his astronomical tables (Ziji Jadidi Kuragoni), the activities of the Samarkand Observatory, and the contribution of Ulugbek’s scholars to the development of world civilization. It also examines the main areas of Ulugh Beg scholarship at the turn of the 20th and 21st centuries, as well as scientific schools and modern research methodologies.

Keywords: Mirzo Ulugbek, global historiography, Ziji Jadidi Kuragoni, Samarkand Observatory, Eastern Renaissance, history of astronomy, scientific legacy, Ali Kushchi.

Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay ibn Shohrux ibn Temur) XV asr Markaziy Osiyo ilmiy-madaniy hayotining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning astronomiya, matematika va ilmiy tashkilotchilik faoliyati jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. Ulug‘bek shaxsiyati va merosi o‘zining ko‘p qirrali xarakteri bilan ajralib turadi: u bir tomondan Temuriylar davlatining hukmdori sifatida siyosiy jarayonlarda ishtirok etgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Samarqandda ilmiy muhit va institutsional ilm-fan rivojiga asos solgan “olim-hukmdor” timsolidir.

Ulug‘bek ilmiy merosining jahon tarixshunosligida o‘rganilishi uzoq tarixiy davrni qamrab oluvchi murakkab jarayon bo‘lib, u Sharq va G‘arb ilmiy aloqalari, tarjima va nashr amaliyoti, sharqshunoslik maktablari taraqqiyoti hamda ilmiy paradigmalarning almashinuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. XVII asrda Yevropa olimlarining Ulug‘bek astronomik jadvallariga qiziqishi bilan boshlangan ushbu tarixshunoslik jarayoni bugungi kunda xalqaro miqyosda olib borilayotgan kompleks tadqiqotlar darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, Ulug‘bek merosining o‘rganilish tarixini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish, turli davr va maktablarga mansub tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan konseptual

yondashuvlarni aniqlash hamda ilmiy talqinlarning evolyutsiyasini ko'rsatish bugungi tarix fani uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada Ulug'bek ilmiy faoliyatining jahon tarixshunosligida o'rganilish bosqichlari, asosiy ilmiy yo'nalishlar, yirik tadqiqotchilar va sharqshunoslik maktablarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslikda Ulug'bek merosiga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, yangi metodologik yondashuvlar va istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari yoritiladi.

Mazkur maqola tarixshunoslik tahliliga xos metodologik tamoyillar asosida yozilgan bo'lib, unda tarixiy bilimning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiylik, ketma-ketlik, xolislik, qiyosiy-tahliliy yondashuv hamda manbashunoslik asoslari orqali yoritiladi.

Ulug'bek merosining Yevropa ilmiy doiralarida o'rganilishi XVII asrga borib taqaladi. Bu davr Yevropa olimlarining Sharq ilmiy merosiga, xususan astronomik bilimlarga qiziqishining kuchaygan davri edi. 1648-yilda Oksford universiteti professori Jon Grivs tomonidan Ulug'bek yulduzlar katalogining bir qismi nashr ettirilgan bo'lib, ushbu nashr keyingi tadqiqotlar uchun muhim boshlang'ich nuqta vazifasini o'tagan. Biroq Ulug'bek asarlarining Yevropada keng miqyosda tanilishi 1665-yilda Oksfordda Tomas Xayd tomonidan nashr etilgan "Jadāvil-i Mavāzi' Šavābit, sive, Tabulae Long. ac Lat. Stellarum Fixarum ex Observatione Ulugh Beighi" asari bilan bog'liq. Ushbu lotin tilidagi nashr Ulug'bek yulduzlar katalogining to'liq versiyasini o'z ichiga olgan va Yevropa astronomlari hamda sharqshunoslari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. XVII-XVIII asrlar davomida Gregori Sharp (1767) kabi tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan nashrlar Ulug'bek astronomik jadvallarining aniqligiga e'tibor qaratib, ularni Yevropa astronomik o'lchovlari bilan qiyosiy tahlil qilgan.

XIX asrda Ulug'bek ilmiy merosini o'rganishda fransuz sharqshunoslik maktabi etakchi rol o'ynadi. Ushbu davrning eng ko'zga ko'rgan vakili Lui Pyer Ejen Ameli Sedilyo (1808–1875) bo'lib, uning "Tables astronomiques d'Ouloug Beg" (1839) hamda "Prolégomènes des Tables astronomiques d'Ouloug Beg" (1847–1853) kabi fundamental asarlari Ulug'bek astronomik jadvallarining chuqur matematik tahlilini taqdim etgan. Sedilyoning tadqiqotlari natijasida Ulug'bek tomonidan belgilangan yulduz yilining uzunligi – 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya – zamonaviy o'lchovlardan bor-yo'g'i 58 soniyaga farq qilishi aniqlangan. 1843-yilda Fransiya Baily tomonidan Qirollik Astronomiya Jamiyati Memuarlarining XIII jildida chop etilgan Ulug'bek yulduzlar katalogining yangi nashri ham ushbu davrning muhim ilmiy yutug'i hisoblanadi. XIX asr fransuz sharqshunosligi Ulug'bek ilmiy merosining Yevropada keng tan olinishiga va uning o'rta asrlar astronomiyasidagi etakchi o'rnining belgilanishiga xizmat qilgan.

XX asr boshlarida Ulug‘bek merosini o‘rganish sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. 1917-yilda amerikalik astronom Eduard Bol Knobel tomonidan nashr etilgan “Ulugh Beg’s Catalogue of Stars” tadqiqoti sakkizta saqlanib qolgan qo‘lyozmalarni qiyosiy matnshunoslik tahlil qilish asosida Ulug‘bek yulduzlar katalogining eng to‘liq va ishonchli versiyasini yaratdi. Knobelning tanqidiy nashri XX asr davomida ushbu sohadagi asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Aynan shu davrda islom astronomiyasi tarixini ilmiy asosda o‘rganishda E.S. Kennedining tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etdi. Kennedi “Ziji Ko‘ragoniy”ni islom astronomiyasi doirasida yaratilgan eng mukammal astronomik jadval majmuasi sifatida baholab, uning matematik tuzilishi, trigonometrik asoslari va hisoblash metodlarini chuqur tahlil qildi.

Rossiya sharqshunosligida Ulug‘bek ilmiy merosini kompleks o‘rganishning asoschisi akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold (1869–1930) hisoblanadi. Bartoldning “Улутбек и его время” asari Ulug‘bekning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi, ilmiy homiyligi va davrining ijtimoiy-madaniy sharoitlarini birgalikda tahlil qilgan birinchi fundamental tadqiqot bo‘ldi. Keyinchalik ingliz tiliga tarjima qilingan “Four Studies on the History of Central Asia” turkumining ikkinchi jildi butunlay Ulug‘bekka bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu asar hozirgi kungacha ushbu mavzu bo‘yicha eng nufuzli manbalardan biri hisoblanadi. Sovet tarixshunosligining muhim xususiyati Ulug‘bek merosini o‘rta asrlar Sharq uyg‘onish davri kontekstida talqin etish bo‘lib, bu yondashuv olimni nafaqat alohida shaxs, balki butun bir madaniy-tarixiy davrning ifodachisi sifatida qarash imkonini bergan.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Ulug‘bek ilmiy merosi Angliya-Amerika tarixshunosligida yangicha konseptual talqinlarga ega bo‘ldi. Oklahoma universiteti professori Sonja Brentjesning “Islamic Astronomy: A History and Legacy” (2007) asarida Ulug‘bek va Samarqand rasadxonasi faoliyati islom ilmiy an‘analari bilan uzviyligi va ularning keyingi Yevropa astronomiyasiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. E.S. Kennedining “Astronomy and Mathematics in Medieval Islam” (2000) asari esa Ulug‘bekning trigonometriya va sferik geometriya sohasidagi ishlarini o‘rta asrlar islom matematikasi kontekstida yoritadi. Seyyid Husayn Nasrning “Islamic Science and the Scientific Renaissance” (1993) asarida Ulug‘bek ilmiy maktabi islom uyg‘onish davrining cho‘qqisi sifatida baholanadi. Zamonaviy Yevropa tarixshunosligida Germaniya, Fransiya va Italiya olimlari tomonidan Ulug‘bek qo‘lyozmalarining yangi nashrlari tayyorlanmoqda hamda ularning matematik tahlili chuqurlashtirilmoqda. Xususan, 2023-yildagi MESA (Middle East Studies Association) konferensiyasida “Performing (Occult) Philosopher-Kinghood in Timurid Transoxania: Ulugh Beg as Sultan-Scientist” nomli ma’ruza taqdim etilgan bo‘lib, unda Ulug‘bekning “faylasuf-sulton” sifatidagi roli va uning pifagorchilik-okkultistik konteksti tahlil qilingan.

“Ziji Ko‘ragoniy”ning tarixshunoslikdagi talqini turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Dastlabki Yevropa tadqiqotchilari (Tomas Xayd, Lui Sedilyo) asosan asarning astronomik aniqligi va uning Yevropa astronomiyasi bilan solishtirilishiga e’tibor qaratgan bo‘lsalar, XX asr tadqiqotchilari (E.S. Kennedi, Edvard Knobel) asarning matematik tuzilishi, trigonometrik asoslari va islom astronomik an’analardagi o‘rnini tahlil qildilar. Zamonaviy tarixshunoslikda “Ziji Ko‘ragoniy” nafaqat astronomik manba, balki butun bir ilmiy maktab va madaniy muhit mahsuli sifatida o‘rganilmoqda. Tadqiqotchilar asarning yaratilish jarayoni, unda ishtirok etgan olimlarning hissasi, qo‘lyozmalarining tarqalishi va keyingi avlodlarga ta’siri kabi masalalarni kompleks tahlil qilmoqdalar.

Tarixshunoslikda uzoq vaqt davomida Nikolay Kopernik ishiga Samarqand ilmiy maktabining ta’siri masalasi muhokama qilingan. Ma’lumki, Ulug‘bek yulduz yilining uzunligini aniqlashda Kopernikdan ancha aniqroq natijalarga erishgan: Ulug‘bekning ikkinchi o‘lchovidagi xatolik (+25 soniya) Kopernik o‘lchovidagi xatolikdan (+30 soniya) pastroqdir. Biroq zamonaviy tadqiqotchilar, xususan Sonja Brentjes, bu masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashib, Samarqand maktabi yutuqlari Yevropaga Vizantiya orqali yoki Ali Qushchining Istanbuldagi faoliyati tufayli etib kelgan bo‘lishi mumkinligini, ammo bu ta’sirning aniq mexanizmlari hali to‘liq o‘rganilmaganligini ta’kidlaydilar. Tarixshunoslikda Ulug‘bek rasadxonasi ko‘pincha daniyalik astronom Tycho Brahe (1546–1601) faoliyati bilan qiyoslanadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “Ziji Ko‘ragoniy” aniqligi bo‘yicha XVI asrda Tycho Brahe va Taqi ad-Din ishlarigacha ortda qolmagan. Ulug‘bek rasadxonasi va Tycho Brahening Uraniborg rasadxonasi o‘rtasidagi o‘xshashliklar – ikkala rasadxonaning davlat tomonidan moliyalashtirilishi, eng zamonaviy asboblardan jihozlanishi va etakchi olimlarni birlashtirishi – o‘rta asrlar Sharqi va Uyg‘onish davri Yevropasidagi ilmiy an’analarning tipologik o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mirzo Ulug‘bek ilmiy faoliyatining jahon tarixshunosligida o‘rganilishi uch asrdan ortiq davom etgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Bu jarayonda to‘rtta asosiy bosqichni ajratish mumkin: XVII–XVIII asrlar – dastlabki qiziqish va tarjimalar davri (Tomas Xayd, Jon Grivs); XIX asr – fransuz sharqshunoslik maktabining yuksalishi (Lui Sedilyo); XX asr boshlari – Amerika va ingliz tadqiqotlari (Edvard Knobel) hamda rus sharqshunoslik maktabi (V.V. Bartold); XX asr oxiri – XXI asr boshlari – zamonaviy xalqaro tarixshunoslik (Sonja Brentjes, E.S. Kennedi, Seyyid Husayn Nasr). Dastlabki tadqiqotlar asosan astronomik jadvallarning aniqligiga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik Ulug‘bek shaxsiyati, uning ilmiy maktabi va davrining madaniy muhiti kompleks o‘rganila boshlangan. Zamonaviy tarixshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri Ulug‘bek va uning maktabi qo‘lyozmalarini kodikologik va matnshunoslik jihatidan tadqiq qilishdir. Oksford, Parij, Michigan, Sankt-Peterburg kabi shaharlardagi

kutubxonalarda saqlanayotgan Ulugʻbek asarlarining qoʻlyozma nusxalarining toʻliq qiyosiy matnshunoslik tahlili hozirgacha amalga oshirilmagan. Kelgusida turli mamlakatlardagi kutubxonalarda saqlanayotgan qoʻlyozmalarning roʻyxatini tuzish, ularning kodikologik tavsifini berish, matnlarning qiyosiy tahlilini oʻtkazish va Yevropa sharqshunoslarining qaysi qoʻlyozmalardan foydalanganligini aniqlash ushbu sohadagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Улугбек и его время. – Москва: Наука, 1964.
2. Шамукарамова Ф. Научное наследие Мирзо Улугбека в историографии XX – начала XXI века. – Ташкент: ИICAS, 2023.
3. Bartold V.V. Four Studies on the History of Central Asia. Leiden: Brill. 1956. Vol. 2.
4. Brentjes S. Islamic Astronomy: A History and Legacy. Norman: University of Oklahoma Press. 2007.
5. Kennedy E.S. A Survey of Islamic Astronomical Tables, Transactions of the American Philosophical Society, 1956. 46(2). – PP. 3–4, 44-5.
6. Kennedy E.S. A Survey of Islamic Astronomical Tables, Transactions of the American Philosophical Society, 1956. 46(2). – PP. 3–4, 44-5.
7. Nakayama S. Ulughbek Observatory in Historical Perspective. Archives Internationales d'Histoire des Sciences. 1969. 22(1). – P.234-251.
8. Nasr S.H. Islamic Science and the Scientific Renaissance. Cambridge: Harvard University Press. 1993.
9. <https://caravan-info.uz/uz/culture/740692-ulugbek-velikiy-astronom-srednevekovya-izmenivshiy-nauku.html>
10. https://uz.wikipedia.org/w/index.php?oldid=3934495&title=Mirzo_Ulug%C2%A%BBbek
11. https://en.wikipedia.org/wiki/Zij-i_Sultani

TURKISTON MUXTORIYATI TARIXINING OʻRGANILISHI

*Husanboyev Qobilxon
Fargʻona davlat universiteti
arxivshunoslik yoʻnalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston Muxtoriyati tarixiga oid manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Unda sovet davri tarixshunosligida Muxtoriyatning biryoqlama va mafkuraviy talqin etilishi, “qayta qurish” davrida boshlangan nisbatan xolis yondashuv hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng koʻlamli ilmiy izlanishlar yoritiladi. Shuningdek, xorijiy tarixshunoslik vakillarining Turkiston Muxtoriyati qarashlari ham koʻrib chiqiladi.

Kalit soʻzlar: Turkiston Muxtoriyati, jadidchilik, 13-dekabr voqeasi, sovet davri, mustaqillik davri, milliy davlatchilik, xorijiy tadqiqotlar, Qoʻqon Muxtoriyati.

Аннотация: В данной статье анализируются источники и научные исследования, посвящённые истории Туркестанской автономии. Рассматриваются односторонние и идеологизированные интерпретации автономии в советской историографии, относительно объективные подходы периода «перестройки», а также масштабные научные исследования, проведённые в годы независимости. Также изучаются взгляды представителей зарубежной историографии на Туркестанскую автономию.

Ключевые слова: Туркестанская автономия, джадидизм, события 13 декабря, советский период, период независимости, национальная государственность, зарубежные исследования, Кокандская автономия.

Abstract: This article analyzes sources and scholarly studies on the history of the Turkestan Autonomy. It examines the biased and ideologically driven interpretations of the autonomy in Soviet historiography, the relatively objective approaches during the “Perestroika” period, and the extensive research conducted in the years of independence. The article also considers the perspectives of foreign historiography on the Turkestan Autonomy.

Keywords: Turkestan Autonomy, Jadidism, December 13 events, Soviet period, independence period, national statehood, foreign studies, Kokand Autonomy.

XX asr boshlarida Turkiston oʻlkasida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy jarayonlar mintaqa tarixida tub burilish yasadi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, mahalliy xalqning milliy ozodlikka boʻlgan intilishi hamda jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida Turkiston xalqlari oʻz davlatchiligini tiklash gʻoyasini ilgari sura boshladilar. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda 1917-yil noyabr oyida Qoʻqon shahrida Turkiston Muxtoriyati tashkil etildi. Garchi bu davlat tuzilmasi qisqa muddat faoliyat yuritgan boʻlsa-da, u oʻzbek va umuman Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik tarixida muhim oʻrin egallaydi.

Turkiston Muxtoriyati masalasi tarix fanida koʻplab tadqiqotchilar eʼtiborini tortib kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillarida ushbu mavzuni xolis va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan oʻrganishga keng imkoniyat yaratildi. Natijada Turkiston Muxtoriyati tarixiga oid koʻplab arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, memuarlar hamda ilmiy tadqiqotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Shu bilan birga, mazkur mavzuning manbashunoslik va tarixshunoslik jihatlarini kompleks tahlil qilish bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Mazkur maqolada Turkiston Muxtoriyati tarixiga oid asosiy manbalar, ularning mazmun-mohiyati hamda mavzu bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tarixshunoslikdagi yondashuvlar, tadqiqotlarning o'ziga xos jihatlari hamda mavjud ilmiy qarashlar yoritib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi Turkiston Muxtoriyati tarixini o'rganishda foydalanilgan manbalar va ilmiy izlanishlarning ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

Turkiston Muxtoriyati tarixini o'rganish murakkab, og'ir va shubhasiz, muhim yo'lni bosib o'tdi. Uni shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin. Birinchisi – Sovet davri. Sovet voqeligi sharoitida uzoq yillar Turkiston Muxtoriyati tarixi soxtalashtirildi va buzib ko'rsatildi. Mavjud ilmiy adabiyotlarni batafsil o'rganish shuni ko'rsatdiki, sovet davrida tadqiqotchilar mafkuraviy va ma'muriy nazorat iskanjasida bo'lib, erkin fikr bildirish imkoniga ega emasdilar. Ular kommunistik targ'ibot maqsadlariga xizmat qilishga majbur edilar. Ilmiy izlanishlar metodologiyasi asosan markscha-lenincha ta'limot mafkurasiga tayanardi. Natijada, ilmiy muomalaga ko'plab manbalar, faktik materiallar kiritilganligiga qaramay, tarixiy-siyosiy jarayonlar butun ziddiyati va murakkabligi bilan baholanmay, haqqoniy ilmiy bilimlar o'rniga vaziyatni to'g'ri aks ettirmaydigan soxta tarixiy manzaralar yaratildi.

Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilishi hamda ijtimoiy-siyosiy harakatlarni o'rganishga, shuningdek, jadidchilikni tadqiq etishga bag'ishlangan 80-yillar oxirlarigacha yaratilgan deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda Turkiston Muxtoriyatining mohiyati va tushunchasini atay toraytirish maqsadida unga "Qo'qon Muxtoriyati" degan nom berilib, uning tashkilotchilari "panislomchi", "panturkchi", "burjua millatchilari", "aksilinqilobchi" deb ataldi.

Ikkinchi davr "Qayta qurish" davri hisoblanadi. So'nggi yillardagi adabiyotlarni izchillik bilan o'rganish shuni ko'rsatadiki, 80–90-yillar davomida "qayta qurish" ta'sirida partiya mafkuraviy zug'umining bir muncha kuchsizlanishi va SSSRning parchalanishi bilan tarix fanida sog'lomlashish jarayoni namoyon bo'la boshladi. Bular tarixiy voqealarga sinfiy yondashuvdan qochish, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga suyanishga intilish kabilarda ko'rinadi. O'z-o'zidan ma'lumki, o'zbek xalqining ozodlik va mustaqillik uchun kurashi manbalariga e'tibor keskin kuchaydi.

Shu davrda bir qator gazeta va jurnallarda Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bog'liq maqolalar chop etilgan. Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishda "Xurriyat" gazetasi orqali turli g'oyalar targ'ib etilgan. Jumladan, "Ey muhtaram yoshlar, - deyiladi ushbu gazetada, - siz nimalarni o'ylayapsiz? Nega siz beharakatsiz? Nahotki xalq sizga e'tibor bermayotgan bo'lsa? Siz haqingizda millat nima deb o'ylaydi?" [2]. Abdurauf Fitrat bu gazetaga muharrir bo'lgandan keyin ham bu

masalada ko'plab maqolalar e'lon qilinadi. Shuningdek, "Kengash" gazetasida ham bir qator maqolalar e'lon qilinadi.

"Turkiston musulmonlari, keling, qo'lni qo'lga beraylik va shundagina hammamiz bir yo'ldan borib, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishamiz", – deyiladi "Kengash" gazetasidagi maqolalardan birida [3]. Ko'rinib turibdiki, bu davrdagi ko'plab gazetalar Turkiston Muxtoriyatining g'oyalarini o'rganishda va tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Bu davrda "Najot", "Oyna", "Al-izoh", "Turon" va "Ulug' Turkiston kabi gazetalarda ham Turkiston Muxtoriyati tuzilgunga qadar bo'lgan g'oyalar, targ'ibotlar hamda Muxtoriyat davridagi turli voqealar aks etgan maqolalar chop etilgan.

"Ulug' Turkiston" gazetasida Turkiston muxtoriyatining tuzilishi e'lon qilinganligi haqidagi maqola ham chop etilgan [4]. Shuningdek "Ulug' Turkiston" gazetasida IV Favqulodda Turkiston o'lkasi musulmonlari syezdi faoliyati hamda bu syezdning natijalari ham yoritilgan. 27-noyabrda Turkiston Muxtoriyati rasman e'lon qilinadi. Keyingi davrda ham gazeta Muxtoriyat tizimidagi o'zgarishlar va voqealarni chop etib borgan.

"El bayrog'i" gazetasi ham bu masalada bir qancha maqolalar chop etgan. Jumladan, Turkiston Muxtoriyatining hokimiyat organlari haqida ma'lunotlar keltirilgan maqola nashr qilingan [5].

Shuni ta'kidlash lozimki, gazeta va jurnallardagi maqolalar bilan bir qatorda, risola sifatidagi tadqiqotlar ham paydo bo'ldi. Biroq ularda, bizning tahlilimiz ko'rsatishicha, muammoning ayrim qirralari qarab chiqilsada, Turkiston Muxtoriyati harakatini idrok qilishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar olib borilmadi. Xususan, mahalliy demokratlarning Muxtoriyat uchun kurashdan ko'zlagan asosiy maqsadlari, ularning Turkiston jamiyatini taraqqiyot yo'liga tadrijiy islohotchilik asosida olib chiqishga urinishlari etarli o'rganilmadi. Jadidlarning 1917-yil fevraldan Oktabrgacha bo'lgan davrdagi faoliyatining dasturiy, tashkiliy tomonlari, ularning Turkiston ozodligi va mustaqilligi uchun kurashda mahalliy aholini birlashtirish uchun olib borgan sa'y-harakatlari tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qoldi.

Uchinchisi – mustaqillik davri. Mustaqillik davrida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi masalalar o'rganildi:

- Turkistonda islohotchilik g'oyalarini shakllantirishga shart-sharoit yaratgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy omillar;
- Jadidchilik va Turkiston Muxtoriyatining o'zaro yaqin aloqasi;
- Milliy demokratlar faoliyatining dasturiy, tashkiliy asoslari va ularning konseptual qarashlari.

Tadqiqotchilar ilk bor musulmon aholisi tashkiliy birligi muammolarining kam o'rganilgan jihatlariga e'tibor qaratishdi; o'lkada birinchi milliy-demokratik

davlat tuzilmasi – Turkiston Muxtoriyati barpo etilishi tajribasi umumlashtirildi va uning zo‘ravonlik bilan bostirilishining haqqoniy manzarasi yoritildi.

Saidakbar A‘zamxo‘jayev tomonidan yozilgan “Turkiston Muxtoriyati: Milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi” kitobi bu mavzuga oid dastlabki yirik tadqiqotlardan biri hisoblanadi [1]. Ushbu kitob XX asr boshlarida Turkiston Muxtoriyati deb atalgan milliy-demokratik respublikaning tashkil etilishida fidoyilik ko‘rsatgan taraqqiyparvarlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ubaydulla Xo‘jayev, Ahmad Zaki Validiy va boshqalarning faoliyati, ularning ma‘rifiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari, tarixiy jarayonlar va boshqa masalalarni o‘z ichiga qamrab oldi. To‘g‘ri, so‘nggi yillarda Turkistonda demokratik davlat qurilishining ayrim jihatlari respublikamizning taniqli tarixchi va huquqshunoslarining ilmiy maqola hamda risolalarida tilga olindi. Lekin, afsuski, Turkistonda milliy-demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati tashkil topishining asosiy bosqichlarini tahlil qilib beradigan monografik tadqiqot e‘lon qilinmadi.

Turkiston Muxtoriyati masalasi nafaqat mahalliy tarixshunoslikda, balki xorijiy tadqiqotlarda ham muhim mavzulardan biri sifatida o‘rganilgan. Hatto sovet davri tarixshunosligida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ham Muxtoriyat harakatining keng ko‘lamga ega bo‘lgani qisman e‘tirof etiladi. Jumladan, 1931-yilda chop etilgan “Кокандская автономия” asarida P. Alekseenko Qo‘qon Muxtoriyati faqat mahalliy yoki Farg‘ona doirasidagi harakat bo‘lib qolmaganini, balki butun Turkiston miqyosidagi umumiy siyosiy harakatga aylanganini ta‘kidlaydi [6:27]. Muallifning fikricha, mazkur harakat Turkistonning turli hududlarini qamrab olib, millatidan qat‘i nazar, Turkiston burjuaziyasi hamda aholining boshqa qatlamlarini ham o‘ziga jalb qilgan. Bu kabi qarashlar Turkiston Muxtoriyatining mohiyati va tarixiy ahamiyati xorijiy hamda sovet davri tadqiqotchilari tomonidan ham ma‘lum darajada tan olinganligini ko‘rsatadi.

Xorijiy tarixshunoslikda Turkiston Muxtoriyati tarixini yoritgan mualliflar 13-dekabr voqeasiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Mazkur voqea qanday sodir bo‘lganligiga qisqacha to‘xtalib, shuni qayd etish mumkinki, turkistonliklarning ko‘tarinki ruhda Muxtoriyatni qo‘llab namoyish va syezdlar o‘tkazishi bolsheviklarni tahlikaga solib qo‘ydi va ular choralar ko‘rishga kirishib ketdi. Toshkentdagi 13-dekabr namoyishi qatnashchilari o‘qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu to‘qnashuv qurboni bo‘ldi.

Mustafo Cho‘qay xotirasida 13-dekabr voqeasi “rus bolsheviklari tomonidan bizning xalqqa ko‘rsatgan xoinlik kuni” deb baholangan edi [7: 10].

Bu voqea haqida “Ulug‘ Turkiston” gazetasi chop etgan maqolada: “Ikki yuz ming xalqning so‘ziga qaramasdan o‘zlarini yangidan hokimi mutlaq sanab miltiq to‘p ham pulimot ila “diqtotura” e‘lon qildilar. Hech kimga tekmi tinchqina qaytib

bergʻon xalqgʻa bir ortdan bir oldan turub miltiq ham pulemot otub Alloh naqadar gunohsiz kishilarni qirdilar”, - deyiladi [8].

Y. Benzing esa bu voqeani “Sovet Rossiyasining muxtoriyatga qarshi birinchi qonli qadami” sifatida baholagan, “namoyishchilarning oʻqqa tutilishi bolsheviklarning Turkiston Muxtoriyatiga haqiqiy munosabatini koʻrsatib berganini”, “Sovet hokimiyati Turkiston Muxtoriyatini yoʻqotish uchun kuch ishlatishga kirishganligini” taʼkidlaydi.

Xorijiy tarixshunoslikda Turkiston Muxtoriyati tugatilishi oqibatlariga ham alohida toʻxtalib oʻtilgan. Chunonchi, Boymirza Hayitning fikricha, “muxtoriyat va uning hukumati bolshevistik qizil gvardiyachilar tomonidan qurolli kuch yoʻli bilan agʻdarilganidan soʻng birinchi marta Turkiston mustaqilligi gʻoyasi vujudga kelgan” [9:34]. Mustafo Choʻqay esa mustaqillik uchun kurash boshlanishini taʼsis majlisining tarqatib yuborilishi bilan bogʻlaydi. Uning yozishicha, taʼsis majlisi mahv etilishi bilan federatsiya toʻgʻrisidagi umidlar ham abadiy yoʻqolgan, ular milliy ozodlik, toʻliq milliy istiqlool kurashi yoʻliga va mustaqil Turkiston davlati uchun kurash yoʻliga tushganlar [10: 79]. Yana bir turkistonlik muhojir Abdulla Boysun esa Turkiston Muxtoriyati hukumatining agʻdarilishi va Qoʻqon shahrining vayron etilishi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun kurashning yanada keng tus olishiga olib kelganligini taʼkidlaydi [11: 8].

Xulosa qilib aytganda, Turkiston Muxtoriyati tarixini oʻrganish jarayoni turli davrlarda turlicha mafkuraviy yondashuvlar taʼsirida shakllangan boʻlib, ayniqsa sovet davrida uning mohiyati buzib talqin qilingan. Mustaqillik davriga kelib esa mazkur muammo xolis va ilmiy asosda qayta oʻrganila boshlandi, natijada Turkiston Muxtoriyati milliy davlatchilik tarixidagi ilk demokratik tajriba sifatida baholandi.

Mahalliy va xorijiy tarixshunoslik vakillari Muxtoriyatning tashkil topishi, faoliyati va tugatilishi jarayonlarini turlicha yoritgan boʻlsalar-da, ularning aksariyati bu voqeani Turkiston xalqlarining milliy uygʻonishi va mustaqillik sari ilk siyosiy qadami sifatida eʼtirof etadi. Ayniqsa, 13-dekabr voqealari va Muxtoriyatning zoʻravonlik bilan tugatilishi keyingi milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga zamin yaratganligi ilmiy adabiyotlarda keng qayd etiladi. Shunday qilib, Turkiston Muxtoriyati nafaqat qisqa muddatli siyosiy tuzilma, balki Turkiston xalqlarining milliy davlatchilik gʻoyasini shakllantirgan muhim tarixiy hodisa sifatida alohida ahamiyatga ega boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Kengash” gazetasi. – 1917-yil, 19-iyul.
2. “Ulugʻ Turkiston” gazetasi. – 1917-yil, 30-sentabr.
3. “Ulugʻ Turkiston” gazetasi. – 1917-yil, 8-dekabr.
4. “Ulugʻ Turkiston” gazetasi. – 1917-yil, 16-dekabr.

5. “Hurriyat” gazetasi. – 1917-yil, 15-avgust.
6. Baysun, Abdullah Receb. Turkistan Milli Hareketleri. – Istanbul, 1943.
7. Azamxo‘jayev S. Turkiston Muxtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurilish tajribasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
8. Hayit B. Basmatschi. – Köln, 1992.
9. M. Sokay. “Dekabr xotiralari” // Yash Turkistan. – 1932. – №37.
10. Алексеев П. Кокандская автономия. – Т., 1931.
11. М. Чўқай ўғли. Истиклол жаллодлари. – Т., 1992.

“HUJUM” KAMPANIYASI VA UNING MARKAZIY OSIYO AYOLLARI HAYOTIGA TA’SIRI (tarixshunoslik muammolari)

*Usmonova Husnida Xudoberdi qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqola Sovet davrida amalga oshirilgan “Hujum” kampaniyasining Markaziy Osiyo ayollari hayotiga ko‘rsatgan ta’siri hamda uni talqin qilishdagi asosiy tarixshunoslik muammolarini tahlil etadi. Tadqiqotda partiya-davlat hujjatlari, ma’muriy yozuvlar, davr matbuoti va xotira materiallari tanqidiy manbashunoslik yondashuvi asosida o‘rganiladi. Asosiy e’tibor rasmiy manbalarning ideologik yo‘naltirilganligi, “ozodlik” va “modernizatsiya” tushunchalarining siyosiy talqini, shuningdek, ayollarning real ijtimoiy tajribasi bilan rasmiy diskurs o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga qaratiladi. Shuningdek maqolada “Hujum” kampaniyasini biryoqlama baholash ilmiy jihatdan yetarli emasligi, uni ko‘p qirrali, ziddiyatli va murakkab ijtimoiy jarayon sifatida o‘rganish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar. Hujum kampaniyasi, Markaziy Osiyo, ayollar tarixi, gender siyosati, Sovet modernizatsiyasi, tarixshunoslik, propaganda, ijtimoiy transformatsiya, ayollar tajribasi.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние советской кампании «Худжум» на жизнь женщин Центральной Азии и основные историографические проблемы её интерпретации. Исследование проводится на основе критического источниковедческого подхода и рассматривает партийно-государственные документы, административные записи, прессу того периода и мемуарные материалы. Основное внимание уделяется идеологической ориентации официальных источников, политической интерпретации понятий «свобода» и «модернизация», а также несоответствию между реальным социальным опытом женщин и официальным дискурсом. В статье также утверждается, что односторонняя оценка кампании «Худжум»

научно недостаточна и что её необходимо изучать как многогранный, противоречивый и сложный социальный процесс.

Ключевые слова: кампания «Худжум», Центральная Азия, история женщин, гендерная политика, советская модернизация, историография, пропаганда, социальные преобразования, женский опыт.

Abstract: This article analyzes the impact of the Soviet-era “Attack” campaign on the lives of Central Asian women and the main historiographical problems in its interpretation. The study examines party-state documents, administrative records, period press, and memoir materials based on a critical source-study approach. The main attention is paid to the ideological orientation of official sources, the political interpretation of the concepts of “freedom” and “modernization,” as well as the discrepancy between the real social experience of women and the official discourse. The article also argues that a one-sided assessment of the “Attack” campaign is scientifically insufficient, and that it is necessary to study it as a multifaceted, contradictory, and complex social process.

Keywords. Attack campaign, Central Asia, women’s history, gender politics, Soviet modernization, historiography, propaganda, social transformation, women’s experience.

“Hujum” kampaniyasi 1927–1936-yillarda Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy dastur bo‘lib, uning asosiy e‘lon qilingan maqsadi Markaziy Osiyo jamiyatida ayollarni an‘anaviy cheklovlardan “ozod qilish”, ularni ijtimoiy ishlab chiqarish, ta‘lim va siyosiy hayotga faol jalb etishdan iborat edi. Ushbu kampaniya doirasida paranji va chachvonni bekor qilish, ayollarni jamoat hayotiga olib chiqish hamda yangi gender rollarini shakllantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, faqat 1927-yilning o‘zida O‘zbekiston SSR bo‘yicha 10 000 dan ortiq ayol ommaviy paranji tashlash marosimlarida ishtirok etgan [1: 375].

VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining 1927-yil 20-yanvardagi “Sharq ayollarini ozod qilish ishini kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarori asosida respublika va viloyat darajasida “Xotin-qizlar bo‘limlari” (Женотдел) faoliyati keskin kengaytirildi. Kampaniyani boshqarish uchun O‘rta Osiyo Byurosi maxsus “Hujum” komissiyalari tuzdi va ularning hisobotlari to‘g‘ridan to‘g‘ri Moskvaga yuborib turildi.

“Hujum” kampaniyasi – uning nomi, xronologiyasi va institutlar bilan bog‘liqligi turli milliy tarixshunoslikda turlicha talqin qilinadigan hodisa bo‘lib, ilmiy muloqotda murakkab va ma‘lum darajada ziddiyatli ikki yoqlama o‘rinni egallaydi. Tarixshunoslikdagi asosiy muammo shundaki, kampaniya etarlicha o‘rganilmagan emas, balki mavjud tadqiqotlar ko‘pincha davlat siyosatini asoslashga xizmat qilgan konseptual yondashuvlar, “muvaffaqiyat” va asosan

ma'muriy ko'rsatkichlar va dalillar tizimini takrorlaydi. Shu sababli, kampaniyaning ayollar hayotiga ta'sirini oddiy tarixiy voqea sifatida emas, balki manbalar tizimi va murakkab talqin maydoni sifatida o'rganish zarur. Tarixshunoslikdagi muhim muammo kampaniyani aniqlash va uning chegaralarini belgilash bilan bog'liq. "Hujum" atamasi ko'pincha umumlashtirilgan tarzda qo'llanadi, ayrimlar uni ma'lum bir ma'muriy tashabbusga bog'liq aniq tarixiy hodisa sifatida talqin qilsa, boshqalar uni kengroq siyosiy-amaliy uslub – ya'ni jamoaviy mehnatni tashkil etish, institutlar orqali bosim o'tkazish va ommaviy safarbarlikni kuchaytirish shakli sifatida izohlaydi.

Markaziy Osiyo sharoitida bu yanada murakkablashadi, chunki ma'muriy amaliyotlar va mahalliy moslashuvlar respublika, hudud va ijtimoiy sohalarga qarab sezilarli darajada farqlangan. Masalan, O'zbekiston SSRda paranji tashlash harakatiga oid rasmiy statistika shuni ko'rsatadiki, 1927-yil mart-aprel oylarida 90 000 ga yaqin ayol paranji tashlagan, biroq yilning oxiriga kelib ularning aksariyati – taxminan 70–80 foizi – qayta paranji kiyib olgan. Bu raqamlar hatto rasmiy sovet manbalari tomonidan ham e'tirof etilgan [2: 102].

"Hujum" kampaniyasini o'rganishda tarixchilar asosan siyosatni ishlab chiquvchi ichki ishlar organlari, ta'lim boshqaruvlari hamda targ'ibot-tashviqot idoralari hujjatlariga tayanadi.

Bunday manbalar odatda rejalar, hisobotlar va statistik ko'rsatkichlar shaklida bo'lib, ularda "intizom", "faollik", "ideologik etuklik" kabi kategoriyalar asosiy baholash mezonlari sifatida qo'llanadi. Masalan, Farg'ona viloyati bo'yicha 1928-yilgi hisobotda qisqa vaqt ichida 12 000 dan ortiq ayolning paranji tashlagani qayd etilgan, biroq bu jarayon qanday sharoitda amalga oshirilgani – majburiylik, ijtimoiy bosim yoki tahdid mavjud bo'lganmi – ochiq yoritilmagan [3: 82–84].

Natijada, arxiv materiallarida ayollar ko'pincha mustaqil ijtimoiy subyekt sifatida emas, balki davlat siyosati doirasidagi funksional birlik sifatida namoyon bo'ladi. Ular mehnat resursi, "yangi jamiyat quruvchisi", madaniy o'zgarish obyekti yoki ideologik tarbiya vositasi sifatida tasvirlanadi. Shu sababli, ilmiy tahlilda ushbu manbalarga tanqidiy yondashuv zarur. Ularni voqelikning bevosita aks ettiruvchi "oyna"si sifatida emas, balki boshqaruv tizimi mahsuli – ya'ni siyosiy maqsadlar va byurokratik cheklovlar bilan shakllangan hujjatlar sifatida ko'rish lozim. Ma'muriy apparatning o'ziga xos xususiyatlari – reja bajarilganini ko'rsatish zarurati, yuqori tashkilotlarga ijobiy natijalar haqida hisobot berish bosimi hamda muvaffaqiyatsizlik uchun jazolanish xavfi – ko'pincha hujjatlarda "muvaffaqiyat" ko'rsatkichlarining oshirib ko'rsatilishiga olib kelgan.

Ushbu holatni tasdiqlovchi muhim dalil sifatida rasmiy sovet ma'lumotlari 1928-yilda O'zbekiston SSRda 95 000 dan ortiq ayolning mehnat muassasalariga jalb etilganini ko'rsatsa-da, bu raqamlarning real holatdan 2–3 barobar oshirib

ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, ko'plab mustaqil manbalar va keyingi tadqiqotlar kompaniya ko'plab hududlarda qarshilik, zo'ravonlik va hatto ayollarga nisbatan jismoniy tahdidlar bilan kechganini ko'rsatadi. Faqat 1927-yil bahor oylarida O'zbekistonda paranji tashlagan yoki jamoat tadbirlarida ishtirok etgan 300 dan ortiq ayol qatl etilgani hujjatlashtirilgan [4: 182].

Kompaniya atrofidagi tarixshunoslik munozaralari ko'pincha bir xillikni takrorlaydi. Rasmiy hujjatlar siyosat natijalarining asosiy "dalili" sifatida talqin qilinadi, ayollarning real yashash tajribasi esa ikkinchi darajaga tushib qoladi. Holbuki, aynan shu jihat kompaniyaning ayollar hayotiga ta'sirini tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Rasmiy ko'rsatkichlar ijobiy o'zgarishlarni qayd etadi. Masalan, O'zbekistonda savodxon ayollar ulushi 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha atigi 3,8% ni tashkil etgan bo'lsa, 1939-yilga kelib bu ko'rsatkich 60% ga etgan. Mehnatga jalb etilgan ayollar soni ham keskin o'sgan. 1926-yilda sanoat va davlat muassasalarida band bo'lgan ayollar umumiy ishchi-xizmatchilarning 12% ini tashkil etgan bo'lsa, 1935-yilga kelib bu raqam 27% ga ko'tarilgan [5: 112].

Biroq bu statistik o'sish yashirin xarajatlarni ko'rsatmaydi. Ortiqcha ish yuklari, past ish haqi, mehnat sharoitlari, bolalar parvarishi muammolari va ijtimoiy nazoratning kuchayishi kabi omillar hisobot hujjatlarida deyarli aks etmagan. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida mavjud bo'lgan patriarxal ijtimoiy tuzum doirasida kompaniya oilaviy munosabatlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ayollarning iqtisodiy faolligi ayrim hollarda ularning mavqeini oshirgan bo'lsa, boshqa holatlarda esa aksincha, erkaklar va katta avlod vakillari tomonidan nazoratning kuchayishiga olib kelgan. Yana bir muhim muammo ayollarning ovozi va ularni ifodalash etikasi bilan bog'liq. Og'zaki tarix, xotira adabiyoti va retrospektiv intervyular ayollarning kompaniyani qanday qabul qilgani, bosim sharoitida qanday strategiyalar ishlab chiqqani va bu jarayon qanday ijtimoiy xarajatlarga olib kelganini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu manbalar ham bir xilda ishonchli emas, chunki ayrim hollarda ayollar guvohliklari umuman mavjud emas, boshqa hollarda esa ular keyingi siyosiy va ijtimoiy kontekstlar ta'sirida shakllangan.

Marianne Kamp 1990-yillar oxirida O'zbekistonda olib borgan og'zaki tarix loyihasi doirasida kompaniyani boshdan kechirgan 80 dan ortiq ayoldan intervyu olgan. Ushbu materiallar shuni ko'rsatadiki, intervyu berayotgan ayollarning aksariyati kompaniyani ikki xil – ham "ozodlik", ham "zo'ravonlik" – sifatida tasvirlagan, bu esa talqinlarning etarli emasligini yana bir bor tasdiqlaydi [6: 132].

Demak, ilmiy tahlilda bunday manbalarni rad etish emas, balki ularni tanqidiy yondashuv asosida o'rganish muhimdir. Nafaqat aytilgan fikrlar, balki aytilmay

qolgan jihatlar, shuningdek, voqealarning qanday qayta talqin qilingani ham e'tiborga olinishi lozim. Tarixshunoslikda majburiyat va agentlik o'rtasidagi kontseptual munozaralar alohida o'rin tutadi. Ba'zi yondashuvlar, asosan Sovet davri narrativlariga tayanib, ayollarning ishtirokini "faollik", "qahramonlik" va "sotsialistik ong"ning ifodasi sifatida talqin qiladi. Boshqa yondashuvlar esa, post-Sovet tanqidiy qarashlar va feminist tadqiqotlar ta'sirida, majburlash, ijtimoiy bosim va ayollarning vositalashtirilishiga urg'u beradi.

Bu nuqtani Douglas Northrop o'zining "Veiled Empire" (2004) asarida chuqur tahlil qilgan. U O'zbekiston bo'yicha o'nlab tuman arxivlarini o'rganib, ayollarning kampaniyaga bo'lgan munosabatini uch kategoriyaga ajratgan: to'liq muvofiqlik, tashqi muvofiqlik va ochiq qarshilik. Shunday bo'lsa-da, bu kategoriyalar ham dinamik xarakter kasb etgan, ya'ni bir xil ayol turli davrlarda turli xatti-harakat namunasini ko'rsatishi mumkin bo'lgan. Demak, tarixshunoslik ikki qutbli talqinlardan voz kechib, rag'batlar, ideologik bosim, iqtisodiy zarurat va ijtimoiy jazolash mexanizmlarining o'zaro ta'sirini hisobga oluvchi yanada murakkab analitik yondashuvni ishlab chiqishi zarur.

"Hujum" kampaniyasini boshqa zamondosh ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan ajratib o'rganish tarixshunoslikda alohida muammoga aylanadi. Kollektivlashtirish (1929–1933), industrializatsiya, shuningdek mehnat va oilaga oid huquqiy islohotlar kampaniyaning amalga oshgan davriga to'g'ri kelganligi sababli, uni ushbu keng kontekstdan izolyatsiya qilish sabab-oqibat munosabatlarini noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin [7].

Yana bir muammo mahalliy vositachilar – tuman rasmiylari, ish joyi rahbarlari, ideologik targ'ibotchilar va jamoa etakchilari rolini baholash bilan bog'liq. Rasmiy hujjatlarda kampaniyaning muvaffaqiyati ko'pincha markaziy siyosatning to'g'ri ijrosi sifatida ko'rsatiladi, biroq bu jarayonda vositachilarning norasmiy amaliyotlari, majburlash usullari va shaxsiy manfaatlari etarlicha yoritilmaydi. Ayollarning real tajribasi ko'pincha aynan shu mahalliy ijro jarayonlari orqali shakllangan. Shuningdek, Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi farqlarni ham hisobga olish zarur. Mintaqa ko'pincha yagona birlik sifatida talqin qilinsa-da, industrializatsiya darajasi, urbanizatsiya tezligi, demografik tuzilmalar va institutlar rivoji har bir hududda turlicha bo'lgan. Bu esa kampaniyaning natijalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, umumlashtirilgan xulosalardan qochib, har bir hududni alohida tarixiy sharoitda tahlil qilish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Hujum" kampaniyasining Markaziy Osiyo ayollariga ta'siri uni oddiy siyosiy natija sifatida emas, balki murakkab boshqaruv amaliyotlari tizimi sifatida ko'rib chiqilgandagina to'liq tushunilishi mumkin. Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolar asosida quyidagi xulosalarga kelish

mumkin. Birinchidan, kompaniyaning ko'rsatkichlari – 1927-yilgi ommaviy paranji tashlash marosimlaridan tortib 1930-yillarning oxiridagi savodxonlik statistikasigacha – rasmiy maqsadlarga erishilganini ko'rsatsa-da, bu jarayonning qanchasi haqiqiy ijtimoiy o'zgarishni, qanchasi esa majburlash yoki nominal muvofiqlikni ifodalashini ajratib ko'rsatish metodologik jihatdan qiyin. Ikkinchidan, zo'ravonlik miqdori – 2 500 dan ortiq jinoiy holatlar – kompaniyaning ayollarga "ozodlik sovg'asi" sifatidagi siyosatini keskin murakkablashtiradi. Uchinchidan, "Hujum" kompaniyasining haqiqiy ijtimoiy oqibatlarini anglash uchun rasmiy hujjatlar bilan bir qatorda memuar manbalar va mahalliy tajribalarni o'zaro solishtirgan holda tahlil qilish zarur. Faqat shundagina ayollarning ushbu jarayondagi real o'rni va tajribasi yanada to'liqroq tiklanishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun mahalliy darajadagi arxiv materiallarini (viloyat va tuman hujjatlari), og'zaki tarix manbalarini va solishtirma mintaqaviy tahlilni birlashtiradigan yondashuv eng samarali natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон янги тарихи. Иккинчи китоб: Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 681.
2. Northrop Douglas. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Cornell University Press, 2004. – P. 102
3. O'zbekiston Milliy arvi (O'zMA), R-86-fond, 1-ro'yxat, 5645-ish, 82-84-betlar.
4. Northrop Douglas. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Cornell University Press, 2004. – P. 182.
5. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: история и современность. – Ташкент: Фан, 1991. – С. 112.
6. Kamp Marianne. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – P. 132.
7. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/ozbekistonda-kollektivlashtirish-siyosati-quloqlar-surguni/>

“TEMIRYO‘LLAR URUSHI” VA UNDA O‘ZBEKLAR ISHTIROKI

Djalolov Baxrom
Namangan davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushining asosiy urushlaridan biri bo'lgan “temiryo‘llar urushi” ning kelib chiqish sabablari hamda amalga

oshirilishi tarixi va uning ayanchli oqibatlarini tahlil qilib beriladi. Shuningdek, “temiryo‘llar urushi”da ishtirok etgan o‘zbek jangchilarining jasoratlari va ularning qo‘lga kiritgan yutuqlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, temiryo‘l transporti, partizanlik harakati, shtab, rels, konsert, garnizon, platforma, eshelon, vagon, “Iskra”, “Bagration”, “Konsert”, operatsiya, otryad.

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения и история «железнодорожной войны», одной из главных войн Второй мировой войны, и её трагические последствия. Также показана храбрость узбекских бойцов, участвовавших в «железнодорожной войне», и их подвиги.

Ключевые слова: Вторая мировая война, железнодорожный транспорт, партизанское движение, штаб, рельсы, концерт, гарнизон, платформа, эшелон, вагон, «Искра», «Багратион», «Концерт», операция, отряд.

Abstract: This article analyzes the origins and history of the “Railway War”, one of the major conflicts of World War II, and its tragic consequences. It also examines the bravery and heroism of Uzbek soldiers who participated in the “Railway War”.

Keywords: World War II, rail transport, partisan movement, headquarters, rails, concert, garrison, platform, train, carriage, “Iskra”, “Bagration”, “Concert”, operation, detachment.

Insoniyat tarixida ulkan ko‘lami bilan bemisl darajada mudhish iz qoldirgan Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy buyuk g‘alaba oradan yillar o‘tsada, bizdan uzoqlashgani sari unda ishtirok etgan va shahid bo‘lganlar jasorati, frontortini mustahkamlab, g‘alabani ta‘minlashga katta hissa qo‘shganlar shuhratining ulug‘vorligi va tarixiy ahamiyati shunchalik ortib tobora yorqin namoyon bo‘lib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratli-dir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biridir”[1: 3] degan gaplari bugungi tarixchilar uchun ikkinchi jahon urushi sabablari va oqibatlarini tadqiq qilish va tahlil qilgan holda kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim dasturamal bo‘lib xizmat qiladi desak adashmagan bo‘lamiz.

Bu urush nafaqat insonlarni, balki odamzotga xizmat qiladigan mumkin bo‘lgan barchas sohalarni, xususan, sovet mustamlakachiligi ta‘siri ostida bo‘lgan mamlakat iqtisodiyotining qon tomirlariga aylangan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining muhim kafolatiga aylangan (afsuski, bu kafolat ko‘proq darajada

sovet mustamlakachiligi manfaatlariga xizmat qilgan edi – B. Dj.) temiryo‘l transporti va uning tarmoqlarini ham kattiq sinovdan o‘tkazdi.

Ikkinchi jahon urushida temiryo‘l har ikki urishayotgan tomon uchun muhim strategik ahamiyat kasb etib, Sovet Ittifoqiga g‘alabasini ta‘minlashga asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Temiryo‘l transporti urush yillarida har ikki tomonning doimiy diqqat e‘tiborida bo‘lib, kezi kelganda o‘z manfaatlarini nuqtai nazaridan vayron qilinish, kul ko‘kka sovrildi.

Temiryo‘l kashf qilingandan beri hech bir zamonda temiryo‘l transporti urushlar, harbiy to‘qnashuvlar tarixida Ikkinchi jahon urushichalik talafotlarni boshdan kechirmagan. Urush davrida ham qalqonga, ham nishonga aylangan temiryo‘l transporti sovet hukumati tomonidan e‘lon qilingan “hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” shiorining bir qismiga aylanib, front manfaatlariga bo‘ysundirildi va harbiy holatga o‘tkazildi.

Poezdlar harakatining harbiy grafigi joriy etilib, temiryo‘l hodimlari urushga safarbar etilgan deb hisoblandi. Urush avjiga chiqqan yillarda dushman tomoniga o‘tib ketgan temiryo‘l tarmoqlari vayron qilinish, poezdlar, vagonlar va ko‘priklarni yakson qilish qahramonlik namunasiga aylandi va bu jarayon tarixda “temiryo‘llar urushi” misolida ko‘rish mumkin.

Sovet hukumati fashizmga qarshi kurashish, uning orqa tomonidan zarba berish, dushman tomonidan bosib olingan hududlaridagi aholi orasida bosqinchilariga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi tomonidan 1942-yil 30-mayda Partizanlar harakati markaziy shtabi tuzilib, unga Belorussiya KP (b) Markaziy Qo‘mitasi kotibi P. Ponamarenko shtab boshlig‘i etib tayinlandi va bu qaror “temiryo‘llar urushi”ga katta yo‘l ochib berdi [2: 180].

1943-yil ko‘klamdan partizanlik harakatlari qizil armiya zarbalari ostida dushmanga qarshi kurashda muvofiqlashtirila borilib, partizanlik harakati dasturida dushman orqasida keng ko‘lamda qo‘poruvchilik, buzg‘unchilik, vayronagarchilik harakatlarini olib borish va shu bilan birga dushman manfaatlariga xizmat qiluvchi temiryo‘l tarmoqlarini ishdan chiqarish kabi rejalar ham o‘rin olgan edi.

Ayniqsa, Belorussiya zaminida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilib, 1943-yil 24-iyunda sovet hukumati Oliy Bosh qo‘mondonligi buyrug‘i bilan, Belorussiya yerlaridagi nemislar qo‘liga temiryo‘l tarmoqlarining barcha yo‘nalishlarini yakson qilish maqsadga muvofiq deb topilib, partizanlar oldiga yopirilma zarba berish orqali temiryo‘llarni izdan chiqarish masalasi kun tartibiga qo‘yildi va buyruq “temiryo‘llar urushi” nomli rejani yuzashga kelishiga zamin hozirladi [3: 150].

Bu reja ikki bosqichda amalga oshirilishi belgilandi, shuningdek, bu urushda ancha samarali yutuqni qo‘lga kiritish uchun Oliy bosh qo‘mondonlik taklifi bilan barcha partizan qo‘shilmalariga qo‘poruvchilik va dushman temiryo‘l izlarini

muntazam ravishda izdan chiqarish ishlarini olib borish haqida topshiriq berildi. Hujumni partizanlar harakati markaziy shtabi signali bo'yicha hamma yerda bir vaqtda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu holat rejaning eng asosiy qismi deb hisoblangan edi.

1943-yil 3-avgustida tarixiy, mashhur temiryo'llar urushining birinchi bosqichi boshlandi va bu qizil armiyaning Kursk jangidagi hujumi avjiga chiqqan davriga to'g'ri kelib, jangdagi qizil armiyaning g'olib bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi va shu maqsad yo'lida temiryo'llar urushiga Belo-russiya, Leningrad, Smolensk va Oryol viloyatlaridan 167 ta partizan otryad-lari va ular tarkibidagi 100 ming kishi jalb qilindi.

Urush harakatlari Belorussiya fronti 1000 km kenglikda va mamlakat-ning g'arbiy chegarasigacha ichkari tomon 750 km uzunlikda joylashgan hududda amalga oshirildi [4: 157]. Urush oqibatida 42 ming rels ishdan chiqarildi va urushning birinchi bosqichi 15 sentyabrda yakun topib, bu vaqt oralig'ida portlatilgan relslar soni 214704 taga yetdi.

1943-yil 19-sentyabrda temiryo'llar urushining ikkinchi bosqichi boshlandi va bu bosqich shartli ravishda "Konsert" operatsiyasi deb atalib, ushbu operatsiyada 120 ming kishidan iborat Ukraina, Belorussiyadan tashqari, Boltiqbo'yi, Kareliya va Qrim partizanlari ishtirok etib, temiryo'llar urushining "dahshatli simfoniyasi" o'z kuchini ko'rsatdi.

Belorussiya partizanlari operatsiya davomida 90 ming rels, 1041 ta eshelon, 72 ta temiryo'l ko'prigi portlatib, temiryo'lga bog'langan 58 ta nemis garnizoni tor-mor qilindi [5: 165]. 1943-yil avgust-dekabr oylarida 36326 ta rels, 836 ta eshelon 6343 ta vagon hamda platforma portlatib, yakson qilindi [6: 240].

Urushning eng qaqshatqich davrida nemis qo'mondonligi temiryo'llarni qo'riqlash va ularni xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'plab diviziya-larini ajratishga majbur bo'ldi, biroq bu hech qanday samara bermadi, aksincha, Germaniya 1943-yil avgust oyida "Markaz" armiyalari guruhi ixtiyoriy-ga 2159 ta poezd jo'natgan bo'lsa, partizanlarning temiryo'llardagi qo'poruvchilik harakatlari sentyabrda poezdlar soni 1552 taga, oktyabrda esa 200 taga kamaydi va Germaniya oliy bosh qo'mondonligi 1943-yil 30-oktyabrdagi harbiy kundaligida "temiryo'llar urushi" birinchi marta urush harakatiga tezkor zarar yetkazdi" e'tirof etishga majbur bo'ldi [7: 241].

Temiryo'llar urushi 1944-yili ham davom ettirilib, birgina 30-iyunga o'tar kechasi partizanlarning yana bir hujumi tufayli Belorussiya temiryo'llarida ommaviy tarzda qo'poruvchilik yo'li bilan 40775 ta rels, iyul oyida 20 ming rels portlatib yuborildi [8: 275]. Temiryo'llar urushida ko'plab xalq vakillari bilan birga, o'zbek farzandlari ham faol ishtirok etishdi. Xususan, mashhur partizan, Farg'ona viloyati, Rishton tumanida tavallud topgan, Sovet Ittifoqi Qahramoni Mamadali

Topipoldiev Belorussiya yerlarida dushmanning 4 ta eshelonini portlatib, ag'darib yuborgani uchuni sovet hukumatining "Qizil yulduz" ordeni va "Jasurligi uchun" medali bilan taqdirlandi [9: 327].

1916-yilda Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanida tug'ilgan Mamayoqub Xoliqov ham Belorussiyada faoliyat olib borgan. S. Kovpak rahbarligidagi "Iskra" partizanlik otryadida xizmat qilib, 18 ta jangovor operatsiyada qatnashib, dushmanning 8 ta eshelonini portlatdi va natijada 66 ta vagon pachaqlanib, 14 tasi zararlandi.

158 tonna yonilg'i olib ketayotgan 5 ta sisternaga o't qo'yib yuborib, 532 ta nemisni yo'q qilishga, 63 tasini yarador qilishga muvaffaq bo'ldi [10: 85].

Biroq, M. Xoliqov 1944-yil 30-aprelda janglardan birida og'ir yarador bo'lib, gospitalda vafot etdi va o'limidan so'ng "Qizil bayroq" va "Qizil yulduz" ordenlari bilan taqdirlandi [11: 85].

Bulardan tashqari, Kovpak nomidagi 1-Ukraina partizan otryadida Far-g'onalik O'ljaboy Egamov, Marg'ilonlik Abdusattor Egamov, Namanganlik Hamid Muhammadievlar xizmat ko'rsatib, Belorussiya partizanlari urush yillarida umumiy holatda 500 ming nemis askari va ofitserlarlarini qirib tashladilar. 300 taga yaqin samolyot, 1200 dan ortiq tank yo'q qilindi, teiryo'l va tosh yo'llardagi 4200 dan ortiq ko'prik portlatilib, vayron qilindi.

Ukraina partizanlari esa 460 mingdan ortiq nemis harbiylarini qirib tashlagan bo'lsalar, A. Fedorov qo'mondonligidagi ukrain partizan qo'shimalari Brest, Rovno va Minsk tumanlarida 700 ta eshelonni yakson qildilar [12: 89].

Belorussiyada amalga oshirilgan temiryo'ldagi ulkan ko'lamdagi qo'poruvchiliklar, vayronagarchiklar aslida g'alabani ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsada, Belorussiyani nemis qo'shinidan ozod qilishda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Vayron qilingan temiryo'l tarmoqlari ustida 1944-yil iyun oyida Belorussiyani ozod qilishga mo'ljallangan "Bagrition" operatsiyasining muvaqqiyatli ta'minlash temiryo'lga yetkazilgan talafot tufayli orqaga surila boshlandi [13: 295].

1944-yil 11-iyunda marshal G. Jukov operatsiya yuzasidan oliy bosh qo'mondonlikka jo'natgan hisobotida Belorussiya fronti uchun qurol-aslaha ortilgan temiryo'l transporti harakati haddan tashqari sust ekanligi, belgilangan muddatda frontni ta'minlashda ulgurib bo'lmasligini tashvishla-narli holda ta'kidlagan edi [14: 295]. Qo'shinlar ta'minoti uchun qurol-aslaha yetkazishda shundoq ham og'ir ahvolda bo'lgan temiryo'l tansportidan shijoat, matonat, kezi kelganda qurbonliklar va yo'qotishlarni talab qilgan sovet hukumati va harbiy qo'mondonlik oldida temiryo'l xodimlari doimiy ravishda qahramonlik namunasini ko'rsatishdi.

Mavjud shart-sharoitlar va imkoniyatlarning yo'qligiga qaramay, temir-yo'l xodimlari sa'yi-harakatlari tufayli, Belorussiya fronti qo'shinlariga barcha ta'minot

yetkazib berildi, temiryo‘ldagi talafotlar, yetishmovchiliklar boshqa respublikalar, xususan, O‘zbekiston temiryo‘li hisobiga to‘ldirib borildi.

O‘zbekiston temiryo‘lchilari urush yillarida frontga yuzlab parovozlar, 40 mingga yaqin yuk vagonlar va 35 mingga yaqin yo‘lovchilar tashiydigan vagonlarni ta‘mirlab, frontga jo‘natildi [15: 295]. Ikkinchi jahon urushida nemis fashizmi ustidan qozonilgan g‘alaba sovet hukumatining g‘ayriinsoniy va siyosiy terrorga asoslangan “shaxsga sig‘inish” ruhidagi siyosati hamda ulkan yo‘qotishlar hisobiga qo‘lga kiritildi.

Urush qay tarzda olib borilmasin, temiryo‘l transporti va uning xodimlari katta qiyinchiliklar, vayronagarchiliklar hisobiga yutuqlarni ta‘minlash yo‘lida doimiy ravishda o‘z xizmatini ayamadi. “Temiryo‘llar urushi”dagi ulkan yo‘qotishlar va jarohatlarga qo‘lga kiritilgan g‘alaba va shonli yutuqlar malham vazifasini o‘tadi. Sovet qo‘shinlari oliy bosh qo‘mondoni I. Stalin “dushman qo‘liga o‘tgan Ukraina, Belrussiya, boltiqbo‘yi, Donbass va boshqa hududlar tufayli sovet mamlakati 10 million tonnadan ortiq metaldan ajragani”ni afsus bilan tilga olgan edi [16: 29].

Tassufki, ana shu tilga olingan 10 million tonna metalning asosiy qismini temiryo‘l tarmoqlari tashkil etadi desak mubolag‘a qqilmagan bo‘lamiz. Nemis fashizmi ustidan qozonilgan g‘alaba yo‘lida temiryo‘l transporti ham o‘zining fidokorona va beminnat xizmatlari hamda hisobsiz fojeaviy talafotlari bilan urushning unutilmas, shonli sahifalaridan joy oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хотира нури. – Тошкент: О‘qituvchi, 2025.
2. Улуғ Ватан уруши. Савол-жавоблар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1987.
3. Великая отечественная война. 1941-1945 гг. – Москва: Политиздат, 1990.
4. Мардлик-мангулик. Тошкент: Ўзбекистон. 1970.
5. Мирзаалиев Э., Бахриддинов О. Тарих – маънавият кўзгуси. Наманган, 2006.
6. Штеменко С. Бош штаб уруш йилларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969.
7. Муҳитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
8. Гафуров З., Бегимкулов З. Ватан тақдирини ўйлаб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.

SOVET HOKIMIYATINING 1945–1985-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN AGRAR SIYOSATI TARIXSHUNOSLIGI

Tojiboyev Firuzbek Ergashaliyevich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1945–1985-yillarda Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan agrar siyosati tarixshunosligi tahlil qilinib, sovet va mustaqillik davri tadqiqotlarining metodologik hamda mafkuraviy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sovet agrar siyosati, kolxoz va sovxozlar, qishloq xo‘jaligi, tarixshunoslik, O‘zbekiston SSR, sovet mafkurasi, agrar islohotlar.

Аннотация: В данной статье анализируется историография аграрной политики Советской власти в Узбекистане в 1945–1985 годах, а также раскрываются методологические и идеологические особенности исследований советского и периода независимости.

Ключевые слова: советская аграрная политика, колхозы и совхозы, сельское хозяйство, историография, Узбекская ССР, советская идеология, аграрные реформы.

Abstract: This article analyzes the historiography of Soviet agrarian policy implemented in Uzbekistan during 1945–1985 and highlights the methodological and ideological features of Soviet and independence-period studies.

Keywords: Soviet agrarian policy, kolkhozes and sovkhozes, agriculture, historiography, Uzbek SSR, Soviet ideology, agrarian reforms.

Sovet hokimiyati yillaridagi agrar islohotlar yoki hokimiyat va dehqonlar o‘rtasidagi munosabatlar muammosi bugungi kunda tarixiy adabiyotlardagi eng munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Sovet davri tarixchilari sotsialistik qurilishning butun davri mobaynida sovet hokimiyati va qishloq o‘rtasidagi munosabatlar mavzusiga katta e‘tibor qaratganlar va bu muammo bo‘yicha bir qator tarixshunoslik masalalari tahlil etilgan asarlar yaratilgan [1, 2, 3, 4, 5]. Sovet davlatidagi agrar islohotlar muammosini o‘rganish Ikkinchi jahon urushi g‘alaba bilan tugaganidan bir necha yil o‘tgach boshlandi. Bu davrda yaratilgan qator tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligini isloh qilishda sovet hukumati va kommunistik partiyaning etakchilik roliga asosiy e‘tibor berilgan, bunday yondashuv sovet tuzumi yutuqlarini ulug‘lashda kuchli mafkuraviy qurol vazifasini bajargan [6, 7, 8]. Bu kabi ishlarda qishloq xo‘jaligi mehnatkashlarining erishgan yutuqlarini yoritishda faqat balandparvoz shiorlarga zo‘r berish, urushdan keyingi yillarda qishloqni tiklash bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlarda partiya va sovet organlari tomonidan

ko‘rilgan chora-tadbirlar va uning rivojlanish istiqbollarini faqat ijobiy nuqtai nazardan tahlil etishga e‘tibor qaratilgan. Amalga oshirilgan islohotlarning salbiy holatlari, mavjud muammolar va ziddiyatli jihatlar bu asarlarda bayon etilmagan. Agrar tarixchilar A. Bolgov va A. Vikentiyev ishlarida esa urushdan keyingi dastlabki yillardagi kolxoz va sovxozlar o‘rtasidagi munosabatlar tahlil qilingan [9, 10].

1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida sovet davlati rahbari I.V.Stalin tomonidan yozilgan “Sotsializmning iqtisodiy muammolari” nomli asarda [11] sovet davlatidagi iqtisodiy o‘zgarishlarning umumlashtirilgan jihatlarini bayon etilgan. Bu asar o‘sha davrdagi tarixchi-tadqiqotchilar uchun mafkuraviy mezon vazifasini bajargan.

1950-yillarning ikkinchi yarmida, ya‘ni Stalin vafotidan keyin davlat hokimiyatiga N.S. Xrushchevning kelishi munosabati bilan SSSRdagi siyosiy vaziyat ham o‘zgardi. Shu sababli mamlakatdagi qishloq xo‘jaligining umumiy ahvoli, shuningdek, dehqonlar hayoti muammosini yoritishga yondashuvlarda ham ma‘lum o‘zgarishlar yuz berdi. XX asr 50-yillari ikkinchi yarmida e‘lon qilingan asarlarda qishloq xo‘jaligini tiklash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha oliy hokimiyat organlarining faoliyati 1940-yillardagi tarixshunoslik namunalariga qaraganda ancha ob‘ektiv talqinlarni o‘z ichiga olgan. Bu holat bejizga bo‘lmay, I.V. Stalin shaxsiga sig‘inish va uning oqibatlarini tanqid qilish yangi tarkibdagi Sovet rahbariyati faoliyatining ajralmas qismiga aylangan edi. Sovet davlatining yangi rahbari N.S. Xrushchevning qishloqqa nisbatan siyosatda yangicha munosabati va u ilgari sura boshlagan agrar islohotlar g‘oyasi quyi rahbariyat vakillari va milliy respublikalarda ham katta shuhrat qozondi. Shu bois, davlatning qishloqlarga va dehqon xo‘jaliklariga nisbatan munosabati masalasi asosan KPSS Markaziy Komitetining 1953-yil Sentabr Plenumida keng muhokama qilinib, bu masala bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilindi [12, 13, 14]. Bu vaqtda qishloq xo‘jaligi hayotining alohida masalalarini, umuman qishloq xo‘jaligining rivojlanish tarixini ham qamrab oluvchi katta hajmdagi ilmiy adabiyotlar nashr etildi [15, 16, 17, 18, 19].

Bu yillarda faqat ittifoq miqyosidagina emas, balki O‘zbekiston tarixchilari tomonidan ham respublikadagi umumiy agrar o‘zgarishlar tarixiga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar hamda kollektiv asarlar yaratildi [20, 21, 22, 23, 24, 25]. Ularda 1950 yillar ikkinchi yarmi va 1960 yillar boshida O‘zbekistondagi agrar siyosatining umumiy jihatlarini o‘z aksini topgan. Respublika ijtimoiy-madaniy hayotining e‘tiborga molik jihatlarini ikki jildli “O‘zbekiston SSR tarixi”da ma‘lum ma‘noda o‘z aksini topdi [26].

Bu davr asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarixchilar umumiy e‘tiborni qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning, xususan, kolxoz va sovxoz qurilishining ijobiy

tomonlariga qaratgan. Sovxozlar, ya'ni davlat xo'jaliklari ularning fikricha, dehqonlarga yordam berish uchun mo'ljallangan ilg'or xo'jaliklar sifatida yaratilgan. Kolxozlar tashkil etilgan birinchi yillardanoq sovxozlar ularga mashina, urug'lik, kadrlar tayyorlash bo'yicha har tomonlama yordam ko'rsatgan. Ular asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi navlari etishtirildi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yangi texnologiyalari ishlab chiqildi. Mualliflar sovxozlarda dehqonlarga yirik jamoa xo'jaliklarida mehnatni tashkil etish, dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi ilg'or tajribalar o'rgatilganligini ta'kidlaganlar.

Ijtimoiy fanlarning mafkuraviy munosabatlarga bog'liqligi 1960-yillarning ikkinchi yarmi va 80-yillarning birinchi yarmida ham davom etdi. Partiya va xalq birligi shiori buzilmas bo'lib qoldi, bu esa bu muammoni munozarali masala sifatida qo'yishni rad etardi. Shu bilan birga, 1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, Brejnev boshchiligidagi sovet rahbariyatining qishloq xo'jaligi bo'yicha olib borgan siyosatiga tarixchilarning qiziqishi kuchaydi. Qishloqlarning tinch qurilish davriga o'tish davridagi holati, urushning iqtisodiy va demografik oqibatlari tahlil qilingan asarlar nafaqat butunittifoq, balki mintaqaviy miqyosda ham paydo bo'ldi [27, 28].

1945–1984-yillarda sovet qishlog'i va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari asosan 1970–1980-yillardagi nashrlarda tilga olinadi. Bu vaqtda sovxoz va kolxoz tarixining alohida sahifalari ajratilgan jamoaviy ishlar ham paydo bo'ldi [29, 30, 31, 32, 33].

Tarixshunoslik tahlili ko'rsatadiki, XX asrning 70–80-yillarida o'zbek qishlog'ining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga oid qator jiddiy asarlar nashr etildi. Ular orasida A.A. Razzoqov, K.A. Axmedov, K. Yusupov va boshqalar asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin [34, 35, 36, 37]. O'zbekistondagi qishloqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ayrim jihatlari katta hajmdagi kollektiv monografiyada batafsil yoritilgan [38].

Umuman, sovet davlatidagi agrar tarixchilar 1991-yilgacha hukmron kommunistik partiya hujjatlari ta'siridan chiqib keta olmadilar, ular sovet davlati agrar siyosatining xolis tadqiqotchilari maqomini egallay olmadilar. Sovet siyosiy tuzumining qulashi hokimiyat va qishloq fuqarolari – dehqonlari o'rtasidagi munosabatlar tarixiga oid ob'ektiv asarlar yaratish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Mafkuraviy munosabatlarga barham berish, ilgari "mutloqo maxfiy" tamg'asi bilan saqlangan arxivlarning tadqiqotchilar uchun ochib qo'yilishi urushdan keyingi yillarda sovet hokimiyati tomonidan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning murakkab muammolarini turli nuqtai nazarlardan talqin etish, bu borada yangi nazariy qarashlarni shakllantirishga xizmat qila boshladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixchi olimlari tomonidan 1945–1985-yillarda sovet davlatining agrar siyosati va uning oqibatlari masalasiga doir bir qancha ilmiy izlani shnatijaalri yaratildi. Xususan, so'nggi yillarda nashr etilgan

O'zbekiston tarixi bo'yicha fundamental asarlarda, xususan, 2000-yilda nashr qilingan "O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida" nomli asarda [39] hamda 2019 yilda nashr etilgan "O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar)" nomli ikki kitobdan iborat asarning ikkinchi kitobida [40] ham ko'rib o'tilayotgan yillarda O'zbekistonda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlar masalasiga yangicha qarashlar asosida baho berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. История советского крестьянства: в 5 т. Том 4. – Москва: Наука, 1988.
2. Очерки истории исторической науки в СССР: в 5 т. Том 5. – Москва, 1985.
3. Развитие сельского хозяйства СССР в послевоенные годы. 1946-1970. Сборник статей. – Москва, 1972.
4. Чинчиков А.М. Историография трудового подвига советского крестьянства. 1941-1976. – Саратов, 1977.
5. Волков И.М. Деревня СССР в 1945-1953 годах в новейших исследованиях историков (конец 1980-х – 1990-е годы) // Отечественная история. 2000. № 6. – С. 115-124.
6. Абросенко К. О социалистическом перевоспитании крестьянства. – Москва, 1949.
7. Анисимов Н. Советское крестьянство. – Москва, 1947.
8. Степанов Б. Воспитание руководящих кадров. – Москва, 1948.
9. Болгов А. Трудодень и его роль в колхозном производстве. – Москва, 1954.
10. Викентев А. Очерки развития советской экономики в четвертой пятилетке. – Москва, 1952.
12. Сталин И.В. Экономические проблемы социализма. – Москва: Политиздат, 1952.
13. Анисимов Н.И. На новом этапе. – Москва, 1959.
14. Глотов И.О. О материальной заинтересованности колхозов, колхозников и работников МТС. – Москва, 1954.
15. Заславская Т.И. Принцип материальной заинтересованности и оплата труда в колхозах. – Москва, 1958.
16. Арутюнян Ю.В. Советское крестьянство в годы Великой Отечественной войны. – Москва, 1963.
17. Вылсан М.А. Материальное положение колхозного крестьянства в довоенные годы // Вопросы истории. 1963. №9.
18. Зеленин И.Е. Зерновые совхозы СССР (1933_1941 гг.). – Москва, 1966.
19. Фуров В.Г. Забота КПСС о повышении благосостояния и культурного уровня колхозного крестьянства. –Москва, 1960.

20. Шмелев Г.И. Распределение и использование труда в колхозах. – Москва, 1964.
21. Ризаев Г. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957.
22. Ризаев Г.Р. Аграрная политика Советской власти в Узбекистане (1917-1965 гг.) – Ташкент: Узбекистан, 1967.
23. Саидалиев С.С. Борба за осуществление ленинского кооперативного плана в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1958.
24. История народного хозяйства Узбекистана. Том 1. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1962.
25. Тулепбаев Б.А. Осуществление ленинской аграрной политики партии в республиках Средней Азии. – Москва: Мысль, 1967.
26. Торжество ленинского кооперативного плана в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1970.
27. История Узбекской ССР. Том I, II. – Ташкент, 1956, 1957.
28. Арутюнян Ю.В. Советское крестьянство в годы Великой Отечественной войны. – Москва, 1963.
29. Аминова Р.Х. Колхозное крестьянство Узбекистана на пути к развитому социализму. – Ташкент: Узбекистан, 1983.
30. Развитие сельского хозяйства СССР в послевоенные годы (1946-1970 гг.) – Москва, 1972.
31. Советская деревня на современном этапе. Воронеж, 1974.
32. Деятельность КПСС по повышению культурно-технического уровня тружеников села. – Саратов, 1979.
33. Историография и источниковедение истории советского крестьянства. – Москва, 1980.
34. Проблемы аграрной политики КПСС на современном этапе. – Москва, 1984.
35. Раззаков А.А., Игамбердыев Р.С. История мелиорации в Узбекистане. – Ташкент, 1974.
36. Раззаков А.А. История орошения и ирригационно-мелиоративного освоения целинных земель Узбекистана. – Ташкент, 1984.
37. Ахметов К.А. Аграрная политика Советской власти в Каракалпакии. – Нйкус, 1972.
38. Юсупов К. Аграрные отношения в Узбекистане в период строительства социализма. – Ташкент, 1977.
39. Изменение классовой структуры общества в Узбекистане за годы Советской власти. – Ташкент: Фан, 1984.
40. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.
41. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar.) Ikkinchi kitob. 1939-1991 yillar. Mas'ul muharrirlar R. Abdullaev, M. Rahimov, Q. Rajabov. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM RIVOJINING TARIXIY ILDIZLARI: JADIDLAR MA’RIFATCHILIGI VA 1945–1991-YILLARDAGI TA’LIM TIZIMI O‘RTASIDAGI G‘OYAVIY BOG‘LIQLIK

*Axmadjonova Dilnoza Azamjonovna
Andijon viloyati pedagogik mahorat
markazi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1945–1991-yillarda O‘zbekiston SSR oliy ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari hamda bu jarayonlarning jadidchilik harakati, xususan, Farg‘ona vodiysi jadidlarining ma’rifiy g‘oyalari bilan tarixiy va g‘oyaviy uzviyligi tahlil qilingan. Tadqiqotda oliy ta’limdagi kadrlar siyosati, etnik tarkib muammolari va dunyoviy fanlarning o‘rni jadidlar tomonidan ilgari surilgan “milliy taraqqiyot” konsepsiyasi orqali yoritilgan. Maqolada sovet davri oliy ta’limi jadidlar orzu qilgan intellektual poydevorning yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitdagi davomi ekanligi asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: oliy ta’lim, jadidchilik, Farg‘ona vodiysi, O‘zbekiston SSR, ma’rifatparvarlik, kadrlar tayyorlash, etnik tarkib.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы развития системы высшего образования Узбекской ССР в 1945–1991 годах и историко-идеологическая преемственность этих процессов с движением джадидов, в частности, с образовательными идеями джадидов Ферганской долины. Исследование охватывает кадровую политику в высшем образовании, проблемы этнического состава и роль светских наук в контексте концепции «национального развития», выдвинутой джадидами. В статье утверждается, что высшее образование советской эпохи является продолжением интеллектуального фундамента, о котором мечтали джадида в новых социально-политических условиях.

Ключевые слова: высшее образование, джадидизм, Ферганская долина, Узбекская ССР, просвещение, подготовка кадров, этнический состав.

Abstract: This article analyzes the stages of development of the higher education system in the Uzbek SSR between 1945 and 1991, as well as the historical and ideological continuity of these processes with the educational ideas of the Jadid movement, specifically the Jadids of the Fergana Valley. The study highlights human resource policies in higher education, issues of ethnic composition, and the role of secular sciences through the prism of the “national progress” concept proposed by the Jadids. The article substantiates that the higher education of the Soviet period was a continuation of the intellectual foundation envisioned by the Jadids within a new socio-political context.

Keywords: higher education, Jadidism, Fergana Valley, Uzbek SSR, enlightenment, personnel training, ethnic composition.

Biz tarixdan shuni bilamizki, Turkiston oʻrta asrlarda, rus imperiyasi davrida ilmiy qoloqlik, diniy va dunyoviy bilimlarning cheklanishi, erkin fikr imkoniyatining yoʻqqa chiqishi kabi botqoqlikka botib qolgan edi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yurtimizni shu oʻrta asrga va mustamlakachilikka xos boʻlgan tizimdan ozod etish, islom dinini isloh qilib, uni aslicha koʻrsatish, xalqni ilm olishga undash, Turkistonni mustaqillikka olib chiqish va buning uchun muxtoriyat hukumatini barpo etish, Respublikamizning turli viloyatlarida parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini oʻrnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, oʻzbeklarga hos boʻlgan milliy valyutani joriy qilish va eng zamonaviy qurollar bilan taʼminlangan milliy qoʻshin tuzish, yoshlarni ijtimoiy faolligini, bilim salohiyatini oshirish, davlat kelajagi uchun etuk kadr boʻlib etishishi uchun ularni chet ellarda oʻqitish kabi maqsadlarni amalga oshirish maqsadida Toshkent, Fargʻona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlar tomonidan ochilgan madaniy-maʼrifiy yoʻnalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Yangi asr boshlarida jadidlar nomi bilan mashhur boʻlgan, oʻz ongli hayotini, butun borligʻini yurt, millat ozodligi, hurligi va ravnaqiga baxsh etgan istiqlol dargʻalari etishib chiqdi [2: 6]

Turkiston oʻlkasidagi milliy istiqlol uchun olib borilgan umumxalq harakatiga jadid taraqqiyparvarlar va islom dini ruhoniylari boshchilik qildilar. Ularning shiori Munavvarqori taʼkidlaganidek “Ozodlik”, “Tenglik” va “Adolat” edi. Bu ezgu shiorlar oʻlka fuqarolarining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan edi [3: 25].

Xususan Fargʻona vodiysi jadidchilik harakatining eng faol oʻchoqlaridan biri boʻlgan. Bu hududda jadidlar nafaqat taʼlim islohotlari, balki matbuot, teatr va ijtimoiy-siyosiy masalalarda ham etakchilik qilishgan. Fargʻona vodiysida faoliyat olib borgan jadid bobolarimiz oʻzining oʻrni va yoʻnalishlariga ega boʻlgan:

1. Ashurali Zohiriy. Taniqli tilshunos, pedagog va jurnalist. Qoʻqonda ilk “yangi usul” maktablarini ochgan va “Sadoi Fargʻona” gazetasiga asos solgan.
2. Obidjon Mahmudov. Matbaachi va noshir. U “Sadoi Fargʻona” gazetasining muharriri boʻlgan va Turkiston Muxtoriyati hukumatida faol ishtirok etgan.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Ilk faoliyati davrida Qoʻqon va boshqa shaharlarda jadid maktablari ochgan, darsliklar yozgan.
4. Ibrat (Ishoqxon Toʻra). Namanganlik boʻlsa-da, Qoʻqondagi matbaa ishlari va taʼlim jarayonlariga katta taʼsir koʻrsatgan. Maʼrifatparvar, xattot va olim. U Namanganning Toʻraqoʻrgʻonida “Matbaai Ishoqiya” ga asos solgan va “Lugʻati

sitta-alsina” (Olti tilli lug‘at) kabi noyob asarlar yaratgan. Behbudiydin so‘ng vodiydagi eng kuchli jadid namoyandalardan biri hisoblanadi.

5. Mirmuhsin Shermuhamedov. Adib va jurnalist, milliy matbuot rivojiga hissa qo‘shgan.

6. Abdulhamid Cho‘lpon. Turkiston jadid adabiyotining eng yirik vakili. Uning asarlari butun vodi yoshlari uchun mustaqillik va bilim ramzi bo‘lgan.

7. Mirkomilboy Mo‘minboyev. Ular jadid maktablarini va xorijda (Germaniya, Turkiya) o‘qiydigan talabalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan.

8. Saidnosir Mirjalilov. Nafaqat Marg‘ilonda, balki butun Turkistonda jadid maktablari ochishga homiylik qilgan va “Turkiston” savdo uyi orqali iqtisodiy islohotlar o‘tkazishga intilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan jadid ma‘rifatparvarlari – taraqqiyparvarlar (jadidlar o‘zarini shunday deb atardilar) chorizmning qarshiligini bartaraf etib, jismoniy jihatdan yo‘q qilib yuborish tahdidiga ham qaramasdan, o‘z ma‘rifatparvarlik faoliyatidan qaytmadilar, tabiiy fanlar asoslari o‘qitiladigan yangi usul maktablarini targ‘ib qilishlari, gazeta va jurnallar nashrlari, gazeta va jurnallar nashrlari asosida xalq ommasi bilan aloqani yo‘lga ko‘yib, ana shu aloqani mustahkamladilar, xalqda taraqqiyot, ilm sari intilishni uyg‘otdilar, bularni butun insoniyat hayoti bilan bog‘ladilar [3: 19]. Ularning bu harakatlari garchand o‘zlari vafot etgan bo‘lsalarda ikkinchi jahon urushidan keying ta‘lim taraqqiyoti ya‘ni oliy ta‘lim tizimini ham rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Garchi vaqt nuqtayi nazaridan oraliqda masofa bo‘lsa-da, 1945–1991-yillardagi jarayonlarni jadidlar orzu qilgan “ma‘rifatli millat” modelining sovet qobig‘idagi ko‘rinishi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek jadidlar “kadrlar elitasi”ni yaratish maqsadida o‘tib kelayotgan yosh avlodlarni chet ellarda, asosan, Germaniya va Turkiya davlatlariga o‘z hisoblaridan o‘qishga yubirish tizimini yo‘lga qo‘ydilar. 1945-yildan keyin O‘zbekiston SSRda oliy ta‘limning kengayishi (ayniqsa, milliy kadrlarning aspirantura va doktoranturaga jalb qilinishi) – bu jadidlar boshlagan “milliy muta-xassislar qatlamini yaratish” strategiyasining davomli bosqichi sifatida talqin qilinadi. Jadidlar ekan “bilim urug‘lari” (hatto ular qatag‘on qilingan bo‘lsa ham) 1950–1980-yillardagi o‘zbek olimlari avlodining shakllanishiga zamin bo‘lgan.

Jadidlar “Usuli jadid” maktablari orqali ta‘limni diniy ta‘limotdandan dunyoviy fanlarga (fizika, matematika, geografiya) yo‘naltirgan. Bu esa 1945–1991-yillarda O‘zbekistonda ochilgan o‘nlab texnik va tabiiy fanlar oliygohlari (masalan, Toshkent davlat texnika universiteti yoki Fizika-texnika instituti faoliyati) jadidlarning “dunyo bilan bo‘ylashish uchun dunyoviy ilmlarni egallash” chaqirig‘ining amalga oshishi sifatida ko‘rsatiladi.

Jadidlar til masalasiga juda qattiq qaraganlar. Ularning “Ona tili – millat ruhidir” degan qarashlari 1945–1991-yillarda oliy ta’limda darslarni o‘zbek tilida olib borish, o‘zbekcha darsliklar yaratish uchun kurashgan professorlar (masalan, Ibrohim Mo‘minov kabi arboblari) aslida jadidlarning “milliy tilni ilm tili darajasiga ko‘tarish” g‘oyasini sovet mafkurasi sharoitida davom ettirishgan.

Farg‘ona vodiysi jadidlari (masalan, Ashurali Zohiriy va Ishoqxon Ibrat) XX asr boshida mahalliyashtirilgan o‘quv qo‘llanmalari va lug‘atlar yaratishgan. 1945–1991-yillarda Farg‘ona, Andijon va Namanganda tashkil etilgan oliy o‘quv yurtlari (pedagogika institutlari, politexnika institutlari) aslida jadidlar boshlagan “milliy muallimlar tayyorlash” g‘oyasining kengaytirilgan shakli edi. Jadidlar yaratgan darsliklar va lug‘atlar sovet davridagi o‘zbek tilidagi oliy ta’lim bazasi uchun metodik manba bo‘lib xizmat qilgan.

Ishoqxon Ibrat Namanganda o‘z matbaasini ochgan va texnikaga katta e’tibor bergan. Uning “Maorifni dunyo bo‘ylab yoymoq kerak” degan shiori 1945-yildan keyin vujudga kelgan Farg‘ona vodiysidagi texnika oliygohlari faoliyati bilan bog‘lanadi. Jadidlar texnikani millat najoti deb bilishgan, 1945–1991-yillardagi oliy ta’lim tizimi esa bu orzuni sanoatlashtirish orqali amalga oshirdi.

Andijon jadidchiligining yirik vakili Cho‘lponning ma’rifatparvarlik g‘oyalari vodiylar yoshlari orasida ilimga intilish ruhini saqlab qolgan [7: 25]. 1945–1991-yillarda Andijonda oliy ta’limning rivojlanishi (Andijon davlat universiteti, Tibbiyot instituti) hududdagi qadimiy madaniy-ma’rifiy markaz tushunchasining tiklanishi sifatida talqin qilinadi. Andijonlik ko‘plab talabalarning 1920-yillarda Germaniyaga o‘qishga yuborilishi (jadidlar homiyligida) – keyinchalik 1950-yillardagi o‘zbek akademik elitasining shakllanishiga turtki bo‘lgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, 1945–1991-yillarda Farg‘ona vodiysida oliy ta’limning jadal rivojlanishi tasodifiy emas. Bu jarayon hududda XX asr boshidayoq Ishoqxon Ibrat, Ashurali Zohiriy va Cho‘lpon kabi jadidlar tomonidan shakllantirilgan kuchli intellektual salohiyat va ma’rifiy poydevorga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999.
2. Usmonov Q, Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi.(1917-1991). – Toshkent: Sharq, 2014.
3. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonov S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Moliya-Iqtisod, 2016.
4. Qosimov B. Jadidchilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000.

6. Зиёева Д. Туркистон жади́дчилик ҳаракати тарихи. – Тошкент: Университет, 1993.
7. Shamsiddinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.

MUSTAQILLIK ARAFASIDA O‘ZBEK IJODKOR ZIYOLILARINING FAOLIYATI

Shodiyeva Aziza Zokir qizi
Navoiy davlat universiteti
Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1980-yillarning ikkinchi yarmi hamda mustaqillik arafasida o‘zbek ijodkor ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. “Qayta qurish” siyosati davrida adabiyot, publitsistika, teatr va ommaviy axborot vositalarida yuz bergan o‘zgarishlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida milliy til, tarixiy xotira, jadidchilik merosi va ma’naviy uyg‘onish masalalarida ziyolilar faoliyati konkret tarixiy faktlar, statistik ma’lumotlar va ilmiy iqtiboslar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ziyolilar, perestroyka, milliy uyg‘onish, o‘zbek adabiyoti, tarixiy xotira, jadidlar, ma’naviyat, publitsistika.

Аннотация: В данной статье анализируется роль узбекской творческой интеллигенции в социально-политической и культурной жизни во второй половине 1980-х годов и накануне независимости. Научно освещены изменения, произошедшие в литературе, журналистике, театре и средствах массовой информации в период “перестройки”. В ходе исследования на основе конкретных исторических фактов, статистических данных и научных ссылок раскрывается деятельность интеллигенции по вопросам национального языка, исторической памяти, наследия джадидизма и духовного возрождения.

Ключевые слова: интеллигенция, перестройка, национальное возрождение, узбекская литература, историческая память, джадидизм, духовность, журналистика.

Abstract: This article analyzes the role of Uzbek creative intellectuals in socio-political and cultural life in the second half of the 1980s and on the eve of independence. The changes that occurred in literature, journalism, theater and mass media during the “perestroika” policy are scientifically covered. During the study, the activities of intellectuals on the issues of national language, historical memory, Jadidism heritage and spiritual revival are revealed on the basis of concrete historical facts, statistical data and scientific citations.

Keywords: intellectuals, perestroika, national revival, Uzbek literature, historical memory, Jadidism, spirituality, journalism.

1980-yillarning ikkinchi yarmi sobiq Sovet Ittifoqida siyosiy va mafkuraviy inqiroz kuchaygan davr sifatida tarixga kirdi. Ayniqsa, Mixail Gorbachyov tomonidan e'lon qilingan "qayta qurish" va "oshkoralik" siyosati milliy respublikalarda tarixiy xotira va milliy o'zlik masalalarining qayta tiklanishiga sabab bo'ldi. O'zbekistonda ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ijodkor ziyolilar bo'ldi. Adabiyotshunos Naim Karimovning yozishicha, "1980-yillar oxiriga kelib o'zbek she'riyati yashirin milliy qarshilik maydoniga aylandi" [1]. Tarixchi B.Qosimov ta'kidlaganidek, "Milliy uyg'onish avvalo adabiyot va ma'naviy tafakkur orqali shakllanadi" [2]. Haqiqatan ham, mustaqillik arafasi yozuvchi, shoir, jurnalist va teatr arboblari jamiyatning siyosiy ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

1970–1980-yillarda sovet mafkurasi san'at va adabiyotni to'liq nazorat ostiga olishga harakat qildi. "Sotsialistik realizm" tamoyili ijodkorlardan sovet tuzumini madh etishni talab qilardi. Biroq o'zbek ziyolilari badiiy ramzlar orqali milliy qadriyatlarni saqlab qolishga intildi. 1985-yilga kelib O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida 700 ga yaqin ijodkor faoliyat yuritgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublikada yiliga o'rtacha 1500 dan ortiq badiiy asar chop etilgan. Ularning muayyan qismi tarixiy va milliy ruhdagi mavzularga bag'ishlangan.

Mustaqillik arafasidagi eng muhim tarixiy voqealardan biri – 1989-yilda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishidir. Ushbu jarayonda yozuvchilar va jurnalistlar faol ishtirok etdi. 1989-yil davomida respublika matbuotida til masalasiga oid 400 dan ortiq maqola e'lon qilingan. Ayniqsa, ziyolilar o'zbek tilining davlat maqomiga ega bo'lishini milliy mustaqillikning muhim sharti sifatida talqin qilgan. Shoir Erkin Vohidov shunday yozgan edi: "Til – millatning yuragi va tarixiy xotirasidir" [3]. Bu fikr o'sha davr ma'naviy harakatining asosiy g'oyaviy shoriga aylangan. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlar asarlarida inson qadr-qimmati, milliy xotira va ma'naviy qadriyatlarni ilgari surdi. Ayniqsa, Abdulla Oripovning "Munojotni tinglab" she'ri xalq orasida katta rezonans uyg'otgan[4].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1985-yilda tarixiy mavzudagi maqolalar umumiy matbuotning 7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 1990-yilda bu ko'rsatkich 28 foizga etgan. Bu esa jamiyatda tarixiy ongning kuchayganligini ko'rsatadi [5]. "Oshkoralik" siyosati va tarixiy xotiraning tiklanishi. 1986–1990-yillarda matbuotda ilgari taqiqlangan mavzular ochiq muhokama qilina boshladi. Jadidchilik harakati, qatag'on qurbonlari va milliy tarixga oid maqolalar soni keskin oshdi. 1988-yilda "Sharq yulduzi", "Yoshlik" va "Fan va turmush" jurnallarida jadidlar

faoliyatiga bag'ishlangan maqolalar chop etilishi katta ijtimoiy rezonans uyg'otdi [6].

Teatr va san'atning ijtimoiy ta'siri. 1980-yillar oxirida teatr san'ati ham muhim ijtimoiy minbarga aylandi. O'zbek Milliy akademik drama teatrida tarixiy mavzudagi spektakllar sahnalashtirildi. 1987–1990-yillarda respublikadagi teatr tomoshalari soni 20 foizga oshgan. Bu davrda tomoshabinlar sonining ortishi jamiyatning ma'naviy va tarixiy mavzularga qiziqishi kuchayganini ko'rsatadi. Kino san'atida ham milliy o'zlik masalasi kuchaydi. “Yosh kino ijodkorlar” guruhi tomonidan suratga olingan ayrim hujjatli filmlar sovet davri muammolarini ochiq ko'rsatishga harakat qilgan.

Mustaqillik arafasida o'zbek ijodkor ziyolilari nafaqat madaniy, balki siyosiy va ma'naviy uyg'onishning ham asosiy subyekti bo'ldi. Ularning faoliyati:

- tarixiy xotirani tiklash,
- milliy tilni himoya qilish,
- ma'naviy qadriyatlarni saqlash,
- jamiyatda mustaqillik g'oyasini shakllantirishga xizmat qildi.

Sotsiolog Karl Mannheimning fikricha, “ziyolilar jamiyat tafakkurining yo'nalishini belgilovchi qatlamdir” [7]. O'zbek ziyolilari faoliyati bu nazariyaning amaliy tasdig'i bo'ldi.

Mustaqillik arafasida o'zbek ijodkor ziyolilari milliy uyg'onish jarayonining eng muhim kuchlaridan biriga aylandi. Adabiyot, teatr, publitsistika va san'at orqali ular xalqning tarixiy xotirasi va milliy ongini shakllantirdi. Ularning faoliyati keyinchalik mustaqil O'zbekiston ma'naviy siyosatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент, 1999.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш. – Тошкент, 2002.
3. Орипов А. Танланган асарлар. – Тошкент, 2001.
4. Ҳошимов Ў. Дунёнинг ишлари. – Тошкент, 1982.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi materiallari (1985–1991).
6. “Sharq yulduzi” jurnali arxiv materiallari, 1988–1990.
7. Mannheim K. Ideology and Utopia. – London, 1936.

FEMINIZM TARIXSHUNOSLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Shamsiyeva Mahfuzaxon Xo'ja qizi
FarDU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada feminizm tarixshunosligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot feminizmning tarixiy bilimga ta'sirini, ayollar tarixining mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishini hamda G'arb va Sharq kontekstlarida feminist tarixshunoslikning farqli rivojlanish yo'llarini o'rganadi. Maqolada Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida feminizm tarixshunosligi qanday qabul qilinayotgani, sovet davri "hujum" siyosati, postkolonial tanqid va zamonaviy gender tadqiqotlari o'rtasidagi bog'liqliklar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: feminizm, tarixshunoslik, gender tarixi, ayollar tarixi, postkolonializm, "hujum" siyosati, Markaziy Osiyo, O'zbekiston, feminist metodologiya, "uchinchi to'lqin" feminizm.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется историография феминизма. Исследование рассматривает влияние феминизма на историческое знание, формирование женской истории как самостоятельного научного направления, а также различные пути развития феминистской историографии в контексте Запада и Востока. В статье раскрывается, как воспринимается историография феминизма в Центральной Азии, в частности в Узбекистане, а также связи между советской политикой «худжум», постколониальной критикой и современными гендерными исследованиями.

Ключевые слова: феминизм, историография, гендерная история, женская история, постколониализм, политика «худжум», Центральная Азия, Узбекистан, феминистская методология, феминизм «третьей волны».

Abstract. This article theoretically analyzes the historiography of feminism. The study examines the influence of feminism on historical knowledge, the formation of women's history as an independent scientific field, and the different development paths of feminist historiography in Western and Eastern contexts. The article reveals how the historiography of feminism is being received in Central Asia, particularly in Uzbekistan, as well as the connections between the Soviet-era "khujum" policy, postcolonial criticism, and contemporary gender studies.

Keywords: feminism, historiography, gender history, women's history, postcolonialism, "khujum" policy, Central Asia, Uzbekistan, feminist methodology, "third-wave" feminism.

Tarix fani uzoq asrlar davomida asosan erkaklar nuqtai nazaridan yozib kelingan. Siyosiy voqealar, urushlar, davlat qurilishi – bularning barchasi tarix sahifalarida erkak qahramon timsolida aks etgan. Ayollar esa tarix subyekti sifatida emas, balki ko‘pincha uning passiv ob‘yekti yoki umuman “ko‘rinmas” ishtirokchisi sifatida qolib kelgan. XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa 1960–1970-yillarda G‘arb mamlakatlarida kuchaygan ikkinchi to‘lqin feminizm harakati bu vaziyatni tubdan o‘zgartirishga kirishdi [1: 2].

Feminist tarixshunoslik shunchaki “ayollar haqida yozish” emas. Bu – tarixiy bilimning o‘zini qayta ko‘rib chiqish, tarixiy manbalarni yangi ko‘z bilan o‘qish, “tarixiy haqiqat” tushunchasining o‘zini tanqidiy baholashdir. Joan Scott o‘zining yo‘lboshchi asarida shunday ta‘kidlagan edi: gender tahlili nafaqat ayollarni tarixga kiritish, balki tarixning o‘zini qayta yozish demakdir [1: 28-30]. Bu fikr, bizningcha, butun feminist tarixshunoslikning bosh tamoyilini o‘zida mujassam etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi feminizm tarixshunosligi rivojlanishining asosiy bosqichlarini, uning nazariy asoslarini va Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston kontekstidagi o‘rganilishini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o‘zbek ilmiy muhitida feminist tarixshunoslik hali mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida to‘liq shakllanmagan va bu borada jiddiy tahliliy ishlar etarli emas.

Feminist tarixshunoslikning ildizlari XIX asr oxiriga borib taqaladi. Ayollar huquqlari uchun kurash – suffrajistik harakat – davomida ayrim tadqiqotchilar ayollarning tarixiy rolini yoritishga harakat qildilar. Lekin bu urinishlar uzoq vaqt davomida akademik doiralarda jiddiy qabul qilinmadi [2: 10-12].

Haqiqiy burilish nuqtasi 1960–1970-yillarda yuz berdi. Gerda Lerner o‘zining “The Creation of Patriarchy” asarida patriarxal tuzumning tarixiy ildizlarini izlab, ayollarning tarixdan chetlashtirilishi ongli jarayon ekanligini ko‘rsatib berdi [2: 36]. Joan Kelly esa “Renessans davrida ayollarning ahvoli yaxshilandimi?” degan mashhur savolini qo‘yib, tarixiy davrlashtirish tizimining o‘zi erkak nuqtai nazaridan qurilganligini isbotladi [3: 19].

Bu bosqichda feminist tarixshunoslik bir necha asosiy yo‘nalishga ajraladi. Birinchisi – “ayollarni tarixga qaytarish” (compensatory history) yondashuvi. Bu yondashuv tarix sahifalarida unutilgan yoki ataylab chetga surilgan ayollarni topish va ularning hissasini yoritishga qaratilgan edi. Ikkinchi yo‘nalish – “ayollar tajribasi tarixi” (women’s experience) – ayollarning kundalik hayoti, oilaviy munosabatlari, mehnat sharoitlarini o‘rganishga yo‘naltirildi [4: 45].

1980-yillarga kelib uchinchi, metodologik jihatdan eng chuqur yo‘nalish shakllandi – gender tarixi. Joan Scott bu tushunchani ilmiy muomalaga kiritib, genderni “tarixiy tahlilning asosiy kategoriyasi” deb e‘lon qildi [1: 42-44]. Gender tarixi faqat ayollar haqida emas, balki erkaklik va ayollik tushunchalarining tarixiy

konstruksiyasi, ular o'rtasidagi hokimiyat munosabatlari haqida so'z yuritardi. Bu yondashuv feminist tarixshunoslikni yangi bosqichga ko'tardi.

1990-yillarda "uchinchi to'lqin" feminizm ta'sirida tarixshunoslik yanada murakkablashdi. Judith Butler o'zining poststrukturalistik nazariyasi bilan gender tushunchasining o'zini ham tanqid ostiga oldi [5: 6-8]. Endi gap faqat "ayol" va "erkak" orasidagi farq haqida emas, balki bu kategoriyalarning o'zi qanday tarixiy sharoitlarda va qanday hokimiyat mexanizmlari orqali yaratilganligi haqida bora boshladi.

Nancy Cott Amerika Qo'shma Shtatlarida zamonaviy feminizmning shakllanishi haqidagi tadqiqotida XIX–XX asr boshidagi ayollar harakatining murakkab ichki tuzilmasini ochib berdi [6: 3-5]. Uning ishi shuni ko'rsatadiki, feminizm hech qachon yagona, monolitik harakat bo'lmagan – u doimo ichki bahslar, qarama-qarshiliklar va turli yo'nalishlar majmuyi bo'lgan.

Markaziy Osiyoda feminist tarixshunoslikning rivojlanishi o'ziga xos yo'ldan borgan. Sovet davrida "ayollar masalasi" rasmiy mafkuraning muhim qismiga aylangan edi. 1927-yilda boshlangan "hujum" kampaniyasi – paranjini tashlash harakati – sovet hukumatining Markaziy Osiyodagi eng keng ko'llamli ijtimoiy tajribalaridan biri bo'ldi [7: 89]. Gregory Massell o'zining klassik asarida sovet hukumatining Markaziy Osiyo ayollarini "o'rinbosar proletariat" sifatida ishlatganini ta'kidladi [8: 112]. Ya'ni sinf kurashi uchun tayyor proletariat yo'q joyda ayollarni siyosiy mobilizatsiya vositasi sifatida qo'lladilar. Bu yondashuv ayollar manfaatlarini himoya qilish emas, balki hokimiyatni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan edi. Massellning ishi feminist tarixshunoslik uchun muhim manba bo'lsa-da, u asosan tashqi kuzatuvchi sifatida yozilgan.

Douglas Northrop "parda" masalasini hokimiyat va gender munosabatlari nuqtai nazaridan tahlil qilib, "Hujum" kampaniyasi davomida ayollar tanasining siyosiy kurash maydoniga aylanganini ko'rsatdi [9: 14]. Uning tadqiqoti shuni isbotladiki, paranjani echish yoki kiyish masalasi shunchaki "kiyim" masalasi emas, balki milliy identitet, mustaqillik va hokimiyat o'rtasidagi kurashning ramziy ifodasi edi. Marianne Kamp o'zbek ayollarining "yangi ayol" timsoliga munosabatini tadqiq qilib, mahalliy ayollarning sovet modernizatsiyasiga turli munosabat bildirganliklarini ko'rsatdi [10: 8-10]. Ba'zi ayollar paranjani ixtiyoriy ravishda tashladilar va yangi imkoniyatlardan foydalandilar. Boshqalari esa bu jarayonga qarshilik ko'rsatdilar. Eng muhimi, Kamp ayollarni bir xil massa sifatida emas, balki turli strategiyalarga ega bo'lgan shaxslar sifatida ko'rsatdi [10: 195-198].

Adib Halid sovet davrida islom va siyosat munosabatlarini o'rganar ekan, gender masalasiga ham to'xtalib o'tdi [11: 62]. Uning fikricha, sovet hukumatining "ayollarni ozod qilish" siyosati bir vaqtning o'zida ham chinakam ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi, ham mahalliy jamiyat ichida chuqur ziddiyatlar tug'dirdi.

Bu ikki tomonlama jarayon feminist tarixshunoslik uchun muhim tadqiqot obyektidir. Adrienne Edgar Turkmaniston misolida sovet millatlar siyosati va gender munosabatlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatdi [12: 221-245]. Barbara Clements esa bolshevik ayollarning o'ziga xos tajribasini o'rganib, inqilob va ayollar ozodligi orasidagi murakkab aloqani yoritdi [13: 138]. Markaziy Osiyoda ayollar masalasiga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlar ham borgan sari ko'paymoqda. M. Toxtaxo'jayeva sovet davri va islom qonunlari orasidagi ziddiyatda ayollar holatini o'rganib, muhim xulosalarga keldi [14:67-69]. M.Suyarqulov O'zbekistondagi ayollar harakatining tarixiy bosqichlarini tizimlashtirdi [15: 34-38]. N. Abdullayeva esa Sharq feminizmining nazariy va amaliy jihatlarini haqida keng qamrovli tahlil taqdim etdi [16: 12-14].

Bugungi kunda feminist tarixshunoslik bir qator muhim muammolarga duch kelmoqda. Birinchidan, "ayollar tarixi" va "gender tarixi" orasidagi munosabat hali to'liq hal etilmagan. Ba'zi tadqiqotchilar gender tarixiga o'tish ayollar tarixining yo'qolishiga olib kelishi mumkinligidan xavotirlanadi [4: 67-70].

Ikkinchi muammo – manbalar masalasi. Sovet davridagi ayollar hayotiga oid ko'plab hujjatlar, xotiralar, kundaliklar yo'qolgan yoki arxivlarda etarli tartibga solinmagan. Mahalliy ayollarning "o'z ovozi" bilan yozilgan manbalar juda kam. Bu esa feminist tarixshunoslikning asosiy tamoyili – ayollar tajribasini ularning o'z nuqtai nazaridan yoritishni amalga oshirishni qiyinlashtiradi [15: 112-115].

Uchinchi jihat – metodologik muammo. O'zbek tarixshunosligida gender tahlili metodologiyasi hali to'liq joriy etilmagan. Ko'pchilik tadqiqotlarda ayollar tarixi alohida, "qo'shimcha" mavzu sifatida ko'rib chiqiladi, umumiy tarixiy jarayonning ajralmas qismi sifatida emas. Buning uchun tarix fani metodologiyasini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida gender tadqiqotlariga e'tibor kuchaymoqda. Xalqaro ilmiy loyihalar doirasida mahalliy tadqiqotchilar G'arb feminist nazariyalari bilan tanishish va ularni mahalliy kontekstga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu jarayon, garchi sekin kechayotgan bo'lsa-da, kelajak uchun muhim zamin tayyorlamoqda.

Tadqiqotimiz davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, feminist tarixshunoslik XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan va tarix fani metodologiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan muhim ilmiy yo'nalishdir. U bir necha bosqichdan o'tdi: dastlab "ayollarni tarixga qaytarish" yondashuvidan boshlab, "ayollar tajribasi tarixi" orqali gender tarixigacha. Har bir bosqichda nazariy va metodologik doiralar kengayib bordi.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston kontekstida feminist tarixshunoslik hali shakllanish bosqichida. Sovet davridagi "hujum" siyosati, ayollarning ijtimoiy hayotga jalb etilishi, mustaqillik davrida gender munosabatlarining o'zgarishi – bularning barchasi feminist tarixshunoslik nuqtai nazaridan yangi o'rganilishni talab qiladi.

Yakunda shuni ta'kidlash lozimki, feminist tarixshunoslik nafaqat ayollar tarixini yoritishga, balki umuman tarix fani metodologiyasini boyitishga, tarixiy bilimning chegaralarini kengaytirishga xizmat qiladi. O'zbekiston tarixshunosligi uchun bu yo'nalish katta imkoniyatlar va bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Kelajakda arxiv hujjatlarining keng ochilishi, og'zaki tarix (oral history) usullarining qo'llanilishi va xalqaro ilmiy hamkorlikning rivojlanishi bu sohada yangi tadqiqotlar uchun keng yo'l ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Scott J. W. Gender and the Politics of History. – New York: Columbia University Press, 1988. – 242 p.
2. Lerner G. The Creation of Patriarchy. – New York: Oxford University Press, 1986. – 318 p.
3. Kelly J. Did Women Have a Renaissance? // Women, History, and Theory. – Chicago: University of Chicago Press, 1984. – P. 19–50.
4. Smith B. G. The Gender of History: Men, Women, and Historical Practice. – Cambridge: Harvard University Press, 1998. – 308 p.
5. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990. – 272 p.
6. Cott N. F. The Grounding of Modern Feminism. – New Haven: Yale University Press, 1987. – 372 p.
7. Po'lat Z. Sovet davrida "hujum" siyosati va uning oqibatlari. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 256 b.
8. Massell G. J. The Surrogate Proletariat: Moslem Women and Revolutionary Strategies in Soviet Central Asia, 1919–1929. – Princeton: Princeton University Press, 1974. – 448 p.
9. Northrop D. Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. – Ithaca: Cornell University Press, 2004. – 392 p.
10. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 320 p.
11. Khalid A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 2007. – 253 p.
12. Edgar A. L. Tribal Nation: The Making of Soviet Turkmenistan. – Princeton: Princeton University Press, 2004. – 296 p.
13. Clements B. E. Bolshevik Women. – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. – 338 p.

14. Tokhtakhodjayeva M. Between the Slogans of Communism and the Laws of Islam. – Lahore: Shirkat Gah, 1995. – 208 p.

15. Suyarqulov M. O'zbekistonda ayollar harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2005. – 224 b.

16. Abdullayeva N. Sharq feminizmi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 192 b.

XX ASRNING 80 – 90-YILLARIDA FARG'ONA VILOYATI TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR TAYORLASH JARAYONI

*Olimov Jahongir Bo'riboyevich
Qo'qon davlat universiteti katta o'qituvchisi, t.f.f.d.*

*Mamajonova Gulnoraxon Ismoiljon qizi
Qo'qon davlat universiteti
Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi
tarix mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 80-90 yillarida Farg'ona viloyati ta'lim tizimida kadrlar tayorlash jarayoni hamda Farg'ona viloyatidagi 1980 – 1990-yillar davridagi xalq ta'limining ahvoli xususan, O'zbekiston SSRda ta'lim tizimi rivoji, o'qituvchilar ijtimoiy holati masalasi, kadrlar masalasi muammolari, zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalarining etishmasligi, fan laboratoriyalarining jihozlanmaganligi, asosiy e'tibor miqdoriy ko'rsatkichlariga qaratilganligi natijasida ta'lim sifati darajasining pasayishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, o'rta ta'lim, o'qituvchilar ijtimoiy holati, pedagog kadrlar, o'rta maxsus ta'lim, xalq ta'limini boshqarish tizimi, madaniy transformatsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс подготовки кадров в системе образования Ферганской области в 80-90-е годы XX века и состояние народного образования в Ферганской области в 1980-1990-е годы, в частности, развитие системы образования в Узбекской ССР. Затрагиваются вопросы социального статуса учителей, проблемы кадрового обеспечения, нехватка современных учебников и методических пособий, недостаток оборудования в естественнонаучных лабораториях, а также ориентация на количественные показатели, что привело к снижению качества образования.

Ключевые слова: система образования, среднее образование, социальный статус учителей, педагогические кадры, среднее специальное образование, система управления государственным образованием, культурная трансформация.

Abstract. This article examines the process of personnel training in the education system of the Fergana region during the 1980s and 90s of the 20th century, as well as the state of public education in the Fergana region during the 1980s and 1990s, particularly the development of the education system in the Uzbek SSR, the issue of the social status of teachers, personnel issues, the lack of modern textbooks and teaching aids, the lack of equipment in scientific laboratories, and the focus on quantitative indicators have led to a decline in the quality of education.

Keywords: education system, secondary education, social status of teachers, teaching staff, secondary specialized education, public education management system, cultural transformation.

Farg‘ona viloyat ta’lim sohasida kadrlar tayyorlash masalasi doim o‘zgaruvchan bo‘lgan. Rivojlanish jarayonlari davlat olib borgan siyosatga qarab o‘zgarib borgan. 80-yillargacha bo‘lgan davr oralig‘ini qaraydigan bo‘lsak, nafaqat Farg‘ona viloyati butun respublikada pedagogik bilim yurtlari salmog‘i ancha past edi. 80 yillargacha Farg‘ona viloyatida 2 ta kadrlar etishtirib beruvchi ilm dargohi mavjud edi. Shulardan biri Farg‘ona davlat universitetining tashkil etilishi viloyat va butun vodiyni ijtimoiy va madaniy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Universitet maqomidagi oliy o‘quv yurtining vujudga kelishi nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash, balki mintaqada ilm-fan taraqqiyoti uchun ham yangi ufqlar ochib berdi. Farg‘onada universitetning ochilishi bu yerda yangi kadrlar va tadqiqotlar markazlarini tashkil etish, keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish hamda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishga munosib hissa qo‘sha boshladi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va madaniy-tarixiy metodlar asosiga qurilgan. Ilmiy ishda asosan XX asrning 80–90-yillarida Farg‘ona viloyati ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash jarayoni tahlil qilingan.

Tahlil etilayotgan yillarda yuqorida bayon qilinganlardan Farg‘ona viloyatida umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi islohotlar osonlik bilan muvaffaqiyatli amalga oshirildi, kamchiliklar va nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida umumta’lim maktablari o‘quvchilari bilan darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. Xususan, o‘quvchilarning darsdan tashqari bo‘sh vaqtlari mazmunli tashkil qilinmagani oqibatida ular o‘rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik ortib borgan. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida o‘quvchilar o‘rtasida umumiy jinoyatlar sonining ortishi bo‘yicha Farg‘ona viloyati respublikada birinchi o‘rinda turgan. 90-yillarning oxirlarida ham vodiylar viloyatlari, shahar va tumanlarida intizom yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quvchilar orasida huquqbuzarlik, tartibbuzarlik hollari ko‘p uchraydigan maktablar soni anchagina bo‘lib, Farg‘ona

shahrida 16 tani, Qo'qonda 8 tani tashkil etgan. Bu, o'z navbatida, respublikada o'sha davrda yuqori ko'rsatkich hisoblangan [1].

Bundan tashqari maktablarda ta'lim mazmuni ustidan nazorat qoniqarsizligi, o'quvchilarning egallagan bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlarning etarli yo'lga qo'yilmaganligi, darsliklar etishmasligi, ayrim maktablarda o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularga metodik xizmat ko'rsatish ishlarining oqsayotganligi, hududiy boshqaruv organlarining mahalliy hokimliklar bilan kelishgan holda maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rmaganligi natijasida maktab bitiruvchilarining bilim sifati past bo'lishiga sabab bo'ldi. Masalan, OTMlariga kirish uchun imtihon topshirgan abituriyentlar 0%–30% gacha past ball to'plaganlar soni 1999-yilda 50000 nafar tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 0%–30% gacha past ball to'plagan abituriyentlar soni 73860 taga yoki 23860 taga oshgan. 1999-yilda respublika bo'yicha abituriyentlarning umumiy soniga nisbatan o'rtacha ball 102,12 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2000-yilda o'rtacha ball ko'rsatkichida pasayish kuzatildi va bu 88,56 ballni tashkil qildi [2]. 2000-yil test yakunlarining viloyatlar bo'yicha tahliliga e'tibor qaratsak, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari, Toshkent shahri barcha fanlari bo'yicha yuqori o'rinni egallashgan. Surxondaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo viloyatlari esa barcha fanlar bo'yicha past natija ko'rsatib respublika bo'yicha oxirgi o'rinni egallashgan [3].

Sohada amalga oshirilgan islohotlar bilan birga o'z echimini kutayotgan bir qator muammolar ham bor bo'lib, bulardan eng asosiysi sifatida respublikadagi mavjud maktablar moddiy-texnik holatining nochorligini qayd etish lozim. Mustaqillikka erishish arafasida respublika maktab ta'limi moddiy-texnik holatiga e'tibor qaratsak, jumladan, 1987-yilning sentabr oyi ma'lumotlariga ko'ra jami 7789 maktabdan 2501 (32%) tasi toza ichimlik suvi bilan, 5303 (68%) tasi kanalizatsiya bilan, 4587 (60%) tasi isitish tizimi bilan [4] ta'minlanmagan edi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi yuqorida aytib o'tilgan muammolarning paydo bo'lishi sobiq sho'ro davrida 70-yillar oxiri va 80-yillarda iqtisodiyotning biryoqlama rivojlanishi oqibatida jamiyatning barcha sohalarida yuzaga kelgan og'ir ahvol bilan bog'liq edi [5]. Bu davrda ta'lim tizimining qanchalik nochor holatda ekanligini tasavvur qilish uchun maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilganligini aytishning o'zi kifoya.

Umuman olganda, 1973–1991-yillar davomida Qo'qon davlat pedagogika instituti moddiy-texnik, ilmiy-pedagogik va kadrlar salohiyati jihatidan rivojlanib, Farg'ona vodiysida pedagog kadrlar tayyorlashning muhim markazlaridan biriga aylangan [6].

1980–1990-yillardagi xalq ta’limining holati va kadrlar tayyorlash masalalari haqida quyidagicha fikrlarni aytib o’tdi. O‘qish davomida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv adabiyotlar masalasida ancha qiyinchilikka duch kelganligini aytib o’tdi. Adabiyotlar asosan rus tilida bo‘lganligini ta’kidlab o’tdi. Bundan tashqari ish haqi masalasida ham bir qancha e’tirozlarini bildirib o’tdi.

O’sha davrlarda ya’ni 1980–1990-yillarda kadrlar tayyorlash jarayonida itoatkor kadrlarni tayyorlashga ko‘proq urg‘u berilganligi, talabalarning ijodiy faoliyatiga ijodkorlikka unchalik e’tibor qaratilmaganligini ta’kidladi [7].

“Maktablarda kerakli jihozlar etarli bo‘lgan”, – deydi suhbatdoshimiz. – Miltiq, avtomat, o‘q-dori va minalar bor edi. O‘qituvchilarning bilimi yaxshi, yurakdan dars bergan, lekin darslarda turli xil pedagogik texnologiyalardan va turlicha metodlardan foydalanilmagan”. O‘qituvchilar ijtimoiy hayoti haqida usti but, qorni to‘q bo‘lgani, kamdan kam o‘qituvchilarda mashina bo‘lgani haqida eslab o’tdi.

Mustaqillikning ilk yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan mamlakat ta’lim sohasida, shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida izchil islohotlarni amalga oshirishga kirishildi va bunda dastlabki islohotlar sohada mehnat qilayotgan o‘qituvchi-pedagoglarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga, yangi turdagi maktab-internatlar va litseylar ochilishiga e’tibor qaratildi.

Agar mustaqillikdan oldingi davrga e’tibor qarasak, umumiy o‘rta ta’lim va u erda mehnat qilayotgan pedagoglarning ijtimoiy holati bilan bog‘liq muammolar mavjud edi. Masalan, 1985-yilda respublika maktablarida ishlayotgan o‘qituvchilar soni 268,4 ming kishini tashkil qilgan holda, bu raqam 1990-yilga kelganda 243,9 ming nafarga tushib qoldi. Buning sababi, birinchidan, aholi o‘rtasida asosiy ziyo tarqatuvchi o‘qituvchiga nisbatan e’tiborsizlik bo‘lsa, ikkinchidan, o‘qituvchilarni ijtimoiy himoyalashda yo‘l qo‘yilgan jiddiy xatolar bo‘ldi [8].

Shularni inobatga olib Respublika Prezidentining 1990-yil 13-noyabrdagi PF-93-sonli “Barcha turdagi maktablarning o‘qituvchilariga, bolalar uylarining tarbiyachilariga qo‘shimcha imtiyozlar berish, yuqori sinf o‘qituvchilarining ish haqini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda maktab o‘qituvchilari va bolalar uylarining tarbiyachilariga ular yashab turgan davlatga qarashli uylar va kvartiralarni shaxsiy mulk sifatida bepul berilishi, yakka tartibda uy qurish uchun er ajratilishi nazarda tutilgan edi.

Farmon ijrosiga e’tibor qaratsak, xususan, 1999-yilgacha respublikada 97968 nafar xalq ta’limi xodimiga davlat uylari bepul xususiylashtirilib berildi, 21946 nafar xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar xususiylashtirildi, 35841 nafar pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun er maydonlari ajratildi, qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi kommunal xizmat uchun to‘lovlardan ozod bo‘lsalar, shaharliklar uning 50 foizi miqdorini to‘ladilar [9].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab o'quvchilarining bepul ovqatlanishi borasida amalga oshirilgan islohotlar respublika va vodiy viloyatlarida to'liq amaliyotga joriy etilmay qoldi. Bunga sabab 90-yillar boshlarida respublika maktablardagi mavjud 7181 ta oshxonadan 3507 (49%) tasi talab darajasiga mos bo'lmagan binolarda joylashgan edi, 522 ta maktabning esa umuman oshxonasi yo'q edi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarga bepul nonushta berish borasida ham muammolarni yuzaga keltirgan. Masalan, Farg'ona viloyatida maktab oshxonalaridagi ahvol talabga javob bermas edi [10].

Sohada amalga oshirilgan islohotlardan yana biri bu yangi turdagi maktablarning tashkil etilishi bo'ldi. O'zbekiston hukumatining 1990-yil 15-yanvardagi 32-sonli Qarori va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1990-yil 26-yanvardagi 45-sonli "Respublikada iqtidorli bolalar uchun maxsus maktab-internatlar tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'ini amalga oshirish maqsadida 1991–1992-o'quv yilidan boshlab internat tipida bo'lmagan yangi turdagi iqtidorli bolalar maktablari (litsey va gimnaziya) tashkil etila boshlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktablarga malakali kadrlar yetishtirib beruvchi dargohlar XX asr 80-yillar davomida mafkuraviy g'oyalar ta'sirida yoshlarga ilm berib ularni SSSR manfaatiga mos kadr qilib yetishtirishga harakat qilgan. Qayta qurish siyosati ham mana shunday g'oyani qo'llab-quvvatlashi lozim edi. Lekin moddiy-texnik baza juda yomon ahvolga tushib qolgan maktablarda yana boshqa muammolar mavjudligi, ya'ni o'qituvchilarning boshqa ishlarga, paxta terish yoki qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi maktab ta'lim sifatiga katta ta'sir qiladi. Shu boisdan ta'lim jarayoni juda oqsab qoladi, hattoki o'quvchilar rejadagi fanlarni to'liq yakunlay olmay qoladi. Bu jarayon faqatgina mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng o'z nihoyasiga etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хатамов Т. А. Ўзбекистон умумтаълим мактаблари таълим ислохотлари тизимида: муаммолар, ечими ва истиқболи (1991-2009 йй). Тарих фан. ном.... дисс. – Тошкент. 2010. – Б. 21.
2. Хатамов Т. А. Ўзбекистон умумтаълим мактаблари таълим ислохотлари тизимида: муаммолар, ечими ва истиқболи (1991-2009 йй). Тарих фан. ном.... дисс. – Тошкент. 2010. – Б. 21.
3. Абдуллаев Р., Рахимов М Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб.
4. Раҳматуллаев Ш. Фарғона водийси шаҳарларида иктисодий трансформация жараёнлари (1991-1996).
5. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Ikkinchi kitob. Mas'ul muharrirlar: Abdullayev R, Raximov M, Rajabov Q. – Toshkent: O'zbekiston. 2019.-574 b.

6. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган: Ибрат. 1995. – 147 б.
7. Farg‘ona istiqlolga shukrona. Farg‘ona viloyati ma’naviyat va ma’rifat kengashi. – Farg‘ona. 2011. – 181 b.
8. Shamsutdinov R. Is’hokov A. Andijon tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq, 2013. – 589 b.
9. Farg‘ona davlat universiteti. I. Tarix va yuksalish yillari. Mas’ul muharrir i.f.d. prof. Sh. Tashmatov. – Farg‘ona: 2015. – 294 b.
10. Раҳматуллаев Ш. Мустақиллик шароитида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар (1991-1996 йиллар). Тарих фан. ном.... дисс. – Тошкент: 2000. – 200 б.

SERQIRRA OLIM RAHMATJON ARSLONZODA ILMIY MEROSI HAQIDA

*Usmonov Bahriddin Ahmedovich
Farg‘ona davlat universiteti
tarix fanlari doktori, professor*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanlari nomzodi Rahmatjon Arslonzodaning (1954–2025) ilmiy-pedagogik faoliyati, shuningdek, uning tarixshunoslik rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Manbalarga asoslangan ushbu tadqiqot olimning 1984-2025 yillar oralig‘ida olib borgan tadqiqotlarini yoritib beradi, uning mazmuni, mohiyati va asosiy yo‘nalishlarini ochib beradi. Xususan, R.Arslonzoda o‘zbek, tojik, rus va ingliz tillarida 200 ga yaqin ilmiy maqolalar nashr etgani va uning tadqiqotlari 12 ta asosiy ilmiy yo‘nalishni qamrab olgani aniqlandi. Maqolada olimning Markaziy Osiyo tarixi, manbashunoslik, tarixshunoslik, etnik-madaniy jarayonlar va xalqaro ilmiy hamkorlik sohalaridagi ishlari alohida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, uning ilmiy qarashlari, tadqiqot metodologiyasi va yosh mutaxassislarni tayyorlashdagi o‘qituvchilik faoliyati baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, R.Arslonzodaning ilmiy merosi nafaqat milliy tarixshunoslik, balki mintaqaviy gumanitar tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

Kalit so‘zlar: Rahmatjon Arslonzoda, tarixshunoslik, manbashunoslik, Markaziy Osiyo tarixi, tarixiy fan, ilmiy meros, etnik-madaniy jarayonlar, gumanitar tadqiqotlar, akademik va pedagogik ishlar, xalqaro akademik hamkorlik, tarixiy metodologiya, mintaqaviy tarix, ilmiy maktablar, tarixiy tadqiqotlar.

Аннотация: В данной статье проанализированы научно-педагогическая деятельность кандидата исторических наук Рахматжона Арслонзода (1954–2025), а также его вклад в развитие историографии. В исследовании на основе источников освещены научные изыскания ученого, осуществлённые в период

1984–2025 годов, раскрыты их содержание, сущность и основные направления. В частности, установлено, что Р.Арслонзода опубликовал около 200 научных работ на узбекском, таджикском, русском и английском языках, а его исследования охватывали 12 основных научных направлений. В статье отдельно проанализированы труды ученого в области истории Центральной Азии, источниковедения, историографии, этнокультурных процессов и международного научного сотрудничества. Кроме того, дана оценка его научным взглядам, исследовательской методологии и педагогической деятельности в подготовке молодых специалистов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что научное наследие Р.Арслонзода имеет важное значение не только для национальной историографии, но и для развития региональных гуманитарных исследований.

Ключевые слова: Рахматжон Арслонзода, историография, источниковедение, история Центральной Азии, историческая наука, научное наследие, этнокультурные процессы, гуманитарные исследования, научно-педагогическая деятельность, международное научное сотрудничество, методология истории, региональная история, научные школы, исторические исследования.

Abstract: This article analyzes the scholarly and pedagogical activities of Rahmatjon Arslonzoda (1954–2025), Candidate of Historical Sciences, as well as his contribution to the development of historiography. The study, based on historical sources, highlights the scholar's academic research conducted between 1984 and 2025, revealing its content, significance, and principal directions. In particular, it has been determined that R.Arslonzoda published nearly 200 scholarly works in Uzbek, Tajik, Russian, and English, while his research encompassed 12 major academic fields. The article specifically examines the scholar's studies in the areas of Central Asian history, source studies, historiography, ethnocultural processes, and international academic cooperation. Furthermore, the study evaluates his scholarly views, research methodology, and pedagogical activities in the training of young specialists. The findings demonstrate that the scientific legacy of R.Arslonzoda holds considerable significance not only for national historiography but also for the development of regional humanities research.

Keywords: Rahmatjon Arslonzoda, historiography, source studies, Central Asian history, historical science, scientific heritage, ethno-cultural processes, humanities research, scholarly and pedagogical activity, international academic cooperation, historical methodology, regional history, academic schools, historical research.

Tarix fanlari nomzodi, dotsent Raxmatjon Arslanbaevich Arslonzodaning (1954-2025) ilmiy faoliyati 1984-2025 yillarni o'z ichiga oladi. Uning ushbu yillar

davomidagi faoliyatini ilmiy jihatdan juda samarali deyish mumkin. Mazkur davrda ustoz tomonidan 200 ga yaqin ilmiy ishlar e'lon qilingan. Bu ulkan ilmiy meros o'zbek, tojik, rus va ingliz tillarida e'lon qilingan monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanma, maqola va ma'ruza tezislaridan iboratdir. Tarixning turli davrlari va masalalariga bag'ishlangan ushbu ulkan ilmiy merosni bir necha guruhlariga bo'lib tadqiq etish mumkin.

1. Birinchi guruhni sovet davrida e'lon qilingan tadqiqotlar tashkil etadi. R.Arslonzodaning ilmiy ishlar ro'yxatida 9 maqola va tezis ko'rsatilgan. Ularning 1 tasi o'zbek, boshqalari esa rus tilida nashr etilgan bo'lib, ularning umumiy mavzusi sovet davri yoshlarini o'z safida birlashtirgan tashkilot hisoblangan komsomolning faoliyatiga bag'ishlangan. Ushbu maqola va ma'ruza tezislari sovet mafkurasi ruhida yozilgan bo'lsa-da, arxiv hujjatlari va matbuot materiallaridan samarali foydalanilgani, ilmiy metodik jihatdan mustahkamligi bilan ajralib turadi. Bu esa o'z faoliyatining dastlabki yillaridayoq R.Arslonzoda o'z ilmiy uslubini shakllantirishga e'tibor qaratganligini ko'rish mumkin. Aytish mumkinki, ustozga xos bo'lgan ilmiy tadqiqot olib borish va yozishning o'ziga xos uslubi u kishida aynan shu davrda shakllana boshlagan edi. Kelajakda R.Arslonzodaning sovet davrida yozilgan ilmiy ishlarini u kishining komsomol yoshlar faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotiga rahbarlik qilgan ustози V.I.Shapovalenko uslubi bilan qiyosan o'rganish bu borada yana aniq ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi, deb o'ylaymiz.

2. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi masalalari R.Arslonzodani qiziqтира boshladi. Olimning ilmiy faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, 1989-1995-yillar davomida ustozning ilmiy faoliyatida tanaffus kuzatilgandek bo'ladi. Albatta, bu siyosiy jarayonlar bilan bog'liq. Kommunistik partiya va uning yoshlar o'rtasidagi tayanchi bo'lgan komsomolning zavolga yuz tutishi, "qayta qurish" davrida yuz bergan o'zgarishlar, mustaqillikning qo'lga kiritilishi, milliy davlatchilikning tiklanishi R.Arslonzodaning tafakkurini, uning hayotga, tarixga bo'lgan qarashlarini ham bir muncha o'zgartirgan edi. Shu bilan birgalikda mustaqillikni mustahkamlash, milliy g'ururni yuksaltirish, xalqimizning o'z tarixini haqqoniy o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish zaruriyati ham olimning yangi ilmiy yo'nalishlarda ijod qilishiga undadi. R.Arslonzoda dastlab 1996-yilda Amir Temurning 660 yillik tavalludiga bag'ishlangan "Образ Амра Темурa на странитсах «Туркестанского сборника» maqolasini bir necha mualliflar bilan birgalikdagi e'lon qildi. Bu Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo'yicha olib borilgan ilk tadqiqotlardan biri edi. Mualliflar birinchilardan bo'lib "Turkiston to'plami" sahifalarida ham Sohibqiron tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar borligini qayd etgan edilar. Umuman olganda, R.Arslonzoda Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi masalalariga oid 4 maqola e'lon qilgan. Ular temurshunoslikning rivojlanib borish an'analari

tahlil etilgan. E'tiborli jihati shundaki, R.Arslonzoda 1996-yilda, ya'ni o'zining shu masalaga oid ilk maqolasini e'lon qilgan vaqtda ushbu satrlar muallifi, o'sha vaqtda esa FarDUning tarix yo'nalishi talabasi B. Usmonovga "Rossiya tarixshunosligida Amir Temur siymosi" mavzusida diplom ishi yozish vazifasini qo'ygan edilar. Keyinchalik esa (2004-yil) bu mavzu nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilindi, monografiya (2011-yil) sifatida "Fan" nashriyotida chop etildi. Aytish mumkinki, R.Arslonzoda 1996 yilgi ushbu maqolasi bilan Farg'ona temurshunoslik maktabiga ilk g'ishtni qo'yib bergan edilar.

3. R.Arslonzodani qiziqtirgan masalalardan biri Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va milliy ozodlik uchun kurashlar masalasi edi. Garchi 1996-1997-yillarda temurshunoslik masalalariga oid ikki maqola e'lon qilgan bo'lsa-da, ustoz o'zining asosiy ilmiy yo'nalishlarini sifatida xonliklar va undan keyingi davr tarixiga e'tibor qaratdilar. Bu arxiv materiallari bilan ishlash u kishini ko'proq qiziqtirganligi hamda milliy-ozodlik harakatlari tarixini davrlashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolganligi uchun bo'lsa kerak. A.Arslonzoda birinchi bo'lib Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi davrlashtirish masalasiga e'tibor qaratdi. 1997-yilda shu masalaga oid "Markaziy Osiyoda milliy-ozodlik harakatining asosiy davrlari: masalaning qo'yilishiga doir" va "Markaziy Osiyoda milliy-ozodlik harakati tarixini davrlashtirish masalasiga doir" nomli maqolalar e'lon qildi. Bu masalaning olib chiqilishi va taklif etilgan davrlashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar chin ma'noda ham ilmiy yangilik, ham jasorat edi. Domla ushbu maqolalarda e'lon qilgan mulohazalarini yana bir qayta ishlab shu yili Toshkentga ham yubordilar (afsuski qayerga aniqlashning iloji bo'lmadi). Ammo R.Arslonzodaning maqolasi e'lon qilinmadi, undagi asosiy xulosalar boshqa odamning nomidan chop etildi (U olimni yaxshi tanib olganman, ancha yillar avval vafot etgan, eng qizig'i ustoz bilan tanish edilar). Domla bundan juda xafa bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay bu masalani oxiriga yetib, boshqa bir konferensiyada (1998-yil, "O'zbekistonning yangi tarixi: konseptual-metodologik muammolar" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanida) "Turkistonda milliy-ozodlik harakati tarixining ayrim metodologik muammolari" mavzusidagi ma'ruza bilan qatnashib, u kishini yaxshilab "tuzladilar" (Boshqaning fikrini, ilmiy mahsulotini muallifchalik tushunmagan "soxta muallif" ba'zi xatolarga ham yo'l qo'ygan edi. Aynan shu muammolar bo'yicha Toshkent shahrida domlaning yonida bo'lganim uchun u kunlar yaxshi yodimda qolgan). Umuman olganda, mazkur yo'nalishda R.Arslonzoda tomonidan 10 ta ilmiy maqolalar e'lon qilingan.

4. Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Turkiston o'lkasida, jumladan, Farg'ona vodiysida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar R.Arslonzodani qiziqtirgan masalalardan biri edi. Domla mazkur masalalarni o'rganishda "Turkiston to'plami"ning manbaviy salohiyatiga yuqori baho berardi.

Shuning uchun ham uning ko‘plab maqolalari mazkur to‘plam bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarga bag‘ishlangandi. Domlanning ilmiy merosidagi 10 dan ortiq maqolalarda Rossiya imperiyasi mustamlakasi davridagi Farg‘ona vodiysining tarixi tadqiq etilgan edi. R.Arslonzoda ushbu masalalar bilan shug‘ullanar ekan o‘zining yaqinlaridan, qadrdonlaridan biri bo‘lgan M.Jabborovga “Turkiston to‘plami” materiallari asosida Farg‘ona vodiysining Rossiya imperiyasi davridagi tarixini tadqiq etishni taklif qilgan. Ko‘p o‘tmay M.Jabborov aynan ush mavzuda dissertatsiya himoya qilgandi. 2019-yili esa R.Arslonzoda va M.Jabborovlarning hamkorligida monografiya ham e‘lon qilindi.

5. “Turkiston muxtoriyati” milliy davlatchiligimiz tarixidagi eng noyob hodisalardan biridir. Uning tarixi ham R.Arslonzodani befarq qoldirmagan. Domla ushbu masala bo‘yicha Farg‘ona shahridagi arxivlari materiallaridan keng foydalangan holda 1998-yilda Toshkentdagi nufuzli “Jamiyat va boshqaruv” jurnalida “Butun xalq tan olgan edi: Turkiston Muxtoriyati tarixiga doir arxiv hujjatlari” nomli maqola e‘lon qildi. Butkul yangi arxiv materiallari e‘lon qilingan bu maqola yaxshigina aks sado berdi. Domlani ham markaziy, ham viloyat televideniyalari aynan shu maqolasi bo‘yicha suhbatlarga chaqirdilar. 1999-yilda esa yana bir nufuzli jurnal “Guliston”da “Ma‘lum va noma‘lum muxtoriyat” maqolasi domlani respublikamiz tarixchilari orasida anchagina mashhur qildi. Turkiston muxtoriyati tarixini o‘rganish orqali R.Arslonzoda milliy parlamentchilik g‘oyalarining shakllanishi masalasiga ham qiziqib qoldilar. Chunki bu masala Turkiston muxtoriyati bilan chambarchas bog‘liq edi. Domla ushbu masalani tadqiq etishga kafedra yosh o‘qituvchisi R.Akbarovni jalb qildilar. 2004-yilda ularning hammualliflikda “Turkistonda parlamentchilik g‘oyalarining vujudga kelishi” maqolasi e‘lon qilindi. Keyinchalik esa shu mavzu R.Akbarovning dissertatsiya mavzusiga aylandi va himoya qilindi. Bu bilan R. Arslonzoda yana bir shogirdining ilmiy yo‘nalishini belgilab, birgalikda boshlab bergandi. Domla ushbu yo‘nalish bo‘yicha 8 ta ilmiy tadqiqot e‘lon qilgan bo‘lib, undan 1 tasi monografiya, qolganlari esa nufuzli ilmiy jurnal va to‘plamlarda e‘lon qilingan maqolalar edi.

6. “Turkiston muxtoriyati” tarixi yana bir yirik tarixiy hodisa 1918-yildan boshlangan “Istiqlolchilik harakati” bilan ham bog‘lanib ketardi. R.Arslonzoda sovet davrida “Bosmachilik harakati” nomi bilan tarixi buzib ko‘rsatilgan bu jarayonni tadqiq etishning metodologik masalalariga ham e‘tibor qaratgan edi. Domla birinchilardan bo‘lib 1999-yilda “Istiqlolchilik harakati” atamasi xususida” maqolasi bilan bu boradagi o‘z fikrlarini bildirdilar. R.Arslonzoda ozodlik uchun olib borilgan qurolli harakat tarixiga oid atigi 3 ta maqola e‘lon qilgan. Ammo talabalik davridan saralab, ilmiy tadqiqotga jalb qilgan shogirdlaridan yana biri N.Xamayevga qurolli harakat tarixining davriy matbuotda yoritilishi masalasini tadqiq etishni topshirishi uchun shu uch maqola ham yetarli bo‘lgan edi. Chunki

domla har bir masala bo'yicha avval o'zi bir necha maqola yozib ko'rar, undan yirik ilmiy tadqiqot chiqishiga ishonchi komil bo'lgachgina, davom ettirishni biror bir shogirdiga topshirardi.

7. Farg'ona vodiysining Rossiya imperiyasi davridagi tarixi bilan shug'ullanish R.Arslonzodada ayrim masalalarning kelib chiqish ildizlarini axtarish jarayonida Qo'qon xonligi tarixiga ham murojaat qilish ehtiyojini tug'dirdi. Bu esa ko'p o'tmay Qo'qon xonligi tarixiga oid tarixiy manbalarni, rus matbuoti materiallarini, arxiv hujjatlarini o'rganishga olib keldi va R.Arslonzodaning xonlik tarixiga oid maqolalari e'lon qilina boshladi. Domlaning bizga ma'lum bo'lgan ilmiy merosidan 20 ta maqola Qo'qon xonligi tarixining turli masalalariga bag'ishlangan. E'tiborli jihat shundaki, R.Arslonzoda birinchilardan bo'lib Qo'qon xoni Xudoyorxonning siyosiy portretiga har tomonloma xolis chizgilarni berishga intilgan edi.

8. R.Arslonzoda ilmiy merosining katta qismini Farg'ona vodiysi tarixiga turli davrlariga oid ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Bundan ko'rinadiki, domla yirik farg'onashunos olim edi. R.Arslonzodani Farg'ona vodiysining V–XII asrlardagi tarixi ham qiziqtirgan. Bu davrga oid tarixiy manbalarning kamligi, borlarini ham rus yoki o'zbek tillariga tarjima etilmaganligi, mavjud bo'lgan manbalarja ham vodiylar tarixiga oid ma'lumotlarning kamligi ushbu davr tarixini o'rganishdagi asosiy muammolar edi. Domla o'z shogirdlaridan biri arab va fors tillarini yaxshi o'zlashtirgan S.Yuldashevni talabalik yillaridayoq shu ilmiy muammoga jalb qildi. Avval birgalikda maqolalar chiqarish orqali o'zi ham ilmiy muammoning ichiga kirib bordi va shogirdida ham ilmiy tadqiqot olib borish medodikasini, ko'nikmasini shakllantirdi. Ular birgalikda Farg'ona vodiysining mazkur davr tarixiga bag'ishlangan 4 ta maqola e'lon qildilar. Keyinchalik esa mazkur ilmiy muammo ham dissertatsiya sifatida himoya qilindi, monografiya sifatida nashr qilindi. Shu tariqa R.Arslonzoda Farg'ona davlat universitetidagi yana bir ilmiy yo'nalish va ilmiy maktabga asos solib berdilar.

9. O'zbekistonda eng kam o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri ta'lim tarixidir. R.Arslonzoda tarix fanining ko'plab ilmiy yo'nalishlarida baravar (bir vaqtda) tadqiqotlar olib borish salohiyatiga ega bo'lgan kam sonli olimlardan edi. Domla ta'lim tarixi masalasi bilan ham qiziqdi. Dastlab maktablar va madrasalar tarixini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, keyinchalik oliy o'quv yurtlari hamda tarix fanining o'qitilishi tarixi masalalariga ham yetib bordi. Muallifning bu boradagi bir necha tadqiqotlari 2002-2003-yillarda e'lon qilindi. Bu davrda, asosan, ilk ta'lim maskanlari, Farg'ona vodiysidagi madrasalar tarixi, oliy o'quv yurtlari tarixi tadqiq etilgan edi. Keyinchalik R. Arslonzodani tarix fanining o'qitilishi tarixi qiziqтира boshladi va shu masalaga bag'ishlangan 2 ta maqola e'lon qildi. Keyinchalik esa bu ishga shogirdi R.Qodirovani jalb qildi va bu ish domlaning

vafotidan keyin dissertatsiya sifatida himoya qilindi. Umuman olganda, R.Arslonzoda mazkur ilmiy yo‘nalish bo‘yicha ham 10 dan ortiq maqola e‘lon qilgan edi.

10. R.Arslonzoda uzoq yillar davomida “Manbashunoslik” fanidan dars berib kelgan. Shu sababli manbashunoslik yo‘nalishida ham ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Domlani ko‘proq tarixiy manbalardagi ma‘lumotlarni tahlil qilish, dastlab ko‘zga tashlanmaydigan yashirin ishoralarni anglashga bo‘lgan qiziqish ustun edi. Bu uning nafaqat darslarda bergan ma‘lumotlarida, manbashunoslik doirasida e‘lon qilgan maqolalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanardi. Domlanning mazkur yo‘nalishdagi ilk ma‘ruza tezisi 1996-yildayoq e‘lon qilingan edi. R.Arslonzodani ko‘proq memuar manbalardan foydalanish medodikasi, bu borada tadqiqotchidan talab qilinadigan xislatlar kabi jihatlar ko‘proq qiziqtirardi. Shuningdek, arxiv materiallari bilan ishlash, ulardan samarali foydalanish va arxivshunoslik boshqa masalalari ham R.Arslonzoda ilmiy tadqiq etgan ilmiy muaamolar qatoridan o‘rin olgandi. Domlanning manbashunoslik doirasidagi ilmiy ma‘qola va ma‘ruza tezislarning soni ham 10 dan ortiqdir.

11. R.Arslonzoda ilmiy merosining salmoqli qismini ilmiy-uslubiy ishlar ham tashkil etadi. Tarix fanlarini o‘qitish, tarix fanlari bo‘yicha ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish, talabanning kurs ishi, mustaqil ishini bajarishga ko‘maklashish masalalariga bag‘ishlangan uslubiy hamda o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar domla ilmiy merosining bir qismidir. Aynan shu o‘quv metodik adabiyotlarni tayyorlash orqali orttirilgan tajriba keyinchalik, o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ham asqotdi. “Manbashunoslik”, “Arxivshunoslik”, “Mutaxassislikka kirish” fanlaridan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma va darsliklar R.Arslonzodaning uzoq yillik ilmiy-pedagogik faoliyatining eng muhim mevalari bo‘ldi. Ayniqsa, “Manbashunoslik” darsligidan nafaqat o‘quv jarayonida, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va dissertatsiyalarda keng foydalanilmoqda. Umuman olganda, R.Arslonzodaning ilmiy-uslubiy ishlari 20 dan ortiq bo‘lib, ulardan 8 tasi darslik va o‘quv qo‘llanmalardir.

12. R.Arslonzoda hozirjavob olim edi. Uning ilmiy salohiyatini yaxshi bilgan ko‘plab rahbarlar jamiyatdagi ko‘plab muammolarning ilmiy yechimlarini izlash, ularga nisbatan munosabat bildirishda domla bilan maslahat qilishgan, uning fikrini bilishgan holatlar ham ko‘p bo‘lgan. Domla bu masalalarga ham har tomonlama ilmiy yondashar, ularning kelib chiqish sabablari, tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganar hamda har bir fikrini ilmiy asosda bildirishga e‘tibor qaratardi. 1924 yili o‘tkazilgan milliy chegarlash, anklav hududlarning shakllanish ildizlari, milliy nizolarni keltirib chiqarishni maqsad qilgan ayrim noxolis tadqiqotlarga munosabat bildirish masalalari shular jumlasidan edi. R. Arslonzoda bu kabi masalalarga munosabat bildirishda xolislik, manbaviy asoslanganlikka katta e‘tibor qaratardi, har

bir soʻzni oʻz oʻrnida mohirlik bilan qoʻllar edi. Shuning uchun ham koʻpchilik shu kabi masalalarda fikr bildirishdan avval domlanning oʻz munosabatini eʼlon qilishini kutib turardi. “Истина рождается в споре: По поводу заметок академика Р.Масова”, “Тюркизация арийцев: чушь или недомыслие?”, “Не мытьем, так катаньем: об очередном узбекско-кыргызском инциденте вокруг анклава Шахимардан”, “Шахимардан как яблоко раздора между Узбекистаном и Киргизией”, “Не страсти – главное, а здравый смысл”, “Северный Сох: Кому он принадлежит?” maqolalari shu jarayonlarda tugʻilgan edi.

Shuningdek, R.Arslonzoda ilmiy merosida yuqoridagi guruhlar tarkibiga kiritilmagan bir qator ilmiy muammo va masalalarga bagʻishlangan maqolalar ham mavjud. Koʻproq Fargʻona vodiysi tarixi bilan shugʻullangan olim sifatida R.Arslonzodani hududning etnodemografik tarixi, etnik xususiyatlari, urf-odatlar, milliy anʼanalari kabi masalalar ham qiziqtirgan. Serqirra olim bu masalalar boʻyicha ham bir necha ilmiy tadqiqotlar eʼlon qilgan. Domlanning bu yoʻnalishdagi ilk tadqiqoti “Fargʻona vodiysi aholisi etnodinamikasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)” nomi bilan 2003-yilda eʼlon qilingan edi. Hozircha muallifning shu yoʻnalishdagi 3 ta tadqiqoti aniqlandi.

Biz R.Arslonzodaning Fargʻona tarixchi olimlari boʻyicha (hammualliflikdagi) tayyorlagan tazkirasini, arxivshunoslikka bagʻishlangan bir qator maqolalarini ham manbashunoslik yoʻnalishi guruhiga kiritdik. Balki, kelajakda bu masala boʻyicha tadqiqot olib borilsa, tadqiqotchilar oʻzgacha xulosalarga kelishlari, bu yoʻnalishlarni ham alohida guruhlashlari mumkin.

R.Arslonzoda koʻplab tadqiqotlar, monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalarga taqriz yozgan. Bu taqrizlarni ham kelajakda alohida guruhlash yoki tegishli guruhlarga qoʻshish mumkin, albatta. Bu ish R.Arslonzoda ilmiy merosini tadqiq etish yoʻlidagi ilk urinish boʻlib, unda bildirilayotgan fikr va mulohazalar, xulosalar kelajakda yanada rivojlantirilishi, toʻldirilishi va mukammallashtirilishi tabiiydir.

Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish lozimki, serqirra olim R.Arslonzodaning 200 ga yaqin ilmiy ishlardan iborat boʻlgan ulkan merosi alohida ilmiy tadqiqot obʼekti boʻla oladi. Dastlabki ilmiy izlanishimiz uni ilmiy yoʻnalish mavzulari va tadqiqot davrlaridan kelib chiqib 12 ta guruhga boʻlib oʻrganish mumkinligini koʻrsatdi. Ammo ilmiy ishlar roʻyxatini yana qaytadan tuzish, uni yanada toʻldirish, oxirgi eʼlon qilingan ishlarning aniq roʻyxatini shakllantirish borasida qoʻshimcha ishlar olib borish zarurligi koʻrinib qoldi. Chunki hozirgi kunda ham R.Arslonzoda ilmiy ishlarining yakuniy roʻyxati yaratilmagan. Oʻylaymizki, yaqin kunlarda mazkur ishlarning yakuniga yetkazilishi olimning ilmiy merosini yanada teranroq anglashimiz uchun yordam beradi.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

Birinchi shoʻba

Hasanova S.

Qadimgi yunon manbalarida Markaziy Osiyo: geografik tasavvurlar, etnik talqinlar va manbashunoslik muammolari.....	6
---	---

Qoʻldashev Sh.

Oʻzbekistonda xitoy iyerogliflari va ularning oʻzaro aloqalarda aks etishi.....	14
---	----

Kimsanova R.

Oʻrta asr arab manbalarida ziyoli ayollar fenomeni (Zubayda bintu Jafar misolida).....	20
---	----

Kuldashev S.

Regional administration in “Dīwān lughāt al-turk”	25
---	----

Azimova I.

Xamza Xorijiy harakati tarixiga oid manbalar va tadqiqotlar tahlili.....	31
---	----

Gʻaniyev J.

Amir Temur davrida tarbiya masalasi.....	41
--	----

Abduvoidova R.

Ubaydullaxon oilasi va Shayboniylar sulolasining nikoh diplomatiyasi: tarixiy-siyosiy tahlil.....	49
--	----

Odilov M.

“Ubaydullanoma” asarida Surxon vohasi tarixining yoritilishi.....	52
---	----

Oʻktamov T.

Abulgʻazi Bahodirxonning ilmiy faoliyati.....	57
---	----

Boʻriyev I.

Shoira Nodirabegimning Sharqshunoslik institutida saqlanuvchi fors-tojik tilidagi devoni qoʻlyozmasi toʻgʻrisida.....	61
--	----

Ҳакимова С., Махрабжонов М.

Сведения о Кокандском ханстве в «Туркестанском Сборнике»	65
---	----

Roziqov Sh.

Markaziy Osiyo tarixini oʻrganishda yozma manbalar va memuar asarlarning manbashunoslik ahamiyati.....	72
---	----

Iriskulov O.

XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Samarqand viloyatidagi agrar munosabatlarning statistik manbalarda yoritilishi.....	77
---	----

Habibullayev O. Jizzax uyezding ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarning statistik manbalarda yoritilishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).....	82
---	----

Irisqulov B. Turkiston g'aznachilik palatasi faoliyatining manbalarda yoritilishi.....	86
--	----

Ikkinchi sho'ba

Shamsidinov Z. 13 – 14-yuzyilliklar Turon tarixining o'rganilishiga doir.....	94
---	----

Ergasheva D. Teodor Noldekening eftaliylar tarixiga oid tadqiqotlari tahlili.....	101
---	-----

Abdurahimov J. Markaziy Osiyo fan tarixini o'rganishda Jorj Sartonning o'rni.....	106
---	-----

Anvarov A. Evolution and perspectives of Central Asian historiography: methodological challenges and modern approaches.....	115
--	-----

Oripov B. Anklav hududlar tarixshunosligi.....	119
--	-----

Yuldashaliyeva O. Inglizabon tadqiqotchilarning Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiga oid qarashlari tahlili.....	124
---	-----

Shamsiddin K. Jahon tarixshunosligida Somoniylar sulolasi tarixining o'rganilishi.....	128
--	-----

Karimjonov A. “Zayn ul-Axbor” asarining sharqshunos olimlar tomonidan o'rganilishi.....	137
---	-----

Samandarov Q. Markaziy Osiyo tarixshunosligida Chig'atoy ulusi davri madaniy hayotining o'rganilishi (XXI yuz yillik chog'ida).....	143
--	-----

Qodirova R. Mirzo Ulug'bek ilmiy faoliyatining jahon tarixshunosligida o'rganilishi: tarixiy tahlil va zamonaviy yondashuvlar.....	148
---	-----

Husanboyev Q. Turkiston muxtoriyati tarixining o'rganilishi.....	153
--	-----

Usmonova H. “Hujum” kompaniyasi va uning Markaziy Osiyo ayollari hayotiga ta'siri (tarixshunoslik muammolari).....	159
---	-----

Djalolov B. “Temiryo'llar urushi” va unda o'zbeklar ishtiroki.....	164
--	-----

Tojiboyev F.	
Sovet hokimiyatining 1945–1985-yillarda O‘zbekistonda amalga oshirgan agrar siyosati tarixshunosligi.....	170
Axmadjonova D.	
O‘zbekistonda oliy ta’lim rivojining tarixiy ildizlari: jadidlar ma’rifatchiligi va 1945–1991-yillardagi ta’lim tizimi o‘rtasidagi g‘oyaviy bog‘liqlik.....	175
Shodiyeva A.	
Mustaqillik arafasida o‘zbek ijodkor ziyolilarining faoliyati.....	179
Shamsiyeva M.	
Feminizm tarixshunosligining nazariy asoslari.....	182
Olimov J., Mamajonova G.	
XX asrning 80 – 90-yillarida Farg‘ona viloyati ta’lim tizimida kadrlar tayorlash jarayoni.....	187
Usmonov B.	
Serqirra olim Rahmatjon Arslonzoda ilmiy merosi haqida.....	192

- M31 “Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. / Ilmiy nashr. – Toshkent: “Ilm ziyosi” nashriyoti, 2026. – 202 b.

Mas’ul muharrir: O.Mahmudov
Nashrga tayyorlovchi: S.Xakimova

Texnik muharrir: Sobir Rafiqov
Sahifalovchi: Anvar Jabborov

Tasdiqnoma № 593648. 26.03.2021.
Bosishga 2026-yil 23-iyunda ruxsat etildi:
Bichimi 60x84 1/8. Ofset qog‘oz
—Times new Roman|| garniturasida ofset usulida bosildi
Shartli bosma tabog‘i – 11,67 Nashr tabog‘i – 12,5.
Adadi 100 nusxa. Shartnoma № 23.06.2026
Buyurtma№ 931
Original maket — “Ilm ziyosi” nashriyotida tayyorlandi.
100123, Toshkent shahri,
Sh.Rashidov ko‘chasi 5-uy.



Ilm ziyosi

ISBN 978-9910-630-83-5



9 789910 630835 >

